

IV

ҚОДИР бахши РАҲИМОВ



II

САЙЛАНМА

RESPUBLIKA BAXSHICHILIK SAN'ATI MARKAZI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qodir baxshi Rahimov

SAYLANMA

(Xalq dostonlari)
2 kitob



TERMIZ-2023

Xalqimizning sevimli baxshisi Qodir Rahimov ijodiga doir “Saylanma”ning ikkinchisida turli yillarda nashr etilgan uch doston o‘rin olgan. Ularning har birida milliy qadriyatlarimiz, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, axloqiy poklik, yurtsevarlik, elparvarlik g‘oyalari yuksak pafosda, badiiy mukammallik bilan kuylanadi.

Qayta nashrda oldingi nashrlardagi matnlarga hech qanday o‘zgartirish kiritilmadi.

Dostonlar qayta nashr uchun mas‘ul muharrir: **Abdiolim Ergashev,**
filologiya fanlari doktori

Taqrizchilar: **Umid Norboyev,**
Baxtiyor Axmedov

Ushbu kitob xalqimizning mashhur baxshisi Qodir Rahimovning 85 yillik yubileyiga bag‘ishlab Respublikasi baxshichilik san‘ati markazi tomonidan chop etish uchun nashrga tayyorlandi.

ISBN 978-9943-7735-5-4

© Qodir baxshi Rahimov, 2023 y.
© “KITOB NASHR” nashriyoti, 2023 y.

OYCHINOR

Doston

Aytuvchi:

Qodir baxshi Rahimov

Yozib oluvchi va nashrga
tayyorlovchi:

Abdimo‘min Qahhorov

Qadim o'tgan zamonda Boysun tog'dan tubanda, Hisor tog'ning ostida, Ko'kbulodning ustida, Qattapay degan havor bor edi. Bu joy Nazarboy degan boyning yaylovi edi. Nazarboy beadat katta boy edi. Uning olti ming qo'yi, ming tuyasi, ming biyasi, ming g'unoni, ming do'noni, ming eshagi, ming toyxari, ming tovug'i va ming xo'rozi bor edi. O'zi mingani otga, ko'chgani eshakka zor edi. Ustida ming joyidan yamalgan choponi bor edi. Oltmishdan oshgan edi, tishlari tushgan edi. Iyagida to'rt tuk soqoli bo'lib, u ham nosga botgan edi. To'rtta xotini bo'lib, sakkiz farzandi bor edi. Cho'ponning haqidan qo'rqib, o'g'illarining barini cho'pon qilib, tuya, biya boqtirib qo'yar edi. To'rt xotinning bir ko'ylagi bo'lib, eshikka chiqqisi kelgan xotin uni kiyar edi. Eng qisqasi, Nazarboy shunday «qo'li ochiq», «saxiy» boy ediki, birovdan qarz olsa, ho'kiz yoki toshbaqa tolga chi- quvga berar edi... Ana shu boyning Xolyor degan cho'poni bo'lib, uning Ernazar degan chokari bor edi. Boy bir yil mol boqtirib, ikkalasiga bir yarim qo'y enchiga berar, agar qo'ylaridan bironyasi o'lsa, uni ham bersay qo'yar edi. O'lmas ovqat berib qo'y boqtirib yurar edi. Xolyorning peshonasida bir qizi bor edi. Otini Oychi- nor der edi. O'n yettiga to'lgan edi. Xudo hamma husni unga bergan edi. Qaddi-somati husniga mos tushgan edi, chakkasidagi kokili egnidan oshgan edi. Eshikka chiqsa, uning husniga mast bo'lib, so'fitor'g'ay, kaklik, bo'dana-jami qushlar beadat sayrashar edi. «Qizimga ko'z tegmasin», deb sochbog'iga to'dana taqib qo'yar edi. Xolyor chaylasini Alami degan joyga tikib, shu o'rtada qo'y boqib yurar edi. Bu joyda Oychinorning tengdoshlari yo'q edi. Bir o'zi zerikib ketar, shuning uchun archaga halinchak osib, ashula aytib yurar edi:

To'da-to'da qizlarga-ya, oxuva,
Bir to'dana tol kerak-a, oxuva,
Zahari bor zambirga-ya, oxuva,
Shirin-shakar bol kerak-a, oxuva.

Bol-bolgina, bolgina-ya, oxuva,
Soy bo'yida tolgina-ya, oxuva,
Qizni suluv ko'rsatar-a, oxuva,
O'ng betida xolgina-ya, oxuva.

Toldan ximich sindirmang-a, oxuva,
Yaramaydi, sabovga-ya, oxuva,
Agar boydan yor qilsang-a, oxuva,
Qo'shilasan moxovga-ya, oxuva.

Osmondagi turnalar-a, oxuva,
Ikki o'tar bir yilda-ya, oxuva,
Ikki oshiq biriksa-ya, oxuva,
Bir yil bo'lmas bir kuncha-ya, oxuva.

Qushdan qo'rqan bo'dana-ya, oxuva,
Chiqolmaydi dalaga-ya, oxuva,

Yuzi ochilgan qizlar-a, oxuva,
Ming yil qolar baloga-ya, oxuva...

Halinchagimning bog'i-ya oxuva,
Bir-biriga intizor-a, oxuva.
Mollar bo'ldi izzatta-ya, oxuva
Mehnat qilgan xoru zor-a, oxuva,

– deb oxuva aytib, o'z ko'nglini o'zi xushlab yurar, mollarni boqishga yordam berar edi. Xolyor bobo ham qarib qolgan edi. Chokari Ernazar yigirma yoshlarda bo'lgan, qaddi-qomati ham yo'lbarsday o'sgan edi. Xolyorning o'g'liday bo'lib qolgan edi. Xolyor: «Nasib qilsa, qizimni Ernazarga beraman, ichkuyov qilib olaman-da»,– deb yurar edi. Oyto'ti momo ham buni bilar edi. Ernazarning ham umidi bor edi-yu, lekin bu gapni hech kimga aytolmay yurar edi. Oychinorning ham yuzini aniqroq ko'rolmagan edi. Oychinor ham buni hech o'ylamagan edi. Bir kuni Oychinor hamma ishlarni qilib, halinchagini olib, halinchak uchgani buloqning boshiga bordi. Yuzini suvga yuvib, halinchakni archaga osib, chanqovuzni qo'lga olib, uni chalib, halinchak ucha boshladi. Shu vaqt shitirlagan tovushni eshitib, qarasa, bir ayiq tikka kelayotir. Oychinor archaga chiqib ketdi. Ayiq ham archaga kelib tirmasha boshladi. Oychinor: «Endi o'ldim. Attang, ota-onamdan ayrildim»,– deb bexosdan ko'zinn yumib, chinqirib yubordi. Oychinorning qulog'iga pastdan qiy-chuv, qars-qursillagan tovush keldi, ko'zini ochib qarasa, ayiq yerda sulab yotibdi. Ernazar pichog'ini surtib turibdi. Buni ko'rib, Oychinor bexosdan Ernazarga tikilib qoldi. Ernazar ham uni ko'rib, pichog'ini qiniga sololmay, tikilib qoldi. Ernazar bugun qo'yini buloqning boshiga haydab kelayotgan edi. Chanqovuzning tovushini eshitib: «Bir tomosha qilayin», – deb pusib kelayotgan edi. Shu vaqt chinqirgan tovushni eshitib qoldi. Yugurib kelib qarasa, bir qiz arqonning ustida, pastdan bir ayiq archaga chiqib borayotir. Yugurib kelib ayiqning boshiga urdi. Ayiq gurs etib yiqildi. Yana uch-to'rt marta pichoqni urib olib, surtib turgan edi. Oychinorning husnini ko'rib o'zini batamom yo'qotib qo'ygan edi. Bir-ikki daqiqadan so'ng so'zlayolmas tillariga so'z kelib, boshiga aql, bilagiga kuch kelib, o'zini to'xtatolmay, bir so'z aytib turibdi:

Qo'y haydadim dara bilan daraga,
Bo'ri kelsa, zulm qilar podaga,
Parimisan, paykarmisan, nimasan,
Kokilingdan mingta jonim sadag'a.

Bulbullar sayrashar bog'ning gulida,
Ming to'ti sayrashar o'ngu so'lida,
Odamzodni aldaydigan jinmisan,
O'ldirar xanjaring bormi qo'lingda?!

Ko'rganda aqlim bo'ldi hayrona,
Yurak mulki bu kun bo'ldi vayrona,

Mendan boshqa ko'rgan bo'lsa yuzingni,
Qolgani bormikan bo'lmay devona?!

Yoki mening baxtim kulib boqdimi,
Suv oqmas soylardan suvlar oqdimi,
Bir ko'rib hayrona bo'ldim, naylayin,
Ko'kdan quyosh, yerdan zumrad chiqdimi?!

«Qiz bo'lib avraydi», deydi ajdahor,
Olpshsapg bo'larmi senga barobar,
Rostidan ayt, qaysi jinsdan bo'lasan,
Ne bo'lsang-da, meni qilma intizor.

Qo'y boqib kezganman tog'-u toshlarni,
Ko'z solib qararman adir-dashtlarni,
Makoningni aytgin gul yuzli dilbar,
Yo'lingda yanchayin aziz boshlarni.

Bu gaplarni Oychinor eshitib, hayron bo'ldi. «Meni Ernazar akam tanimasmikin yoki meni mazax qilayotirmi? Ke, men uni mazax qilib bir so'z aytoy?» – deb Ernazarga qarab, bir so'z deb turibdi:

Jilg'asoydir Boboxonning orasi,
Olisdan ko'rinar Qo'ytan darasi,
Men aslimni cho'pon senga aytayin,
Qo'hi Qofda Oysha pari bolasi.

Oydin deydi asli mening ismimni,
Jinlarga qo'shmagin menning naslimni,
Aslim pari, Ko'hi Qofdan bo'laman,
Qish qilarman bahor bo'lsa faslingni.

Qishin-yozin Ko'ytan tog'ning boshi qor,
Bir yonida loyqalangan Amu bor,
Jamolimni mingta podsho ko'rgandir,
Mingtasi ham ming shaharda darbadar.

Bir kunda quyoshman, bir kunda pari,
Kel, desam, keladn ko'kdan oy beri,
Xohlasam tillaman, xohlasam zumrad,
Chiq desam, irg'alar gullarning bari.

Ajdahor bo'lolmas menga barobar,
Tilimda ming xilda o'qir tilsim bor,

Qahrlansam bo'lolmaysap barobar,
Agar kulsam hech bo'lmaysan xor-u zor.

Bu dunyodan endi kuyib o'tarsan,
Qo'hi Qofga borgan bilan netarsan,
Ko'hi Qofning oltmish yillik yo'li bor,
Borguningcha sakson yoshli bo'lasan.

Sakson yoshga to'lganingda ey, polvon,
Kampir olganingman, uni netasan?!

Shunda Ernazar nima deyarini bilmay qarab tura ber-di. Oychinor aytdi:–Ayiqli nega o'ldirding?

Ernazar aytdi: – Senga qarab borayotgan ekan. Seni odam bolasi deb o'ylab bul ishni qildim.

Oychinor aytdi: – To'g'ri ish qilding, bu ayiq emas, bir dev edi. Mening izimdan uch kundan beri quvib kelayotgan edi. Shu yerda meni charchatib, endi ushlamoqchi bo'lgan edi. Bu dev sendan angda qoldi.

Ernazar aytdi: – Ey, pari! Sening yo'ling oltmish yillik bo'lsa ham izlab boraman. Yana yuzingni bir ko'rmasam dunyoda yurib endi nima qilaman.

Oychinor o'ylanib: «Bunga bor desam, qo'yni tashlab yo'qolib ketar, – dedi-da, – ey, cho'pon yigit! Sen meni izlab ovora bo'lib yurma, mening o'zim har haftada bir marta – qo'yni sog'ish vaqtida, chorshanba kunida shu yerda bo'laman, Xohlasang, shu yerga kel. Hozir bo'lsa moling ketdi, uni izlab boraver»,– deb Ernazarni aldab-suldab jo'natdi. O'zi archadan tushib uyga jo'nadi. O'zining qilgan ishiga o'zi kulib, Ernazarning qilg'iga hayron bo'lib, enasining qoshiga kirib bordi. Ernazar bilan bo'lgan sirni hech kimga aytmadi. Oradan kunlar o'tdi. Yanagi chorshanba kuni Ernazarni kuzatib yurdi. Ernazar mollarni haydab kelib Oyto'ti momoga aytdi: –Hov, yanga! Bugun mollaringizni sog'dirolmayman, tog'ning qatida ikkita mol qolib ketgan, shuni olib kelaman. Oychinor enasiga engashib: – Qo'ylar hozir keldi, deb ayting, – dedi.

– Aylanay, Ernazarjon! Qo'ylar hozir izingdan keldi, ko'rmay qolibsan-da, – dedi kampir. Ernazar nima deyarini bilmay, qizarib:

– Men pichog'imni tashlab kelgan edim, tez olib kelay, – dedi.

Oychinor enasiga: – Muncha shoshasan, pari ko'rdingmi, deng,– dedi astagina. Oyto'ti momo bu gapni ham Ernazarga aytdi. Ernazar rosa uyalib ketdi. Shu vaqt Xolyor bobo qoldi-da: – Hoy, Ernazar! Senga nima bo'ldi? Yoki bizdan aynidingmi, pichog'ing ham qinida turibdi. Sendan umidim katta. Bizni aldama, qo'ylarni momonga sog'diraver, – dedi. Ernazarning yuzi qizarib, indamay, mollarni sog'diraverdi, ichida bo'lsa, Oyto'ti momoni ayamay so'kaverdi, buning qilg'iga Oychinor bildirmay piq-piq kulaverdi. Har chorshanba shunday bo'laverdi, Ernazarning rangi so'lib boraverdi. Ernazar har chorshanba paridan umid qilib turaversin, gapni Nazarboydan eshitg.

Nazarboy bir kuni hamsoyasining otini tilab minib: «Bir qo'y va podalarimni aylanib ko'rib kelay», deb jo'nadi. Ayni choshtgoh-choshgohda Xolyobning

kapasining ustidan chiqib qoldi. Oychinor ham: «Ernazarning rangini toza sarg'aytib yubordim. Bir ko'nglini ko'tarib kelay», deb ayni eshikdan chiqqan vaqtda Nazarboyga duch keldi. Nazarboy ot ustida kelayotgan edi, Oychinorni ko'rib qoldi. Rangida rang, tomirida qon qolmadi. Ko'zlari tinib, boshi aylanib, darmoni ketib, butun dunyo, moli-joni esidan chiqib, o'tning ustidan ag'darilib yerga tushdi. Bir vaqt xayoli joyiga kelib, nos otib, kayfini chog'lab, Xolyorning bo'sag'asiga kelib, Oychinorga qarab, bir so'z deb turibdi:

Kelganga o'xshaydi davri-davronim,
Alamida joylashgan-da makonim,
Och yuzingni tanda jonim aylansin,
Uchdi-ketdi, hech qolmadi imonim.

Savdogarlar qator-qator norini,
Nor ustiga yuklashadi molni,
Uchdi-ketdi, hech qolmadi imonim,
Jahon ko'rdimikan senday parini.

Kakliklar sayrashar tog'ning ustida,
Bedanalar yo'rg'alashar pastida,
Jahon ko'rdimikan senday parini,
Sen keldingmi ko'kdan jonim qasdida...

Bedovga yarashar oltindan to'g'a,
Yigitga orqadir bor bo'lsa og'a,
Husningni bir ko'rgan ming yil o'lmaydi,
Aziz jonim yurishingga sadag'a.

Oldingga qo'yayin tanda jonimni,
No'lishta sochaymi barcha molimni,
Aziz jonim yurishingga sadaga,
Senga topshirayin harna, borimni.

Yov kelsa botirlar chiqar qal'adan,
Qo'rqoq shurni topolmaysan daladan,
Senga topshirayin harpa, borimni,
Kovushingni qildirayin tilladan.

Otangga ayt, Chinor, Nazar keldi, de,
Hamma molin kelib senga berdi, de,
Olmos bilan dur qadayin sochingga,
Besh kun o'tsa menday boyni o'ldi, de!

Oychinor bu so'zlarni eshitib, hayron bo'lib: «Bu kimga aytyapti, nega bunday sandiroqlab qoldi», deb Nazarning gapini o'zicha nodonlik bilib, mo'ysafidning bunday aytib turgani erish bilinib, kulib yubordi. Oyto'ti momo nima deyarini bilmay qoldi. Nazarboy aytdi: – Hov, Oyto'ti momo! Eringning oldidagi hamma mol o'zlariningni, so'yganingni so'yib, sotganingni sota beringlar. Men borib xotinlarimning birini so'fi qilib, oldilaringga ikkita odamni ertaga yuboraman. Ular qizni omin qilishadi, qalinini kelishadi. Og'zing to'lganicha olasan. Agar sen yoki ering «Qizimni bermayman», desang, ko'rgiligingni ko'rasan. Dunyodan yo'q bo'lib ketasan. Mendan qochganing bilan qutulmaysan. Yerga kirsang qulog'ingdan, osmonga chiqsang oyog'ingdan tortib olaman,— dedi. Shunda Oychinor gapirmoqchi bo'lgan edi, Oyto'ti momo qo'ymadi. Nazarbek otiga minib jo'nab ketdi. Oyto'ti momo qiziga qarab, ko'ziga yosh olib, bir so'z aytib turibdi:

Osmonimni endi bulut bosdimi,
Ko'kdan yashin keng bog'ima tushdimi,
Nega ko'rsatasan qizim yuzingni,
Ollo yoki sening hushing oldimi?!

Gulni ko'rsa eshak borib chaynaydi,
O'tni ko'rmas yerdan chaydosh qaynaydi,
Qaytib beray qizim sepi Nazarga,
Bo'stonimni endi kimlar qiynaydi?!

Yoshligingdan g'amlar tushdi boshingga,
Alam tortsang kimlar kelar qoshingga,
Essiz bolam, na yuzingli ko'rsatding,
Qo'sharman deb edim tenggu to'shingga.

Endi bolam, osmon qayda, oy qaydi,
Kambag'alga kulfat tushar har joyda,
Attang, qo'sholmadim tenggu to'shingga,
Essiz bolam, yig'laganman ne foyda.

Ne savsarlar qaddi yoyday bukildi,
Bukilganda ko'zdan yoshlar to'kildi,
Vo darig'o, bolam, sendan ayrildim,
Yuragimga bugun xanjar suqildi.

– Qayga borsa, boy-boy-da, kambag'alning zori kimga yegadi. Seni o'z tengdoshingga qo'sholmadim,— deb ko'ziga yosh olaverdi. Oychinor aytdi:—Enajon, aslo g'am yemang, Nazarboyning iloji menga yetmaydi. O'zi otamdan katta bo'lsa, aytdi-qo'ydi-da. O'ylar, xudo insofini berar, bu kecha uxlasa, ertaga esidan chiqib ketar.

Bu kun kech bo'ldi. Xolyor bobo ham Ernazar bilan moldan keldi. Oyto'ti momo hamma gapni Xolyorga aytdi. Xoler bobo biron narsa demadi. Barmoshog'ini tishlab, o'ylab qoldi-da, «hay attang-a!» dedi. Bu kun o'tdi. Ertalab mollarni haydash vaqtida ikki otliq salom berib kirib keldi. Kapaga kirib chordona qurib o'tirdi. Ernazar molni haydab ketdi. Oychinor eshikka chiqib, kapaning orqasiga o'tdi. Bu kelgan kishilar sovcilar edi. Birini Oqamon, birini Oltiyor der edi. Bular Nazarboy ovulining oqsoqollari edi. Ular nonni yeb:—Eshigingga mol keldi, boshingga davlat qushi qo'ndi, hech kimga buyurmagan baxt senga keldi,— deb Xolyorga qarab, bir so'z deb turibdi:

Xoliyor, quloq sol aytgan so'zimga,
Eshigingga bir donishmand chol keldi,
O'zgaga ko'nmasang ko'ngin o'zimga,
Bo'sag'angga ado bo'lmas mol keldi.

O'ylab ko'rsam, ukam, baxting chopibdi,
O'tgan kecha xon Nazarbek kelibdi,
Kelganida oy qizingni ko'ribdi,
Qulchilikka bizlar keldik, Xoliyor.

Avlodi past deb esiga olmadi,
Ulug'larning qizlarini olmadi,
O'zgalarni hech ham sencha ko'rmadi,
Sovchilikka, bizlar keldik, Xoliyor.

Quloq solgin endi, bo'tam, so'zimga,
Men aytayin, sen ishongin o'zimga,
Oltin bilan nuqra berdi qo'limga,
Rozi bo'lib, ma, olaver, Xoliyor.

El-u xalqning odatiga qarayin,
Balki undan ziyodaroq berayin,
Qancha deysan, qalin molin so'rayin,
Hech tortinmay ayta bergin, Xoliyor.

Yo'q-da, desang, so'ngra o'zing bilasan,
Bir urug'dan sen ayrilib qolasan,
Qalin olmay so'ngra qizing berasan,
Har tomonni o'ylab aytgin, Xoliyor.

Bu so'zlarni Xolyor eshitib, nima deyarini bilmay qoldi. «Yo'q, qizimni Nazarbekka bermayman»,—desa, ertaga Nazarboy kelib qilgilikni qiladi. «Bor molimni tortib oladi. Uning ustiga qizimni ham zo'rlab oladi»,— deb o'ylab qoldi. Eri xotiniga, xotini eriga qaraydi. Har dardi ichida, ikkalasi ham indamay tura berdi. Shunda Oqamon:—Hov, Xolyor! Bizlarni hayallatma, nima deysan, aytaber?! Shu qizingni Nazarboyga berasan, bermay ilojing yo'q. «Zo'r bilan

ko'rda uyat yo'q», deyishadi. Qanday qilsa ham qizingni oladi. Endi o'ylab-netib o'tirmay, qalin molni ayta ber,— dedi. Xolyor nima deyarini bilmayotir, Oyto'ti momo zor-zor yig'layotir. Oqamon «javobini ber!» deb do'q urayotir. Shunda Oychinor chidab turolmay:—Hov, sovcilar, bizning odatimiz qalin molini qiz aytadi. Aytgan molini topsa, qiz rozi bo'lib to'y bo'ladi. Topolmasa, qiz olg'ichning o'zidan o'zining ko'ngli qoladi. Mening qalinim shul bo'ladi,— deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Bulbul oshno bo'lar bog'ning guliga,
Nomard chiqolmaydi mardning yo'liga,
Mushtiparman qalinimni aytaman,
Bek bobojon, quloq solgin tilima.

Qulog'imga taqqan oltin zirakmas,
Suv ichmayin o'sgan faqat terakmas,
O'nta qo'zi qalinimga kerakdir,
O'ntasidan boshqa menga kerakmas.

Kim tanimas mard yigitning zo'rini,
Bog'la desang, bog'lar dev-u parini,
Qo'tonimga olib kelib bog'lasin,
Yigirmata dashtda yurgan bo'rini.

Nishonaga ursa, tanir merganni
Nomard qurg'ur maqtab yurar ko'rganni,
Polvon bo'lsa olib kelib bog'lasin,
Bo'sag'amga ikki o'n besh arslonni.

Maydonda bilinar yigit polvoni,
Odamzodning kam-kam ketar darmoni,
O'ng yog'imga olib kelib bog'lansin,
Ko'yton tog'ning kami yo'q qirg' qoploni.

Kamluk ko'rmay yigit qaddi bukilmas,
Ko'ngil qo'yib to'qigan to'n so'kilmas,
Ellik ayg'ir chap yog'imga bog'lansin,
Shunda ko'zim gavhar yoshi to'kilmas.

Har narsadan qodir egam saqlasin,
Ko'rolmaganlarning ko'ngli dog'lansin,
Mendan nari ko'ringan ul to'baga,
Oltmish beshta axta op kep bog'lansin.

Yo'l tanobin tortgan bedov piroqdır,
Yigitning yo'ldoshi qo'lda yaroqdır,

Olib kelsin yana sakson sarkani
Bul sarkalar bir chibichga kerakdir.

Gavhar gavhar bilan tursa ochilar,
Eshitib ong bu so'zimni sovchilar,
To'qson taxta olib yursin tuyaga,
Bu so'zlarni sizga aytdi Oychinor.

Bu gaplarni hammasi birday eshitdi. Shunda Oqamon aytdi:—Huv, qizim! O'zi esing joyidami yoki birovga berib yuborganmisan? Bu nima deganing. Men necha-necha joyga sovchi bo'lib borganman, qizu qiz, beva zotining ham o'z qalinini o'zi aytganini eshitganim yo'q. Ha, mayli, sizlarda «qizning o'zi qalinini aytadi», deganing ham rost deylik, qanchadan qancha qo'y-u echkilar, otlar, tuyalar, oltin-u kumushlar, zeb-u ziynatlar turganda bo'lmag'ur narsalarni aytib nima qilasan?! O'nta qo'zi, shu ham gap bo'ldi-yu, uni nima qilasan?! O'ttizta arslon. Yoki uni bog'latib, bo'kirtirasanmi? Qirqta qoplon emish! Uni bog'latib ti- shini sanaysanmi? Ellikta ayg'ir – bu bo'ladi: minsang — ko'lik, sotsang — pul, oltmish beshta axta, bu yer haydasa ham, sotsa ham bo'laveradi. Saksonta sarka bir chibichga deysanmi? Chibich uni boshiga uradimi?! Sarkaning chibichdan farqi bormi? Undan ko'ra taka so'ramaysanmi? To'qson taxtani nima qilasan? Yovvoyilarga tom qilasanmi? Bu gaplarni qo'y! Bachchalik qilma, oltin, tangalar, zeb-u ziynatlar, suruv-suruv qo'y, echkilar, ot-u tuyalar talab qilgin! Sening orqangdan otang bechora ham bir dunyoga kelganday boyib olsin. E, qarang-a! Arslon, qoplon, bo'ri... bularni oldirib keltirib otangdan ham ajramoqchimisani? Ha, labbay? Yoki Nazarboyning bularga kuchi yetmaydi deysanmi? Yo'q, qizim! Ul bir joyda o'tirib turib, hammasini bir zumda toptiradi,

Oychinor aytdi: — Bu narsalarni boy bobo bir joyda turib topishiga ishonaman. Agar topa olsa, qudrati yetsa, mayli, aytganlarimni topib kelsin, topib kelolmasa, o'zidan ko'rsin. Qurigan daraxtga suv qo'ygan bilan ko'karmaydi. Aytgan narsalarimni topsa, mayli kelsin, to'y qilsa, to'y qilsin, qancha to'ksa-to'ksin, u yog'ini o'zi bilsin,— deb turib jo'nadi.

Sovchilar ham: — Bu qiziq bo'ldi-ku, sizlar nima deysizlar?—deb qizning ota-enasiga qarashdi. Xolyor bobo nima deyarini bilmay qoldi. Oyto'ti bo'lsa:— Aylanay, og'ajonlarim! Qizim shunday o'jar, aytgani-aytgan. Mayli, olib kelinglar deganini olib kelaveringlar, o'zi hisobini qilar-da,—dedi. Ikki sovchi kulishib:— Bu arzonga tushdi-ku, badavlatning molini bedavlat yeya olmaydi, degaplari shu ekan-da,— deb joyidan turishib jo'nab ketishdi. Chol-u kampir: — Oychinorning gapi boshimizga bir balo bo'lmasin-da,— deb qolib ketdi.

Ikki sovchi kun bota-kun bota Nazarboyning oq o'toviga yetdi. Nazarboy joydpap turib:—Qani, mullalar, kelinglar, yaxshi o'qib keldinglarmi? Bo'rimi, tulkimi? Oq tuyani ko'rganlaring yo'qmi? — deb so'radi. Ikki sovchi otdan tushib: — Oq tuyani ko'rmadik, yaxshi o'qidik, bo'ri bo'ldi. Bo'rining ham zo'ri bo'ldi, bedov otning teri bo'ldi, cho'ponning manglayining sho'ri bo'ldi, istagani tog'da yotgan bo'ri bo'ldi, — deb Oqamon bilan Oltiyor xoxolashib kula berdi. Nazarboy sovchilarni oq o'tovga

kirgizib, oldiga dasturxon yozib, ikkoviga ikki to'n kiydirib so'radi: — Qanday, qizi ko'ndimi yoki yig'lab qoldimi, nima bo'ldi, gapiraveringlar? — dedi.

Shunda Oqamon turib aytdi:—Ey, boy ota! Avvalo, qizi ko'ndi, o'z qalinini o'zi aytdi. Shularni topsa, Nazarboyning qo'yniga o'n besh kunlik oyday bo'lib kiraman, dedi,— deb Oychinorning aytganini birma-bir aytdi. Shunda Nazarboy aytdi:— Hov, sovchilar! Bul qiyin savdo bo'libdi-ku, bu narsalarni qayerdan, qanday qilib topsa bo'ladi. O'n-o'n besh ovchi bilan bitish qiyin, endi nima qilamiz?

— Boy ota,— dedi Oqamon,— bu narsalarni mol, pul topadi. O'tgan kun Kattapoyning narigi tomoniga o'tgan edim. Qarasam, sonsiz askar, bari qurollangan polvon yigitlar. Ularga uchrashib: «Sizlar qayerdan, qanday beklikka qaraysizlar?» deb so'radim. Ular aytdi: «Biz beklikka emas podsholikka qaraymiz, joyimiz — Andijon, Samarqand, podshomiz Bombir, podshoga shu joydan qo'rg'on solamiz. Bu havorlarga bug'doy, arpa ekamiz». Ana shularga: «Shuncha narsa beraman, manga shu kerak» desangiz, birpasda topib beradi...

Bu gap Nazarboyga xo'p yaxshi bo'ldi, maslahatni bir joyga qo'ydi, bugun yotdi, ertasiga tong otdi. Nazarboy Oqbo'z otini minib, eng yaxshi kiyimlarini kiyib, bor-yo'q mo'ylovini burab, tanglayga misqol nosni taylab, Bombir qaydasan, deb jo'nadi:

Erta bilan joydan,
Tura berdi bul Nazar,
Eshigida chovkar ko'k
Sozday berdi bu Nazar.

Boshidagi sallani,
Qayta-qayta o'radi,
Tizzasida bir oyna,
Qayta-qayta qaradi.

Chovkar ko'kning oldiga
Shunday Nazar boradi,
Ot yonida uzangi,
Oyog'ini tiradi.

Bir imtildi Nazarbek,
Minolmay ot beliga,
Qaribmanmi degan so'z,
Bir kep ketdi ko'ngliga.

Otni toshga yetaklab,
Asta olib boradi,
Tosh ustiga chiqib so'ng,
Chovkar ko'kka minadi.

Boquvdagi bedov ot
Olib ketib boradi,

Nazarbekning aqili,
Gohda shoshib boradi.

Bedov otning jilovin
Mahkam ushlab boradi,
Bul ishiga hayron bo'p,
Labin tishlab boradi.

Hurkmasin deb xudodan
Umrin tilab boradi,
Ulmayin bu cho'lda, deb
Ko'zin yoshlab boradi.

Goh egarning boshidan
Ikki qo'llab ushlaydi,
Agar bedov imtilsa,
O'zin keyin tashlaydi.

Shunday qilib bu Nazar
Asta ketib boradi,
Hushi o'ziga kelib,
Atrofiga qaradi.

Kattapoyning ustida
Ko'p odamni ko'radi,
Izlaganim shular, deb
Ot boshini buradi.

Yaqinlashib borgan so'ng,
Bir gerdayib qaradi,
Tama qilib boyligin:
– Bombir kim?—deb so'radi.

Na bir salomni berdi,
Ha bir alikni oldi,
Uch-to'rt odam qoshiga:
– To'xtang, boboy,— deb keldi.

Ot jilovin birovi
Mahkam qilib ushladi,
Nazarbekni birovi
Yerga olib mushladi.

Mis qoplangan etiklar
Biqiniga tushadi,

Niqtab urilgan mushtlar
Ko'kragini teshadi.

—O'ldim! — deydi bul Nazar,
Tovba qilib turadi,
—Bildiray,— deb,— salomni,—
Undan battar uradi.

Goh tovba der, god salom,
Turolmaydi joyidan,
Birov kelib ko'tarib
Turg'iztirdi bo'ynidan.

Shunda Nazarni turg'izib: — Qani endi gapir? O'zing kim bo'lasan, qaysi bekklik yoki xonlikdan kelasan, bu joylarda ne sababdan yurasan? — deyishdi. Nazar qaradi: Murti shopday, urtlari qopday, turishi burgutday, ko'zi yongan o'tday bir kishi tikilib: — Qani gapir? — deyayotir, Nazar ichida: «Bombiri shulmikan, shul bo'lsa keragov»,— deb joyidan turib, ikki bukilib, qo'lini ko'ksiga qo'yib, ta'zim qilib:— O, ulug' sarkor Bombir! Sizda arzim bor edi, dedi. O'tirganlar xoxolashib kulishib qoldi. Nazar har tarafga qarab, alang-jalanglab qoldi. Shunda haligi mo'ylovdor: — Bombiring kim?— dedi. Nazar aytdi: — Mening bir odamim shul yoqqa kelgan edi. U sizlarning boshliqlaringizni Bombirboy dedi. Shunga men bir arz bilan kelmoqdaman. — O'zing qayerdansen?—deb so'rashdi. — Mening turgan joyim — Suvsiz tog'ning pastidan bo'laman, mening otim Nazar, otamning oti Ernazar,— dedi. Shunda haligi mo'ylovdor: — Unday arz bilan kelgan bo'lsang, Bombir emas, bu gaping bilan o'lib ketasan. U kishining nomlari Amir Bobir shoh deb ataladi. U kishi hov ko'ringan oq chodirning lehlarida turadi. Otingni bir chaqirim berman bog'lab, otdan tushib, har o'n qadamda bir egilib, barcha adabni saqlab borasan. Arzingni qabul qilar, u yog'ini o'zing bilasan, — dedi. Bu gapni eshitib, Nazarboy otini burib jo'nadi.

Qarang endi Nazardi
Rangi ro'yi bo'zardi,
Bir xil-bir xil so'ziga,
Ikki beti qizardi.

Avval otni sozladi,
Otga o'zin tashladi,
Yo'lga otini burib,
Oq chodirga tezledi.

Ostidagi pirog'i,
Bo'lsin isi, chirog'i,

Qo'rqqanidan tepsinib
Ketayotir yuragi.

Oq tepaga boradi,
Atrofiga qaradi,
Yarim chaqirim yerdan
Oq o'tovni ko'radi.

Attang, endi o'ldim, deb
Bo'lganimcha bo'ldim, deb,
Ne sababdan bu yerga
Avvalasi keldim, deb...

Otni keyin tortadi,
Ko'p tashvishi ortadi,
Endi bunday tashvashning
Jabirini tortadi.

Panada kirib tilga,
Tushib qoldi bir cho'lga,
Otni borib boyladi
Yarim chaqirim yo'lga.

Asta tushib jo'nadi,
Sanab oyoq bosadi,
O'n qadamni bosganda,
Birdam ta'zim beradi:

Bo'ldi bug'doy savara,
Charchab borar tobora,
Ovloq yo'lda shul Nazar
Bo'lib borar ovora.

Goh-goh jopda surindi,
Pachaq qilib burundi,
Bobirbekning chodiri
Arang endi ko'rindi.

Egilib borar beli,
Shalvirab qoldi qo'li,
Bo'ri quvgan itday bo'p
Osilib qoldi tili.

Oq ko'plakda xol bo'lsa,
Suvsiz qolgan tol bo'lsa,

Endi muncha ezmayin
Oltmish yashar chol bo'lsa.

Odam qarir, ko'ngli gul,
Gapdap charcharmikan til,
Ko'ngil bilan bul tilni
Olib ketmas o'tsa yil.

Qarang Nazar ezilib,
Gohda ko'ngln buzilib,
Bosib ketgan izlari
Ko'k munchoqday tizilib.

Illa yetib boradi,
Qaddin rostlab oladi,
Oq chodirning oldida
Ko'p askarni ko'radi.

Attang, endi o'ldim, deb,
Nega bunda keldim, deb
Unda yegan mushtimdan
Bu joyda ham yedim, deb...

Yurolmaydi, qop ketdi,
Kun ham choshtgohga yetdi,
Bilmay qoldi, askarlar
Ikki yog'idan tutdi.

Sudirashib boradi,
Nazar nima qiladi,
Yurmayman desa balki,
Boshginasin oladi.

Suv olmabdi meshiga,
Qoldi kunning kechiga,
Olib bordi askarlar
Oq chodirning ichiga.

Shunda Nazar qaradi,
Ko'rmaganin ko'radi,
Ana boylik, ko'p davlat,
Ko'zi yonib boradi.

Uy boshiga qaradi,
Bir polvonni ko'radi,



Esi joyiga kelib,
Endi salom beradi.

Shunda Nazarboy o'ziga kelib: – Assalomu alaykum,— dedi. Salomiga alik oldi. Nazarboy ko'zini bunday ochib qarasa, umrida ko'rmagan buyumlar, tilla jig'alar. Esi ketib turgan edi. – O'tiring, – dedi. Bir yosh yigit to'rda chordona qurib o'tiribdi. Boshida tilla toj qo'ndirilgan salla, ustida zarbop to'nlar, murti lab ustida o'ziga yarashib turibdi. O'zi polvon siyoqli, burgut qaboqli, har egni qirday, darashi to'qaydagi sherday. O'ng va chap tomonida bashang kiyingan ikki mo'ysafid, qo'llarida tasbeh, haligi yigitga muntazir bo'p turibdi. Bularni ko'rib Nazarboy «Bobir shoh degani shul yigit bo'lsa kerak», deb nafasi ichiga tushib, yeli chiddan meshday bo'p o'tirib tura berdi. Shunda haligi yigit:—Hov, bobo! Siz qayerdan bo'lasiz, nima sababdan bu yerga keldingiz? – deb Nazarboyga qarab, ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Tani bukilmasin, bobo, bo'yingiz,
Buzilmasin, obod bo'lsin uyingiz,
Avval, bobo, sog'lig'ingiz so'rayin,
Qayerlarda o'ynab-o'sgan joyingiz?

Risqi uchun yog'ar ko'kdagi havo,
Ayrilgan qo'shilsa, dardlarga davo,
Avlodingiz, zotingizni so'rayin,
Otingizni nima deydi, bek bobo?

Tarzingiz ko'rinar g'arib bechora,
Ayriliq xudodan bo'lsa ne chora,
Yolg'on demang, rostin ayting, bek bobo,
Ne sababdan bul joylarda ovora?

Har doimda yordin bo'lsin, oyingiz,
Oti kimdir qishloqdagi boyingiz,
Ne sababdan siz bo'ldingiz sargardon,
Nima deb ot qo'ygan qiblagoyingiz?

Yoki bobo, bekdan farmon bo'ldimi,
Yo askarlar bor-yo'g'ingiz oldimi,
Jabr ko'rib, jafo tortib cho'llarda,
Sizday bobom bul joylarga keldimi?

Yo molingiz dasht-u cho'lni bosganmi,
Shul sababdan sizga jabr tushganmi,
Qariganda ishq balosi tarmashib,
Shuning uchun sizday bobom shoshganmi?

Bir xil boylar yig'olmaydi molini,
Mol qo'shsam deb ketkazadi holini,
Yoki bobom, mavridli ish tushdimi,
Yetmaydimi keliningiz qalini?!

Ayting, bobo, endi bunda qarayin,
Bizga kepsiz, kuningizga yarayin,
Nima ekan ko'nglingizda gapingiz,
Tilasangiz, nima bo'lsa berayin.

Shunda Nazarboy Bobirning bu gaplarini eshitib «Nima desam ekan! Yoki tila deganda, mana bu tilla, anjomlardan so'rasammikan?! Yo'q, bu hali ketadiganga o'xshamaydi. Boyligimni bilib qolsa, bir balo qiladi. Ke buni qo'yayin, arslon, qoplonlarni aytayin, bir qiz olmoqchiman, deb bul joyda kulgu bo'lmayin, bir beva edi deb atayin», deb qaddini rostlab, Bobir ekanligiga ishonib, ikki og'iz so'z aytib turibdi.

Oldingizda izzat ko'rmay qarzim bor,
Bir g'amxona, g'amli bo'lgan tarzim bor,
Suvsiz tog'dan oldingizga men keldim,
Qabul qiling sizga aytar arzim bor.

Arzim bilan tinglang aytgan so'zimdi,
Bu so'zlarni sizga aytmoq lozimdi(r),
Jangillida mening joyim, qishlog'im,
Otam qo'ygan, Nazar deydi o'zimdi.

Jangillida qator-qator tolim bor,
Ishlay bersam, bir yigitcha holim bor,
Xudo bersa, irisqim ham kam emas,
O'zimga yetadigan, shukur, molim bor.

Bir gap bilan bu bobongiz kelgandir,
Yoshligida sevib xotin olgandir,
Yaratganim ajratdi-da, naylayin,
Qariganda baxti qaro bo'lgandir.

O'g'lim bordir, jo'nadi u oshiga,
Qizim bordir, ul ham o'zin ishiga,
Torat suvin ilitgani kishim yo'q,
Ro'zg'or tushdi bobongizning boshiga.

Hamsoyalar xotin ol deb ko'ymaydi,
O'ttiz yashar beva xotin ko'nmaydi,

Qancha odam qo'yg'an edim oraga,
Barchasi teg degan bilan tegmaydi.

Pitik bitmay kishi xotin olmaydi,
Teshik munchoq, hech ham yerda qolmaydi,
Ko'ndirishdi, qalinini aytibdi,
Buni topish hech qo'limdan kelmaydi.

Bedovga yarashar oltindan to'g'a,
Yigitga orqadir gar bo'lsa og'a.
Qalin molin sizdan boshqa topolmas,
Shuytib oldingizga keldim sadag'a.

Shunda o'tirgan chol va beklar: – Ov bechora bobom! Sizga xo'p qiyin bo'libdida, sizga yordam bermoq savob ish, – deyishdi. Shunda Bobir: – Qancha qalin aytdi, ayting bobo, mendan qancha istaysiz? – dedi. Shunda Nazarboy: – Ey, Bobir shoh! Sizga aytgiligi yo'q, endi iloj yo'q aytayin! Ul beva ayol: «O'nta qo'zi, yigirmata bo'ri, o'ttizta arslon, qirqta qoplon, ellikta ayg'ir, oltmish beshta axta, saksonta sarka, to'qsonta taxtani tuyaga ortib, kuyov o'zi bilan «birga olib kelsin!» debdi. O'nta ko'zi, ellikta ayg'irga ham, oltmish beshta axta, saksonta sarkaga ham, to'qsonta taxtaga ham ilojim yetadi, lekin yigirmata bo'ri, o'ttizta arslon, qirqta qoplonga ilojim yetmaydi. Ey, Bobir shoh, askarlaringiz bor ekan, shunga siz yordam bermasangiz, mening boshqa ilojim yo'q, – dedi. Bobir o'ylab qoldi. Nazarboy ichida: «Obbo, bo'lmadi-ya! Buning ham, iloji yetmadi-ya! Endi nima qilsam ekan?» – deb turgap edi. Bobir: – Hov, Nazar bobo! O'zingiz nechada bo'lgansiz, to'g'risini ayting?! – dedi. Nazarboy: «O'zimni yosh qilib aytmoqchi bo'lsam, oltmishda deb qo'yaman. To'g'ri, yoshim oltmish beshda bo'ldi. Yilim – xargo'sh», deb o'yladi-da, oltmish yoshdaman, – dedi. Bobir kulib boshiga irg'adi-da, mulozimlariga: – Sizlar nima deysizlar kuyovning gapiga? – dedi. Mulozimlar bir og'izdan: – Ey, shahanshohim! Dunyo ustida yurib bunday bevaning yoki qizning qalinini eshitganimiz yo'q. Yoki bu narsalarning go'shtini yeydigan elat bo'ladimikan? Bizlar bu gapga boyatdan buyon hayronmiz! – deyishdi. Shunda Bobir Nazarboyga qarab bir so'z aytib turibdi:

Mergan haydar otni tog'ning pastidan,
Har kimni saqlasin ajal qastidan,
Avvalasi men gapingga ishondim,
Nega gapirmading, bobo, rostidan?!

Ko'nglingda sen oq baytalning toyisan,
Qishlog'ingning gapga yetar shoyisan,
Ne sababan bunda yolg'on gapirding,
Endi bildim sen boylarning boyisan.

Kim bo'ladi senga bunda ko'ngli to'q,
Ko'kragimdan teydi deysan naga o'q,
Biri o'lsa, biri bordir albatta,
Hali sening baxting qora bo'lgan yo'q.

Mol yig'ibsan, naga aql yig'mading,
Shu aqlman kelib bizni aldading,
Teng-tengiga, tezak – ola qopiga,
Degan so'zni qariganda bilmading,

Yoki sen bir boy qizga oshiq bo'ldingmi,
Qizga emas, mulkka ega bo'ldingmi,
Yosh qiz bo'lsa nima qilsin o'zingni,
Uyalmayin so'ngra bunda keldingmi?

Qarisa odamga aql kelmasmi,
Kelgan bilan bir xil betak olmasmi,
O'n yoshga kirganda o'g'il bolalar,
Beg'amligi ko'zidayin bo'lmasmi?!

Yigirmada yigit bo'lar bo'riday,
O'ttizda hayqirishi arslonday,
Qirqqa borsa, qirqta tog'ni otguday,
Intilishi bo'lmasmikan qoplonday?!

Elligida ayg'ir otday o'ynaydi,
Maydon bo'lsa ne g'animni qiynaydi,
Oltmish beshda boshlanadi, hay darig',
Otga minmay o'zin keyin taylaydi.

Saksoningda hech sarkadan farqing yo'q,
Uytib-buytib ovqat yesang, ko'ngling to'q,
O'lmasang ham farqing qolmas o'likdan,
Ingiraysan, balki kelib tekkan o'q.

Ne bo'lsa-da seni oldin ko'ribdi,
Senday cholning bunda sho'ri quribdi,
Qiz bo'lsa ham aqliga hayronman,
Donolikni unga xudo beribdi.

Nasiya emasdi, asli naqtimdan,
Bir sababman men ayrildim baxtimdan,
Agar shunday bo'lsa edi vazirim,
Sarson bo'lib kechmas edim taxtimdan.

Endi yo'lda terib yurgin toshingni,
Besoyib soldirar edim loshingni,
Rost turganda naga yolg'on gapirding,
Bu gap uchun kesar edim boshingni.

Qayga borsang endi yolg'on demagin,
Tengging topsang, o'z tenggingdan qolmagin,
Aziz kallam tursin desang joyida,
Qiz qoshiga olaman deb bormagin.

Bu gapni Nazarboy eshitib, sholisi suvga ketib, ikki qulog'i bitib, yo turolmay, yo bir so'z aytolmay qolib edi qotib. Shunda qoshidagi mulozimlardan biri turtib: – Turing, kechirim so'rang! Joningizni o'zingizga omonat qoldirdi, – dedi. Shunda Nazarboy o'ziga kelib, joyidan turib, ta'zim qilib, yolg'on gapirganiga kechirim so'radi. Shunda Bobir: – Mening so'zlarim yolg'onmi, bu qalinni beva aytganmi? – dedi. Nazarboy yuragi dirillab, o'pkasi shirillab: – Ey, taqsir! Hammasi rost, meni kechiring! Men olaman degan beva emas, qiz edi. Cho'ponim Xolyorning qizi edi, – dedi boshini egib.

– Nechta xotiningiz bor? – dedi Bobir.

– To'rtovgina, – dedi Nazarboy. O'tirganlar xoxolashib kulib yubordi. Nazarboy yer yorilmadi, yerga kirmadi.

– Xo'p, mayli, – dedi Bobir, – men sizni bir marta kechirdim. Qani, mulozimlar, boyni mehmon qilinglar, – deb farmon berdi.

Shunda Bobirning o'ng tomonida o'tirgan kishi joyidan turib:

– Ey, shahanshoh! Mehmonni menga bering, o'zim bir mehmon qilay; bul joylarning baland-pastlari, elatlari, boylari – hammasini so'rab bilayin, – deb ta'zim qilib turdi. Shunda Bobir: – Mayli mehmonni sizga berdim, yaxshilab mehmon qiling! – dedi. Boyga: – Yuring! – deb tashqariga olib chiqdi.

Nazarboy eshikka chiqib qarasa, bu chodirdan boshqa chodirlar ko'p, odamlar son-sanoqsiz, ishlab qo'rg'on solib yotibdi. Haligi kishi Nazarboyi boshlab, chekkadagi bir chodirga olib bordi. Bu chodirning og'zida ham ikki-uch kishi xizmat qilib, ta'zim qilib turibdi. Haligi kishi! bularga ruxsat berib, Nazarboy bilan ichkariga kirdi. O'tirib, fotihani yuzga tortib so'rashdi.

Shunda haligi kishi: – Sizning otiniz Nazarboyi? Mening otimni Qaysar, deb aytadi, – deb Nazarboyga qaradi. Ko'rdi: ko'zi olaygan, rangidan qoni qochgan, iyagi; bilan manglayi tirishib ketgan, nafs kattalik qilib, tishini ham qo'shib yutgan. Mushtday kallaga uragan sallasi eynidan oshgan; imtilayotir Nazarga yetguday, agar yetsa yamlamay yutguday, xalqumida bir tuya indamay yotguday. Nazarboy: «Ey, xudo! Yomondan yomoniga tutildim, endi o'zing saqla?! Uch yildan keyin bir ulog'im sadag'a», deb kallasini yerga tashlab tura berdi.

Qaysar, deb Bobirning o'ng qo'l vaziri edi. Bobirning otasiga ham vazirlik qilgan edi. Undan biron yomonlik ko'rmagan edi. Bobirni hech xushlamas edi. Bobir qizning donoligini aytayotganda yuragi orqasiga tortib ketgan edi. Vazirlik qo'ldan ketguday bo'lgan edi. Shuning uchun Bobirdan oldin qizni biron narsa qilishni ko'ngliga tugib, Nazarbekni ergashtirib kelgan edi.

Qoshini kerib, qobog'ini chitib Nazarboyga qarab: – Hov, Nazar, endi shunday qilasan, mendan kechka kechasi ikki yigitni olasan, birovga bildirmay borasan, qizning kapasini ko'rsatib berasan, yigitlar qizni olib keladi, Agar bu gapni mendan beso'roq biror kishiga aytasang, bor mol-mulkingdan, xotin-xalajingdan, tanangni ovora qilib yurgan boshingdan ayrilasan. Oq tuya ko'rdingmi? – dedi. Nazarboy aytdi: – yo'q!

– Ha, barakallo! Unda qo'limdan kelgan yordamimni sendan ayamaskan, – dedi. Ikkovi bir joyda gurunglashib yotdi, kun ham kech bo'lib ketdi. Shunda Qaysar Keldiyor va Berdiyordan degan navkarlarini chaqirib: – Ov, navkarlar! Mana bu boy bilan birga yo'lga tushasizlar, qaysi uyni ko'rsatsa, shu uydan boy ko'rsatgan qizni olib kelasizlar! Bu sirni birov bilsa, boshlaring bilan javob berasizlar, – deb boyga qo'shib jo'natdi.

Oy tug'ar nechadan necha,
Oylar ham qorong'i kecha,
Ot beli mahkam bog'landi,
Bilmay koldi bir necha.

Sarg'ayib tog'ning zarangi,
Eynida miltiq-parangi,
Jo'nayotir-da soy-soydan,
Kechasi toshday qorong'i.

Belga boylab isfohon,
Agar sermasa olar jon,
Iyartib op jo'nadi,
Nazarboyday beimon.

Ot solib tog'ning o'rig'a,
Duch kelsin endi bo'riga,
Jo'nay berdi uchovi,
Mushtpar qizning sho'riga.

Eynida sovut shirqillab,
Boqilgan otlar dirkillab,
Ot o'zin silki tashlasa,
Ustida Nazar inqillab.

Navkarning bari Berdiyordan,
Keng dunyoni qilar tor,
Ko'p navkarning ichida
Qassob degan nomi bor.

Keldiyor deydi birini,
Chopsam der Nazar qarini,
Unday-bunday ishlarda
Nechovning bergan sho'rini.

Yo'lni so'rashar shul boydan,
Tikka tashlashar har joydan,
Qamchi yegan bedovlar,
Hakkalab oshar soy-soydan,

Tayoq qip bo'lmas uchqatti,
Uchovi haydaydi otti,
Ur kelsa tikka tashlatar,
Shiddatman taqim tebratdi,

Kelbedi Nazar siyini,
Olarman deb-da, suyuni,
Yur deb qistaydi navkarlar,
Ketayotirda kuyinib.

Qo'y haydab edi Regardan,
Uzuk olbedi zargardan,
Ot tikka tashlab ketganda,
O'ldim deb ushlar egardan.

Navkarlar o'qni surguday,
Nazar do'zaxni ko'rguday,
Gap qaytarsa bularga,
Ikkovi ushlab urguday.

Hayda deb zarda qiladi,
Nazarning jonini oladi,
Tortsa agar ot jilovin,
Bildi-da tayin o'ladi.

Kiygan choponlar so'kilgan,
Qaddi egarda bukilgan,
Iyagidagi to'rt soqol
Tut bargiday to'kilgan.

Tutilgan oyday bo'p yuzi,
Ovloqda qoldi-da o'zi.
Chopib tashlasa navkarlar,
Bexabar qoldi ul-qizi.

Navkarning Nazar mulkiday,
Nima ham qilsin ovloq joy,
Shumpiyib ketib boradi,
Tozidan qochgan tulkiday.

Tim qorong'idir kechalar,
O'z xolin bilmas nechalar,
Ot shamoliga irg'alar,
Io'l betidagi archalar.

Ot haydar fe'li qoralar,
Qoralar emas, qarg'alar,
To'p otilganday gursillab,
Qolayotirda daralar.

Qamchi ustma-ust chatildi,
Tuproq ko'kka otildi,
Ko'kka yetgan tuproqqa
Oyning yuzlari tutildi.

Ot chopdi baland-pastidan,
Kim kuymas zolim dastidan,
Otni chopishib uchovi,
Bordi uying ustidan.

To'xtatdi uchovi otti,
Hayvoplar jabrii tortdi,
Haylo, deb Xolyor uyini
Nazar bstmiz ko'rsatdi.

Shunda navkarlar otni kechalar chopib, Nazarboyni oldiga solib, yarim kechada Xolyorning uyiga yetdi, to'xtatdi otdi, qilsam deb qiyomatdi. Uy bo'sag'asiga yaqinlashib borib Keldiyor otdan tushdi, itlar ham bo'v-bovlashib tarmashdi. Qo'ylar ham hurkib ketdi. Xolyor bo'ri keldimi, deb tashqari chiqdi. Ko'rdi, uch otliq turibdi. Otlar entikib, pishqirib turibdi. Bularning kelishi yaxshilikka o'xshamaydi, nima deyarini bilmay tura berdi. Shunda otdan tushgani Xolyorning qoshiga kelib: – Sen kimsan? – dedi. – Men Nazarboyning cho'poni Xolyor bo'laman, – dedi. Necha farzanding bor? – dedi. – Birgina yolg'iz cho'riginam bor, – dedi. – Shul yolg'iz cho'riginangni olib kel! Bizga berasan, – dedi. – Nega sizga beraman, bunday deyish uyat bo'lmaydimi? – degan edi: – Uyat bunday bo'ladi, – deb qamchining o'rimidan ushlab Xolyorning boshiga urdi. Xolyor suvi to'kilgan meshday shobirsiz joyida yotdi. Eshikdagi shobir-shubirni eshitib Oyto'ti bilan Oychinor eshikka chiqqan edi, shu vaqt Keldiyor Oychinorning bilagidan ushladi.

Merganlar tog'larda olqar otadi,
Besh kun dunyong qanday bo'lsa o'tadi,
Jabr tushdi Xolyorning boshiga,
Bir qamchiman g'arib endi yotadi.

Baxayr bo'lsin-da har ishning keyti,
Ne ish bo'lmas bunday qorong'u payti,
Eshikdagi bu shov-shuvni eshitib,
Chopib chiqdi Oychinorman Oyto'ti.

Jallod bugun o'z ko'nglini xushladi,
Mushtiparning ikki ko'zin yoshladi,
Ko'ngli toshdan, mehri qattiq jallodlar
Oychinorning bilagidan ushladi.

Bu Oychinor zolimlarga qaradi,
In yo'q, sin yo'q, bundan sudrab boradi,
Silkib oldi bilagini qo'lidan,
Jallodning yuziga shunday uradi.

«Voh!» – deb jallod esi ketib boradi,
Bobir ura, bildi tayin o'ladi,
Birdan otdan tushdi kelgan sherigi,
To'ti momo hayron bo'lib turadi.

Sherigi qo'lga qo'riq oladi,
Qo'riqligini Oychinor ne biladi,
Yaqinlash-chi, deb turib edi Opchnor,
Jallod tanasiga qo'riq solidi.

O'z-o'zidan ikki qo'li boylandi,
U sherigi endi o'zin shayladi,
Oychinorning oyog'ini mo'ljallab,
Orqanini ustalikman tayladi.

Armon bilan boylandi-da, Oychinor,
Bul kechada madad berar kimi bor,
Hurkkan qo'yga qarab ketgan Erpazar,
«Bolan» deb tayladi To'ti mushtipar.

Bu jallodlar o'zin ko'nglin xushladi,
Oyto'ti ham ikki ko'zin yoshladi,
«Bolan!» deydi, yig'layotir mushtipar,
Quchoq ochib bolasini ushladi.

Shunqor tepsa, har kim mayib belidan,
Hech kim ayrilmasin o'sgan elidan,
Ikki jallod zarba qilib tortadi,
Ololmaydi Oyto'tining qo'lidan.

Jallod jallodligin endi qiladi,
Berdiy qo'lga qilich oladi,
Bular tug'ilmagan aslo enadan,
Mushtipar boshiga qilich soladi.

Ko'kda budut ko'rdi buni, jiladi
Baland tog'lar o'pirilib quladi,
Qo'li bo'shab shiqqa tushdi gavdasi,
Bolasiga qoni oqib boradi.

Hay, attang, ne bir zamonlar o'tdi,
Nechov xursand bo'lsa, nechov qon yutdi,
«Voh, enam!» – deb zor qaqshab Oychinor,
Yig'lashiman archalarni qulatdi.

Boylagan zolimlar ketib boradi,
Oychinor o'zini otib boradi,
Toqat qilolmang yig'lashiga yulduzlar,
Qoboq-qoboqlarga botib boradi.

«Ena!» deydi, soch egarga eshildi,
Yig'lashiga ikki ko'zi teshildi,
«Oh» deganda taqqa to'xtab bo'rilar
Ulu solib Oychinorga qo'shildi.

Ena desa, yerlar erib boradi,
Ena desa, qorlar erib boradi,
Yig'layotir, enam deydi mushtipar,
Temir, cho'yan, toshlar erib boradi

Ikki jallod ko'nglim xushlab boradi
Oychinor yuziga mushtlab boradi,
Toqat qilmay jallodlarning bedovi
Qora yerga yoshin tashlab boradi.

Bo'larmikan har kimsaning enasi
Ena desa, yig'lar tog'ning giyasi,
Har enam deb tovush qilsa Oychinor,
Bo'kirishib qolar cho'ning tuyasi.

Dam bo'lmaydi qancha qamchi tayladi
Ne ish qilsin, bu jallodlar o'yladi,
Ot to'xtatib ikki jallod Tollida
Oychinorning og'zin mahkam boyladi.

Ikki jallod bundam turib qaradi,
O'z-o'zidan ko'ngli bo'shab boradi,
– Tovushingni o'chir! – dedi Keldiyor
Qamchi bilan badaniga uradi.

Ot hurkkan so'ng dariyodan kechmaydi,
Qo'rqqan jallod hech Chinorni yechmaydi,
Oh, deb ketib borar yo'lda mushtipar,
Yengan yurak suv sepganman o'chmaydi.

Bedov otlar yo'lda shoshib boradi,
Ust-ustiga qamchi tushib boradi,
Haydayotir gohi soydan, goh o'rdan,
Nazarboyni birga qo'shib boradi.

Kim kuymaydi g'animlarning dastidan,
Botir qutuladi nomard dastidan,
Sahar vaqti otni qistab jallodlar
Borib qoldi oq chodirning ustidan.

Bunday kunda kimlar bo'lar ko'ngil to'q,
Ko'ngil to'q bo'lganda teymas otgan o'q,
Ot dupiri qulog'iga kirgan so'ng,
Irg'ib chiqdi chodiridan Qaysarbek.

Keldiyor bilan Berdiyorni yuborgandan keyin Qaysarbek: «Bul ishni birov bilmasin-da», deb ilg'oqsib yotgan edi. Ot dupuri qulog'iga eshitilgandan keyin joyidan irg'ib turib, chodir eshigini ochib qaradi. Uzoqdan chopilgan otlar oq chodirning oldida hansirab nafas olib turibdi. Keldiyorning oldidagi narsani ko'rib: – Olib keldinglarmi? – deb so'radi. – Olib keldik! – dedi uchovi ham birdan. Qaysarbek Oychinorni otdan tushirib oldi. Otliqlar otdan tushishdi. Shunda Qaysar: – Ov, Berdiyor, sen otlarni yetaklab ovloq soyga olib bor, damini olsin. Otlarning terini ol. Toki otlarning chopilganini birov bilmasin. Erta choshtgohda otlarni olib kelib joy-joyiga bog'laysan! Sen Keldiyor, bu qizni chap yonimdagi chodirga olib bor. Hulkar momoning qo'liga berib, o'z joyingga bor. Ertasiga topshirilgan ishlarni qila ber, Berdiyorni so'rashsa, «mollardan xabar olgani ketgan», de! Agar uchovingdan biringning og'zingdan bu gap chiqsa, boshingdan umidingni uzaber. Nazarboy, siz men bilan chodirga kirasiz, erta choshtgohda Bobirdan javob olasiz, so'ngra uyingizga bora berasiz. Sirni birovga bildirsangiz, mendan qochib qutulolmaysiz! – dedi.

Bugun kirib chodirda yotdi. Ertasiga ertalab Qaysarbek bilan Bobirning oldiga bordi. Manglayi yaltirab, tizzasi daltirab, ikki buklanib Bobirga ta'zim qildi. Bobir alik olib joy ko'rsatdi. Salomatlik so'rab Bobir aytdi: – Hov, Nazar bobo, qanday, yaxshi yotib turdingizmi? Mehmonlikdan ranjimadingizmi, bizning rasm-rusumimiz, taomillarimiz sizga yoqmay qolmadimi? Nazar ko'nglida: «Bu meni sinagani so'rab

turgan bo'lmasin, noto'g'ri aytding, deb unda olmagan boshimni endi olmasin. Aytay desam, bunisi boshimni olar, xudoyo-xudovando, agar shul joydan sog' chiqsam, ola xo'rozim sadaqa!» deb boshini quyi solib tura berdi.

– Ey, xonim! – dedi Qaysar, – bu kishi sizdan juda minnatdor.

– Bilmadim, – dedi Bobir, – yuziga qarasam, so'lganday, bu kecha uxlamay, yo'l tortib chiqqanday, juda charchagan ko'rinadi. Yoki kechasi qo'sh haydatib qildingizmi?

– Yo'g'e, taqsim, shahanshohim! Bu kishi bilan kecha gurunglashib, gurungimiz qizib ketdi. Bir vaqt qarasam, tong otibdi, ikkimiz namozni bajo keltirib, oldingizga keldik, – dedi Qaysar.

Taom tortildi. Qo'rqib dolgan Nazarboy ovqat dam yeyolmay qoldi. «Bundan bir narsani so'rasa, simi ochar, bu tentak», deb Qaysarbek Nazarga ruxsat so'radi. Shunda Bobir: – Ov, bobo, yoshlikdan qariysiz, qarilikdan yosharmaysiz. Endi hargiz bir gulki so'ldirmang. Agar gapimga kirmasangiz, boshingiz qo'limda, – deb javob berdi. Nazarboy qutulganiga shukur dilib, bu qilgan ishlariga pushaymon bo'lib, Qaysarbek bilan eshikka chiqib, kecha ish ko'rgan chodiriga bordi. Shul vaqt Qaysarbekning mulozimi ham otlarni olib kelgan edi. Nazarbek otining qoshiga borib, uzangiga oyog'ini qo'yib, kecha ish ko'rgan emasmi, zarildan ot beliga mindi. Qaysarbek bilan xo'sh-xo'shlashib bir to'ba bermon oshdi, endi yuragi joylashdi, xo'rsinib nafas oldi. «Kemaylar ketay bu joyga», deb ketib borayotir.

Rangi bo'zargan bo'zday,
Soydagi olako'zday,
Nazar ketib boradi
Ichi tushgan tarvuzday.

Borayotir enkayib,
Ikki beti zingkeyib,
Kelganiga o'zini
Necha martalab koyib.

Ketdi manglay tirishib,
Koboqlar ketgan shishib,
Sovuq olgan kadiday,
Ketgan ranglar burishib.

Becho'pon qip molimni,
Kimga aytay holimni,
Bugun bunda ko'rdim, der
O'zimdanam zolimni.

Biri dono, ul zolim,
Betartib chiqmas tilim,
Xudo o'zing saqlading,
Kelgan ekan-da, o'lim.

Tulkidayin jalanglab,
Dumidayin bilanglab,
Kelmasin, deb izimdan
Kelayotir alanglab.

Goh ko'zini yoshlaydi,
Goh labini tishlaydi,
Kelganiga o'zini
Qayta-qayta mushtlaydi.

Boy deb pisand qilmadi,
Nazariga ilmadi,
Qaysar degani o'lsin,
Bir tuyur non bermadi.

Peshonadan ko'rsammi,
Ot jilovin bursammi,
O'tkardi deb taaddi,
Boysin bekka borsammi?!

Borgan bilan ul bekka
Nima iloj qiladi,
Unday-bunday beklarni
Tikka oti jaradi.

Xudo o'zing ko'rsatgin
Bu yomonga karomat,
Sendan boshqa pano yo'q
Senga qilay ibodat.

Qoplon, arslon olay deb,
Bilmay bunda kelibman,
Qurisin-da, bu zolim,
O'lmay jonni beribman,

Biroviga yolg'onni
Hech gapirib bilmaysan,
Biridagi ajalga
Nari tur deb bilmaysan.

Qildim men ham yomonlik,
Bundayin hech qillmadim,
Nechovlarni yig'latdim,
Tandan jonin olmadim.

Oldim qiz, deb ololmay,
Men birovga oldirdim,
Sababchi bo'p qaytaga,
Bir xotinni o'ldirdim.

Yotib uyda o'ylamay,
Qayga uray boshimni,
O'zim borib oldirdim
Og'zimdagi oshimni.

Endi bunday ishimni,
Hech bir kishi bilmasin,
O'lsa-o'lsin Oyto'ti,
Mol egasiz qolmasin.

Qayga borsam bu Qaysar,
Zo'rligini bildirar,
Aytib qo'ysam birozga
Qayga borsam o'ldirar.

Otni qichab bu Nazar
Asta bordi uyiga,
Qancha o'nlagan bilan,
Yetolmadi o'yiga.

Uyda yotib boy Nazar,
Endi ko'nglin xushladi,
Xizmatkori chopib kep,
Ot jilovin ushladi.

Hormang, deb kelayotir
Nazar nonin yeganlar,
Hol-ahvol so'rayotir
Toriga o'ynaganlar.

Sovuq urgan sabziday,
Shukur, deb qo'yayotir,
Aytolmaydi dardini,
Qobog'in uyayotir.

Sovchilar kep qoshiga
Qoplonni so'rayotir,
Yarasiga tuz sepib,
Joniga tegayotir.

Ne deyarin bilmaydi,
Yerlarga qarayotir,
Sovchilar gapirganda,
Gapini burayotir.

Bujmaytirib yuzini,
Tetik tutib o'zini,
Bir entikib gapirdi,
Yolg'on-yashiq so'zini.

– Quloq solgin, oqqinam,
Och bo'lsa ham, to'qqinam,
Nesiniyam aytayin,
Tingla so'zim, bekkinam.

U joyga kelgan ekan
Bir viloyat egasi,
Qoshida turgan ekan
Ajdahoday bolasi.

Qancha aytdim qoplanni,
Nima deding, demadi,
Ular meni, Oqamon,
Nazariga ilmadi.

Kattapoyning ustidan
Qurayotir qo'rg'anni,
Ushlab olsa qo'ymaydi
Unga ko'zi tushganni.

Mingta qo'shni qo'shibdi,
Tilayotir ko'p joyni,
Ushlab olsa qo'ymaydi
Kambag'almi u, boymi?!

Illa qutulib keldim
Men ularning qo'lidan,
Bundan bu yog'i yurma
Kattapoyning yo'lidan.

Men ularning yuzini
Bundan buyon ko'rmayin,
O'lab tursam qaribman,
Endi men siz olmayin.

Kim olsa ola bersin
Xoliyorning qizini,
Ular menga teng emas,
Ko'rmay uning yuzini.

Erta bilan, Oqamon,
Ot beliga minasan,
Xoliyorning oldidan
Hamma molni olasan.

Qaydan topsang o'zing top,
Bir cho'ponni qo'yasan,
Ernazarni cho'ponga
Chokar qilib qo'yasan.

Hozir katakka borib,
Bir xo'rozni ushlaysan,
Yaxshi qilib sho'rvasin,
Sho'rtak qilib tuzlaysan,

Nazar aytib bu gapdi,
Aytib uyquga ketdi,
O'lguday bo'p charchagan,
Tonglar ham otib ketdi.

Ot ustida Oqamon
Xezlab ketib boradi,
Xoliyorning yig'lagan
Tovushin eshitadi.

Shunda Oqamon ot jilovini tortib, Xoliyorning qoshiga borib: – Ne sababdan yig'lading? – deb so'radi. Shunda Xoliyor Oqamonga qarab, dardkash odam tolganday bo'lib: – Ey, Oqamon og'a, nimasini aytayin, har na borimdan ay-rildim, – deb turibdi:

Oqamon, hov, Oqamon,
Nimasini aytayin,
Bu jahonda kimim bor,
Endi qayon ketayin.
Yarim kecha ustimga
Yetib bordi falokat,
Aytay desam, bek og'a,
Menda yo'qdir halovat.

Qayga olib borayin
Yolg'iz qolgan boshimni,
Uch otli kep urib edi,
Yo'qotibman hushimni.

Ko'zim ochsam hech kim yo'q.
Uchtasi ham ketibdi,
Mening shunday oldimda
Xotanim ham yotibdi.

Chopib bordim qoshiga,
Sulab yotar tanasi,
Olti gaz nari joyda
Vafodorim kallasi.

Qaraganman topmadim,
Qizim olib ketibdi,
Bilmay qoldim men sho'rga
Bu kun ajal yetibdi.

Oqamonjon, ayrildim
Bu kun har na borimdan,
Bir maslahat bersang-chi,
Manglaydagi sho'rimdan.

Qo'ynimdagi nonimdan,
Naylay, oga, ayrildim,
Yuragimning yog'idan,
Qaytay, og'a, ayrildim.

Yo'q narsani bor qilgan,
Bor narsani mo'l qilgan,
Xarob bo'lgan ro'zg'orni
Ishlab-ishlab gul qilgan
Kampirimdan ayrildim.

Sendan boshqa, og'ajon,
Kimga aytay arzimni,
Men qaylardan topaman
Yolg'izgina qizimni.

Oh deganda, yuragim
Olovdayin yonadi,
Voh deganda, shu tanam
Ko'kka tutab boradi.

Endi qayga borayin,
Uyim qoldi besoyib,
Ranggim so'lib boradi
Sarig' gulday sarg'ayib.

Ikki edi qanotim,
Biri sindi, qaytayin,
Biri ham bo'ldi mayib,
Qayga izlab borayin...

Ilon ovlagan qushday
Darmon ketib boradi.
Mergan otgan kiyikday
Ko'zim tinib boradi.

Mayib norday ingrayman,
Shunqor tepgan belimdan,
Bemahalda ayrildim
Bog'bonimdan, gulimdan.

Yerda yotgan tuproqman,
Kimlar bosib o'tmaydi,
Shuytib qolgan kunimda,
Nega ajal yetmaydi.

Oqamonjon, Oqamon,
Kimga dardim aytaman,
Men qizimga qarasam,
Qayga qarab ketaman.

Shunda Oqamon aytdi: – Hov, Xolyor! Oldin bizning gapga ko'nmadim, qizingni boyga bermading, berganingda bunday bo'lmas edi. Endi ko'r bo'! Arslon ham yo'q, qoplon ham yo'q. To'rt tomoning qibla, ketaver. Ajab bo'пти, xo'p bo'пти. Boy ham seni ishdan haydadi. Endi qorangni ko'rmayin,– deb jo'nab ketdi. Borib qo'ylarni topib, Ernazarning qoshiga bir cho'pon qo'shib, ikkoviga molni topshirib, ko'nglini xushlab, Nazarboyga hamma gapni borib aytdi. Bular o'z davrini surib yota berdi. Xolyor bechora ham nima qilsin, Oyto'tini jamoaga qo'shib, qizini yo'qotib, bor budi-shudini bir eshakka ortib, el-u xalqdan bir so'rab surishtirayin, shoyad yolg'izgina qizimni topolsam, – deb boshi oqqan tomonga qarab ketdi. Goh toqqa chiqib, goh pastga tushib, ko'rgan kishisidan surishtirib, it amal qilib kunini o'tkazib yura berdi. Endigi gapni Oychinordan eshiting.

Qaysar o'zining chodiridan biriga Oychinorni solib, ikki kampirga Oychinorni topshirib, kampirlarga: «Bu birovning qizi, shu qizga ko'z-quloq bo'lib tura-sanlar; kunduzi eshikka ham chiqarmaysizlar; biron jonzot bu qizni bilmasin. Agar

bildirguday bo'lsalaring, ikkovning ham joningdan umidingni uzaber», deb tayinlagan edi.

Oldin Oychinor shuncha qochaman, dedi, bo'lmadi. Yalingan bilan kampirlar ko'nmadi: – Qizim, sen ketsang, bizni tayin o'ldiradi, – dedi. Oychinor yig'ladi, siqtadi, bo'lmadi. Non yemadi, bo'lmadi. Axir taqdiriga ko'nib: «Qani, xudo bir joydan bir madad berar», deb yura berdi. Kampirlar ham o'rganib qoldi.

Bularning hammasi Andijondan qochgan edi. Qaysarbekning ota-bobosi podshohlarga vazir bo'lib kelgan. Necha urug'lari ham har joyda hokimlik vazifasida edi. Ularning hammasi xonga bilganlaricha xizmat qilib, xonning toriga o'ynab, goh xonning aytganini qilib, goh aytganini qildirib kelgan edi. Qaysarbekning yoshi ham oltmishdan oshgan, sochlari tushib, tishlari seraksib qolgan, o'zi ko'sa, iyagi uzun, qulog'i tikka, ko'zi suzik, qilig'i buzuq, osh bo'lsa tayyor, o'lguday ayyor edi.

Bobirning otasi o'lgandan keyin Bobirga vazirlik qilgan edi. «Bobir ham yosh bola, uni o'z nog'oramda o'ynataman, qilolmagan ishlarimni endi qilaman», deb o'ylagan edi. Lekin bo'lmadi: Bobir otasidan ham dono, zukko, o'zining bilganini qiladigan, o'zganing gapiga kirmaydigan bo'lib chiqdi. Hatto Qaysarning ba'zi gaplariga kulib: «Vaziring dono bo'lsa, yurtning ham obod bo'lar, vaziring bo'lsa xatak, obod yurt noobod bo'lar», deb kulib qo'yar edi. Bu gaplar Qaysarbekning jon-ponidan chiqib ketar edi. Shu vaqtlarda Shayboniyxon degan bir xon chiqib qolgan edi. Qaysar bu xonning aslzodalarga muruvvat qi- layotganini bilib, boylilik orttiraman, deb Shayboniyxon bilan gaplashib yurardi, Bobirning ko'p askarlarini chap berib Shayboniyga o'tkazib yuborgan edi. Keldiyor bilan Berdiyori ham Shayboniyning odami edi. Bobir Andijonda Shayboniy bilan ozroq urush qilib, Qaysarning gapiga uchib, Andijonni tashlab qochgan edi. Bobir qayerga qo'nsa shu yerdan bir ishkal chiqarib: «Haylo, Shayboniy keldi», deb hiyla bilan qochib, oxiri Kattapoyning ustiga kelgan edi. Bu joydan ko'p joylar ko'rinib turar edi. Bobir shu joyda turib, ekin ektirib, ot-u askarlarga ovqat topib, askar to'plab, qal'a qurib, Shayboniy bilan qayta bir kurashmoq niyatida ekanligini Qaysar bilar edi.

Bobirning nozik tomoni ko'p. Toat-ibodat qilar, xudoga qattid ishonar, shu pul bilan Qaysar ko'proq aldar edi. Oychinorni mabodo Bobir oldirib kelsa, bu isimgar qiz hamma sirmi bilib qolar, deb bunisidan ham qo'r qar edi. Shuytib Oychinorni olib kelib juda ehtiyot qilib qo'r qar edi. Ekinlar ekilib bo'ldi. Qo'rg'onlar ham bitay deb qoldi. Agar qo'rg'on bitsa, ekinlar o'rilsa, Bobirning bu joydan ketishi qiyin. So'ngra kuchayib ketishini Qaysar bilib Keldiyor bilan Berdiyorni chaqirib, qo'lga noma yozib: – Shu xatni tez Shayboniyga yetkazinglar. O'zlaring besh kunga qolmay, kechasi bildirmay qoshimga kelasizlar! – deb gapirayotir, Shunda Oychinor: – Yana bir qizning sho'ri quridi, – degan edi, kampirlar:– Yo'q, bu yigitlar Shayboniyga borayotir,– dedi. – Shayboniy nima? – dedi Chinor. Shunda kampirlar: – Bizning xonimizni Bobir deydi, u xonni Shayboniy deydi. Bu Qaysarbek bu xonning sirini u xonga yetkazib turadi. Buni bu xon bilmaydi, bilsa o'ldiradi, – dedi. «Qani nima der ekan», – deb chodirning ichida uchovi ham quloq solib turibdi. Qaysar yigitlariga qarab gapirayotir:

Quloq soling, yigitlar,
Mening aytgan so'zimga,
Yo Ali, deb mininglar
Eshikda oq bo'zimga.

Ayamanglar qamchshsh,
Ustma-ust qip beringlar.
Bundam nozik ishlarni
Hech kimga bildirmanglar.

Gohi-gohi jonlarda
Otlarni to'q qilinglar,
Bilib qolsa birovi,
Nomani yo'q qilinglar.

U yoqda ham hech kimga
Bildirmayin beringlar,
Nomani Shayboniyning
O'z qo'lga beringlar...

O'n besh kunga qolmayin,
Lashkarin tortib kelsin,
Chaparlarni tuyaga
Qoldirmay ortib kelsin.

Ishni keyin soldirsa,
Bobir ketar kuchayib,
Menman degan polvonni
Tepsa qiladi mayib.

Ne ish qilar, hammasin
Nomaga yozib qo'ydim,
Ko'rmasin deb hech kishi,
Ko'rsatmay to'yib qo'ydim.

O'n to'rt kundan narmag'an
Men ham ishim boshlayman,
Agar bilsa shul Bobir,
Ikki ko'zim yoshlayman.

Agar gapimga yursa,
O'zini ushlataman,
Asir bo'p qo'lga tushsa,
Go'shtini tuzlataman.

Donolarning donosi,
Bir oy ushladik denglar,
Ep ko'rarmi o'ziga,
Javobni olib kenglar,

Boring ollo yor bo'lsin,
Pirlar madadkor bo'lsin
Sizni ko'rdim deganning
Ikki ko'zi ko'r bo'lsin.

Javob olib navkarlar
Otga urdi qamchini,
Cho'pchib otdi bedovlar,
Olguday Chin-mochinni.

Bosgan yer qolayotir .
O'raday bo'p buzilib,
Ketayotir bedovlar
Ipakday bo'p cho'zilib.

Ketayotir Berdiyov
Keng dunyoni qilib tor,
Qichayotir Keldiyov
Yaxshini ham qilar xor.

Ketayotir navkarlar
So'na quvgan tanaday,
Oqsasida Qaysari
Har baloga panaday.

Haydayotir navkarlar
Qopga tiqqan somonday,
Qoboqlari uyulgan
Tayoq yegan qobonday.

Egarda o'tirishi
To'badagi g'ajirday,
Ranggi oqarib ketgan
Kulni tashlagan yerday.

Gapirganda so'zlari
Bol yo'qotgan zombirday,
Ochganida og'zini
Xuddi o'yilgan go'rday.

Tikka chiqsan qulog'i
Jardagi chakamiqday,
Burnining g'o'dirligi
It tashlagan kamikday .

Qichagandan qichadi,
Tog'lar oshib boradi,
Gohi-gohi jarlarga
Tikka tushib boradi.

Goh chorbog'li joylardan
Tikka o'tib boradi,
Suruv-suruv qo'ylerden
Cho'rta kesib boradi.

Borib qolsa ovulga,
Iti quvib qoladi,
Bedovlarning boshiga
Kunlar tuvib boradi.

Karvon chiqsa oldidan,
Bari qarab qoladi,
O'g'irimi deyishib,
Kim, deb so'rab qoladi.

Oldidan chiqsa poda,
Birdan hurkib boradi,
Kim, deyishib cho'ponlar
Bari qo'rqib qoladi.

Yuragi bor cho'ponlar,
So'kayotir izidan,
Tezda pana bo'ladi
Ko'rganlarning ko'zidan.

Shunday qilib ikkovi
Shahrisabzga boradi,
Shayboniyning qo'liga
Tanin xatni beradi.

Shayboniydan javob op,
Berman qaytib jo'nadi,
Ne bir-ne bir sardorlar
Buni bilmay qoladi.

To'rtinchi kun kechasi
Yetib keldi navkarlar,
Shayboniyning gapini
Aytib keldi navkarlar.

Hech bir kishi bilmadi
Bular qilgan ishini,
Xursand bo'lib Qaysarbek
Qashiy berdi boshini.

Bugun yotib Berdiyori,
Erta bilan turinglar,
Chetda Sayxan ustani
Bunda olib kelinglar.

– Xo'p, – deyishib ikkovi
O'rin solib yotadi.
Erta bilan Qaysarbek
Bularni uyg'otadi.

Shunda Qaysarning ikki navkari hamma ishni bitkazib, nomani Shayboniyga yetkazib, hech narsa ko'rmaganday bo'lib joyidan tura berdi. Qaysar aytdi: – Navkarlar, endi gap bunday: kechqurun hamma ishdan bo'shaganda, chetdagi usta Sayxanni, ziyofatga yuring, deb olib kelinglar. Zinhor boshqa kishiga sezdiranglar. – Xo'p, – deb navkarlar ketdi. Bugun ham kun botdi. Odamlar ishdan chiqdi. Berdiyori asta usta Sayxanning qoshiga borib: – Vaziri a'lo sizni ziyofatga taklif qildi, bormasangiz bo'lmas, – dedi. – Mendan ham boshqa kishilar boradimi? – dedi usta Sayxan. – U yog'ini bilmayman, menga sizni tayinlagan, – dedi Berdiyori. – Undog' bo'lsa, yuring, boraylik, – deb kechasi Qaysarning chodiriga keldi. Taomlar tortildi. Qaysar Keldiyori bilan Berdiyoriga javob berib, usta Sayxanga aytdi: Usta Sayxan, sizga bizning ham bir ishimiz tushib doldi, yo'q demasapgiz aytay? – Ayting, – dedi Sayxan, – sizday bir aziz kishining ham gapini yo'q deymizmi?!

– Undog' bo'lsa, – dedi Qaysar, – menga bir nog'ora yasab berasiz, boz ustiga bir oshiq ham qilasiz, oshiqni nog'oroga tashlasa, faqat umma bo'lib tursin. Bu ishni eplay olsangiz yuz tilla beraman. Yana biri shulki, bu ishni hech kishi bilmasligi kerak. Agar biror kishi bilsa, Bobirshoh ikkimizning ham boshimizni oladi. Bilmadim, nima uchun bu nog'ora Bobirshohga kerak ekan?! U kishi bu ishni faqat sizga tayinladilar, – dedi.

Usta Sayxan aytdi: – Podshoh buyurgan bo'lsa, uni qilish bizga vojib, lekin nimasini xalqdan yashirar ekan?! – Asliga tortgan-da, – dedi Qaysar. – Temurlang biron ishni elga bildirmas edi. – To'g'ri, – dedi usta, – menga buni muhlatini bering. – O'n kunda bitirasiz! – dedi Qaysar. – Mayli, o'n kunda bitkazib beraman, – deb usta joyidan turdi. Qaysarboy pulini berib, ustani uyiga jo'natdi. Oradan o'n kun o'tdi. O'n birinchi ko'pi kechasi Qaysarning uyiga usta berkitilgan nog'orani olib keldi. Qaysar uyidagi hamma kishilarga ruxsat berib, ustadan nog'ora bilan oshiqni oldi. Nog'oraning ustiga

oshiqni tashladi, umma turdi. Uzoqdan turib necha marta tashladi, baribir oshiq umma tura berdi. Qaysar: – Ruxsat, – deb yana yuz tillani berib, hech kimga aytmasligini eslatib, ustani ham jo'natdi.

Erta-mertan tong otdi, Berdiyori bilan Keldiyorni chaqirib aytdi: – Sen Berdiyori, agar Bobir nog'orani olib kel desa, shul nog'orani olib borasan, sen Keldiyori, shul oshiqni olib yurasan, «Kimda oshiq bor?» desa «Menda», deb berasan, – dedi.

Oradan bir-ikki kun o'tdi. Kun ham choshtgoh bo'p ketdi. Bobir chodirida hamma mulozim, akobir, oqsoqollari bilan o'tirgan edi. Bobirning qorovul –sardori hovliqib kelib, gapirishga ijozat so'radi, ijozat olib: – Ey, shahanshohim! Hamma soy-soydan beadat chang ko'tarilayotir, unda-munda ot chopib panaga enayotir. Navkarlar ko'rindi, Shayboniy bizni g'afatda qoldirmasin! – dedi. Bobir bu ishga hayron bo'ldi. – Hozircha kelmasligi kerak edi, Shayboniy bu vaqt yurmasa kerak edi. Yoki yolg'onmikan, – deb beklari bilan qo'rg'onga kelib, durbinini olib qaradi, ko'rdi, Tangiharamdan Chashmiobzangacha soy-soydan beadat chang ko'tarilayotir. Unda-bunda to'da-to'da navkarlar chiqib, tezda soyga qarab enib borayotir. Bular sopga ensa, yana boshqa selgadan navkarlar ko'rinayotir. Changning chiqishidan lashkarlarning soni hisobsiz edi. Bunga Bobir teng kelolmasligini o'ylab turgan edi, qo'rg'onning pastidan oq bayroq ko'targan bir otli ro'baro' bo'lib, qichqirib:

– Bobirni chaqiringlar! – dedi. – Bobir shu yerda, – deb tovush berdi. Shunda haligi otliq: – Ey, Bobirshoh, urush qilasizmi, yoki yurtni bizga tinchgina topshirasizmi? – dedi. Shunda Bobir:

– Hov, elchi, bu joy Shayboniyning chegarasiga kirmaydi. Agar chegarasi bo'lsa yozgacha ruxsat beramikan, – dedi, Shunda elchi: – Shayboniyning chegarasi bu yog'i Xo'ton, bu yog'i Amu. Shayboniy bunga ruxsat bermaydi, – dedi. Shunda Bobir:

– Bo'lmasa, biz bukun o'ylashib ko'raylik, javobini tongla beramiz, – dedi. Elchi rozi bo'lib iziga qaytdi.

Shayboniy Qaysarning gapi bo'yicha otlarga chaparlarni sudratgan edi. Soy-soyda yigirmata, o'ttizta navkar bo'lib, ot chopib, chapar sudratib, changitib yotgan edi. Ba'zi navkarlar tepaga chiqib, bir ko'rinish berib qo'yar edi. Bo'lmasa, Shayboniyning lashkari ham Bobirning lashkaridan uncha ko'p emas edi. Shayboniy Bobirning urush qilishidan qo'rqqan edi. Shuytib hiyla ishlatib yurar edi. Bularning hiylasini Bobir bilmas edi. Sirni bilishga yuborgan navkari dom-daraksiz ketar edi. Uning ishini Keldiyori bilan Berdiyori saranjomlar edi.

Shuytib Bobir chodiriga qaytib, barcha mulozimlari bilan maslahat qila berdi. Biror fikrga kelolmadi. Bir xili: «Ketamiz», desa, bir xili: «Endi qayga bora-miz, bir olishib ko'ramiz», der edi. Vaqt ham yarim kechaga bordi. Shunda Qaysar: – Ey shahanshohim, menda bir fikr bor; Bir nog'orani olamiz, ustiga oshiq tashlab ko'ramiz. Olchisi ham bizniki; tahasi ham, chikkasi ham bizniki; pikkasi ham, ummasini Shayboniyga beramiz. Xudo yor bo'lib, payg'ambar madadkor bo'lib nasibamiz shu joydan tortib turgan bo'lsa, nog'oraga oshiqni tashlasak, o'zimizniki tursa, unda bu joylarni Shayboniyga bermaymiz. Urishsa, urishamiz, surishsa surishamiz. Agar Shayboniyga nasib qilib, oshiqning ummasi tursa, unda nima qilamiz, indamay keta beramiz, yurtni Shayboniyga beramiz dedi. Bu gap barcha mulozimlarga ma'qul tushdi. «Baribir oshiqning ummasi turmaydi», – deb bir xillari qilichini ushlab-ushlab qo'ya berdi.

Shunda Qaysar: – Nog'orabozni chaqir! – dedi. Berdiyori keldi. – Nog'orangni olib kel! – deb farmon berdi. – Kimda oshiq bor? – dedi. Mulozimlarning bironasidan oshiq chiqmadi. Shunda eshikda qorovul turgan Keldiyor: – Menda oshiq bor, – dedi. Nog'orani yotqizib, qo'lga oshiqni olib, barcha yaxshilarga, aziz avliyolarga sig'inib Bobir oshiqni tashladi. Oshiq umma turdi. Hamma hayronu lol bo'lib qoldi. Bobir yana ikki marta oshiqni tashladi, oshiq umma turdi. Bobir kallasini xam qilib, o'ylanib qoldi, so'ngra beklariga aytdi: – Hov, beklar, bo'lmadi, yuklarni hozirlanglar, erta saharda bu joylardan jo'naymiz.

Qaysar ham chodirga kelib, bir ko'ngli qochmoqchi bo'ldi. Lekin Shayboniyning gapiga binoan suvdan o'tkarishi kerak edi. Shuning uchun bu ham yuklarni ortib, Oychinorga bir momoning kiyimini kiydirib, bor xotinni oldiga qo'yib, bir tuyaning ustiga mindirib qo'ydi.

Erta sahar Bobir lashkari bilan, qancha sardori bilan yo'lga tushib jo'nay berdi. Oychinor ham qayoqqa borishini bilmaydi. «Enamdan-ku, ayrildim, endi otamdan ham ayrildim», – deb ko'zini yoshlab, manglayiga mushtlab ketib borayotir.

Butun jahon yoruqdi
Osmondagi bir oydan,
Farmon bilan otlandi
Sop navkarlar har joydan.

Burgi qattiq chalindi
Sardorlarning qo'lida,
Isfihonlar yaltillar
Navkarlarning belida.

Yuk ortilgan tuyalar
Qator-qator tizildi,
Bir xil-bir xil odamning
Ko'ngillari buzildi.

Ba'zi bir xil odamning
Ko'kraklari yozildi,
Hay attang, deb nechanning
Ko'zdan yoshi tizildi.

Pishqirgan bedov otlar
Beli mahkam tortildi,
Aravalar ustiga,
Ashraf to'plar ortildi.

Sardorlar ketayotir
Kumush egar ustida,
Chappa bo'lib o'ynaydi
Sap tulporlar ostida.

Tilla yalatgan kamar
Amirlarning belida,
Shamolda hilpiraydi,
Ol bayroqlar qo'lida.

Mash'albozlar mash'alini
Yoqib ketib boradi,
Bahordagi selday bo'p
Oqib ketib boradi.

Jarang-juring qo'ng'iroq
Tuyalarga taqilgan,
Tolmaydi bedov otlar
Olti oylab boqilgan.

Tog' ustidan lashkarlar
Pastga taylab boradi,
Nechovlari tebranib
Otda o'ylab boradi.

Lashkarlarning jo'nashi
Ko'kdan bulut ko'chganday,
Otning yerni tepishi,
Shaftoli to'kilganday.

Ivirsinib jo'nashi
Yerdagi chumoliday,
Yoyilishib yurishi,
Boyning suruv moliday.

Oldinda borar Bobir,
Atrofida sardorlar,
Ot pishqirgan damiga
Erir tog'dagi qorlar.

Sassiz yig'lar nechalar,
Ayrildim, deb elidan
Ko'z yosh to'kar nechalar
Umid uzib ulidan.

Nechovlarning ortida
Og'asi qop boradi,
Nechovlarning o'g'lim, deb
Otasi qop boradi.

Oychinor ham tuyada
Asta qarab boradi.
Ko'ngli tomdagi qorday
Shovshab erib boradi.

Kimga aytsin dardini,
Ichi yonib boradi,
Qiyg'ir ushlagan qushday
Ko'zi tinib boradi..

– Qurisin-da zolimlar,
Madorimdan ayrildim,
Dod deganman ne qilay,
Padarimdan ayrildim.

Orqa sochim taragan,
Tor siynamdan ayrildim,
Qafasdagi qushday bo'p
Men enamdan ayrildim.

Ola tog'ning boshida,
Oppoq qorlar erisin,
Mushtiparimni urgan
Zolim qo'ling chirisin.

Ne qilayin, enajon,
Qaytib olay o'chimni,
Xudo, ul qip yaratib,
Bermading-da, kuchimni.

Zolimlarning barini
Bir boshidan qirmadim,
Boyning molini talab
Kambag'alga bermadim.

Nuri ketib boradi
Osmondagi oyimdan,
Boz ustiga ayrildim
G'amxo'r qiblagoyimdan.

Otajanim, oltinim,
Qayda qolding munkayib,
Eshigi ochiq uyning
Qoldimikan besoyib.

Seni desam, otajan,
Ko'zim tinib boradi,
Enam, desam bukchayib,
Belim sinib boradi.

Enam ketib sen qolding.
Tik qadding bukoldimn,
Bolam, deb meni izlab,
Yoshlaring to'kildimi!

Otajanim, yig'lama,
Eson bo'lsam kelarmen,
Xudodan umiringni
O'lgunimcha tilarman.

Ne qilayin, otajan,
Ne ish kelar qo'limdan,
Ko'zim tinib boradi,
Tushgan bunday zulmdan.

Nor tuyada Oychinor
Yig'lab ketib boradi,
Zirqiragan boshini
Bog'lab ketib boradi.

Hech uchi yo'q uzun yo'l
Tinmay ketib boradi,
Uzoqdan ham uzoqqa
Qo'nmay ketib boradi.

Na kunduzi to'xtaydi,
Kechasi yo'q halovat,
Kecha-kunduz yurishi
Bo'ldimikan yo odat.

Sayrob degan joylardan,
Saharda o'tib ketdi,
Sherobodday makondan,
Nahorda o'tib ketdi.

Angor degan joylardan,
Kunduzi o'tib ketdi,
Oyto'tining yolg'izi,
Yulduzi o'tib ketdi.

Yetdi Termiz shahriga,
Bor kemalar yollandi,
Ortib borgan yuklari
Kemalarga joylandi.

Tinmay haydab kemalar
Tashiyotir yukini,
Yuki uchun tortinmay
Olayotir haqini.

Bir kecha-yu kunduzda
Amu suvi loylandi,
Amuning naryog'iga
Bedov otlar boylandi.

Zarba qilib yerlarga
Uy qoziqlar qoqildi,
Ipak bilan bezalغان
Oq chodirlar tikildi.

Oq chodir, ko'k chodir har joydan tikilayotir. Amuning narigi tomoni g'ala-g'ovurga to'lib ketdi. Hamma o'z-o'zini, o'z tashvishini qilayotir. Qaysar dam o'z chodirini eng chekka joyga tiktirib, biriga xotinlari, biriga momosi bilan Oychinorni, biriga o'zi kirib: «Qanday qilib qochsam ekan. Agar bular bilan bundan bu yog'iga keta bersam, so'ng kelolmasman», deb qochishning rejasini tuza berdi.

Oradan bir kun o'tdi. Shayboniyning lashkarlari ham Amuning bu tomoniga chodirlarini qura berdi. Yana oradan bir kun o'tdi. Ertasiga Bobir mulozimlarini chaqirib: – Bu kun ham turasiz. Ertaga ertalab bu joydan jo'naymiz, tayyorgarlikni ko'ra beringlar,– deb farmon berdi. O'zi esa, ertalab daryoning bo'yiga kelib Shayboniyini chaqirdi. Shayboniy ham javob berdi. Bobir aytdi:– Ey, Shayboniy senga aytadigan gaplarim bor. Menga bu joylarning taomi nasib qilmadi. Menga nasib qilmaganlar senga nasib qildi. Endi men senga aytayin, sen javob ber! O'ng qo'limda bir narsa bor: suyuqdan qattiq bo'lgan. Otini aytsa quv kalladan suv keladi, bu nima?

Shayboniy o'ylab turib: – Buning nomi durut,– dedi.

– Chap qo'limda bir narsa bor: o'zi bir yumaloq, ichida ming yumaloq, bu nima? Shayboniy buni ham: – Anor bo'lmasa, – dedi.

– To'g'ri, – dedi Bobir.

– Endi senga oxirgi savolim bor: Daraxtning silkinishi nimadan?

– Daraxtning silkinishi o'zidan chiqqan qurtning ta'siridan.

– Hamma gaping to'g'ri, Shayboniy, – dedi Bobir, – endi bizni quvib yurmoqdan na hojat?

– Endi quvib bo'ldim, ba'zi narsalarni o'rgandim. Mening oxirgi chegaram shul, – dedi Shayboniy.

– Xo'p, – dedi Bobir. – O'z yurtimga eson bo'lsam bir qaytib kelarman, armonda qolma,– deb askarlariga yo'lga tushishga farmon berdi. Hamma yukini orta berdi, otning beligi torta berdi, beliga kamarini, kamariga qilichini boylata berdi. Hamma o'z boshiga harakat qilib, yo'l taraddudini qila berdi. Oldin bo'lganlar yo'lga tusha berdi. Keyin qolganiga sardorlar: – Bo'lchi-bo'l, – deb do'q, qila berdi. Endigi gapni Qaysar bilan uning navkarlaridan eshitgan.

Amuning yoqasi to'qayzor edi. Oldinroq borib, odamlarning ko'zidan ertaroq pana bo'lib, yo'lini burib oldi. Katta qamishning ichiga kirib, yukini tushirdi. Keldiyor turib aytdi:–Ey, amir! Bu qizni nima qilamiz?–Bu qizni, – dedi Qaysar, – Shayboniyga tortiq qilib, kanizak qilib beramiz. Endi ertaroq Amuning yoqasiga borsak, kemaga yukni ortsak, bo'ldi qutulganimiz.

Bu gaplarning hammasini Oychinor eshitib, bularning niyatini bildi. Ko'nglida aytdi: «Endi eshakka ortilgan yukday bo'lib indamay tursam, bular nimalar qilmaydi. Endi qizlar qilmagan ishlarni qilayin, qizlar yurmagan kuldan yurayin. O'lsam, o'layin, odam tuxumidan qo'rqmayin. Shuncha vaqt qizlar ibosi bilan keldim. Endi yetar, Bobiri qanday odam bilmadim. Lekin bu Qaysar sotqin, ayyor ekan. Iloji bo'lsa, bir Bobirga ko'ndalang qilay, undan keyin otamni topay», deb joyidan turib, asta-asta qadam bosib Keldiyorning otiga yetdi. Qarasa, ot egarlovli, qilich egar boshiga ilingan turibdi. Asta ot jilovidan ushlab, uzangiga oyog'ini qo'yib, pirim, deb otga osildi. Shu vaqt Berdiyori: – Anovini qaranglar –deb shoshib qoldi. Uchovi ham shoshib Oychinorga tashlandi. Oychinor otning beliga minib, qilichini egarning boshidan olib, yuzidagi chimmatini havoga otib, qobog'ini uyib, bilagiga kuchini yig'ib, qoyadagi burgutday bo'lib tura berdi.

Er boshiga ish tushsa,
Etik bilan suv kechar
Mard boshiga ish tushsa,
Tortinmay jondan kechar.

Qiz boshiga ish tushsa,
Bilmadim, nedan kechar?!

Buni deydi mushtipar,
Holi bo'lmasin nochor.

Tetik tutdi o'zini,
Dilga joylab so'zini,
Burgutday qip tiklatdi,
Avval sipo ko'zini.

Yumshoq pardayin qo'li
Oq po'latga aylandi,
Gulday nozik bilagi
Nor beliga aylandi.

Kamon edi qoshlari,
Yondiruvchi o'q bo'ldi,
Qo'rquv, uyat degan so'z
Soyadayin yo'q bo'ldi.

Kiyik edi tog'dagi,
To'qaydagi sher bo'ldi,
Past edi-ku nazari,
Endi baland qir bo'ldi.

To'ti edi qafasda,
Bozorlarda sotilgan,
Burgut bo'ldi silkinib,
Ming yigitga tatilgan.

Miltiq otsang qobonga,
Joni uchun talashar,
Jabr o'tsa odamga,
Yuki bilan qir oshar.

To'ydi Chinor joniga,
Qoni qizib suyuldi,
Ushlagan qilichidan
Urmay qonlar quyuldi.

– To'xta, – deydi Berdiyori,
Qizni pisand qilmaydi,
So'kayotir Qaysarbek,
Nazariga ilmaydi.

Qo'rqanmikin Keldiyor,
Hech oldiga kelmaydi,
Ot ustida Oychinor
Bular gapin olmaydi.

Abjirlik kip Berdiyori
Ot jilovin ushladi,
Isfihonni Oychinor
Berdiyorga tashladi.

Pichoq xamir kesganday
Yerga tushdi kallasi,
To'zib qoldi joyida
Duxoba oq sallasi.

Otni qistab Oychinor
Keldiyorga yetadi,
Qo'lidagi qilichni
Bo'ynin silab o'tadi.

O'ylamagan kallasi
Yerga tushib o'ylandi,
Jonni olgap qo'llari
O'z-o'zidan boylandi.

Qo'rqib qolgan Qaysarbek
Ne qilarin bilmaydi,
Endi bildi, bu zaif
Qochgan bilan qo'ymaydi.

Shang'illaydi qulog'i,
O'lim keldi deganday,
Dirillaydi badani,
Bo'ri tortib yeganday.

Og'zi qoldi ochilib,
Yalmog'iznig go'riday,
Burni ketdi tirishib,
Is bo'p ketgan mo'riday.

Sipo edi bu Qaysar,
Kiyinishi xo'jaday,
Endi qoldi shalvirab,
Suvdan chiqqan jo'jaday...

Ot ustida Oychinor
Qarab turdi bir maydon,
Beli qolgan bukilib,
Ter oqadi har joydan.

Shunda Oychinor ko'nglida aytdi: «Zarba o'tsa, erkaklar ham qizlardan shuncha qo'rqr ekan-da? Nega avvalroq shu ishni qilmadim, buning jonini Alamida olmadim. Kel, bo'lari-bo'ldi. Bu joyda o'ldirib ketmayin. Buning ishi- dan Bobirni ham bir xabardor qilayin. U qanday jazo beradi, ko'rayin», – deb Qaysarga qarab, bir so'z deb turibdi:

Sirting odam bolasi,
Iching – jayra yo'lon,
Sensan odam olasi,
Nima tirik sen bilan.

Keng dunyoni sen betak,
Yaxshilarga tor qilding,
Odamzod bolasini
Ne sababdan xor qilding?!

G'ariblarni ko'rganda
Nega quzg'un bo'lasan,
Senda qudrat, kuch bo'lsa,
Odamzodni qirasani!

Xizmat qilib Bobirga,
Berganiga ko'nmading,
Qora ekan qilig'ing,
Bu qiliqni qo'ymading.

O'ylab tursam sotibsan
Ham elingni, yurtingni,
Po'lat bilan tildiray,
Endi sening urtingni.

Nima qildim men senga,
Ne sababdan boylading,
Mushtiparim enamni
Qaro yerga joylading?!

Otam sho'rli qaylarda
Voh, bolam, deb yurgandir,
Balki sening tushingda
Senga jabr qilgandir.

O'zing aytgin, ey, jallod,
Arpangni xom o'rdimmi,
Yetmish yoshga kirguncha,
Seni biror ko'rdimmi?!

Enam desam, bu tanam
Yoyday bo'lib bukilar,
Bulut bo'lib qobog'im,
Tinmay jala to'kilar.

Qilmishingga sen qonxo'r,
Bu kun javob berasan,

Yaxshilikka yaxshilik,
Sen-chi, nima olasan?!

Qarang endi Qaysarni,
Endi tilga kiradi,
Dalda berib o'ziga,
Qaddin tiklab turadi.

– Aylanayin, qiz jonim,
O'rgulayin, qiz jonim,
Bir martaga rahm qil,
Mehribonim, qiz jonim.

Ne sababdan otangni,
Bolam, mendan so'raysan,
Ne sababdan, enam, deb
Atrofingga qaraysan?!

Yetim qiz, deb beklarim
Bunda olib kelgandi,
Qarovi yo'q, qoldi, deb
Menga sovg'a qilgandi.

Savob uchun men seni
Darrov qabul qilgandim,
Qizim yo'q, qiz bo'lsin, deb
O'zim ota bo'lgandim.

Buncha jabr ko'rganing
Qaydan bilay, qiz jonim,
Ota-onang qolganin
Kimdan so'ray, qiz jonim.

Endi menga qiz bo'lgin,
Beray harna borimni,
Sendan sadaqa qilay
Qator-qator norimni.

Sochlaringga, jon qizim,
Tilla, gavhar taqtiray,
Kaniz qilib qirq qizni
Oq ko'shkingda boqtiray.

Zeb-u ziyinat taqtirib,
Kuymaganni kuydiray,

Mushk-u anbar septirib,
Suymaganni suydiray.

O'zing suygan yigitga
Men berayin, jon qizim,
Davlatningda yonboshlab
Jon berayin, jon qizim.

Qur'onni ol xurjundan,
Ushlab qasam ichayin,
Sening uchun, jon qizim,
Shirin jondan kechayin.

Qaysarning bu gapini
Tinglayotir Oychinor,
Qasam ichar yolvorib,
Qo'ndirsam der hiylagar.

Ot ustida Oychinor,
Bu gaplarga kuladi,
Ishontirdim, deb Qaysar
Qiz jonim, deb jiladi.

Qosh-qobog'i kerilib,
So'zlayotir Oychinor,
Hali ko'pdir murodi,
Ko'zlayotir Oychinor.

– Sening oting Qaysarбек,
Qon yalamay yurolmas,
Bechorani ko'rganda,
Boshin uzmay turolmas,

Chayon bo'lib chaqasan
Odamzodni ko'rgapda,
Ilon bo'lib avraysan
O'zingdan zo'r ko'rganda.

Ichi qora niyating,
O'lsang-da oq bo'lmaydi,
Sut bilan kirgan narsa
Chiriganda ketmaydi.

Qora ko'mir qoradir,
O'zing oq qil, ko'rayin,
Bu qilichni kasov qil,
So'ngra men tan berayin.

Ota degan ulug' so'z
Ketsin sening o'zimgga,
Mol turganda bola ham
Ko'rinmaydi ko'zimgga.

Shul so'zdan so'ng Oychinor
Otni qistab boradi,
Ilib oldi yoqadan,
Bedovga o'ngaradi.

Qamchi urib choptirib,
Ketdi lashkar izidan,
Qirqib chiqdi Oychinor
Lashkarlarning oldidan.

O'zi hayron Oychinor,
Qaydan keldi bunday kuch,
Yo'lning qoq o'rtasida
Bobir bo'ldi duchma-duch.

Podshoh bunday qaradi,
Vazir otda osilgan,
Ot ustida qiz bola,
Qilich belga taqilgan.

Bobir bu ishlarni ko'rib, hayron bo'lib, qizning ishiga achchig'i kelib,
Oychinorga qarab, bir so'z deb turibdi:

Qizmisan, yo ulmisan,
O'zim bo'ldim hayrona,
Katta vazir oldingda,
Bo'пти ko'ngli vayrona.

Dostonlarda aytilgan
Yoki uchar jinmisan,
Ertaklarda aytilgan
Osmondagi kunmisan?!

Oldingdagi vazirni
Ne sababdan boylading,
Ortgan mol-u mulkini
Qayonlarga taylading?!

Botirdan zo'r turishing,
Qobog'ingdan qor yog'ar,
Mustar turar vazirim.
Yo bo'ldimi gunohkor?!

Nega kelding bu joyga,
O'zing qaydan bo'lasan,
Ne sababdan vazirni
Boylab bunda kelasan?!

Vazir bo'lsa gunohkor,
Gunohini so'raynn,
O'zing bo'lsang gunohkor,
Ta'ziringni berayin.

Ot ustida Oychinor
Qaddin rostlab qaradi,
Bobirning bul gapiga
Endi javob beradi:

– Mening manzil-makonim
Kattapoyning ustidan,
Kuya-kuya kul bo'ldim
Bu zolimning dastidan.

Bobir ikki navkari
Zo'rligini bildirdi,
Onamni der Oyto'ti,
Bu zolimlar o'ldirdi.

Otam qoldi bir o'zi,
Sarsonlar bo'p yurgandir,
Katta-katta toshlarga
Manglayini urgandir.

Uyga boylab o'zimni,
Qunduzi chiqarmadi,
Nega bo'ldim gunohkor,
Biror narsa demadi.

Shayboniyga navkarin
Noma yozib yubordi,
Lashkar tortib kelsin, deb
Bera berdi xabardi.

Usta op kep kechasi,
Nog'orani yasatdi,
Turdi oshiq ummasi,
Bu hiylani o'xshatdi.

Tushunmadim, bunisi
Nima uchun kerakdir,
Oldimdagi bu vazir
Asl qora yurakdir.

Bugun lashkar jo'nadi,
Bu burildi iziga,
Qochib o'tmoqchi bo'ldi
Shayboniyning o'ziga.

Davr surmoqchi bo'ldi,
Bek bo'p turmoqchi bo'ldi,
Shayboniyga nikoh qip,
Meni bermoqchi bo'ldi.

Bo'larimni bilgan so'ng
Dalda berdim o'zimga,
Keng dunyo uzukcha
Ko'rinmaydi ko'zimga.

Borib mindim bedovga,
Navkarlarni o'ldirdim,
Bandi qilib o'zini
Mana bunda keltirdim.

Oychinor bu gaplarni aytib, Qaysarni otdan tushirib qo'ydi. Bobir bu ishlarni eshitib, qahri kelib, qobog'i uyulib, Qaysarbekka qarab: – Qani ayt, Qaysar! Shu gaplar rostmi? Nog'orachi, sen ham o'sha nog'orani olib kela ber! – dedi. Shunda Qaysarbek o'zini Bobirning oyog'i ostiga tashlab, bo'g'ini bo'shab, ko'zini yoshlab, badani jo'shib: – Ey, shahanshoh, men qulingizni kechiring! Men hamma gunohlarimni bo'ynimga oldim. Mening Shayboniyga xabar berganim, unga ko'maklashganim rost. Endi mening bir qoshiq qonimdan keching. Men o'lgunimcha sizning sodiq itingiz bo'layin, – dedi. Shunda Bobir: – Bu qizni nega xo'rlading? – dedi. – Bu qizdan xabaringiz yo'q. Esingizda bo'lsa, bir Nazar degan boy kelib qalinini aytgan edi, Shunda siz qizning aqliga tasanno aytgan edingiz. Men shunda: «Bobir buni olib kelsa,

aqli bo'lsa, mening ham sirimni oshkor qilmasin», deb oldirib keltirdim. Lekin otanasidan xabarim yo'q,—dedi.—Ha, ilon bolasi! Shayboniy menga hozirgi savolni aytdi—yu, men uning kim ekanligini bilmadim, sen ekansan-ku! To'g'ri, qurtсан, har doim qurtligingcha qolasan. Jallod! — dedi. Qaysarning dodi-voyiga quloq solmadi. Jallodlar bo'yini uzib: — Endi ne qilarsan, — deb bir so'z aytib turibdi:

Quloq solgin, Oychinor,
Senga aytay so'zimni,
Ko'rmasam ham o'zingni,
Eshitganmap so'zingni

Donolarning donosi,
Har ish kelar qo'lingdan,
Quvvat olar taqqanda
Isfihon ham belingdan.

Bugun bildim Qaysarni,
Endi ko'zim ochildi,
Shundayning qilig'idan
Taxtim sassiz yiqildi.

Yoki yoshlik qildimmi,
Tergab-tergab bilmadim,
Yemoq tuzalar dedim,
Tandan jonni olmadim.

Qo'ynimdagi oltinim
Ilon bo'lib o'rladi,
Belimdagi kamarim
Ushlamoqqa to'r oldi.

Do'st deb kasov ushlasam,
Dushman bo'ldi o'zimga,
O'ylasam keng dunyo
Tor ko'rinar ko'zimga.

Qildim bobom ishini,
Kopir, deb gap tarqatdi,
Avliyoga sig'indim,
Imonsiz, deb toh otdi.

Mayli, ketsa, taxt ketsin,
Eson bo'lsin muna bosh,

Ezilarman gohida
Qolib ketdi qarindosh.

Yig'ib olsam hushimni
Yana bir bor kelarman,
Hech qilmagan inshimni
Qayta boshdan qilarman.

Har o'ylasam elimni,
Eziladi yuragim,
Har yurtim deb o'ylasam,
Titiraydi badanim.

Oychinorjon, Oychinor,
Menga singil bo'l endi,
Yurt-elim deb sog'insam,
Menga hamdard bo'l endi.

Sen tilasang boshimni,
Qilich bilan kesayin,
Sening uchun daryodan
Etik bilan kechayin.

Men niyatimni aytdim,
Ixtiyoring o'zingda,
Men bilmayman, Oychinor,
Kimlar qolgan izingda?!

Bu gaplarni eshitib, Oychinor ham bir so'z deb turibdi:

Qiyomatli akam, deb
Singil bo'lay mayliga,
O'sayin, deb bog'ida
Bir gul bo'lay mayliga.

Lekin, aka, siz bilan
Ketolmayman, dardim bor,
Ayta bersam dardimni,
Erib ketar togda qor.

Qayda qoldi, bilmayman,
Enajonim mozori,

Bizlarga ko'p o'tgandir
Dushmanlarning ozori.

Qiblagohim qaylarda,
Meni so'rab yurgandir,
Esiz, baxtim qora, deb
Manglayiga urgandir.

Topib olib otamni
Manglayidan silayin,
Farzand bo'lib oldida
Hikmatini qilayin.

Ul ko'rmadi, qiz ko'rdi,
Men ham ulday bo'layin,
Menga berdi jonini,
Men ham borim berayin.

Mendan boshqa kimi bor,
Kimnikiga sig'adi,
Birovdikka non desa,
Ayamaydi, so'kadi.

Farzand qilib netadi,
Qaro kunda chopmasam,
Bola qilib netadi,
Yiqilsa suyamasam.

Mendan boshqa yiqilsa,
Tog'i yo'q, tiragi yo'q.
Menga ulug' jonimday,
Boshqaga keragi yo'q.

Javob bering, akajon,
Izlab-izlab topayin,
Soy-qirlarga otam, deb
Topganimcha chopayin.

Agar topsam halovat,
O'z joyimda qolarman,
Otam gapga ko'ndirsam,
Sizni izlab kelarman.

Bu gaplardan Oychinor
Bek Bobirga aytadi,

Otining boshin burib,
Keyin qarab qaytadi.

Xayr, dedi bek Bobir,
Doim bo'lgin salomat,
Hech boshingga tushmasin,
Odamzoddan qiyomat.

Ehtiyot bo'l yo'llarda,
Bek Shayboniy ko'rmasin,
Bobirning odami, deb
Ko'p qiynoqqa solmasin.

Bedovingga qamchi sol,
Qara qiblagohingni,
Parvardigor baxt bersin,
Eshitsin-da, ohingni.

Topib olsang otangni,
Izlab kelgin qoshima,
Tilla, zarlar sochayin,
Agar kelsang boshingga.

Agar nasibang tortsa,
Andijonga bir borsang,
Unda Qambar degan bor,
Izlashtirsang-da, topsang.

Bu belgini op borsang,
Ne desang-da, beradi,
Xizmatingga har doim
Tayyor bo'lib turadi.

Qop ketibdi deb aysang,
«Bobirnoma», g'azallar,
Yana boshqa kitoblar,
Kitob emas, asallar.

Yana qolib ketibdi
Bobomning yulduzlari,
O'qir edim erinmay
Kecha-yu kunduzlari.

Jangnomalar qop ketdi,
Davlatning jilovlari,

Nasihatbop kitoblar,
Otamning siylovlari.

Agar qo'lga tushirsang,
Olib kelgin, Oychinor,
Ularni bir o'qisam,
Bir yilga mehrim qonar.

Agar o'zing kelmasang,
Karvonlardan yuborgin,
Qanday bo'lsa, Oychinor,
Berib turin xabarin.

Qiyomatli men akang,
Singlim bo'lgin, Oychinor,
Ham yuragim, ham orqam,
Ko'nglim bo'lgin, Oychinor!

Omin! Eson-sog' bo'lgin,
Parvardigor saqlasin,
Sadar vaqti saxoba,
Avliyolar yo'qlasin.

O'tib ketgan yaxshilar
Ado bo'lmas kuch bersin,
Senga g'anim bo'lganlar
Qabohatga duch bo'lsin.

To'qayzorning ustida
Bedov otlar tayrildi,
Xayrlashib ikkovi,
Ikki yoqqa ayrildi.

Qaysar qo'ygan kemaga
Oychinor ham keladi,
Bobirning yigitlari
Unga yordam beradi.

Saylab berdi bir bedov,
Quyruq, yoli eshilgan,
Po'latdanmi tuyog'i,
Bosgan joyi teshilgan.

– Kiyin, – dedi navkarlar,
To'n-u salla tayladi.

Barin kiyib Oychinor,
Kamarini boyladi.

Qiz edi, bo'ldi yigit,
Mard kelolmas qoshiga.
Sochin tugib, sallani
O'ray berdi boshiga.

Hayday berdi kemachi,
Oychinor oy ustida,
Suvlar urar buralib,
Baliqlari pastida.

Haydab-haydab kemachi,
Olib keldi bu tomon,
Shukur qildi Oychinor,
Kelib tushdi-da, omon.

Bedovini Oychinor
Endi yo'lga soladi,
Jilov bermay sag'ana,
O'ynab ketib boradi.

Ketayotir Oychinor
Haybati bir sherday bo'p,
Qiz ham bo'lsa har egni
Irkilganda qirday bo'p.

Burgutday bo'p qobog'i
Ko'z ustiga o'yilgan,
Bilaklari temirday,
Qo'qqisdan kuch yig'ilgan.

Kiyib oldi sovutni,
Qilich botmas, o'q o'tmas,
Yuragi bir qoploday,
Harba qilgan tek ketmas,

Yoqutlardan taqtirgan,
Boshda lo'ngi sillasi,
Kim chiqsa-da oldidan
Qurib borar sillasi.

Duxoba to'n ustida
Jasadiga yarashar,

Unda-bunda odamlar
Kim ekan, deb so'rashar.

Haybatini ko'rganlar
Qochib chiqar yo'lidan,
Kamarida isfihon
Chiqqiday bo'p qinidan.

Kimga tiklab qarasa,
Bo'shab borar bo'g'ini,
Gapirishga darmon yo'q,
Och olmaydi jag'ini.

Ot ustida Oychinor
Tortinmay ketayotir,
O'tib ketgan joyida,
Bozor bo'p qolayotir.

Kuchni bergan xudoyim,
Husnni ham beribdi,
Yusufning jamolini
Bunga hadya etibdi.

Kim taniydi, qayerdan
Uning manzil xonasi,
Unday-bunday yigitni
Tug'olmaydi onasi.

Bir xil-bir xil maqtanchoq,
Akam, deydi, turadi,
Senga bunday akalar
Bitmaydi, deb uradi.

Ko'zi tushsa kelinlar
Bir kun qolar joyida,
Shunga xotin bo'lsang, deb
Kelin bo'lar o'yida.

Bozordagi savdogar
Tashlab qochar qo'yini,
Odamlarni itarib,
Bir ko'rsam, deb bo'yini.

Qalavachi qizlarning
Kalavasi qop ketdi,

Bukiraygan momoning
Beli tikka bo'p ketdi.

Hech kimsaga qaramay,
Ketayotir Oychinor,
O'tib ketgan joyida,
Olti kun bo'lar bozor.

Ostidagi tarlon ko'k
Yo'rg'a tortib boradi,
Bosgan joydan tuproqni
Ko'kka otib boradi.

Egarining boshini
Sof oltindan quydigan,
Uzangisi yaltillar,
Nuquradan endirgan.

Sag'risida quyushqon,
Qubbalari oltindan,
O'mirovga bog'langan
Zarhal ola qayishdan.

Dikdikasi ipakdan,
Sachog'ida zumradlar,
Yuganlari kumushdan,
Po'pak bo'lgan marvarid.

Abjo'sh nahal qoqtirgan
Tuyog'ining ostiga,
Mumiyoday botadi
Tushgan toshning ustiga,

Ayillari qolidan,
Gulni solib ishlagan,
Chetlarida chirozi
Ko'p hashamlab tashlagan.

Ayilining ustidan
Pushtanipi taylagan,
Pushtanining ustiga
Olmos toshlar joylagan.

Ostidagi tarlon ko'k
Qaldirg'ochday qiyadi,

Cho'pchiganda kallasi
Bulutlarga tiyadi.

Putining orasidan
Yukli tuya o'tguday,
Og'zin ochib pishqirsa,
Ko'kda bulut qochguday.

O'mganiga urilsa,
Tog' yorilib ketguday,
Sag'risiga qarasang
Sakkiz kampir yotguday.

Quloqning orasiga
Tovushqonlar pusguday,
Ikki burnining dami
Archalarni kesguday.

Bosib ketgan iziga
Bir qanor un ketguday,
Qichab turib chuv, desa,
Uchar qushdan o'tguday.

Eltak-seltak badani
Chillaning qotgan muziday,
Badandagi oq ko'pik
Turkmaning ola bo'ziday.

Siltanib turib jo'nashi
Tulkini quvgan toziday,
Kalla chayqab o'ynashi,
Pora yegan qoziday.

Muqomsib oyoq taylashi
Boylarning erka qiziday,
Badanda temtik xollari
Osmonning ol yulduziday.

Quyruqni siltab taylashi
Yaylovdan qaytgan qo'ziday,
Dilgirsib turib jo'nashi
Susarning o'tkir ko'ziday.

Burilib turib jo'nashi
O'qlardan qochgan qulonday,

Bo'ynining ko'tarilishi
Pishqirib chopgan ilonday.

Cho'zilib turib jo'nashi
Merganning otgan o'g'iday,
O'tib ketgan shamoli
Ko'mirning o'tkir cho'g'iday.

Jilov tortib Oychinor
Bedov otni o'ynatdi,
Katta nishab joylardan
Tikkasiga taylatdi.

O'z o'yiga o'zi band,
Ketayotir Oychinor,
Qancha-qancha ovuldan
O'tayotir Oychinor.

Suruv-suruv qo'ylardan
Chetlab o'tib boradi,
To'da-to'da karvondan
Qimtib o'tib boradi.

«To'xta!»—degan bir tovush
Qulog'iga keladi,
Bir yoniga Oychinor
Ko'z qiriman qaradi.

Ikki navkar ot chopib
Kelayotir yonidan,
To'p-to'p bo'lib navkarlar
Kelayotir keyindan.

Ikki navkar so'kinib,
Oldini kep o'radi,
Biri kelib jilovdan
Qo'ymay ushlab turadi.

– Sen Bobirning odami,
Podishoga yur,— deydi,
Bilmaydi depsan bizni,
Ko'rgilikni ko'r,— deydi.

– Navkar, — dedi Oychinor,
– Quloq solgin so'zima,

O'g'ling bordir yo qizing,
Yaqinlashma o'zima.

Bobiringni bilmayman,
Endi yo'ldan qochinglar,
O'lja qilmoqchi bo'lsang,
Mayli, jondan kechinglar.

Tirik bo'lsam, bilinglar,
Aslo otdan tushmayman,
Sendaylarning o'ningdan
Olishsam-da, qochmayman.

Ikki navkar qilichin
Endi qindan oladi,
Pisand qilmay Chinorni
Ikki yoqdan keladi.

– O'lding,– deydi Oychinor,
– Endi qolma armonda,
O'ylab tursam ikkovning
Endi bo'lding sharmanda.

Ikkovini juppay qip,
Qilichini sermadi,
Tanasi ot ustida,
Kallasini ko'rmadi.

Buni ko'rgan navkarlar
–To'xta!–deb ot chopadi,
Itday bo'lib irillar,
Yetsa balki qopadi

Bedovini o'ynatib,
Ketayotir Oychinor,
Qo'lidagi qilichi
Oy tavganday yarqillab.

Navkarlarnng so'kishi
Jondan o'tib boradi,
Bedovini to'xtatib,
Bir iziga qaradi,

Soni yo'q ko'p navkarlar
Ot choptirib keladi.

Endi bildi Oychinor
Qiyomatning bo'lishin,
Kim biladi maydonda
Kim o'lib, kim qolishin.

Qochgan bilan Chinorni
Qayga borsa qo'ymaydi,
Ushlab olsa jilovdan
Yalinganman qo'ymaydi.

Otdan tushib Oychinor
Ayilini tortadi,
O'rtangani ozmidi,
Bular so'kib o'rtadi.

Sallasining ostidan
Dobilini tuyadi
Choponing ustidan
Sovutini kiyadi.

Chap qo'liga mahkam qip.
Qalqonini ushladi,
Xudo o'zing saqla, deb
Xumor ko'zin yoshladi.

Ot choptirib navkarlar
Atrofini o'radi,
Ot ustida Oychinor
Indamayin turadi.

Kelayotir navkarlar
Qaramay o'ng-so'liga,
Nayza, qilich ushlagan
Mahkam qilib qo'liga.

–To'xtanglar!–deb Oychinor
Lashkarlarga qaradi,
–Nima gunoh qildim,–deb
Hammasidan so'radi.

– Sen Bobiring odami,
Biz tushganmiz izingdan,
Navkarlarni o'ldirding,
Endi ko'rgin o'zingdan.

Seni haydab boramiz
Shayboniyning qoshiga,
Qo'rg'oshinni eritib,
Kuydiradi og'zingga.

–Bo'lmasa kel, navkarlar,
Kimlar o'lib, kim qolar,
Shunday urush bo'lganin
Gapirib yursin chollar.

Ayamanglar, mayliga,
Kalla tutday to'kilsin,
Qo'lda o'tkir nayzalar
Sopigacha suqilsin.

Qum qo'rqog'u, kim botir,
Shu maydonda bilinsin,
Tepa qilib kallalar
Qovunqoqday ilinsin,

Tanadagi qizil qon
Oqsin bugun shirillab,
O'tolmasin bedovlar,
Oqqaniga dirillab.

Shart kesilsin kallalar,
Qolsin Saynoq toshiday,
Sarson bo'lgan tanalar,
Yotsin itning loshiday.

Ayamanglar, mayliga,
Qattiq sermang qilichni,
Hech botirlar ko'rmasin
Bundayin qirg'in ishni,

Namoyishga tortinglar,
Dorillatib karnayni,
Qabatiga qo'shinglar,
Chiyillatib sumayni.

Nog'oralar chalinsin,
Qochsin tog'ining jondori,
Bilmadim bul urushda
Kim bo'lar kim xundori.

Menman degan botirlar
Bugun bo'ldi ko'zma-ko'z,
Oychinorman lashkarlar
Birpas turdi yuzma-yuz.

Mis karnaylar tortildi,
Ust-ustiga porillab,
Zap ishlangan qilichlar
Qindan chiqdi shirillab.

Taqim qoqib Oychinor,
Sherday bo'lib tashlandi,
«O'zing eson saqla», deb
Ikki ko'zi yoshlandi.

Lashkar bilan Oychinor
Choshtgohda aralashdi,
Ne botirlar ko'rmagan
Hech bundayin savashdi.

Tikka taylar Oychinor
Yulduz uchganday bo'lib,
Hay-haylashar lashkarlar
Bulut ko'chganday bo'lib.

Esiz-esiz kallalar
Tosh olmay to'kildi,
Ne bir sinu simbatlar
Kamonday bo'p bukildi.

Ne bir yo'g'on bo'yinlar
Kesiladi g'archillab.,
Qizib borar suyaklar
O't tushganday charsillab.

Yaltillagan nayzalar
Sopigacha suqildi,
Kalta bo'yin bedovlar
Ot ostiga yiqildi.

Ko'tarildi chang-to'zon,
Kunning yuzi tutildi,
To'p-u miltiq gursillab,
Tavakkalga otildi.

Changda qoldi lashkarlar,
Bir-birini ko'rmaydi,
Oldidan duch kelganga,
Shul, deb qilich sermaydi.

Tomosha qiling Chinorni
Siltab qilich sermadi,
Qilich shamoli tegsa,
Navkar joydan turmadi.

Ot choptirib soladi,
To'da bilan to'daga,
Shunday botir qizlardan
Qo'rqqoq bo'lsin sadag'a.

Har qilichni sermasa,
Uni tappa yotadi,
Qo'rqib qoldi merganlar,
Ko'zin yumib otadi.

Charchab borar Oychinor,
Dushman ko'pdir, bul yakka,
Katta-katta jilg'alar
To'lib borar o'likka.

Jam bo'p kelgan qilichga
Qalqonini tutadi,
O'ng qo'lida olmosi
Tekkanini yutadi.

Tig'iz bo'lib qolmasa,
Yerib turib qochadi,
To'da-to'da lashkarni.
Qiziqtirib sochadi.

Qochdi, deyishib lashkarlar
Quvishadi izidan,
Bosh ketganin bilmaydi,
Qolayotir o'zidan.

Jana-jana joylardan
Jorib shaylab boradi,
Nechovini qoniga
Qorib taylab boradi.

Asta-asta kamaydi
Lashkarlarning g'obiri,
Lapanglab talayotir,
Suvsiz tog'ning g'ajiri.

Saf irg'algan payzalar
Qamishday bo'p urildi,
Olmos, po'lat qilichlar
Yuzi keyin burildi.

Seraksiyotir lashkar,
Tongda yulduz uchganday,
Unda-bunda losh qoldi,
Yerga mashoq tushganday.

Sonsiz edi lashkarlar,
Uchdan biri qolmadi,
Oychinorning qilichi
Ajdahoday yamladi.

Qo'rqa berdi navkarlar
Qo'y bo'rini ko'rganday,
Chumchuq bo'lib o'zlari,
Boshda burgut turganday.

Oychinorning zarbasi
Jondan o'tib boradi,
Ko'zi tushgan navkarning
Esi ketib boradi.

Nechovlari o'likka
Ko'mayotir o'zini,
G'ajir, cho'qib tortsa ham,
Hech ochmaydi ko'zini,

Nechovlar Go'ro'g'li
Keldimikin,– deyishdi,
Minglab kirgan – deb edi,
Rost ekan-da,– deyishdi.

Yoki Rustam Dostonmi,
Shunda o'tgan, deb edi,
Dostonida yozishgan,
Yuzta ko'yni yeb edi.

Ne bo'lsa-da, birovi
Bunda kelgan ekan-da,
Chini bilan ko'p gunoh
Bizday o'tgan ekan-da.

Navkarlarning barida
Tani-toqat solmadi,
Kim uldiyu kim qoldi,
Hisobini bvlmadi...

Nechovlari navkarning
Qochayotir panalab,
Kelib qolsa Oychinor,
Yig'layotir enalab.

Qochmaganin Oychinor
Ikki buklab savalab,
Nechovlari, o'ldim, der,
Manglayiga tebalab.

Qaydan keldi bunday kuch,
Oychinor ham bilmaydi,
Yasov tortib kelganga,
Sen nimasan, demaydi.

Jabr tortgan Oychinor
To'ydimikan jonidan,
Shunga jirkanmadimi
Odamzodning qonidan.

Mard boshiga ish tushsa,
Etik bilan suv kechar,
Ish tushganda boshiga
Suvni qo'yib qon kechar.

Yotib qolma, otib qol,
Oringga or olasan,
Yetib qolsang bir joyda
Yetganingcha qolasan.

Dushman har dam dushman-da,
O'ldirmasang, o'ldirar,
Dushman do'stlik qilmaydi.
Bossa ko'ngling tildirar.

Shungamikan Oychinor
Qochsa, quvib yetadi,
Qilpchshsh sermasa,
Ikki bo'lib o'tadi.

Qilichini navkarlar
Tappa-tappa tayladi,
Qochgan bilan qutulib
Bo'lmaydi, deb o'yladi...

– Bizdan o'tdi taaddi,
Sizga qildik yomonlik,
Begim, bizni kechiring,
Bizga bering omonlik!

Biz bechora navkarmiz.
Bek aytganin qilamiz,
Qilmaymiz, deb gapirsak,
Besh kun ko'rmay o'lamiz.

Farmon berdi Shayboniy:
–Bobir begi ketdi,– deb
Qistab yetinglar!–dedi,
Balki Angor yetdi,– deb.

Sizni quvib biz yetdik
Qiziriqning cho'lida,
Oyoq bilan kep tushdik
Sizdek mardning qo'liga.

Rostin aytsak, biz sizni
Boylab bormoqchi edik,
Tilla egar, jabduqni
Sovg'a qilmoqchi edik.

O'zingdan zo'r chiqqanda,
Oyog'ing tibir-tibir,
Menman degan navkarlar
Yiqilishdi birma-bir.

Endi sizda ixtiyor,
Ne ish bo'lsa qilaylik,
Qayga borsangiz, mayli,
Sizga navkar bo'laylik.

Bo'yin egib hammasi
Ta'zim qilib turadi,
Ot ustida Oychinor
Gapga javob beradi.

– Hech egilgan bo'yinni
Ursam qilich kesmaydi,
Mute bo'lib turganga
Otsam, nayzam o'tmaydi.

Mayli, berdim omollik,
Ixtiyoring o'zingda,
Sarson bo'lib yurmanglar
Tag'in mening izimda.

Shayboning aytinglar,
Uning bilan ishim yo'q,
Mol-u davlat kerakmas,
Oltin bilan hushim yo'q.

Men yo'llarda sarsonman,
Xumorimni izlayman,
Bo'ynimdagi qalqonim,
Tumorimni izlayman.

Boradigan makonim
Qayda ekan bilmayman,
Menga tilla taxt berib
Qol, deganman qolmayman.

Borib aytgin begingga
Meni izlab yurmasin,
Odamzodning qoniga
Zavod bo'lib turmasin.
Buni aytib Oychinor
Bedov otin buradi,
Qiziriqning cho'lida
Otni qichab boradi.

Bordi shahri G'ulg'ula,
Machtlari ko'rindi,
Soviganday bedov ot,
Go'sht soniga turildi.

Beg'am bo'lib Oychinor
Kelayotir keynidan,
Katta oqqan dariyo
Chiqdi shu vaqt oldidan.

Shunda Oychinor otdan tushib, Tarlon bo'zni sug'orib, o'tga qo'yib, o'zining qonga botgan joylarini yuvib, charchagan emasmi, to'nini soya qilib bir maydon yotdi. Urushda yengilgan navkarlar ham ot-otiga minib, Shayboniyga qarab jo'nadi. Shayboniyga bo'lgan voqeani aytdi. Shayboniy ham uning zo'rligiga tan berib: «Agar ushlasam, gapga ko'ndirsam, bir qo'rg'on begi qilib, o'zimga ul qilib olar edim», deb o'yladi. Shayboniy ham to'p-qo'rxonasini ortib; «Qaysardan hech darak bo'lmadi. O'lmasa axir bir kun kelar», deb Andijon qarab jo'nadi.

Oychinor ham necha vaqt yotganini bilmaydi. Joyidan irg'ib turib qaradi. Tarlon bo'z o'tlab yuribdi. Otni ko'rib, xayoli joyiga kelib, ming marta xudoga shukur qilib, yuz-qo'lini yuvib, ozroq tamaddi qilib, xurjunini Tarlon bo'zga solib, oyog'ini uzangiga qo'yib, tong vaqti otining beliga mindi. Otni haydab, suvdan o'tkazib katta to'baga chiqib, u yoq-bu yoqqa qaradi. Ko'rdi: tong vaqti, o'zi kelgan cho'ldan sonsiz mash'ala bahordagi selday bo'lib kelayotir.

Shunda Oychinor: «Navkarlar borib aytgan bo'lsa, endi Shayboniyning hamma odami izimdan tushgan bo'lmasin. O'z-o'zimdan uyg'ondim, bunga ham shukur. Tulki aytar ekan: «Yetmish ikki hiylam bor, eng yaxshisi ko'zga ko'rinmayin», nima qilsa ham yakkaman, ko'za kunda emas, kunida sinadi. Ke, yaxshisi bularga ko'rinmay ketganim ma'qul», deb Tarlon bo'zning jilovini qo'yib, bir-ikki qamchi urib yubordi.

Damini olgan, yana qamchi zarbidan Tarlon bo'z kalla chayqab, suvliq tishlab, qulunday buklanib, o'zini otib kelayotir:

Ish tushganda Tarlon bo'z
Ko'rsatadi o'zini,
Cho'vchib o'zin taylaydi
Yo'ldan uzmay ko'zini.

Bugun tomosha qiling
Tarlon bo'zning ishini.
To'rt pochaga yig'adi
Quvvatini, kuchini.

Har tuyog'in taylasa,
Gumburlaydi suvsiz cho'l,
Shamoliga chayqalar.
Chiqib qolsa agar ko'l.

Tarlon o'tgan joylari
Olti kun changib qoldi,
Bulut qochib osmondan
Yerlar ham chanqab qoldi.

Ketayotir Tarlon bo'z
Kunduzi-yu kechalar,
Shamoliga yotadi
Ko'l betida archalar.

Tarlon bo'zin ko'ray, deb
Osmonda oy tug'ildi,
Shul bedovning shashtiga
Darband daryo bug'ildi.

Ot odamning yo'ldoshi,
Shunday kunda yaradi,
Ustidagi Oychinor
Xursand bo'lib boradi.

Tepa-yu soy, jilg'alar
Qonib solib boradi,
Shunday kunda shul tulpor
Oychinorga yaradi.

Zarba bilan bosgan yer
Qarsa-qarsa yorildi,
Manda bo'ldi qora tosh,
To'piroqqa qorildi.

Dobiriga gumbirlar
Suvsiz tog'ning darasi,
Shuncha yursa ko'rinmas
Qattapoyning qorasi.

Suruv - suruv qo'ylarni
Chetlab o'tib boradi,
Unday - bunday soylardan
Hatlab, o'tib boradi.

Ko'rdi ikki chinordan
O'tib ketdi saharda,
Otni qistab Oychinor
Haydayotir nahorda.

Ketayotgan Tarlon bo'z
Asta tolib boradi,
Qulog'ining tagidan
Terlar oqib boradi...

Oq dovonning ustadan
Oshib, ketib boradi,
Otam, deydi Oychinor
Shoshib, ketib boradi.

Sho'robdan burdi otni,
Kattapoy ham ko'rindi,
Ko'rib yurgan elini,
Yuraklari xo'rsindi.

Tortdi tog'ning ustiga,
Ko'rsam deydi otasin,
Otasidan so'rasa,
Nima bo'lgan enasin.

Chiqdi tog'ning ustiga,
Qaray berdi uyiga,
Uyi yo'qu, o'rni bor,
Yosh keladi ko'ziga.

Borib otdan tushadi,
O'rni qolgan joyiga.
O'ylab qoldi Oychinor,
Yetolmaydi o'yiga.

«Enajonim qaydaykin,
YO tuzalib ketdimi,
O'ti yo'q, deb bu yerning,
Boshqa yoqqa ko'chdimi?»

Shartta mindi otini,
Chiqdi to'ba-to'baga,
Tiklab-tiklab qaradi,
Havor bilan havorga.

Bir archaning ostida
Bitta kapa ko'rindi,
Shul bo'lsa deb Oychinor
O'ynab-kulib burildi.

Ikki it cho'ponning
Ko'rib chopib keladi,
Qarasa, o'z itlari
Xursand bo'lib boradi.
Tanidimi itlari,

Cho'pchib-cho'pchib o'ynaydi,
Aylanib Oychinorni,
Yurdirgani qo'ymaydi.

Ot ustida Oychinor
Yurishdan bo'ldi bezor,
Yaqinlashdi kanata,
Chopib chiqdi Ernazar.

Tanimadi akasi,
Salom berar bukilib,
Xursand bo'lar Oychinor,
Ko'zda yoshi to'kilib.

Otdan tushdi Oychinor,
Kapa tomon yuradi,
Otining jilovini
Ernazarga beradi.

Salom berib Oychinor
Endi uyga kiradi,
Uyda begona odam,
To'xtab hayron qoladi.

«O'tiring!»— deb bu cho'pon
Bo'lar girdi-kapalak,
Qanday o'yga soladi,
Jafo solgan bu falak.

Darmon ketib tanadan,
Illa Chinor o'tirdi,
Bu kapa boshsa ekan,
Hammasin bir-bir ko'rdi.

So'ragani yuragi
Tati turush bermaydi.
Esi ketib boradi,
Turay desa, turmaydi.

Yuragidan xo'rsinib,
Yig'lay berdi Oychinor,
Ota bilan enasin
So'ray berdi Oychinor.

— Quloq soling, cho'ponlar,
Keldim kimning uyiga,
Sizlar cho'pon bo'libsiz,
Ayting kimning qo'yiga?

Qo'ylarni men tanidim,
Qayda qo'yning egasi,
Itlarni men tanidim,
Qani uning og'asi?

Oldin kelgan vaqtimda,
Boshqa cho'pon boqardi,
Echkilarni chiriylab,
Boshqa xotin sog'ardi?!

Bu cho'ponni tanidim,
Shu cho'ponning chokari,
Ana to'ba pastida
Birgalashib boqardi.

Nasiyaga bir qo'yning
Pulin berib ketgandim,
Shu qo'yni olayin, deb
Mana bugun kelgandim.

Qaydaligin aytinglar,
Uni izlab borayin,
Qiyomatda qolmasin,
Nasiyani olayin.

Qo'rqib-pisib bu cho'pon
Endi javob beradi,
Qabatida Ernazar
Indamayin turadi.,

— Abdulla der o'zimni,
Nazarboyning cho'poni,
Hali haq ham bergan yo'q,
Qiydirdi bu choponni.

Xoliyorning qizini
Kimdir olib ketibda,
Oyto'tining ko'ksiga
Pichoq bilan uribdi.

Tayoq yegan Xoliyor
Voh, bolam, deb qolibdi
Ertasiga xotinin
Mozoriga qo'yibdi.

Ikki kunda Nazarboy
Menga berdi qo'yini,
Shundan beri ko'rmadim
Xoliyorning o'zini.

Jabr ko'rgan cho'pon-da,
Qizin qarab ketganmi,
Necha soy-u qirlardan
Narigi tomon oshganmi?

Qaydaligin bilmaymiz,
Borarini aytmasa,
Bu joylar bir ovloq joy,
Birov-yarim kelmasa.

Oychinorning yuragi
Endi yonib boradi,
Antolmaydi dardini,
Ko'zi tinib boradi.

Otatonim degani
Bir hamdardi bo'lmasa,
Bunda turgan Ernazar
Xayoliga kelmasa.

O'tiringga qaramay,
Turdi Chinor joyidan,
Gapirayinmi degani,
Yosh chiqadi ko'zidan.

Borib otga osildi,
Qurib ketgan madori,
Endi qayga ketdikan,
Yurakdoshi, padari.

Otning boshin qayoqqa
Burarini bilmaydi,
Ergashibdi ikki it,
Qol, deganman qolmaydi.

«Bah-bah» lashib cho'ponlar
Chopayotir izidan,
Turolmadi Oychinor,
Yosh quyildi ko'zidan.

Ko'zdan oqqan yoshiga
Otning yeli ho'l bo'ldi,
Voh, enam, deb ingrasa,
Tosh, archalar kul bo'ldi.

Ovozini Oychinor
Endi qo'yib boradi,
Tanda shirin joniga
Endi to'yib boradi.

– Tilga kiring, hayvonlar,
Otam shundan o'tdimi,
Aytinlar, o't-o'lanlar,
Yig'lab otam o'tdimi?!

Tog' boshida bo'ktar qor,
Kuygan yig'lar zoru zor,
Ikki itim vafodor,
Otam shundan o'tdimi?!

Yo'lda yotgan sirg'alar,
Uni ko'rganlar olar,
Qanqillagan qarg'alar,
Yig'lab otam o'tdimi?!

Jar boshida to'dana,
Yonboshida sedana,
Ko'zi o'tkir bedana,
Oh, deb, otam o'tdimi?!

Jandolari ilinib,
Oyoqlari tilinib,
Aytgin, zarang, egilib,
Voh, deb, otam o'tdimi?!

Olisdagi qoralar,
Dard yurakni yaralar,
Og'zi katta daralar,
Senday otam o'tdimi?

Soy bo'yida o'sgan gul,
Har narsa der kuygan til,
Ado bo'lmas olis yo'l,
Sendan otam o'tdimi?!

Oh, deganda Oychinor,
Olti botmon cho'q chiqar,
Soy bo'yida sayilgar,
Bundan otam o'tdimi?!

Kimga aytsin dardini,
Ko'zi tushgandan so'rar,
Ko'rgiday bo'p otasin,
U yoq-bu yoqqa qarar.

Oychinorning oldida
Ikki birday vafodor,
G'ingshib-g'ingshib qo'yadi,
Ketayotir jonivor.

Oychinorning ohiga,
Chiday olmas Tarlon bo'z,
O'qiranib kishnaydi,
Yoshin to'kib izma-iz.

Shunday qilib, Oychinor o'z o'tiga o'zi kuyib Nazarboy qishlog'ining ustidan borib qoldi. «Kel, birovning qarzi birovda qolmasin», deb Nazarboyini so'rab borayotip «Bek keldimi, xon keldimi», deb odamlar to'da-to'da bo'lib qarayotir. Nazarboy ham o'z mulozimlari bilan o'tirgan edi. Bittasi chopib kelib:— Bir xonmi, bekmi, kelayotir — deb xabar berdi. Nazarboy ichida: «Xudoyo, xudovando undagilarga duch qilma-da!» deb eshikka chiqdi. Hamma kishilar yugurib kelib Oychinorning jilovidan ushlab, yetti bukilib, tushing, deyayotir. Shunda Oychinor Nazarboyga aytdi:— Hov, Nazarboy, Xolyor degan cho'poning bor edi hozir qayerda? To'g'risini ayt!

— Ey, xonim, u jandani nima qilasiz, tushing, bir ziyofat qilayin,— dedi.

— Senga, ayt deyapman!—dedi Oychinor.

— Bir uch kuncha bo'ldi, Tangiharamda bir qiz bor emish, qayerdan kelganini, hech kim bilmas emish, shuni izlab ketdi,— dedi Nazarboy.

— Sen Xolyorning qizi qayerda ekanligini bilmaysanmi?—dedi Oychinor.

— Yo'q, bilmaymen,—deb qasam icha berdi Nazarboy.

— Sen, dedi Oychinor, Xolyorning qizini olaman ham demaganmisan?

— Yo'q, begim! Xudoy bor, endi qaridim,— dedi.

— Meni tanimaysanmi?

— Yo'q,— dedi Nazarboy.

— Tanimasang, men Xolyorning ukasi bo'laman Sen Oychinorni olmoqchi bo'lding, axiri uni Qaysarga olib borib berding. Oyto'tini o'ldirding, Xolyorni sarson qilding, endi shu jabrning bir chekkasini sening bolalaring ham tatib ko'rsin,— deb qilichini sermadi. Nazarboyning kallasi ketib, tanasi og'ir yukdan xolis bo'lib, o'ynay berdi. Qiy-chuv bo'lib qoldi. Oychinor otini burib, otasining daragini eshitib, «qaydasan Tangiharam?» deb ketayotir».

Chuv, deb otga qamchini
Chinor berib boradi,
Sovidimi jonivor,
O'zin otib boradi.

Katta-katta soylardan
Tikka taylab boradi,
Chillak bo'lib sag'ana,-
Endi o'ynab boradi.

Otajonim ko'rsam, deb
Yo'lga tiklab boradi,
Tezda quvib yetadi,
Agar ko'rsa qorani.

Qariganda qo'liga
Hassa bo'layin, deydi,
Yiqilganda beliga
Quvvat bo'layin, deydi.

Qorong'ida qolganda,
Chiroq bo'layin, deydi,
Qiz bo'lsam ham mayliga,
Qaroq bo'layin, deydi.

Otajonimni topib,
Soya bo'layin, deydi.
Otamning xizmatida
Mayib bo'layin, deydi.

Otajonim uxlasa,
Soya bo'layin, deydi.
Qalqon qilib ko'ksini,
Qoya bo'layin, deydi.

Padarimning boshini
Kunda silayin, deydi.

Yaratgandan umrini
Doim tilayin, deydi.

Topganimning barini
Obkep berayin, deydi,
Tog'im bor, deb orqamda,
Xursand yurayin, deydi.

Oqrabotdan o'tganda,
Suvday oqib boradi
Tarlon bo'zning yurishi
Endi yoqib boradi.

Orqadagi ikki it
Oldin o'tib boradi,
Sag'analar nimaga
Tezlab chopib boradi.

«Hay, attang-a, Ernazar
Ikki itcha bo'lmadi,
Mening uchun otamga
Yordam berib turmadi,

Suymaganga suykanma,
Ko'ngling vayron qiladi,
Turmushda yo'q halovat,
O'zing hayron qiladi».

Qarab tursa, ikki it
Tezlab chopib boradi,
G'ingshib-g'ingshib qo'yishi,
Bir narsani biladi.

Chashmi obzam ustida
Kelayotir bir qora,
Ostida bir eshagi,
Bu qandayin bechora.

Bu qoraga ikki it
Chopa-chopa taylandi,
Yetib borib ikkovi
Atrofini aylandi.

Shul bo'lmasin otasi,
Yiqilganda teragi,
To'lib-toshib boradi
Oychinorning yuragi.

Qistab Tarlon bo'zini
Endi yetib boradi,
Otajoni, g'amxo'ri
Ekanligin ko'radi.

Qarindoshning tovushi
Qorong'uda belgili,
Xolyor ham tikiladi,
Shumi izlagal guli?!

To'lib qolgan, yuragi,
Gapirolmas Oychinor,
Qizjonim, deb eshakdan
Tushayotir Xoliyor.

Gapirolmas Oychinor,
Shivirlanib so'yladi,
Tushay desa mador yo'q,
Otdan o'zin tayladi.

Yetib kelib otasi
Sochini silayotir,
Qizjonim, der, qizjonim,
Xo'rsinib jilayotir.

Otajon, deb Oychinor
Yuzidan o'payotir,
Iskab-iskab ko'ksini,
Mehriga to'yayotir.

Qanot qoqib uchadi
Tog'larning burgutlari,
Chir aylanib o'ynaydi
Oychinorning itlari.

Yig'lama, qizjonim, deb
Tasalli berayotir,
O'zi Chinordan battar
Xo'rsinib yig'layotir.

Ko'zdan oqqan yoshlari
Oq soqolga tizilib,
Yig'lamayin, desa ham
Ketar ko'ngli buzilib.

– Yig'lamagin, sochingdan
Men sadag'a bo'layin,
Shukur qildim qizjonim,
Oldingda men o'layin.

O'tov tiksang adirga,
Bo'sag'asi bo'layin,
Chodiringni tikkanda,
Men soyasi bo'layin.

Otga minsang, qizjonim,
Men qamchisi bo'layin,
Qo'y boylasang eshikka,
Arg'amchisi bo'layin.

Shukrilillo, o'lmayin
Ko'rdim senday og'amni,
Qolmadim-da besoyib,
O'ligimga egamni.

Ham enamsan, ham otam,
Sendan boshqa kimim bor,
Sensan yolg'iz suyanchim,
Yurak to'la g'amim bor.

Yig'lamagin, jon qizim,
Yig'lamagin, Chinorim,
Sen yig'lasang, chokidan
So'kiladi yuragim.

Qo'y, yolg'izim, qo'y endi,
O'ynab-kulib yurayik,
Bo'yginangdan aylandim,
Turgin, qizim, turayik!

Alqissa, Xolyor qizini yupatib oldi, o'zini ham to'xtatib oldi. Oychinorning qaddi-bastiga qarab Xolyor suyunayotir. «Xudoyim yolg'iz farzand berdi, shul Chinorim ul bo'lmadi-da. Ke qo'y, farzandingni qiz dema, qilni qirqqa yorgansan, farzandingni ul dema, betayin ish qilgansan, deyishadi. Mening qizim qilni qirq yoradiganlardan bo'lar»,— deb o'ylay berdi.

Oychinor otasining soqollaridan silab, gohi-gohida bo'shashib yig'lab, o'z boshidan o'tgan sirning hammasini gapirib berdi. Umrida bunday gaplarni eshitmagan Xolyor, tovba, deb yoqasini ushlay berdi.

– Ota! – dedi Oychinor, – onamni qayerga qo'ydingiz?

– Qattapoyning ustiga,— dedi Xolyor. Shundan beri seni izlab yurgan edim. Mana, adashganning oldi yo'l, deb xudoyim seni duch berdi.

Oychinor aytdi: – Sizning ham biron qarindosh-urug'ingiz bormi? O'zingiz qayerdan kelib Nazarning qo'yini boqdingiz? Onamning qarindoshlari qayerda?

Xolyor aytdi:– Shuncha so'ramagan gapingni endi so'rading, mayli, aytay. Men asli bu yerlik emasman. Enang ham bu yerlik emas. Boya aytding: «Bobirmi, kim Andijondan chiqqan ekan», deb. Men ham Andijondanman. Ota-enam yoshligimizda o'lgan edi. Ikkita akam, qarindoshlarim bor edi. Meni ikki akam Samandar degan savdogarnikiga olib kelib bergan. Shu vaqtlar o'n besh yoshlarda edim. O'n beshlarga kirganimda Samandar meni O'zi bilan olib ketdi. Qancha shaharlardan o'tdik. Axiri Sayrob degan joyga keldik. Ikkita chinori bor yo'l ustida. Shu yerda men charchaganimdanmi, uxlab qolibman, birortasi ham uyg'onmabdi. Shu Sayrobda qolib ketdim. U joyda birovlariga o'tin tashidim, birovlarining molini boqdim. Yigirma yoshgacha shuytib sarson bo'lib yurdim. Karvonlarni qaytib ko'rmadim. Axiri shu joydagi bir eshonning xizmatini qilib yurdim. Yigirma yil xizmatini qildim. Enang ham shu eshonning qo'lida edi. Uni uch yasharligida nazir qilib bergan ekan. Uning ham yigirma to'rt-yigirma beshlarga kirgan davri edi. Eshon yaxshi ishlaganim uchun shu kanizagini menga berdi, naridan-beri toy qildim. Yana o'n yil eshonning xizmatini qildim. Qirq yoshgacha farzand ko'rmadik. Enang har doim chinorga qarab menga aytar edi: «Axir xudo farzand ato qilsa, ul bo'lsa Chinorbek, qiz bo'lsa Oychinor qo'yamiz». Bir kuni eshonnikiga bir boy kelib tushdi. Oradan bir qancha vaqt o'tdi. Eshon bobo meni so'radi, bordim. Aytдилarki: «Bu kishini Nazarboy deydilar, bir cho'pon axtarib kelibdi. Sizlarni shu boyga berdim», dedi. Biz ko'rpamizni ko'tarib boyning izidan kela berdik. Eshon bobo biron narsani xizmat haqing, deb bermadi. Nazarboyga er-u xotin ergashib Kattapoyga keldik. Bizga kapa qilib, bir suruv qo'yni berib, cho'pon qilib qo'ydi. Oradan besh-olti yil o'tdi. Qayerdan topib, Ernazarni menga chokar qilib berdi. Shu yili enang homilador bo'ldi. Shundan beri ko'rgan kunim o'zingga ayon. Enang-ku, qarindon tugul tug'ilgan joyini ham bilmaydi. Mening akalarim ham bormi-yo'qmi, mana men ham oltmishdan oshdim. Otamning otini Begali, enamni Oysuluv, akalarimni Berdi, Choriyor, der edi,— dedi Xolyor. – Bo'lmasa,— dedi Oychinor, – enamning mozorini bir ziyorat qilaylik, undan keyin nima bo'lsang, qarindoshing ichida bo'l, degan gap bor, qarindoshlaringizni izlaylik. Akam ham menga ko'p tayinlagan edi, nima deysiz!— deb so'radi.

– Mayli mening ham, bir izlab ko'rsam, degan niyatim bor edi, mana bu niyatimga ham yetdim, — deb Xolyor bir xo'rsinib qo'ydi.

Oychinor bilan Xolyor kelayotgan edi, oldidan yilqilarini haydab cho'ponlar chiqib qoldi. Oychinor aytdi:– Hov, cho'ponlar! Bitta otni saylab bizga sotinglar. Ko'nglingdagi pullaringni beraman. Shunda cho'ponlar bir jiyron otni ushlab berdi.— Egarlab ham beringlar! — dedi Oychinor. Egarlab berdi. Pulni mo'l qilib cho'ponlarga berdi. Cho'ponlarning yo'li bo'lib qoldi. Oychinor bilan otasi otga minib, Kattapoyga

qarab jo'nadi. Tong saharda Oyto'tining mozoriga bordi. Shunda Oychinor enasining mozorini quchoqlab yig'layotir:

Enajonim, madorim,
Men bo'lmadim bovringda,
O'ynab - kulib yurmadim,
Bo'stoningda, davringda.

Mening uchun azobni
Sen ko'rdingmi, enajon,
Mening uchun qon yig'lab,
Sen qoldingmi, enajon.

Mening uchun saharda
Sachrab turgan kuvvatim,
Uydatmagan, o'ynatgan,
Uyimdagi davlatim.

Saharlarda sochimni
Oppog'im, deb silagan,
Umirimni xudodan
Uzun qil, deb tilagan.

Oldi sochimkn doim
Oltov qilib o'rganim.
Yelka sochimni doim
Yetov qilib o'rganim.

Xizmatigda, enajon,
Qo'lim kasov qilmadim,
Menday qizing g'amxo'rim,
Sendan oldin o'lmadim.

Seni bunday ko'rguncha,
Manglaylarim uyilsin,
Mozoringga enajon,
Bergan qoning quyilsin.

Sochim bilan yo'lingni
Suvurmadim, enajon,
Sening bilan qo'shilib,
Jon bermadim, enajon.

Turolmadi Xoliyor,
Yig'lab berdi bo'kirib,
Oychinorning qoshiga
Bordi joyidan turib.

– Yig'lamagin, Chinorim,
Kuygan tanam kul qilma,
Endi qo'ngan taqdimi
Qayta boshdan sho'r qilma.

Ota-ena o'lishi
Bo'lgan odam merosi,
Buning uchun tog'ning ham
Hech bir yo'qdir chorasi.

Enajonim, yig'lama,
Kel, fотиha qilaylik,
Har bir yilda bir marta
Ziyoratga kelaylik.

Alqissa, Xolyor o'zini qattiqqa solib, qiziga dalda berib, so'ng o'rmdan turg'azib oldi. Ikkovi fотиha o'qib, joyidan turib, yetti qadam nariga ta'zim qilib borib, bedov otlariga minib jo'nay berdi.

Shunda Xolyor aytdi:– Hov, Oychinorjon! Ernazarni ham ola ketsakmikan? Yoki o'zimiz keta beramizmi? Oychinor aytdi:– Qo'ying ota, qattiq kunda qoshingda qarab turgan qarindosh, qarindoshlik qilmaydi, ketib qolsa emchakdosh, deganday, qattiq kunda qochib ketgan Ernazarni nima qilamiz. Ul ham o'z kunini ko'rsin.

Ikkovi tong vaqti jo'nab keta berdi. Shul vaqt oldidan otlarning dupuri eshitildi. Nazarboyni Oychinor sulatib ketgandan keyin Nazarboyning o'g'illari nima qilarini bilmay turib edi. Nazarni joyiga qo'yib kelgan edi. Shu vaqtda Shayboniyning navkarlari ham Bobiming qo'rg'onini, ekin joyini ko'rgani kelayotgan edi. Nazarning o'g'illari ularga arz qilgan edi. Shunda Shayboniy, o'nga navkarini berib: «U kazzobni tutinglar!» deb Nazarboynipg o'g'illariga qo'shgan edi. Hammasi o'n ikki kishi bo'lib Kattapoyning ustida qarab turgan edi. Bularning oldidan chiqib qoldi.

Navkarlar ko'rib: – To'xta!–dedi. Oychinor otasini bet qilib, to'xtab turdi. Navkarlar kelib:–Manovi chol emasmi? – dedi. – Yo'q, – dedi Nazarning o'g'illari. Birovi Oychinorning qoshiga kelib, bo'ynini cho'zib yuziga qaradi. Bexosdan «hiy», deb dami ichiga tushib, yetti qadam pariga tisarilib ketdi. Boshqa navkarlar Xolyorga: «Otdan tush, oting bizga sovg'a!» deyaotir. Shunda Oychinor kelib:–Bu odam otdan tushmaydi,– dedi. Navkarlar qaradi, qaragani keyin ketib boradi. Nazarning o'g'illari: – Otamni o'ldirgan shul, –deb tura berdi. – Otang o'lsin, otangga qo'shilib sen ham o'! – deb navkarlar keyinga qarab jo'nay berdi. Avval urushda ko'rgan emasmi, bexosdan duch bo'lganiga olti kun tuz totmay kasal bo'lib qoldi. Navkar qo'rqqanda, Nazarning o'g'illarida jon qoladimi, ular ham: –«O'lsa otam o'ldi, moli bizga qoldi», – deb keta berdi. Shunda Oychinor otasiga: Yuring, ota. Bular borib begiga aytar. Bir

ishkal bo'lib turmasin, ertaroq jo'naylik, – deb otlariga qamchi burib, qaydasan Andijon,– deb jo'nay berdi.

Qabatida otasi,
Oyday bo'ldi Oychinor,
Biyasiga ergashgan
Toyday bo'ldi Oychinor.

Bo'stonida ochilgan
Gulday bo'ldi Oychinor,
Qiz ham bo'ldi qoplonday,
Ulday bo'ldi Oychinor.

Totimligi eliga
Tuzday bo'ldi Oychinor,
Uzuklarga solingan
Ko'zday bo'ldi Oychinor.

Yoriqligi yuzining
Kunday bo'ldi Oychinor,
Munosib qip tikilgan
To'nday bo'ldi Oychinor.

Otasi bor, orqasi
Yurganida surinmas,
Qancha qayg'u-gam kelsa,
Bir chibinga ko'rinmas.

Ikkovining ketishi
Bir juft chinor o'sganday,
Osmonning yulduzlari
Poyonoz bo'p tushganday.

Buloqday bo'p Oychinor
Qaynamoqchi bo'ladi,
Otasini quchoqlab,
O'ynamoqchi bo'ladi.

Sotgan edi dunyoni
Endi qarab to'ymaydi,
Quchoqlasa olamni,
Iskaganman qonmaydi.

Ketayotir Chinorning
Bahri-dili ochilib,

Salladagi sochlari
Keng egniga yozilib.

Qancha-qancha tog'lardan
Oshib ketib boradi,
Bedovlarning g'ayrati
Toshib ketib boradi.

Qabatida ikki ot
O'ynab ketib boradi,
Oychinorning ko'nglini
Ovlab ketib boradi.

Necha - necha shahardan
Tikka o'tib boradi,
Qancha-qancha daryodan
Kechib o'tib boradi.

Kim oldidan duch kelsa,
So'rab ketib boradi,
Yaxshilikka tushini,
Jo'rab ketib boradi.

Necha-necha haftalar
O'tib ketib boradi,
Andijonga axiri
Charchab yetib boradi.

Oychinor bilan Xolyor asta-asta yurib, oradan qancha vaqtlar o'tib, Andijong'a yetib bordi, Andijon keng joy ekan. Xolyorning esidan chiqib ketgan. Ko'rgan kishilardan Berdi, Choriyorlarni so'raydi, birov bilmaydi. U qishloqqa, bu qishloqda borib, so'rab-surishtirib yurdi, Axiri bir qishloqdagi mo'ysafid:–U qo'rg'on tarafida. Berdi, Chori deganlar bor edi. Ularni bir-ikki yildan beri ko'rganim no'q,— dedi. Mo'ysafidning aytgan joyini borib surishtirdi. Qarasa, suv yoqasidan bir yigit podalarni haydab, oldini qaytarib, baqirib yuribdi. Xolyorning ko'nglida: Bu yigitdan ham bir so'rayin», deb mehri toshib, yigitni chaqirdi. Yigit keldi. Yigit endi kamolga yetgan, ko'zlari olmaday pishgan, iyaklariga yangigina soqol sabza ursan, to'ladan kelgan, ko'zlari olovday yongan, bir narsadak qay- tadigan emas. Shunda Xolyor: – Hov, bo'tam, sen kimning o'gli bo'lasan? – dedi.– Men Choriyor deganning o'g'li bo'laman. Otimni Omonyor deyishadi, – dedi. Xolyor shul og'amning o'g'li bo'lmasa, deb yuragi gupirlab ura berdi, – Og'ang qayoqda? – dedi Xolyor, – Otamga ikki-uch yil bo'ldi, o'lgandi, – dedi. Xolyorning yuragi qinidan chiqayozdi. – Otangning akakalari bormidi?– dedi Xolyor. – U yog'ini bilmayman, – dedi Omonyor.– Biz sizlarga mehmonmiz, qani uyingni ko'rsat bizlarga, – dedi. Omonyor hayron bo'lib uyini

ko'rsatdi. – Enamning otini Oyparcha deydi, huv, ana, qishloqda, bora beringlar. Men podalarni topshirib, oshalal olib boraman, – dedi.

Xolyor bilan Oychinor, Oyparchaning uyi qayerda, deb so'rab bordi, uyini topdi. Oyparcha momo ham uyida o'tirgan edi. Ikki otliq bo'sag'asiga keldi. Yugurib chiqdi, ko'rdi, bittasi faqirgina odam, bittasi beklardan, Oyparcha qo'rqib, nima qilishini bilmay qoldi. Ular otdan tushib, ko'rishib, fotihaga qo'l ochib so'rashdi. Shunda Xolyor aytdi: – Checha, sizning eringizning oti Choriyormidi? – Ha, – dedi momo. – Uning qanday aka-ukalari bor edi? – Oh, zamon qursin! – dedi momo. – Uning bir akasi bor edi, otini Berdi der edi. Ul ham uylandi, bola ko'rmadi, xotini dunyodan o'tdi. O'zini podsholikka navkarlikka olib ketdi. Shundan beri podshohning ham, uning ham daragi yo'q. Cholim bechora: «Bir Xolyor degan ukam bor edi, bir boynikida xizmat qilar edi, savdogarchilikka ketib, dom-daraksiz bo'lib ketdi», deb yurardi. Shukur bu yerda uncha yaqin bo'lmasa ham qarindoshlari bor. – Hov, chechajon! Men shu yo'qolib ketgan Xolyor bo'laman, yonimdagi esa qizim bo'ladi, – dedi.

Qayta boshdan quchoqlashib ko'rishishdi. Oychinor ham yechinib o'zining kiyimlarini kiydi. Omonyor ham podadan qaytib keldi. Ular ham quchoqlashib ko'rishishdi. Tanish-bilish deganday, undan-bundan odamlar kelib, qarindosh chiqib, Xolyor ham martabaga minganday bo'lib qoldi.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Omon bilam Oychinor sevishib qoldi. Ikkovini to'y qilib, unashtirib qo'yishdi. Oradan qancha vaqt o'tdi. Oyparcha momo ham olamdan o'tdi. Urug'-aymoq bir bo'lib tasalli berdi, qirqi o'tdi. Oychinor Qambarni surishtirib yurdi. Uni topib Bobiming belgisini berdi: – Ko'p kitoblar edi, ba'zilarini o'g'irlab, olib kelib yashirib qo'yibman. Ba'zilarini «Kopir kitoblar», deb mullalar o't qo'yib yubordi. Hozir bu joylar Shayboniyga qaraydi. Boshqa joylarda karvonlar bor. Bir-ikki yildan buyon u tomonlarga bormaydi. Qani, bir kun maslahatlashib olamiz-da, – dedi.

Oradan bir yilcha vaqt o'tdi. Oychinor homilador bo'lib, bir o'g'il ko'rdi. «Opamning niyati yerda qolmasin», – deb otini Chinorbek qo'ydi. Kitoblarni ham jam qilib: «Bergan va'damdan chidayin, axir bir kuni biron ishonchli odamni topib yuboraman», deb yurdi.

Yurt bekdan bekkaga almashib o'tgan. Shayboniyning navkarlari itday izg'ishib yuribdi. Bir xilining molini, bir xilining borini, nima ilinsa, shuni olayotir. Tarlon bo'zni ham yashirib kun ko'rayotir. Soliq ustiga soliq solayotir. Nechovlar boridan ayrilib yig'layotir. Nechovlarni o'ldirib borayotir. Axiri odamlarning jonidan o'tdi. Qolgan navkarni mushtlab, manglayini shishirib yubora berdi. Hammasini Oychinorning gapi bilan qila berdi. Oychinor aqlliligi bilan elning oqsoqoli bo'la berdi. «Falonchi qishloq soliq bermayotir», – deb Shayboniyga arz ustiga arz bora berdi.

Shunda Shayboniy navkarlarning o'nini yubordi, qaytib keldi. Shunda besh yuz navkarni yuborib: – Boringlar, qishloqni kultepa qilinglar, tirik qolganini haydab kelinglar! – deb farmon berdi.

«Lashkar kelayotir», degan xabar Oychinorga yetdi. Odamlarni yig'di – Sizlar shuncha ish qildingizlar, endi tek turingizlar! Bularga men o'zim javob beraman. Sizlar bola-chaqalardan xabardor bo'linglar! – deb tabladagi Tarlon bo'zni egarlab: «Xalq o'lguncha men o'layin, hamma gap mendan bo'lgan, beshov o'lgandan, biron o'lgan

yaxshi, avvalo omon qaytarman», deb tabladan yelib chiqdi. Oldingi o'zining kiyimlarini kiydi.

Omonyor podaga ketgan edi: – Xolyor harchand: – Borma, yosh bolang bor! – dedi, ko'nmadi. Tarlon bo'zga minib, yakka o'zi qo'shinning oldiga chiqib ketdi.

Elning chekkan ohiga
Chidolmadi Oychinor,
Go'daklar yig'lashiga
Turolmadi Oychinor.

Nechovlarning molini
Olib ketib boradi,
Nechovlarni qo'yday qip
Cholib ketib boradi.

Ne go'daklar ko'chada
Enajon, deb yig'ladi,
Ne bir mo'ysafid chollar
O'n jonmiz, deb yig'ladi.

Nechovlarning qizini
Olib qochib boradi,
Nechovlarning molini
Tepib sochib boradi,

Chiday olmay Oychinor
Kelganini qo'ymaydi,
Shul ovulning ichidan
Biron kasov bermadi.

Mana bugun qabohat
Kelayotir bulutday,
Otga mindi Oychinor
Qanot yoygan burgutday.

Eli uchun Tarlonni
Egarladi Oychinor,
Qiz bo'lsa ham burgutday,
Oraladi Oychinor.

Sovutini avaylab,
Keng egniga tayladi,
Qalqonini ko'tarib,
Egariga boyladi,

Boylab oldi Oychinor
Qilichini beliga,
Ikki qilich nayzani
Ola berdi qo'liga.

Har bir egni qirday bo'p,
Endi ketib boradi,
Oq sallaln bobolar
Alqab duo qiladi.

Birga yurgan kelinlar
Bu kim, deyishib turadi,
Oychinor, deb eshitib,
Yoqa ushlab qoladi.

Chopib chiqqan odamning
Bari duo qiladi,
Buni ko'rib Xolyor
Belga quvvat oladi.

– Oy borginu omon qayt,
Bilaklarning zo'r bo'lsin,
Yaqin kelgan dushmanning
Ikki ko'zi ko'r bo'lsin.

Parvardigor, xudoyim,
Kuch bersin, quvvat bersin,
Sahar turgan sahoba
Urushda madad bersin.

Kim bersa-da duoni
Oychinor olayotir,
Ko'kragini keng yoyib
Asta-asta borayotir.

Ot boshiga ish tushsa,
Tulpor bo'lsa surindi,
Lalovlashgan ko'p lashkar
Yo'l ustida ko'rindi.

Namoyishga sardorlar
Boylab opti bayroqni,
Jallodlar yonboshiga
Taqib oldi qayroqni.

Bedovlarning changlari
O'rlab borar osmonga
Menman degan navkarlar
Jazman bo'libdi jangga.

Kelayotir ko'p lashkar
Bahorning bulutiday,
Borayotir Oychinor
Quytonning burgutiday.

Eshak mingan bobolar
Keldi Chinor izidan,
Xudo o'zing saqla, deb
Yoshlar oqar ko'zidan.

Yasov tortgan lashkarlar
Kelayotir izma-iz,
Lashkar bilan Oychinor
Endi bo'ldi yuzma-yuz.

Lashkarlarning boshlig'i
Oldinga tez chiqadi,
Oychinorga bir mandon
Tiklab qarab turadi.

Uzangiga oyog'in
Qattiq-qattiq tiradi,
Oychinorning qoshiga
Kelib gapni so'radi.

– Tanimasni siylamas,
Siz qayerdan bo'lasiz,
Nima uchun bu yerda
Oldimizdan chiqasiz?

Bizlar sizni bilmaymiz,
Qaysi bekning ulisiz,
Qayerdadir bo'stoviz,
Kimning joni-dilisiz?

Agar bekdan bo'lsangiz,
Oldimizda turmangiz,
Biror gapni bizlardan
Hech iltimos qilmangiz?!

Ot ustida Oychinor
Bul sardorga so'yladi,
Oldidagi nayzasin
Yerga qadab tayladi.

– Meni aslo bek, dema,
Bekning yuzi qurisin,
Odamzodning dushmani,
Yerda yotib chirisin!

Meni so'rmoqchi bo'lsang,
Shu qishloqdan bo'laman,
Xalqim uchun ne bo'lsam,
Taqdirimdan ko'raman,

Agar ketsang indamay,
Sening bilan ishim yo'q,
Har narsaga xor bo'lgan
Havordagi boshim yo'q.

Sardor, o'zing o'ylagin,
Nimasi bor bergani?!
Hammasining ochlikdan
Qurib borar sillasi.

O'z odaming o'ldirsang,
Senga uyat bo'lmasmi,
Qonxo'r, degan elatda
Qora noming qolmasmi?!

Bu gaplarni eshitib,
Bekning qahri keladi,
Qiliching qinidan
Shirillatib oladi.

– Menga farmon bergandir,
Shu farmonni qilaman,
Moli tugul qizini
Tikka haydab boraman.

Sen qochmasang yo'limdan,
Boshing tandan uzilar,
Tanang qolib havorda,
Terakdayin cho'zilar.

Bu gaplarni aytgan so'ng,
Sardor qilich soladi,
O'z boshining ketganin
O'zi bilmay qoladi.

Qarab turgan narkarlar
Ol, deb otni soladi,
Jarang-jiring qilichlar
Havoda pishqiradi.

Tanadagi kallalar
Ketayotir g'irillab,
Tanasidan oqqan qon
Ketayotir shirillab.

Namoyishga ko'targan
Ol bayroqlar yiqildi,
Safi uzun nayzalar .
Duch kelganga suqildi.

Oralashgan Oychinor
Tinmay boshni kesadi,
Do'lanaday partillab
Kalla yerga tushadi.

Qayerdandir hayqirib,
Yetib keldi Omopyor,
Ushlab mindi bir otni,
Oychinorga berdi yor.

Urush bo'ldi bir maydon,
Tana cho'zilib qoldi,
Ko'kat bo'lgan maydonlar
To'zg'ib buzilib doldi.

Sardori yo'q navkarlar
Endi qochib boradi,
Ot ustida Omonyor,
Ayamaydi, uradi.

Navkarlarni qochirib,
Qayta berdi ikkovi,
Yetgan edi bir joyda
Navkarlarning ikkovi,

Kamonini ko'tarib,
Navkar joyidan turadi,
Oychinorning to'shidan
Attang, ko'zlab uradi.

Oh, deb otning ustidan
Mard Oychinor yiqildi,
Falak tug'magan edi,
Qiz emas, shunday uldi.

Ot ustida Omonyor
Kamonchini ko'radi,
Kallasini tanadan
Borib judo qiladi.

Qo'tarayotir Omon
Oychinorning boshini,
To'xtatolmaydi sira
Ko'zdan oqqan yoshini.

Chinorbekni ko'tarib,
Kelayotir Xoliyor,
Ne bo'ldi, deb chopishar,
Qarab turgan odamlar.

Xoliyor kep bolasin
O'payotir yuzidan,
Chinqiradi Chinorbek
Yosh ketkazib ko'zidan,

Enasining ko'ksini
Iskayotir Chinorbek,
Qo'llariga yuzini
Suykayotir Chinorbek

Kelgan barcha odamning
Yurak-bag'ri ezildi,
Ko'zdan oqqan yoshlari
Munchoqdayin tizildi.

Yotgan joyda Oychiyaor
Hamilini rostladi,
Shivirlanib Omonga
Asta-asta so'zladi.

– Hov, Omonjon, otajon,
Gapga quloq solinglar,
Sandiqdagi narsaning
Hammasini olinglar.

Bundan borib Amudan
Ot sop kechib o'tinglar,
Borib akam qo'lga
Sovg'amiz, deb tutinglar.

Agar meni so'rasa,
Shul tomonda soldi, deig,
Chinorimni ko'rsatib,
Odam qilsin, dedi, deng.

Bir zamonning yomoni
Onchinorni uxlatdi,
Yig'layotir, na fonda,
Qalblarshsh dog'latdi.

Omon bilan Xoliyor
Chinorni op qo'lga,
Necha yo'llarni yurib,
Bordi Bobir qo'lga.

Bedov otlar yo'llarda
Hech tolmayin chopishdi
Navkar ekan akasi,
Xoliyor ham topishdi.

Chinorbek ham ulg'ayib,
Katta botir bo'lbedi,
Sarkarda bo'lganini
Qodir shoir ko'rbedi

Odamzoddan o'tadi,
Farzand qolsin, ul qolsin
Bo'ston degan jahonda
Unda unib gul qolsin.

Bu dostonni o'qigan
Uzoq umr, yil ko'rsin,
Yilda yurib netadi,
Qo'sha-qo'sha ul ko'rsin.

Bu dostonni yoshlikda
Turdi shoir aytgandir.
Shundan beri yodimda
Yo'qolmayin qilgandir.

Abdumo'min Qahhorov
Qo'ymay yozib olgandir,
O'ylab tursam bu doston
Endi ado bo'lgandir,

Aytmay desam bu ilhom
Aslo qo'ymas qaytayin,
Bunisi tamom bo'ldi,
Boshqa doston aytayin.

ZAYDINOY

Doston

Aytuvchi:

Qodir baxshi Rahimov

Yozib oluvchi va nashrga
tayyorlovchilar:

Malik Murodov,
Abdiolim Ergashev

O'tgan qadim zamonda, gul ochilib har yonda Chambil degan makonda, Ahmadbek degan bek bor edi. Ahmadbek shu Chambilning oqsoqoli, boringki Chambilning podshohi edi. Chambilda ikki lak turkmanlar yashar edi. Bularning kasbi-kori savdogarchilik edi. Bosh savdogarlari Ahmadbek edi. Chambil kichkina shaharcha edi. Bir tomonda Polopon tog'i, bir tomonda Asqar tog'i bor edi. Turkmanlar qish bo'yi qishloqlarda yashar, bahor kelsa uylarini tuyalariga ortib goh Asqar tog'iga, goh Polopon tog'iga ko'chib borar edi. Turkmanlarning yarmi savdogarchilik bilan besh yil, gohida yetti yillab ketar edi. Yarmi esa qishloqni ko'chirib yurar, mollarni boqar, qaysi yurt dan lashkarlar kelsa, ularning talab qilgan narsalarini berar, shuytib kunini o'tkazib yurar edi.

Chambilning bir tomonida Chortoqli degan kichkina mamlakat bor edi, uning odamlari ikki yarim lakdan oshar edi. Unda o'zbeklar, qozoqlar yana boshqa millatlar yashar edi. Ular Hovdak ko'li, Oydin ko'li atroflarida dehqonchilik qilib kun o'tkazar edi. Ularning podshosini Oq podsho deb atashardi.

Chambil bilan Chortoqlining odamlari bir-biri bilan inoq yashar, ko'p bordi-keldi qilar edi. Begona lashkarlar Chortoqlini talasa, Chambilni ham talar, Chambilni talasa Chortoqlini ham talar edi. Nima bo'lsa ham bu ikki elatning bir-biriga dushmanligi yo'q edi. Lekin bir yilda ikki marta talanar edi. Qish kelabersa Oqtosh shahrining lashkarlari, bahor chiqsa qizilboshlar kelib xohlagan narsasini olib ketar, shuning uchun Chambil-Chortoqlining odamlari mol-u mulkini o'zimizniki deya olmas, "Ishqirib kelsa – qishniki, hayqirib kelsa – yovniki", – deb yurar ekan.

Bugun Ahmadbek erta bilan joyidan turib: "Hoy Yodgor, tur ovulning oqsoqollarini chaqirib kel, bugun katta bir maslahat bor", – dedi. Kapada yotgan Yodgor joyidan turdi, oqsoqollarni chaqirgani jo'nadi. Ahmadbek Yodgor deb chaqirgan Go'ro'g'li edi. Go'ro'g'li yetti yoshdagi bola edi. Go'ro'g'lining onasi Ahmadbekning singlisi Bibi Hilol edi. Bibi Hilol qizligida homilador bo'lib qolgan, kimdan homilador bo'lib qolganini o'zi ham bilmas, biror erkak zotining qoshiga ham bormagan, biror yigitni yaxshi ko'rmagan edi. Avvallari hech kimga bildirmay yurdi, to'qqizinchi oyga borganda Ahmadbek bilib qolib, birov bilmasin, menga isnod bo'ladi, deb Bibi Hilolni urib, o'ldi deb, hech kimga bildirmay, ochiq go'rga olib borib tashlagan edi. Go'rda Go'ro'g'li paydo bo'lib, undan so'ng Bibi Hilol o'lgan edi. Go'ro'g'lidan Ahmadbek xabar topib, uyiga olib kelib, singlimdan qolgan yodgorim deb, Yodgor deb chaqirib yurar edi. Yodgorni bir xillar jiyani ekanini bilar, bir xillar bilmas, bir sag'irda, deb yurar ekan. Ahmadbekning jilqi cho'ponlari Berdiali bilan Omongeldi go'rdan ushlagani uchun Yodgorni ko'rsa Go'ro'g'li deb chaqirib kulishar edi. Alqissa, Ahmaddan eshitganlar Yodgor, cho'ponlardan eshitganlar Go'ro'g'li deb chaqirib yurishar ekan. Go'ro'g'li ikkala nomga ham "Ha" deb javob berar edi. Yodgor deganlardan ko'ra Go'ro'g'li degan nomni yaxshi ko'rar edi.

Go'ro'g'li yetti yoshda bo'lsa ham ko'rganlar o'n sakkiz-yigirma bo'lganov derdi. Ko'zlari piyoladay, qoshlari burgutning qanotiday, burunlari qirra, yelkalari keng, eni bilan bo'yining farqi oz, bilaklari yo'g'on, qo'llarining barmoqlari uzun-uzun, oquvadan kelgan xushruy yigit edi. Bo'yinsalari Hapal deb chaqirar edi. Go'ro'g'li bilan bir ko'rishgan odam qayta ko'rishmas, "Sog'misan?" deb qo'yar edi. Oqsoqollar gurunglashsa Go'ro'g'lini ham tilga olar: "Yo turkmaning baxti, yo turkmaning sho'ri bo'ladi", – der edilar. Ahmadbek esa Go'ro'g'lini: "Mechkay bir

qo'yning go'sh(t)ini go'sh(t) demaydi, o'zi ro'zg'orli bo'lsa xotinini ochdan o'ldiradi, ertaroq qutulmasam meni ham kambag'al qiladi bu", – deb qo'yar edi. Alqissa, Go'ro'g'li Chambil oralab oqsoqol-u akobirlarni chaqirib keldi. O'tov to'rida o'tirgan Ahmadbek oqsoqollarga qarab, menda bir maslahat bor, deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Tol qoziqqa bedov otni boylayin,
Vaqt kelsa bu kallada o'ylayin.
Quloq soling akobirlar so'zima,
Bir maslahat men o'rtaga taylayin.

Qayga borsa obro' olar bedov ot,
Bedov otga gar yarashsa valomat.
Oqsoqollar avval eshit so'zimni
So'ngra menga bering maslahat.

Asqar tog'ning boshin tuman chalmasmi?
Tuman chalsa g'uborlanib qolmasmi?
Maslahatni men sizlardan so'rayin
Bahor kelsa qizilboshlar kelmasmi!?

Shamol tursa uchirar tov qorini,
Soyga tiqar shu qorlarning barini.
Davlatningdi shilib olar qizilbosh
Ayamaydi yoshing bilan qaringdi.

Oz turnalar adashadi yo'lidan
O'yirilib o'ylashar Asqar belidan.
Turkman elim ko'p emasda, naylayin
Ne ish kelar oz elatning qo'lidan.

Ko'p chumoli har kimsani shoshirar,
Botmon donni olti tovdan oshirar.
Molingni ob qochsang tov-u toshlarga,
Qizilboshlar bilib qo'lga tushirar.

Bo'ri qayga borsa, do'stlar bo'ridir,
Tanho yurgan mol zotining sho'ridir.
Boshqa eldan agar yordam so'rasang
Ul ham bilgil, qizilboshning biridir.

Bir odamning aqli otcha bo'ladi,
Ko'p odamning aqli tovcha bo'ladi.
Maslahat qilinglar bu kun yoronlar,
Bilganin aytmagan yotcha bo'ladi.

Har kim aytsin, men ham o'y lab turayin,
Kimdan qanday gap chiqadi ko'rayin.
Ko'pning fikri ko'l deyishar yoronlar,
Ne desanglar yo'q demayin, ko'nayin.

Alqissa, Ahmadbekning bu gapiga turgan oqsoqol-u akobirlar nima deyarini bilmay, bir-biriga qarab turgan edi, poygakda o'tirgan Go'ro'g'li: "Menda bir maslahat bor", – dedi. Bu gapni eshitib, oqsoqol-u akobirlar kulib yubordi. Ahmadbekning achchig'i kelib: "Hoy bachcha, o'zi holing qancha, oqsoqollar yo'qmi sencha, kapangga bor bu yerda turguncha, hozirdan mahmadonalik qilasan, katta bo'lsang nima bo'lasan, non topolmay ochdan o'lasan, chiq jo'na, bu yerdan bo'l pana", – deb urisha berdi. Shunda oqsoqollar: "Yo'q, Ahmadbek, bir kattaning gapiga, bir kichikning gapiga quloq sol degan gap bor. Mayli aytsin, qani nima der ekan?", – dedi. Ahmadbek oqsoqollarning gapidan o'tolmay Go'ro'g'liga ruxsat berdi. Shunda Go'ro'g'li tiz bukib, oqsoqol-u akobirlarga qarab bir so'z aytib turibdi:

Bir yo'lbarsga mingta iting teng bo'lmas,
Noqirsga hech ikki jahon keng bo'lmas.
Jondan qo'rqmas botir chiqsa elingdan
Turkmanlarning asli holi tang bo'lmas.

Qurt teshadi doim yog'och bo'shini,
Toshni teshar tushsa ko'kning yashini.
Biriktirsa cho'pni sindirib bo'lmas
Biriktirmoq kerak turkman boshini.

Xudo bersa yigit tovdi otguday
Orqang bo'lsa ovdarilib yotguday.
Bir bedovni topib bering o'zima
Qochganda qutilib, quvsa yetguday.

Qarg'a hurkib uchar ko'rsa terini,
Yo'lbars ta'zim qilar ko'rib zo'rini.
Bir degan tulporni bering o'zima,
Men berayin qizilboshning sho'rini.

Qo'rqqan bo'ri yana solmas izini,
Tulkilar dod solar ko'rsa tozini.
Qizilboshning boshin qonga bo'yayin
Yana kelmasday qilay o'zini.

Oqsoqollar parvo qilmang yoshima,
Ne ish tushsa tushsin mayli boshima.
Sher yuraklar turkmaningda topilar,
Qirq yigitni qo'shib bering o'zima.

Har kishida bo'lsin avval ko'ngil to'q,
Ko'ngil to'qda xato ketmas otgan o'q.
Ayt deganda aytdim so'zning borini
Oqsoqollar boshqa aytar so'zim yo'q.

Bu so'zni eshitib oqsoqollarning ba'zilari kulib yubordi, ba'zilari o'ylanib qoldi. Shunda Ahmad: "Hoy Yodgor, qizilboshlar senga yegani non emas, ular Ahmadning ovqati emas shotirlatib yegani, ularni qizilbosh deydi. Ular yuz, ikki yuz emas, Polopon tovining ustidan yurib o'tsa, tovdi xovar qilib qo'yadi. Sen non yeyishingni, shu qilmishingni bil, tur eshikka chiqib tur" – dedi. Go'ro'g'li indamay eshikka chiqib ketdi. Shunda, oqsoqollarning ichida Qaran degan bir keksa chol bor edi, ko'p maslahatlar shu choldan chiqar edi. Aytgan gapi ko'p to'g'ri chiqar, shuning uchun uni Qaran folchi deb ham qo'yar edi. Shu Qaran inqillab, joyidan qo'zg'alib, o'tirganlarga bir-bir qarab, menda bir so'z bor, aydayin deb, ruxsat olib, ikki og'iz so'z aytib turgani:

Ana tovlar tov o'miga ko'rinmas,
O'rkach-o'rkach ko'kdan bulut ko'chkansan.
Yasov tortgan qizilboshing teng emas,
Shu yigiting bir bedovni mingansan.

To'qson yoshda ko'rdim qancha ellarni,
Kezib chiqdim qancha yobon cho'llarni.
Odamzotning ichida hech ko'rmadim
Shunday buksi ko'tarilgan ullardi.

Men aydayin, eshitinglar so'zma-so'z,
Tiklab qarolmaysan bo'lsang yuzma-yuz.
Baxting kulib boqar bir kun turkmanlar
Manglayi qoyaday o'zi ajdar ko'z.

Bolaga ish aytsang qiladi halak,
Bilgirning qilgani doim bir bo'lak.
Na bo'lsa bo'lmasin turkmaning sho'ri,
O'mgani Asqarday, yana sher bilak.

Bemehnat o'smaydi bog'dagi terak,
Shirin til noraqdi qiladi berak.
Na bo'lsa turkmanlar hurmat qilinglar,
Lochindek abjirdir, qarchig'ay yurak.

Dehqonning bug'doyin tozalar kurak,
Sanamga yarashar oltindan zirak.
Jahonda shundayin uldi ko'rmadim
Burgutday haybatli, fildayin ko'krak.

Haydasang yurmaydi qo'ning morqasi,
Suruvning oldida yurar sarkasi.
Xudo bergan Go'ro'g'liga, yoronlar
Burgutday qabog'i, tutash orqasi.

Keyti bor kiymaydi to'ndi banotdan,
Tulporning oyog'i abjil qanotdan.
Bilagin bir ushlab ko'rgin turkmanlar
Eritib qo'yganday misli po'latdan.

Enkaytib bo'lmaydi tovning boshini,
Siqqanda yanchsangda soyning toshini.
Meni aytdi darsan turgan turkman el
Kamiga pishirar qo'ning go'sh(t)ini.

Zarbiga tutilar quyoshning yuzi
Olmosday kesadi tiklasa ko'zi.
Oyog'in ko'tarib yerni bir tepsa,
Yomg'irday to'kilar ko'kning yulduzi.

O'shqirsa uzilar tovlarning beli,
Kulganda yashnaydi Arpaning cho'li.
Shu yigit xarba qip oldiga chiqsa,
Keytiga qaytadi bahorning seli.

Sovimay bedovlar yo'lga chopilmas,
Har qanday temiring bo'lolmas olmos.
Yigitning yo'ldoshi ot der yoronlar
Bir bedov ming yilda bunga topilmas.

Nasiba tortgansan oyni oladi,
Nasib qilmagani quru(q) qoladi.
Olti yil baxti bor qizilboshingning
Hay, attang, hozircha yoshlik qiladi.
Hozircha kulmanglar Qaran so'ziga,
O'lmasa ko'rsatar ishin ko'ziga.
Ovmin, deb duo qil turgan turkman el
Dushman bo'b qaytmasin Chambil eliga.

Qaranning bu so'ziga bir xillari kulishdi, bir xillari miyasi aynigan chol, jasadini ko'rib valdirayotir, tuyaning kuchi ko'p, lekin yuk tashishdan boshqasini bilmaydi deyayotir. Ahmadbekning badani yaxlab ketdi. Go'ro'g'li bekligini olib qo'yayotganday bo'ldi. Shunda Ahmad:

– Ey donolar, men sizlarni birovni maqtang deb chaqirmadim. Men maslahat beringlar deb chaqirdim, – dedi. Shunda oqsoqollar:

– Hoy Ahmadbek, biz nima deb maslahat beramiz, yashirsak topib olsa, bermayman desak urib o'ldirsa, boshqa biror ko'makdoshimiz bo'lmasa, insofni o'zingga bersin, boshqa nima ham qilamiz, – dedi. Ahmadbek:

– Bo'lmasa mening gapimga quloq solinglar. Yaroqli mollarning barini olamiz, tuyalarga ortamiz, shaharma-shahar yurib savdogarchilik qilamiz. Yaroqsiz mollarni bu joyga tashlaymiz. Qizilbosh xohlaganini olsin. Oxiri hech nimasi yo'q ekan, deb umid uzib ketsin. Turkmaning yarmi shu yerda qolsin, yarmi men bilan yursin. Savdogarlik qilib ham boyiyimiz, ham bir zo'rroq podsho bilan oshna-bilish bo'lib qaytamiz. Mening gapimga kirgan ikki kundan keyin mol-u mulki bilan iyarib yursin, qolgan peshonasidan ko'rsin, – dedi. Ahmadbek sen nima deysan demadi, gapini tamom qildi. Oqsoqollarga ovqat qo'yib, so'ngra duo qilib, hamma uy-uyiga jo'nadi.

Bugun o'tdi. Ertalab Ahmad Go'ro'g'lini chaqirdi. Ahmadbek ham o'ttiz ikkilarga borgan, tanasi tutashdan kelgan, keng peshonali, lekin iyagi uzun, o'zi ham o'rta bo'y odam edi. Turkman boylaridan Qayinboyning qizi Xoljuvonoyini olgan edi. Xoljuvon xushro'y, badanlari oq bo'lgani uchun Oqbilakoy deb chaqirishar edi. Ahmadning uylanganiga o'n yil bo'lgan, lekin farzand ko'rmagan edi.

Alqissa, Go'ro'g'li Ahmadning yoniga keldi. Shunda Ahmad Go'ro'g'lini bir biyaga mindirib, tovga olib jo'nadi. To'qayda yotgan biyalardan yaxshi-yaxshilarini ayirib, yomonlarini taylab, Go'ro'g'liga qarab bir so'z aytib turibdi:

Quloq sol Yodgor aytgan so'zima
Aytar so'zim bir-bir bayon aylayin.
Seni taylab ketar bo'ldim izima,
Mana biyalarni sanab taylayin.

Bu biyalar senga bo'lsin omonat,
Omonatga qilmagaysan xiyonat.
Kelgunimcha eson-omon saqlasang,
Senga topib beray o'zim bedov ot.

Dushman yo'lin doim poylab turarsan,
Ozroq bo'lsa adabini berarsan.
Ishqilib tushirma dushman qo'liga,
Ko'plik qilsa tovda qochib yurarsan.

Uyquga bermagin aslo kechangdi
Har joyda falokat uradi ongdi.
Biyalarga qo'shib yana topshirdim
Kelgunimcha omon saqla chechangdi.

Asqar tovning boshin tuman chalmasin,
Zang bosmasin hech botirning olmosin.
Qayga borsang ehtiyot bo'l Yodgor
Kelgunimcha menga isnod bo'lmasin.

Orqa tov deb aytar yigit og'ani,
Qo'rqoq bo'lsa paymonasi to'lgani,
Bu gaplarni also yolg'on demagin,
Yarim ota, deb aytishar tog'ani.

Kelgunimcha omon qilsang xonamni,
Yomon ish qib yondirmasang tanamni.
Omonatim omon qilib saqlasang,
Senga olib beray bir oy sanamni.

Bunda tursam qizilboshlar qo'yamaydi,
Itday bo'lib bor-budimni talaydi.
Turkmanimga bir suyanchiq topmasam,
Arz qilgani kimga borib yig'laydi.

Ot kokilin tarab bugun minarman,
Bu tog'angning dilida bor ko'p armon.
Qodir egam omonatin saqlasa,
Besh yillarda bunda qaytib kelarman.

Jala bo'lmay soyning suvi toshmaydi.
Botir orin olmay otdan tushmaydi.
Besh yilda kelarman ishim o'ng bo'lsa,
Kechikkanim yetti yildan oshmaydi.

Belimga bog'lagan olmos yarog'im
Yarog'im ushlashga yo'qdir qarog'im.
Yetti yilda men kelmasam o'ldi de,
Bo'yningda qarzdor is-u chirog'im.

Har kimsaga pirlar bo'lsin madadkor,
Ayta bersam yurakda ko'p g'amim bor.
Is-u chirog'imni qilsang roziman,
Qolgan davlatimda senga ixtiyor.

Halak qilar ish buyursang bolaga,
Nodonni bek qilib bo'lmas qal'aga.
Bor-budimni bolam senga topshirdim
O'zingni topshirdim Olloh taolog'a.

Yolg'iz otning kim qo'rqadi changidan,
Musofirning farqi bo'lmas bangidan.
Menga ham duo ber bolam Yodigar,
Xudoyim ishinni bersin o'ngidan.

Go'ro'g'li tog'asidan bu gaplarni eshitib, boshini ham qilib o'ylanib turdi. Shunda Ahmad: "Ha Yodgor, mening gapim yoqmadimi yoki tog'am haq bermaydi deb qo'rqdingmi? Mening xizmatimni qiyin bildingmi? Tog'aligimni hurmat qilmasangda, tuzimni hurmat qilmadingmi? Ne sababdan boshingni ham qilib o'ylanib qolding. Ne maqsading bor ayt!", – dedi. Shunda Go'ro'g'li joyidan turib, tog'asiga ta'zim qilib, bir-ikki so'z aytib turibdi:

Bek tog'a qandayin aytay so'zimni,
Qiyin ishga tashlab ketding o'zimni,
Botqoqqa taylading bir poy izimni,
Sen kelguncha qora qilar yuzimni,
Biyalarni boqay, opket chechamdi.

Yetti yil ayriliq bilasiz yomon,
Bir yilga bormayin qarar har tomon,
Chechamni boqishim, tog'a dargumon,
Ming biya bo'lsada boqay tog'ajon,
Neni aytsang qilay, opket chechamdi.

Turkmaning tog'ajon, hazil gap qilar,
Hazil gapdan jomay-jomay qop qilar,
Bir yildan oshirmay tog'day lof qilar,
Oriyati menday sho'rmi cho'p qilar,
O'l desang o'lay, opket chechamdi.

Ot turmas qoziqda biya chopgansan,
Sovliqlar nozlanar qo'chqor topgansan,
Xamir ham toboqda turmas ko'pgansan,
Gapim olmas checham bir oy o'tgansan,
Ne aytsang qilayin, opket chechamdi.

Biyaga qayt desam keyin qaytadi,
Chechamga qayt desam toshlar otadi,
Ovulga qidirsas besh kun yotadi,
Shuytib-shuytib oxir kelmay qaytadi,
Xizmatining qilayin, opket chechamdi.

Dardliga yoqmaydi tovning havosi,
Tishing og'rigansan ombur davosi,
Daraxtlar tinglashar bo'lsa mevasi,
Ayolning erkakdir orzu-havasi
Bir dardga qolmayin, opket chechamdi.

Bulbullar sayrasa gullar yozilar,
Sayramasa gul boldog'i uzilar,
Ko'ngil istagansan niyat buzilar,
Qoshlar ko'tarilib, ko'zlar suzilar,
Dardisar qilmayin opket chechamdi.

Yor bo'lsa qayg'uni dildan qochirar,
Ko'ngil istagansan tovdan oshirar,
Er ketsa kelinlar toshga bosh urar,
Suv bo'lsa olovni tezda o'chirar,
Zomin bo'p yurmayin, opket chechamdi.

Olti oy bo'lmayin, checham bo'lar mas(t)
Mas(t) bo'lsa tillari bo'lmasmi olmos,
Ming qilgan xizimating tincha totimas,
Dardini aytmayin qilar xom nafas,
Bir o'yg'a qolmayin, opket chechamdi.

Gohida pes qilar, gohida moxov,
Orqamga cho'mich yeb, boshimga o'qlov,
Gaplari yelkamdan bo'ladi niqtov,
Bir yilga bormayin checham bo'lar yov,
Dunyodan bezmayin opket chechamdi.

Xotinni erkakka qo'shgan xudoyim,
Erkagi bo'lgansan xotin muloyim,
Bir kecha ayirma uni iloyim,
Tog'ajon yetmasmi shuncha ilohim,
Tentak bo'p qolmayin opket chechamdi.

Tog'aya qizilbosh bunda kelmasmi?
Biyani yashirsam checham qolmasmi?
Bo'yini ko'rsatib so'ngra qochmasmi?
Buqaday bo'kirib dushman quvmasmi?
Bu dardga qolmayin, opket chechamdi.

Ot ketib to'rvasi bunda qolmasin
Bevaning dastyori hech kim bo'lmasin,
Sog' odam isnodni aslo olmasin,
Op ketgin chechamdi bunda qolmasin,
Ne bo'lsam bo'lay, opket chechamdi.

Ahmadbek Go'ro'g'lining bu gaplarini eshitib, hayron bo'lib, o'ylanib qoldi. Ichida: "Go'ro'g'lini men ham yosh bola desam, rosa ichidan pishganga o'xshaydi. Mening esimga kelmaganni esimga soldi. Buning aqli mening aqlimdan ustunroq keldi. Hamma gapi o'ylab ko'rsam to'g'ri keldi", – deb boshini ko'tarib, Go'ro'g'liga qarab: "Hoy chirog'im, bu gaplaring to'g'ri, senga qiyin, men o'zim olib ketay desam, qancha sinamagan ellarga boraman, qancha jazirama cho'llardan o'taman, biror gap bo'lsa, o'g'ri-qaroqchilar duch bo'lsa, chechangni tortib olsa, so'ngra tog'ang qaysi yuz bilan Chambilga keladi, o'ylab tursam sening aqling ham menikidan kam emas, o'zing biror iloj qilib saqlab turarsan, yetti yilda kelmasam javobini berasan. Buncha gapni bilasan, xotinlarning tilini ham bilarsan, tili o'tkirlashib ketabersa, aytganimni qilarsan", – deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Moldan, jondan qo'rqib chiqdim safarga,
Oriyatim senda qolar Yodgor.
Mard yigit talashar nomusga, orga,
Menga qanot sendan boshqa kimim bor.

Bog'bonlar o'stirar gulning zo'rini
Yurmagan bilmaydi tog'ning yo'lini.
O'ylab ko'rsam aqling aslo kam emas,
Bilarsan xotinning ko'ngli, tilini.

Yomon xayollarni boshdan o'chirdim,
Dono bo'b ahmoqning gapin kechirdim.
Chechangni buzilsa ko'ngli va o'yi,
Bir joydan ikkinchi joyga ko'chirgin.

Dard bergan xudoyim darmonin bersin,
Insofin ketganin qo'ymasin, olsin.
Ko'chganda xona tort biya ustiga,
Minganda biyasi jo'rtoqi bo'lsin.

Qimizni so'rasa suvni keltirgin,
Novotni so'rasa muzni oldirgin.
Ko'pgan non yedirma zinhor Yodigar,
Xamirni iylatib patir qildirgin.

Ko'ngli tusaganin obkeb kiydirgin,
Joshang deb o'rikdan doim to'ydirgin.
Go'sht desa obkema qo'yning go'shtini,
Echkining qarisin so'yib yedirgin.

Chechangning gapini eshit rost dema,
Yaqin tut o'zingni siring bildirma,
Tovuqni saqlama uyning oldida,
Bir tuxum yedirib, ming kaltak yema.

Do'st kulsin kulganda, dushman kulmasin,
Siringni Yodgor hech kim bilmasin.
Checha deb bir ishni bergin qo'lga,
Qilganda kechgacha ado bo'lmasin.

Judolik ko'rmagan odam ming yashar,
Isnodga qolganni ip solmay osar.
Qo'nganda buloqqa yaqin o'tirgin,
Yaxtay suv chechangni xovrini bosar.

G'aflatta Yodgor aslo qolmagin,
Birovning gapini chin deb bilmagin.
Chechangni ko'rganda ko'ngli buzilar,
Uyingning ichiga mehmon solmagin.

Haftada tog'amdan xabar keldi de,
Sizga bir munosib sovg'a oldi de.
Na bo'lsa ovuntir bo'tam, chechangdi,
Yo'lini Chambilga qarab soldi de.

Xudoyim nur bersin ikki yuzingga,
Bog' bersin, Yodgor boqqan izingga.
Chechangni xizmati uchun men berdim,
Shu tarlon biyani olgin o'zingga.

Alqissa, Ahmadbek so'zini tamom qilib, yana dedi: "Endi Yodgorjon qolgan gaplarni o'zing ham bilasan, Berdialini o'zingga chokar qilib olasan", – deb ayirgan biyalarini Omongeldiga haydatib, Go'ro'g'lini iyartib, Xoljuvonning qoshiga keldi. Ahmadbek safar anjomlarini jamlab, tuyalarga ortib, tuyalarni tuyakashlari tortib, o'zi ham saman otni sozlab, belini tortib, ustiga minib, ot jilovini egarning boshiga solib, murtini burab, Xoljuvonga qarab ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Vafodorim quloq solgin so'zimga,
Bir sababman ketar bo'ldim men endi.
Gap aytayin senday uzuk ko'zimga,
Olisga yo'l tortar bo'ldim men endi.

Ko'p gap o'ylab og'ritmagin boshingdi,
Bemavrid chiqarma ko'zdan yoshingdi.
Ro'zg'orimga Yodigarni bosh qildim,
Na desang qiladi har na ishingdi.

Bejavob bir joyga aslo bormagin,
Qil degan ishini qilmay turmagin.
Na desang kamingdi opkeb beradi,
Sal gapin tuyaday qilib yurmagin.

Bilasan gohida kelar ko'p dushman,
Xudoyim si(z)larni saqlasin omon.
Bola deb pisandga ilmay turmagin,
Yur degan joyiga yurgin Xoljuvon.

Senga ko'p munosib sovg'a olarman,
Husningga tanamdan jonni berarman,
Ishqilib, ehtiyot bo'lgin sanamjon,
Besh yilga bormayin qaytib kelarman.

Bir qora pardani tutma yuzingga,
Isnodi gaplarni qo'yma o'zingga.
Sabrning oxiri sariq oltindir,
Xudoyim insofni bersin o'zingga.

Behisob xazinam, norim o'zingsan,
Kuchim ham quvvatim, borim o'zingsan.
Gap qilib tanamni qulday ozdirma,
Mening nomusim ham orim o'zingsan.

Beklikning belgisin qo'ydim jog'amga,
Teng bildim ikkingni aziz og'amga.
Xush endi Yodigar, yorim Xoljuvon,
Ikkingni topshirdim qodir egamga.

Xudoyim saqlasin aziz boshingni,
Musofir joylarga to'kmay yoshimni.
Menga ham duo ber ikki qarchig'am,
Yaxshilar o'ngidan bersin ishimni.

Alqissa, Xoljuvon bilan Go'ro'g'li qo'lini duoga ko'tarib: "Ilohim aytganingiz bo'lsin. Sog' borib, salomat qayting, ishingiz o'ngidan kelsin, ovmin, Ollohu akbar!" – deb duoni yuziga tortdi.

Ahmadbek otga qamchi chotib, odamlarning izidan ketdi. Qolgan mol-u davlat Xoljuvon bilan Go'ro'g'liga qolib ketdi. Ahmadbek savdogarchiligini, bor niyatini qilabersin, gapni bu yoqdan eshiting.

Go'ro'g'li butun bir ro'zg'orga bosh bo'lib qoldi, goh tovga ko'chirdi, goh to'qayga ko'chirdi, kunini o'tkaza berdi. Xoljuvon ham Go'ro'g'lini yaxshi ko'rar, mening aziz qaynjonim deb yurar, aytganini qilar, undan beso'roq bir yoqqa yurmas, chaqirgan joyga ham bormas, Go'ro'g'lidani so'rab enalarinikiga borsa ham bir kecha yotmas, ish qilib qaynising ko'nglini qoldirmas edi.

Go'ro'g'li ham chechasini yaxshi ko'rar, checha ham demay opajonim deb yurar, ko'nglida checham ayollarning sultoni ekan, deb qo'yar edi

Qizilboshlar bir kelib-ketdi, go'ro'g'lilar omon qop ketdi. Nechovlarni izzillatib, nechovlarni o'ldirib, mol-mulkini ob ketdi. Ana-mana deb bir yil ham o'tdi.

Go'ro'g'li Berdalini ham hurmat qilar, nima kerak desa topib berar, Berdalidan qo'rqib ham yurar edi. Berdali Go'ro'g'liga yaxshi gapirmas, menga xo'jayin demas, pisandiga ilmas, og'zidan kelganini ayamasi edi. Bir kun Go'ro'g'li Berdaliga ovqat olib kelgan edi, shunda Berdali: "Hoy Go'ro'g'li, to'xta senga bir gapim bor, senga aytar shartim bor, beriroq kel bachchag'ar", – deb do'qlab, kamoni o'qlab, Go'ro'g'liga qarab ikki og'iz so'z aytib turibdi.

To'xtagin Go'ro'g'li senda gapim bor,
Ta'zim bilan kelib turgin qoshimga.
Bu joylarda senga bormi madadkor,
Bir fikr tug'ilibdi shunda boshimga.

Qarasam turqingga bir yosh bolasan,
Menga kelib ish buyurib turasan.
Qahring kelsa men olarman boshingni,
Bundan keyin aytganimga yurasan.

Bulbullar parvona gulning qoshida,
Munchoq bo'lsam sevganimning to'shida.
Sen munda qob biyalarni boqasan,
Men bo'laman Xoljuvonning qoshida.

Yigitni shoshdirar yorning savlati,
Men bo'laman Ahmadbekning avlodi.
Men boraman Xoljuvonning qoshiga,
Tog'ang o'lsa menikidir davlati.

Qushlar ham balandga solar uyani,
Nor deb atar savdogarlar tuyani.
Xizmatingga beray ikki g'o'nonni,
Meniki demagin tarlon biyani.

Biyalarni tarlon uchun soqqanman,
Ko'zdan qo'rqib unga tumor taqqanman.
Jobdig'ingni ol tarlonning ustidan,
Ko'ngil qo'yib yoshligimdan boqqanman.

Asqarning signasi do'lana bog'li,
Do'lana shoxlari bo'lar butoqli.
Jobdig'ing tortib ol to'riq ustidan,
Tarlondi ko'ngildan chiqar Go'ro'g'li.

Yo'q desang qo'ymayman seni ham omon,
Mendan qutilmog'ing bilgin dargumon.
Izingdan izlovching yo'qdir bilib qo'y,
Boshingga solarman oxiri zamon.

Bu gaplarni Go'ro'g'li eshitib hayron bo'b qoldi. Berdali ham Go'ro'g'lining qoshiga kelib biqinidan turtib:

– Bor bachchag'ar, tarlonning ustidan jabdug'ini ol, to'riq biyaning ustiga sol, ertaroq qo'zg'al, – deb do'q urabdi. Shunda Go'ro'g'li:

– Berdali og'a, biyalarni jabduqlash qochmas, bu gaplaringiz insofdan bo'lmas, – deb unga qarab bir so'z aytib turibdi:

Ayb bilma aytganimda so'zimni,
Insofdan emasdir tog'a bu so'zing.
Ixtiyoring nima qilsang o'zimni,
Tog'amda bormidi avvaldan tishing.

Shaytonning gapiga aslo kirmagin,
Pahlavon botirsan ishdan tolmagin.
Turkmanning bir so'zli botiri bo'lsang,
Shaningga isnot gapni olmagin!

Botirni muzlatmas qishning ayozi,
Qalloblik bo'ladi ishning sayozi.
Botirning isnoti gapi bo'lgansan,
G'ubor bo'b o'tmasmi bahori, yozi.

Aqlning doriydi aytgan so'zlari
Ahmoqni bilinar bosgan izlari.
Bir yorni istasa ko'ngling Berdali
Yo'q demas turkmanning suluv qizlari.

Bek tog'am kelguncha xizmat qilamiz,
Xizmatga yarasha haqni olamiz.
Biyadan beraver qalin moliga,
Egasin rozi qilib molin olamiz.

Hozircha yetimman, yurgan bolaman,
Tur degan joyiga naylay turaman.
Agarda bek tog'am rozi bo'lmasa,
Molini men o'zim topib beraman.

Burgutlar pisandga ilmas qiyani
Avliyo anglaydi nuri ziyoni.
Birinchi nasibam mening Berdali,
Jon og'a so'rama tarlon biyani.

Sanamning yuzida yarashsa holi,
Yorining oldida baland iqboli.
Irim qilib olganman buni tog'amdan,
Birinchi molim olma Berdali.

Birinchi farzanddir davlatning boshi,
Birinchi mol bo'lar yigit yo'ldoshi.
Yetimni yerlarga urma Berdali,
Mendayin sag'irning tarlon sirdoshi.

Yakkalik sirdoshi chertar torimni,
O'ldirsang hech kishi olmas orimni.
Yigit bo'b mol topsam bir kun, akajon,
So'rasang berayin harna borimni.

Yaxshilik ziyosi yursin yuzingda,
Yomonlik kulfati qolsin izingda.
Ursang ur, o'ldirsang mayli o'ldirgin,
Berdali ixtiyor endi o'zingda.

Go'ro'g'li aytarin aytdi tilidan,
Bir gul chiqqani yo'q mingta cho'lidan.
Na bo'lsa nomardlik qilmagin Berdali,
Yaxshilik kelmaydi har kim qo'lidan.

Bo'yim ham teng kelmas aslo bo'yingga,
Xizmatim ayamay bo'lsa to'yingga.
Ming salom berib o't derkan yaxshilar,
Bir marta tuz totib ketgan joyingga.

Bu gaplarni Go'ro'g'li aytib, indamay turaverdi, Berdali ham Go'ro'g'lining qoshiga kelaverdi, asta yoqasidan ushlab: "Hoy Go'ro'g'li kuning to'lganga o'xshaydi, tog'ang Ahmadga o'xshab ko'p naqlarni o'qiyverma, seni go'rdan ham chiqargan menman, endi go'rga solgich ham menman. Mening gapimga ko'nmading, tarlon biyani bermading, biyalarni boqib chechangga meni qo'ymading, endi o'zingdan ko'r", – deb bir silkib tortdi, Berdalining oyog'i to'pig'igacha botdi, undan batari qahri keb ketdi. Seni birov bog'lab qo'rganmi?", – deb achchig'i keb silkib-silkib tortdi, qo'lining bo'g'inlari og'rib ketdi. Tog'ning archasini tortganday, boshi silkinib qo'yadi, oyog'i mixlanganday qo'zg'almaydi, Berdalining undan battar qahri kelib, qo'liga tosh olib mush(t)lay ketdi. Go'ro'g'li endi o'ldim deb qo'rqib turgan edi, lekin Berdalining silkishlari, mush(t)lashi quriq, badandan chigirtka uchganday bo'layotir. Avval Go'ro'g'li betlamay qo'rqib turgan edi, endi qo'yni so'ysa ham tipirdaydi-da, meni indamay qaytib o'ldirar ekan, deb turmayin yoki menga hazillashayotganmikan? Yo'g'e, chinga o'xshaydi, imtilmasa qo'ymaydi", – deb o'ng qo'li bilan yoqasidan, chap qo'li bilan belbog'idan ushlab, "YO pirim" deb ko'targan edi Berdali langilab, oyoq-qo'lini tipirdatib osmonga chiqib ketdi. Go'ro'g'li bir qadoq toshni ko'targancha bo'lmadi. "Ey, bu Berdali ichi tushgan tarvuz-ku!" – deb kulimsiradi. Boshidan uch marta aylantirib, tizzasiga olib kelib bosdi, Berdalining og'zi-burnidan laxta-laxta qon chiqar berdi. O'lib qolmasin tag'in, deb bir qo'li bilan bosib turdi. Shunda Berdali nafas olib, arang o'ziga kelib: "Qo'y, Go'ro'g'lijon meni o'ldirma, qiyomatlik og'ang bo'laman, o'l desang o'layin, qol desang qolayin, o'lgunimcha xizmatimni qilayin, yana bir siri ham senga aytib berayin, qo'lingni tort, og'ajonim, kun ko'rmay o'layin", – deb zor-u zor yig'lay berdi. Shunda Go'ro'g'li qo'lini qo'yib yubordi, Berdali joyiga o'tirdi, uyoq buyog'ini surtib o'ziga keldi. Qilgan qilmishidan uyalib, ikki yuzi qizarib, yerga qarab yer chizib, "Go'ro'g'lijon og'am meni kechirgin", – deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Buzilgandi men naylayin niyatim,
Og'a bo'lib, Go'ro'g'lijon kechirgin.
Yetmadi tanamda kuch quvvatim,
Bu gapni birovga aytmay o'chirgin.

Tov shamol eritar tog'ning qorini,
Yashirib bo'lmaydi gapning barini.
Ato qilmagan ekanda xudoyim,
Endi aytay tarlon biya sirini.

Archani yashnatar pastda tenasi,
Tenasi bo'lmasa bo'lmas shonasi.
Shu tarlon biyaning aytсам zotini,
Xoldor to'riq biya bo'lar enasi.

Bu o'lim nechani yerga ko'mdirgan,
Kuni borga kuldani dori tomdirgan.

Yig'lab yotganingda yerda Go'ro'g'li,
Shu Xoldor to'riqdir seni emdirgan.

Saharlab bosh bermay qochib ketardi,
Ongishlab sag'ana o'zin otardi.
Uqranib kelardi go'rning ustiga,
Olchanglab jelinni senga tutardi.

Yaxshi ham yomon so'z chiqar bir tildan,
Xudoyim berganga berar chin dildan.
Biyalar ayg'irda yotgan vaqtida,
To'liqsib bir bedov chiqdi shu ko'ldan.

Shashtiga bo'lindi ayg'irning ko'li,
Gumbirlab sas berdi Asqarning beli.
Tuyoqqa tiysa tosh qumday ezildi,
Zarbiga changidi Arpaning cho'li.

Odamzod minmagan bundayin otdi,
Qo'ltig'idan chiqarar goh qanotdi.
Burnidan chiqqan dam dovul misoli,
Ko'zidan chiqqan o't teshar po'latdi.

Osmonlar yorishib shu vaqt tong otdi,
Ayg'irlar sas bermay toshdayin qotdi.
Shu tulpor Xoldorga chopib jonivor,
Ayg'irning ko'liga tashladi ketdi.

Shu to'riq ot tug'sa olayin dedim,
Tengi yo'q bir tulpor qilayin, dedim.
Hech kimga aytmadim aslo bu sirni,
Ko'pkari, poygada minayin dedim.

Sho'radan qaytarib bo'lmas tuyani,
Niyatning yo'q edi aslo poyoni.
Ot tug'sa bildirmay olib ketardim,
Ot tug'may tug'di-da, tarlon biyani.

Gap bori qolmasin endi dilimda,
Haqning tilovati tursin tilimda.
Tuvganda jon shu to'riq Xoldor,
Qulini yetim bo'b qoldi qo'limda.

Bu sirni aytmayin o'ylab ko'r edi,
Bir yomon niyatman bunda kep edim.

Bo'y yetib bormadi tarlon ayg'irga,
Ot tug'sa qulinin olay, deb edim.

Taqdirda yo'q ekan o'ylasam chora,
Zo'rga yo'liqqansan, deb ham bechora.
Ahmadbek sotgali borsa qochardi,
Senga deb aytganda kelganin qara.

Sog' bo'lsa nelarni ko'rmas aziz bosh,
Jon desa yo'q demas ikki mehrdosh.
O'ylasam tarlonga sensan shirxo'ra,
Bo'lgansan Go'ro'g'li unga emikdosh.

Bek bo'lsang oltindan qilgin taxtingdi,
Dushmanlar olmasin aslo naqdingni.
Mingdan-ming roziman olgin tarloni,
Xudoyim har doim bersin baxtingdi.

Baxting bor Go'ro'g'li davron surarsan,
Niyating na bo'lsa barin qilarsan.
Agarda ot qulin tug'sa shu biya,
Akam deb, bittasin menga berarsan.

Alqissa, Go'ro'g'li bu so'zlarni eshitib hayron bo'lib, tarlon biyaga ming mehri ortib: "Hoy Berdali shuncha sirni qanday saqlab yurib eding. Mayli tarlonning bir qulini bo'lsa qulinida. Birinchi qulini meniki, ikkinchi qulini seniki bo'lsin, har kim taqdiridan ko'rsin. Lekin nima uchun bu yil tarlon ayg'irga bormadi. Uyurga olib borgan edim, ayg'irlar qaramadi, qisir yoki bo'g'oz demadi, kelganiyam biror iskab ko'rmadi, tarlon ham ularni ko'ziga ilmadi, balki xush ko'rmadi. Bu yil ham qisir qoladigan bo'ldi. "Kambag'alni tuyani ustiga ham it qopadi", degani rost bo'ldi, - dedi. Shunda Berdali: "Men ham hayronman, ikki yil qulunlaydigan vaqt o'tdi, bu yil uchinchi yil bo'layotir men ham uyurga soldim, biror ayg'ir betlab qoshiga kelolmadi. "Teng-tengi bilan tezak qopi bilan" deganday, balki tengi topilmadi. Hay mayli xafa bo'lma, Go'ro'g'li "O'tirgan qiz o'rmini topar" deganday bu ham o'ziga yarashasin topib olar, xudo na desa aytgani bo'lar", - dedi. Ikkovi ertadan tushgacha gurunlashib yotdi. O'rtadagi gina-yu kuduratni kechirdi. Bu sirni hech kimga aytmasi bo'ldi. Ikkisi qaytadan quechoqlashib qiyomatli aka-uka bo'ldi. Go'ro'g'li ham o'z ishini Berdali ham o'z ishini qilaverdi. Bir kuni Go'ro'g'li Xoljuvonning oldidan chiqib Berdalining oldiga bormoqchi bo'lib turib edi, bir otning dohiri qulog'iga kelaverdi, tarlon biya ham to'liqsib kishnayverdi. Jonivor bezovtalanib, qozig'idan aylanaverdi. Go'ro'g'li bu nima ekan, suruvni Berdali haydab qaytayotgan ekanmi yoki qizilbosh keb qoldimi, deb o'ylanib turgan edi. Asqarning darasi quyun o'ynaganday bo'lib changiy berdi. Ana-mana deguncha, kampir joyidan turguncha Oqtubadan berman oshaverdi. Go'ro'g'li ko'rdi, ming otli emas bir otli, ming otning dobrug'ini berayotir. Oqtubadan berman o'ynab kelayotir, to'rt oyog'idan otilgan tuproq Oqtubadan narman gursillab

tushayotir, undan chiqqan chang kun yuzini to'sayotir, burnidan chiqqan dami yerni parcha-parcha qilayotir, bedovning shashtiga cho'llar gursillab, tog'lar charsillab dovush berayotir, ustidagi odami ot jugangini yetti joyidan tuyib, yettinchisidan tortib, bir narsani bilmaganday bo'lib xayol surib, g'ing'illab qo'shig'ini aytib kayotir. Go'ro'g'li o'yladi bu nimasi bo'ldi Berdali aytganday bu ham bir sir bo'ldi. Yo xudo berdi, yo oldi, nima bo'lsa bo'ldi. Shul azroil bo'lsa kimning jonini olsa oldi. Agar shu bachchag'ar odamzod bo'lsa, kuchim yetsa aldab-so'ldab shul tarlondi bir choptirib qolsam, deb turaverdi.

Bu kelayotgan Rayhon arab edi. Arablarning podshosi edi, haddili polvon edi, ertalab nahorda olti biya bilan uch qulunni yutar edi, tushda yuz qo'y bilan ellik qo'zi tomog'idan o'tar edi. Har ovqat qilganda ularga qo'shib uch botmondan un ketar edi, kechqurunlari yotar qursoq, yorti bo'g'irsoq deb yuz echkini ulog'i bilan qomiga joylashtirar, bir kekirim ozroq bo'ldi-da, deb dustamon tushib yotar edi. Ovqat yeyishim shul bo'lsa, arabni kambag'al qilarkan deb, Oltoy tovlarni ovlab - ovlab Asqar tovigga kelib qolgan edi. Bir kuni Gulchashmadan suv ichgani kelayotib edi, suvni shitirlagani qulog'iga keldi. Kamonini olib asta poylab kelib edi, ko'rdi buloq boshiga bir pari - paykal cho'milib turibdi. Sochlari qop-qora, tovoniga tushgan, bo'yinlariga ham chirmashib ketgan, badanlari oppoq gavharday, odamning yuzi ko'rinar, so'fito'rg'aylar, g'azalaylar butoqqa qo'nolmay surinar, sanam qo'zg'alganda tevarak atrof qizil-yashil turlanib turar, bulbullar mast bo'lib sayrolmay, qosirda-qosir butoqni urar edi. Ko'kragida g'unchasi ikki juft duri javohirday yalt-yult etib nur berar, atrofida gullar ochilib, sanamga qarab intilib bo'y cho'zar edi. Bu manzarani Rayhon arab ko'rib, og'zi ochilib, burni tongrayib, qo'lidan kamoni tushib, badani bo'shashib, o'zicha gapirib: "Men ham yurgan ekanman arabning podshosiman deb, ana qaddu-qomat, ana gavharu ana malohat" - deb turib edi oyog'i qaltirab, ko'zi jovdirab ag'darilib tushdi. O'ziga kelib irchib turib qaragan edi sanam kiyinib ketayotir. Shunda Rayhon yugurib, oldiga o'tib, besh-olti tupugini yutib, yana labini yalab: "Bir past to'xta bo'yingdan, senda gapim bor", - deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Aylanayin oy sanam,
To'xta senda gapim bor.
Menda darmon qolmadi,
O'zing bo'lg'in madadkor.

Ikki jahon ko'rmagan,
Sendayin gul sanamni.
Ishqing tushib yondirar,
Kul qiladi tanamni.

Qora qoshing kamunday,
Imnasang jon oladi.
Ko'zlaring misli ohu,
Har xayolga soladi.

Kipriklaring qoqqanda,
Bog'lar oyoq qo'limni.
Gapirganda so'zlaring,
Lol qoldirar o'zimni.

Signalaring chorsillab,
Qimmat javohirlardan.
Ushlasam nozikligi,
O'tadi harirlardan.

Ikki oltin qo'rg'on,
Bir shaharda turganday.
Uni iskagan odam,
Ming bahorni ko'rganday.

Qomatingni qirq usta,
Qirq ming yilda bichanday.
Bir nozingga ming botir,
Tanda jondan kechanday.

Uchalaring shox supa,
Par yostiqlar qo'yganda.
Bu dunyo ziynatini,
Barin senga berganday.

Yo hasrato sonlaring,
Tashlar Bog'u Eramdi.
Go'zallarning sultoni,
U ham senga qaramdi.

Sen ko'zingni yumganda,
Aslo tonglar otmasin.
Bu dunyoying keng, lekin-
Senday sanam bitmagan.

Imo qilsang qosh bilan,
Kuymagandi kuydirar.
Qo'lingdi bir ushlatsang,
Ming yil meni to'ydirar.

Menman arabning shohi,
Rayhon deydi o'zimni.
Bosolmagan yo'lbarstar,
Bosib ketgan izimni.

Ber desang, ma, tanda jon,
Beray harna borimdi.
Oyog'ingga tashlayin,
Molu dunyo, zarimdi.

Qo'l uzatsa yetmagan,
Osmonning yulduziman.
Menga bayon aylagin,
Qaysi podsho qizisan?

Parilardan keldingmi,
Menga aytgin zotingdi.
Kaptar bo'b uchar bo'lsang,
Aytib ketgin otingdi.

Qayerlarda elating,
Men bo'layin xizmatkor.
Sening uchun cho'llarda,
Bo'lib yuray darbadar.

Sening uchun axtaray,
Bu falakning ostini.
Payg'ambar Rasul haqqi,
Aytib ketgin rostini.

Ey sanamjon, berman kel,
Men ushlayin o'zingdi.
Bir pas tamosha qilay,
Oyday bo'lgan yuzingdi.

Xudo bergay o'zingdi,
Aslo seni qo'ymayman.
Ming yil iskasam yotib,
O'lay agar to'ymayman.

Jon sanamjon, berman kel,
Bir ushlayin qo'lingdi.
Nasib qilsa xudoyim,
Tolday egay belingdi.

Ne istasang borini,
Olib kelib berayin.
Atrofingda aylanib,
Xizmatningdi qilayin.

Kel, qo'y qochib yurmagin,
Man bedovning beliga,
Yarqiratib ob boray,
Keng arabning eliga.

Kecha-kunduz to'y beray,
Yemagandi yediray.
Ming sanamni o'ynatib,
Zarin ko'ylak kiydiray.

Ota-enang qayerda,
Olib kelay shu to'yga.
Ikkovining sha'niga,
Oltay berayin poyga.

Boz ustiga arabning,
Elatini berayin.
Hurmatingga ularning,
Aytganini qilayin.

Mingin endi sanamjon,
Yo'qdir sabr-u qarorim.
Endi bo'ldi qo'lingda,
Bor budim, ixtiyorim

Aylanayin bo'yingdan,
Oyday bo'lib kel endi.
Qo'l tiymagan qulinday,
Toyday bo'lib kel endi.

Jamollaring yarqillab,
Kunday bo'lib kel endi.
Oppoq bo'lib iylangan,
Unday bo'lib kel endi.

Men sadag'a bo'layin,
Bir so'ylanib kel endi.
Aylanayin o'zingdan,
Bir nozlanib kel endi.

Alqissa, Rayhon arab bu so'zlarni aytib, otini yetaklab sanamning qoshiga kelaverdi. Shunda ul sanam Rayhonga qarab: "To'xta joyingda ey arab, jontanglaysan atrofingga qarab, avval olsang o'lasanmi soqolingni tarab, och bo'riday imtilasan muriting burab, o'lingingni yubormayin kiyimiga o'rab, bilmaysanmi qiz-xotinlikni

yurishimga qarab, buncha qo'ymading ismimni so'rab, sening gapingga shuldur javob", – deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Ne savdolar tushmasin,
Muna aziz boshima.
Nariroq tur, ey Rayhon,
Yaqin kelma qoshima.

Yurgan odam biladi,
Tog'ning baland – pastini.
Haq Rasulni sen aytding,
Aytsam-aytay rostini.

Mening zotim so'rasang,
Turkmanimning noziman.
Otam otin so'rasang,
Qayip boyning qiziman.

Polopon bo'lsa boshim,
Asqar deydi belimni.
Yurtim bilsang keng Chambil,
Yovmit deydi elimni.

Turkmanimda bilsang ko'p,
Mendan ziyod gul juvon.
Mening otim so'rasang,
Deyishadi Xoljuvon.

Bilsang men ham birovning,
Nomusiman, oriman.
Chambilimning to'rasi,
Ahmad bekning yoriman.

Sayr etib yurganim,
Ko'lankali bog'im bor.
Men suyanib turgani,
Go'ro'g'lidek tog'im bor.

Uchganimda Chambilim,
Tolmagan qanotim bor.
Arpaliga sig'magan,
Behisob davlatim bor.

Rayhon sening bu ishing,
Aslo ular bilmasin.
Nayzasining uchiga,
Qarg'aday qib ilmasin.

Ertaroq ket, ey Rayhon,
Yaqin kelma qoshima.
Bir chaqirsam keladi,
Qilich solar boshingga.

Misol sari(q) tikanak,
Bo'lib turma yo'limda.
Bir isnoti gap bo'lib,
Men yurmayin elimda.

Oriyati bor yigit
Aytgin senday bo'lami?
Eri bor xotinlarni
Olaman deb turami?

Bog'da ochilgan gulni,
Kim taqadi so'lgansan.
Eskisini kim kiyadi,
Yangi etik bo'lgansan.

Yirtiq qopga buyum sol,
Tushib ketar, to'lmaydi.
Qizni qo'yib bevani,
Aqli bori olmaydi.

Xotin olsang qiz olgin,
Qirq yil o'tsa eslaydi.
Beva olsang esiga,
Tushganingda toshlaydi.

Men nikohli ayolman,
Qaytib uni buzasan.
Buzsang musulmonlikdan,
Sen nuqtangni uzasan.

Menman tanho zaifa,
Menga kuching yetami?
Erkaklarni oldiga
Kelsang seni yutami?

Dushmanning qolsa loshi
Qo'rqoq botir bo'lmaymi?
Bu ishingni eshitgan
Nomard deyishib kulmaymi?

Agar Rayhon mard bo'lsang,
Nomard ishin qilmagin.
Bo'shatib qo'y yo'limni,
Ketgin yaqin kelmagin.

Podsho bo'lsang donosan,
Bu gaplarni o'ylab ol.
Oriyatli turkmanim,
Ham izini anglab ol.

Olsang olgin boshimni,
Ushlatmayman qo'limni.
Mard bo'lsang qochgin Rayhon,
To'sib turma yo'limni.

Alqissa, Rayhon arab bu so'zlarni eshitib Xoljuvonning yo'lini bo'shatib: "Xoljuvonjon, sen mening yuragimga joylashib qolding, sensiz menga mol-u davlat, shonu shavkat, zari mamlakat hammasi harom, seni yo'lbarslaringga ko'rsatib olaman. Kuchi yetsa seni olib qolib, boshimni kessin roziman. Kuchi yetmasa, seni olib qolmasa seni bilan davr-u davron surganim bo'lsin", - deb izidan gapirib qoldi. Xoljuvon bu gapni hech kim aytmedi. Rayhon ham tog'larda darbadar yurib, ishq muhabbat jonidan o'tib, bugun: "Kel-e, turkmanlar yo meni o'ldirsin, yo Xoljuvonni bersin", - deb g'ing'illab, kallasini quyi tashlab, xo'p o'ylab, ashulasini aytib kelayotgan edi. Go'ro'g'li Rayhonning bu qilig'idan bexabar edi. Rayhon bilan Go'ro'g'li yuzma-yuz bo'ldi. Go'ro'g'li ichida aytdi: "Ha, bachchag'ar ekan, o'ksasi zo'r ekan, ming odamcha quvvati bor ekan. Bir mamlakatning suyangan polvoni ekan. Bunga teng kelib bo'lmas, meni nazariga ilmas", - deb qo'ydi. Rayhon arab ham ko'zini bunday ochib qaradi, Go'ro'g'lini ko'radi. Bo'ynini ko'tarib durustroq qaradi: "Ey, turkmanda ham bunday yigitlar tug'ilar ekanda, buning avlodi kim ekan, boshqa bir zoti bormikan, o'zi mencha zo'rmikan, bu bachchag'ar chatoq bo'ldi, Xoljuvonning aytgani keldi. Shul bachchag'ar ushlay olmasa armon, ushlasa qo'ymaydi, aslo gapga ko'nmaydi, qilaman deganini qilmay qo'ymaydi, bunga bir pand bermasam bo'lmaydi, Go'ro'g'li degani shul bo'lmasa, boshqasi bunday nomni olmaydi", - deb qo'ydi.

Alqissa, yaqinlashib Rayhon arab salom berib, bir so'z aytib turibdi, Go'ro'g'li ham unga javob aytyapti:

Rayhon:

Salom chiqmas har kimsaning tilidan,
Yaxshilik kelmaydi har kim qo'lidan.
Polvon yigit salomimni qabul qil,
Salom berdi Rayhon senga dilidan.

Go'ro'g'li:

Salomning ham salmoqlisi bo'ladi,
Mardga davlat egiz-egiz keladi.
Nokas bilmas odamzodning hurmatini,
Bu Go'ro'g'li salomingni oladi.

Rayhon: Go'ro'g'li deb bayon berdim otingdi,
O'lsangda nomardga qilma dodingni.
So'ramoq rasmdir, mardning avlodin,
Menga bayon qilgin asli zotingni.

Go'ro'g'li: Xo'janing bo'lgani bersa olaber,
Olganingda xurjuningga solaber.

Bir yog'im Yovmitdir, bir yog'im Taka,
Zotimni turkman, deb endi bilaber.

Rayhon: Men arab o'zimman, arabning shohi,
Po'latni eritar kuyganning ohi.
Ahmadning uyini ko'rsat o'zima,
Bu ko'ngil qo'msaydi do'stlarni gohi.

Go'ro'g'li: Issiqda eriydi tovda bo'ktar qor,
Ish bo'lmay bo'lmas odam intizor.
Ahmadning uyini aytсам aytayin,
Tog'amning uyida qanday ishing bor.

Rayhon: Men bilan Asqarda bir duch bo'b, edi,
Do'st bo'lib ming biya mendan op, edi.
Shu yili borgin, deb aslo qo'ymadi.
Uyimdan bir kun non yeb ket, deb edi.

Go'ro'g'li: Dam olar botirlar og'riq olganda,
Qimizni ichishar yo'lda tolganda.
Bergan ming biyangni ko'rgan bo'lmasam,
Uyiga tusharsan tog'am kelganda.

Rayhon: Mard xotin eriga yo'ldosh bo'ladi,
Eri bo'lmasada mehmon oladi.
O'zimga ko'rsatgin Ahmad uyini,
Bek tog'ang qachonlar bunda keladi.

Go'ro'g'li: Qur'onning kalomi bordir so'zimda,
Bu nuru ziyosi ikki ko'zimda.
Shu o'tov Ahmadning uyi bo'ladi
Mehmonga ixtiyor berish o'zimda.

Rayhon: Ming tuya joylaydi Asqar belini,
Uyida ko'rindi do'stim kelini.
Bir kecha joy bergin menga Go'ro'g'li
Mehmondo'st deb aytay turkman elini.

Go'ro'g'li: Kamaytib bo'lmaydi oyni to'lganda,
Davlatni qaytarib bo'lmas kelganda.
Bek tog'am kelguncha mehmon olmayman,
Kelarsan Go'ro'g'li xotin olganda.

Rayhon: Mehmon bo'b keb edim arab elidan
Tuz totib ketayin do'stim uyidan.
Bo'lmasa chechangga aytgin Go'ro'g'li,
Bir kosa suv bersin chiqib qo'lidan.

Go'ro'g'li: Tilini bilmagan molni boqmaydi,
Chayonga tegmasang aslo chaqmaydi.
Suv desang men o'zim opkep beraman,
Erkakning bergani teshib chiqmaydi.

Rayhon: Fe'limga yoqmagan gapga ko'nmayman,
Egasi bermasa aslo olmayman.
Na desang niyating beray Go'ro'g'li
Erkakning berganin o'lsam ichmayman.

Go'ro'g'li: Yurmagan tosh bo'lsa bu kun yurdiray,
Boz ustiga kiysang to'nlar kiydiray.
Otingni choptirgin mayli tarlonga,
Suv bo'lsa chechamga bersam berdiray.

Rayhon: Shartingga Go'ro'g'li mayli ko'nayin,
Shum ekansan endi nima qilayin.
Avval sen chechangga suvin opkeltir,
So'ng mayli biyanga otim qo'yayin.

Go'ro'g'li: Men ikki qilmayman aytgan so'zimni,
Senga odatimni aytmog lozimdir.
Turkmanda avval ish mehmondan bo'lar.
Nomard deb yomonga qo'shma o'zingni.

Rayhon: Polopon deb aytar baland qiyangdi,
Nomardga nuqtalab berma tuyangdi.
Jabdug'in ustidan yechib keltirgin,
Choptirsam-choptiray tarlon biyangdi.

Alqissa, Go'ro'g'li bu so'zni eshitib, ko'ngliga har xil gap kelib: "Bachchag'ar arabni bopladimmi, ishni sopladimmi, aldab-suldab biyani bir choptirib qolsam bo'lgani. Biyaning o'zi ham boshqa ayg'irlarga qaramas edi. Bunga qarab talpinganini qara. Tarlonim ham tulpor bo'lsa, bul ham tulpor, xudo ot bersa, mening otim ham shunday bo'lsa, menday sag'ir bir minsa, elni oralab yursa, armonim qolmas edi. Ertaroq arabni aldab-suldab choptirib qolay, undan keyin suv bilan boshiga solay". – deb ko'p gapni o'ylab, tarlonni yalang'ochlab taylab, nuqtasidan ushlab, tarlon ham sevganini ko'rgan qizday bo'lib, Go'ro'g'lining aylanasidan o'ynab kelabardi. Go'ro'g'li biyani olib kelib, Rayhonga qarab: "Hoy Rayhon aka, otdan tushing, otni qo'ying, ikkovi bir maydonga yayrasin", – dedi. Shunda Rayhon: "Yo'q. Go'ro'g'li otdan tushmayman, baytaling otimni op qochib ketsa, izidan quvib yurmaysan, olib kelaber tarloni. Ustida turib ham choptirmay qo'yamayman", – dedi. Go'ro'g'li tarloni qo'yabardi, jonivor seskanmay tikkasiga keldi. Tarlon bilan Rayhonning to'rig'i tumshig'ini tumshug'iga qo'yib, xo'p ishashib turgani:

Gap chiqmas botirning yursa izidan,
Har kim kuyar yomon yorning nozidan.
Tulporlar bir-birin qo'ymay iskaydi,
Oshig'i o'pkanday ma'shuq yuzidan.

Sanamning ulgusi osmon oyidan,
Go'zal yorning kim aylanmas bo'yidan.
Shu to'riq tarlonga qarab intildi
Langillab dil mehri chiqdi joyidan.

Kim silab siypamas bo'lsa farzandim,
Farzandi jonzodga uchsa qanoti.
Nozlanib shu tarlon keyin uyirildi,
Jonivor olchlanglab sovrinin tutdi.

Kim iskab o'tmaydi bog'ning gulini,
Arilar ayrilmas topgan bolidan.
O'mganin ko'tardi shu to'riq tulpor
Quchoqlab boradi tarlon belidan.

Niyatga egasi bo'lsin madadkor,
Madadkor bo'lganga tilagani bor.
Shu to'riq tarlonning quchib belidan,
Mehriga mehrini qo'ydi jonivor.

Tulporni taniydi sinchi yolidan,
Polvonni ajratib bo'lar qo'lidan.
Hayvonga Rayhonning rahmi kelmadi,
Bachchag'ar tushmadi otning belidan.

Bedovdan tarlonga Rayhon qaradi,
Bir ajab yaylovni qarab ko'radi.
Qo'riqning jilovni mahkam ushladi,
Arabning ranglari uchib boradi.

Olisdan bilinar molning huqqisi,
Yurganda ish berar dehqon mukkisi.
Olti qarich kelar quloq orasi,
Iyig'i misoli tog'ning cho'qqisi.

Rayhon der: Shul tarlon bir otni tug'sa,
Pisandga olmaydi ko'kdan tosh yovsa.
Ustiga gar minsa manov Go'ro'g'li,
Hech olmay qo'ymaydi lochinni quvsa.

Xudoyo tarlondan hech ot bo'lmasin,
Mendan shu bachchag'ar orin olmasin.
Go'ro'g'li kattarsa mendan o'tguday,
Boshimga qiyomat kunlar solmasin.

Arabni bu o'ylar bir kun shoshirdi,
Burnini nayzadek qolib shishirdi.
Chiranib tortmadi jilovni Rayhon,
Bedovni biyadan zo'rg'a tushirdi.

Nasiba qo'shganda oxir qo'shadi,
Nasiba qo'shmasa ipday eshadi.
Bedovni tushirdi biya ustidan,
Javhari tars etib yerga tushadi.

Mard yigit doimo oltin sadog'li,
Bog'boni bo'lgan yurt do'lana bog'li.
Otning javharini qalpoqqa solib,
Biyaning mehriга qo'ydi Go'ro'g'li.

Alqissa, Rayhon arab:

– Hoy Go'ro'g'li, men shartimni bajarib bo'ldim, sen ham bajar, – dedi.

– Rayhon sen nomardlik qilding, oting, o'zi tushguncha qo'ymading, buning ham talabini bersin demading. Hay mayli, sen nomardlik qilganda, men mardlik qilayin, biya qulinlasi baxting, qulinlamasa o'lmasa adabingni boplab berayin, uyga

yaqinroq kel, chechamga aytib ko'rayin, – deb tarlonni bog'lab, o'tovga kirib ketdi Go'ro'g'li.

Ko'rdi chechasi Xoljuvon yerga qarab o'ylanib turibdi.

– Ne bo'ldi? – dedi Go'ro'g'li.

– Hech narsa bo'lgan yo'q, – dedi Xoljuvon. Shunda Go'ro'g'li chechasiga qarab ikki og'iz gap so'rab turibdi.

Quloq solsang, opajon,
Men so'zimni aytaman.
Aytmasam hech bo'lmaydi,
Shart qo'yganman qaytmayin.

Ne sababdan o'ylanib,
Yerga qarab turibsan.
Kecha uxlab qolganda,
Yomon tushlar ko'ribsan.

Uylanmagin, opajon,
Ne ishing bor qilayin.
Sening uchun ayamay
Tanda jonim berayin.

Senga balo kelganda,
O'zim qalqon bo'layin.
Oyni olib ber desang,
Ikkilanmay jo'nayin.

Bunda tursam salomat,
O'ylanmagin mehribon.
Seni tashlab qo'ymayman,
Eson tursa tanda jon.

Opa, aytar gapim bor,
Aslo og'ir olmagin.
Shu Go'ro'g'li o'zimga,
Majbur qildi demagin.

Zo'rim yo'g'-u zorim bor,
Mayli desang aytayin.
Aytma desang na qilay,
Men izimga qaytayin.

Rayhon bilan shart qilib,
So'ngra bunda kelganman.
Opam senga bir kosa,
Suv beradi deganman.

Mening shartimni qildi,
Men qilmasam bo'lama.
Muna qayning Chambilda,
Nomard bo'lib qolama.

Opajonim oldingga,
Shu shart bilan kep edim.
Bir kosa suv nimasi,
Bersa berar, deb edim.

Kim aylanmas nozlansa,
Sanam yorning bo'yidan.
Majnuntolday irg'alib,
Oyim turdi joyidan.

Chekkasida zar jupak,
Gardaniga yarashib,
Haqiq munchoq to'shida,
Jamoliga munosib.

Qaynisiga qaradi,
Nozik beli buralib.
Ko'kragida qo'sh anor,
Zar ko'ylakka tiralib.

Aylanayin qaynijon,
Eshit aytgan so'zimni.
Qilmadi deb xizmatni,
Koyimagin o'zimni.

Qaynijon, qo'y Rayhondi,
To'qaydagi qobondir.
Yaxshilik yo'q ishida,
Bir niyati yomondir.

Olis eldan shul arab,
Mening uchun kelganday.
Ko'zlariga qaradim,
Bildim oshiq bo'lganday.

To'yu maraka bo'lgan,
Shunda meni ko'rganday.
Niyatini payqadim,
Ob qochsam, deb yurganday.

Kecha qaynim tush ko'rib,
Shu tushimdan qo'rqaman.
Menga boshqa balo yo'q,
Rayhondan qolsam omon.

Qo'ynimdagi munchoqni,
O'rinimda qoldirdim.
Qo'limdagi olmani,
Bir lochinga ildirdim.

Tushimdagi ul lochin,
Manov arab bo'lmasin.
Qo'ynimdagi munchog'im,
Tog'ang bo'lib qolmasin.

Suv beray, deb qo'l cho'zsam,
Ilib olar qo'limdan.
Musofir qib o'zimni,
Olib ketar elimdan.

Ko'rdim mingan otini,
Uchar qushni oladi.
Menman degan tulporlar,
Chopsa changda qoladi.

Armon bilan qaynijon,
Men chechangni oldirma.
Xafa qilib do'stingni,
Dushmaningni kuldirma.

Aytarimni men aytdim,
Qaynim o'zing bilasan.
Suv ber desang berayin,
Gapim rostdir ko'rasan.

Bu gaplarga Go'ro'g'li,
Endi hayron qoladi.
Shart qo'yilgan o'rtaga,
Qanday hiyla qiladi.

Olib ketsa shu Rayhon,
Yetolmaydi izidan.
Botir yigit aytganda,
Qaytarmikan so'zidan?!

– Opajonim shart bo'lgan,
Suv bermasang bo'lmaydi.
Yolg'onchi bo'b qolmayin,
Gapga Rayhon ko'nmaydi.

Bilsam edi avvaldan,
Men gapiga ko'nmasdim.
O'rtaliqqa hech qanday,
Bunday shartni qo'ymasdim.

Haliyam hech gap bo'lmas,
Men Rayhondi qo'ymayman.
O'lmay tursam shu joyda,
Unga seni bermayman.

Opa, chiqma eshikka,
Jopsardan suv berasan.
Keragani qo'l bilan
Mahkam ushlab turasan.

Seni tortsa shul arab
Men ham mahkam ushlayman.
Tortib olib o'zingni
Manglayiga mush(t)layin.

Hozir tursam, opajon
Qaytib olib ketadi.
Qochganda ham tarlonim
Men qistasam yetadi.

Menda bo'lar ajali
Qutulsa-da, shul arab.
Qayda bo'lsa topaman
Yer-u osmonni so'rab.

Opa chiqma eshikka,
Jopsar yorib suv bergin.
Keragani qo'ymagin,
Bir qo'lman ushlab turgin.

Men aytayin Rayhonga
Kelsin jopsar qoshiga.
Qo'limga tayoq olib
Ko'zlab turay boshiga.

Alqissa, Go'ro'g'li eshikka chiqib: “Hoy Rayhon, beriroq kel, sen shartingda g'irromlik qilding, balki meni bola bilding, mayli, checham uy jopsarini yorib suv beradi, qo'lidan olib ichasan, kosasini menga berasan, agar birorta g'idirish qilsang o'lasan, u yog'ini o'zing bilasan, eshikka chiqib suv bersin desang, hayla yo'ling ketaberasan”, – dedi. Shunda Rayhon: “Ey Go'ro'g'li bolalik qilma, ko'nglingga ko'p gaplarni olma, meni undaylardan dema, men chanqagan odamman. Menga desa uyingni chang'arog'idan bermaydimi, ichsam bo'ldida”, – dedi. Shunda Xoljuvon jopsarni yorib, jom ichiga suv solib, sholi ro'moli pirillab, badanlari dirillab, majnun tolday irg'alab, kosani qo'lga olib, bir qo'li bilan keragani ushlab, kosani jopsardan chiqarib Rayhonga tutdi. Go'ro'g'li ham hezlanib, tayog'ini qo'lga olib, bir chekkadan tayyorlanib turdi. Rayhonning suvga uzalayotgan joyi:

Go'ro'g'li bir chekkada
Shul Rayhonni kuzatdi.
Ot ustida qo'lini
Rayhon suvga uzatdi.

Shu vaqtda chang bosdi
Uy ko'rinmas ko'ziga.
Shoshib qoldi Go'ro'g'li
Kelolmaydi o'ziga.

Otiladi tuproqlar,
Kaltak bilan yanchganday.
Qarsillaydi qora yer,
Yashin kelib tushganday.

Changda qoldi Go'ro'g'li
Hech baloni ko'rmaydi.
Tovakkali “Rabbim”, deb
Tayog'ini sermaydi.

Tayoq teyar goh yerga,
Gohda uyni uradi.
“Qayerdasan checha?” – deb
Ust-ustiga so'radi.

Changdan chiqib Go'ro'g'li
Har tomonga qaradi.

Oq tubada Rayhonning,
Changi qolib boradi.

Chang otilar Asqardan,
Boshqa narsa ko'rinmas.
Bir tovning yonboshida,
Archasiyam bilinmas.

Hay attang, deb Go'ro'g'li,
Manglayiga mush(t)laydi.
Ikki birday ko'zini,
Opajon, deb yoshlaydi.

Hay attang, Rayhonning,
Bunchaligin bilmadim.
Otning jilovidan
Ushlab so'ngra o'lmadim.

Tolpinganda xudoyim
Qanotimdan qayirding.
Mehribonim opamdan
Ne sababdan ayirding.

Bunday isnoti gapni
Qanday olib yurayin.
Omonating ol xudo
Rasul ollo(h) berayin.

Otam bilan enamdi,
Ko'rsatmading o'zima.
Odam bo'lgan vaqtimda
Cho'plar tiqding ko'zima.

Yig'laganda yupatgan
Suyanchimdan ayirding.
Toyrilganda turkatgan,
Tayanchimdan ayirding.

Xafa bo'lsam silagan,
Sultonimdan ayirding.
Menga umr tilagan,
Tilovchimdan ayirding.

"To'xta!" hali sen arab,
Tandan qoning ichaman.

Agar kuchim yetmasa,
Bu jonimdan kechaman.

Agar yetsa darmonim,
Yurting vayron qilayin.
Ostingdagi shul otning,
Ko'ksin ikki bo'layin.

Qachon bo'lsa opamni,
Bunda olib kelayin.
Kelolmasam cho'llarda,
Sarson bo'lib o'layin.

"Oh", deyayotir Go'ro'g'li,
Bovrin yerga qo'yadi.
Bir sho'r yetim bo'ldim deb,
Manglayiga tuyadi.

O'qiranib jonivor,
Tarlon keldi qoshiga.
Go'ro'g'lini iskalab,
Boshin qo'yar to'shiga.

Jonivorning ko'z yoshi,
Munchoqdayin tizildi.
Go'ro'g'lini qaytadan,
Yurak bag'ri ezildi.

Ingranadi Go'ro'g'li,
Dardi o'tdi o'zidan.
Umidlarim sendan deb,
O'par tarlon yuzidan.

Na bo'lsada ot tuvgin,
Men olayin orimni.
Qaydan kelib bul arab,
Berib ketdi sho'rimni.

Na bo'lsayam ot tuvgin,
Men ustiga minayin.
Orim olib Rayhonni,
Odamday bo'b yurayin.

O'tmas pichoq bo'g'zimda,
Menday yetim so'yildi.

Tog'am kelsa qaytaman,
Taqdirlarim o'yildi.

Bunda turkman eliga,
Qay yuz bilan qarayman.
Yur tarlonim ketaylik,
Bu joylarda yurmayman.

Baytalini choptirib,
Chechasini bergan der.
Tiri(k) dema egangdi,
Ajal to'lmay o'lgandir.

Yig'lay, yig'lay Go'ro'g'li,
Ko'p gaplarni o'ylaydi.
Jabdug'ini ob kelib,
Tarloniga taylaydi.

Alqissa, Go'ro'g'lining xo'rligi kelib, sag'irligi tamma qilib, ko'ziga yosh kelib, nima qilarini bilmay turib edi. Yana o'ziga-o'zi aytdi: "Ey, Go'ro'g'li sening bu taka turkmanda turgiching qolmadi, balki yurgiching ham qolmadi. Meni ko'rganlar, o'lma Go'ro'g'li arabga ham baytalingni choptirding, ham chechangni oldirding desa, ming marta o'ldirganday gap. Bu tirikligimdan asar qolmadi, hamma molimni olsa mayli edi, endi bo'lmadi, shu arabning izin olayin, qayga ketgan bo'lsa izidan borayin, yo chechamni olayin, yo o'layin. Chechamni olsam Chambilga kelayin, bo'lmasa men ham bedarak ketayin", – deb tarlonni beliga minib, arabning izini olib, mayib norday ingrayib, ilonday bo'b to'lg'anib, checham desa o'zimni bosolmay, yuragi to'lib, hay attang, deb irg'alib ketayotir.

Mayib norday irg'anaman cho'llarda,
Har ish bo'lsa sendan farmon, xudoyim.
Yolg'izlik kulfati tiyar yo'llarda,
Yuraklarda yo'qdir armon, xudoyim.

Qarindoshi ko'pning zo'rdir bilagi,
Otalining ayqiradi yuragi.
Go'ro'g'lining sendan qilar tilagi,
G'ariblargacha bergin darmon, xudoyim.

Onalining doim bo'lar qorni to'q,
Badaniga aslo botmas aytgan o'q.
Men yetimdan ikkovidan biri yo'q,
Azob bilan o'sdi bu jon, xudoyim.

Yotganimda kulxonalar joy bo'ldi,
Yeganimda qattiq nonlar moy bo'ldi.
Ko'rgan kunim olti kunlik oy bo'ldi,
Bu kunlardan rangim somon, xudoyim.

Nechovlar yetim deb urdi yotqizib,
Ko'zimda yosh, burnimda qon ketkazib.
So'ksa gapin suyagimga yetkazib.
Turtuvlardan qoldim omon, xudoyim.

Sabab bilan mehribonim oldirdik,
Do'st yig'latib, dushmanimni kuldirdik.
Zo'rlicingni sen ham menga bildirding,
Jigarimdan to'kding sen qon, xudoyim.

Or uchun tayladim aziz boshimni,
Rahim qilib o'ngdan bersang ishimni.
Besohib taylasang tayla loshimni,
Bul ishimga o'zing hoqqon, xudoyim.

Sag'ir edim yana rangim sarg'aydi,
Quvvat ber qolmayin yo'lda mung'ayib.
Izi yo'qqa sendan boshqa kim sohib,
Adashganda bergin imkon, xudoyim.

O'ylasam yuragim jo'shib boradi,
Ko'zda yoshi selday toshib boradi.
Oriyatim tog'day toshib boradi,
Dilga darmon bergin har on, xudoyim.

Oh, deydi Go'ro'g'li ketib boradi,
Ingranadi labi qotib boradi.
Tog'day edi, oyday botib boradi,
Ot ustida tebranadi Go'ro'g'li.

Checham o'lsa so'm yuragi buzilib,
Ko'zda yoshi selday bo'lib tizilib.
Bu dunyodan umidlari uzilib,
Mayib norday ingranadi Go'ro'g'li.

Jonivor tarlon yolin tashlab boradi,
Ora cho'lda ko'zin yoshlab boradi.
Tuyog'i toshlarni qoshlab boradi,
To'qimida irg'aladi, Go'ro'g'li.

Go'ro'g'liga onasiday mehribon,
Boshlarini silar edi Xoljuvon.
Besohib bo'b qoldi esiz tanda jon,
Tolday bo'lib titraydi, Go'ro'g'li.

Qani mening unga qilgan vafom deb,
Orqa tovim o'tirganda kapam deb.
Mehri tushib qolgan ekan opam deb,
Bo'taday bo'b bo'kiradi, Go'ro'g'li.

Goh checham deb, goh opam deb ataydi,
Inraganda tuyalarni motaydi.
Oh deganda ora cho'llar tutaydi,
Qo'ziday bo'b o'qranadi, Go'ro'g'li.

Go'ro'g'li bolada ne biladi,
Bod dovushin qo'yib ketib boradi.
"Voh" deganda toshni ikki yoradi,
Qarchig'ayday charx uradi, Go'ro'g'li.

So'm yuragi dokaday bo'b so'tildi,
Tog'day qalbi kamonday bo'b bukildi.
Novda edi barglari to'kildi,
Saksovu'day sarg'aydi, Go'ro'g'li.

Och burgutday qanotlari yozilib,
Tuz tuyganday yurak-bag'ri ezilib.
Ho'rsinadi po'lat qalbi buzilib,
Pista cho'g'day chorsillaydi, Go'ro'g'li.
Bunday kunda kimda bo'lar ko'ngil to'q,
Botib borar badandagi tiyran o'q.
Qobinadi dard aytgani birov yo'q,
Yo'lbarsday bo'b chirsillaydi, Go'ro'g'li.

Oh, deb o'tgan joylar bu kun cho'l bo'ldi,
Voh, deb o'tgan joylar toshga mo'l bo'ldi.
Zarang edi attang yonib kul bo'ldi,
Otgan o'qday shang'illaydi, Go'ro'g'li.

Go'ro'g'li arabning izini olib, mayibnorday ingranib, ilonday to'lg'anib, goh joyda yig'lab, goh joyda jibonib ketaberdi. Ana endi Go'ro'g'li kelabersin. Gapni Rayhondan eshiting. Bog'isuluv degan tog' bag'riga kelib, otdan Xoljuvonn tushirib, xo'rajindan qimizni olib, Xoljuvon endi o'zimmiki bo'ldi, bir kayf-u safo qilaylik, deb turib edi. Tog'ning pastidan chang osmon-u falakka chiqaverdi. Qo'liga durbin olib qaradi, qarasa tarlonning beliga minib, Go'ro'g'li kelayotir. Shunda Rayhon xo-holab

kulaberdi. Kulganiga sakson terak yiqilib ketaberdi. Xoljuvon so'radi: "Hoy, nomard nega kulayotirsan?". Rayhon aytdi: "Hoy Xoljuvon, echkning o'lgisi kelsa, cho'pon bilan o'ynar, degan gap bor. Go'ro'g'li sag'iringning ham o'lgisi kelibdiki, orqamdan kelayotir".

Holjuvon indamay turib edi, Rayhon qo'liga yoyini olib, sanamay sakson o'qni solib, Go'ro'g'lini ko'zlay berdi. Shunda Xoljuvon kelib: "Ey Rayhon, mening sag'irimni otma, mening bu bolamdan umidim katta. Mayli, shu bolaning hurmati, men sening xizmatkoring bo'lay", - dedi. Rayhon: "Ey Xoljuvon, ko'zlamay aytganingda mayli edi, endi o'qim qaytmaydi", - deb ko'zlab otaberdi.

Sho'r G'o'ro'g'li o'lding deb,
Ko'zlay berdi shul Rayhon.
Chaparasti gapini
Ko'zlay berdi shul Rayhon.

Quvib kelding orqamdan
Men qilayin ishingdi
Bepul qilib G'ajirga
Men sotayin go'sh(t)ingdi.

Teringni shilib olib,
Unga somon tiqayin.
Qaynab yurgan qoningdi
Qaro yerga to'kayin.

Qarang endi Rayhondi
Chiranib yoyni tortdi.
Yoyni tortgan shamoli
Zarangni ham titratdi.

Yoyni qo'ygan zamona
Tovlarni to'zon tutdi.
Qora yer qarsillaydi,
Toshni qaro yer yutdi.

Sakson o'qning zarbiga,
Yonayotir archalar.
O'ldimlab qochaberdi,
Qo'zi boqqan bachchalar.

O'ldi xaloskorim, deb
Sho'r Xoljuvon yig'laydi.
Toshga urib boshini,
Yig'lab umrin tilaydi.

Zo'r falokat aylandi
Go'ro'g'lining boshiga.
Sakson o'q yashin misol
Tegaberdi to'shiga.

O'lding, dedi shul Rayhon
Ko'zin ochib qaradi.
Toshga tiyganday o'qi,
Uchib ketib boradi.

Hayron bo'ldi shul Rayhon
O'tgan o'qi botmaydi.
Teshar edi toshni ham,
Ko'ylagidan o'tmaydi.

Shul bachchag'ar bir kuni
Go'rga edi orini
Mendan bir kun olmasa.

O'qqa o'lmas ekan bu,
Gapdan o'ldirib ketay.
Kelmas qib izimdan
Yuzin so'ldirib ketay.

Irg'ib turib otiga
Xoljuvonni mindirdi.
O'zi minib keynidan
O'zangisin tuydirdi.

Qarama -qara qilib
Otni haydab boradi.
Yuragiga ko'p gapni
Rayhon o'ylab boradi.

Shunda Rayhon otini qistamay, Go'ro'g'lini orqasidan ergashtirib kelaverdi. Tajan degan daryoga yetganida, otga qamchini berdi. Sag'ana ot o'zini to'lg'ab turib otdi, bir yuzi sakson gazli daryoning naryog'iga o'tdi-da ketdi. Go'ro'g'li orqasidan kelib qaradi. Katta bir daryo toshib, qirg'og'idan oshib, shovqin bilan oqib turibdi. Undan uchib o'tmasa, kechib o'tib bo'lmaydi. Go'ro'g'li o'ylanib, nima qilarini bilmay o'tirib edi, narigi tomondan Rayhon: "Ey Go'ro'g'li, shuncha yo'ldan beri ot choptirib kelayotirsan, nima qilasan, qo'lingdan nima keladi? O'zing o'zimga, oting otimga teng emasligini nega bilmaysan, ahmoq bachcha. Yoki Rayhon chechamdi nima qilar ekan, shuni bir ko'rayin, deb kelayotibsanni? Agar shuni ko'rgani kelayotgan bo'lsang mana tomosha qil", - deb Xoljuvonning ko'ylagini yirtib, ustidan

parcha - parcha qilib, yechib otaberdi. Xoljuvonni yalang'och qilib, ot yoliga yotqizib, "Mana shuytaman, chechangdi, ana uytaman chechangdi" - deb bir so'z aytib turibdi:

Chambilingdan keldim qochib,
Otim chopar bahrim ochib,
Yor shavqiga sharob ichib,
Saharda belidan quchib,
Shuytib quchaman chechangdi,
Buytib quchaman chechangdi.

Dushman qolar ko'zin yoshlab,
Keldim men chechangdi hushlab,
Oldida yotsam yonboshlab,
Oq to'shiga qo'lim tashlab,
Shuytib quchaman chechangdi,
Buytib quchaman chechangdi.

Gohida norday to'lg'onib,
Oshiqlikda kuyib- yonib,
Nortuyaday irg'alib,
Mehrim toshib, muchi olib,
Shuytib o'paman chechangdi,
Buytib o'paman chechangdi.

Iskab yotsam to'yib-to'yib,
Sendaylarni ko'zin o'yib,
Chechangning zulfini suyib,
Siynasiga siynam qo'yib,
Shuytib iskayman chechangdi,
Buytib iskayman chechangdi.
Qorlar eriydi hovrima,
Chiday bilsangchi jovrima,
Sovrinin tortib sovrime,
"Bo- bo" lab bosib borima,
Shuytib tortaman chechangdi,
Buytib tortaman chechangdi.

Kayfim buzganini urib,
Yana kelsang boshing yorib,
Ko'ngling to'lsin o'zing ko'rib,
Lablaridan buytib so'rib,
Shuytib so'raman chechangdi,
Buytib so'raman chechangdi.

Tomosha qilgin ishima,
Tortganimni ko'r to'shima,
Pashsha bo'lmagin oshima,
Sochin o'rab boshima,
Shuytib o'ynatay chechangdi,
Buytib o'ynatay chechangdi.

Kamondan o'qim otayin.
Yurak bag'ringdi sitayin.
Shu ko'rganing ozlik qilsa,
Boshqasini ko'rsatayin.
Mana ko'rib ket chechagndi,
Ana ko'rib ket chechangdi.

Ana Go'ro'g'li biyaning jilovini tortib, teskariga qarab turabardi. Rayhon aytganini aytib ketaverdi. Go'ro'g'li qayerga borishimni bilmayman, "Izidan borsammi yoki orqaga qaytsammi?" – deb o'ylanib turabardi. Kun choshkada Asqar tog'ining ustiga chiqib, oldindan bir boboning kelayotganini ko'rdi. Qaradi, bir eshakni minib olgan, ustidagi to'narlari har joy, har joyidan teshilgan, boshidagi sallasining qati buzilgan, oyoqdagi kovushlarining yarmi yirtilgan, bir ajabtovur bobo yerga qarab, munkayib kelayotir. Go'ro'g'li ko'nglida: "Bu bobo bechora ham jun kambag'al ekanda, boshida g'am ro'zg'or tashvishlari bilan bu tog'larga yurgan ekanda, eh dunyoda yo'qchilikning soni bormi, bul ham shularning biri ekanda", – deb biya ustidan egilib salom berdi. Shunda bobosi alik olib, "Ushsh" deb eshagini to'xtatib, qo'lini manglayiga qo'yib, ko'ziga soya qilib, Go'ro'g'liga qarab: "Shunqor bolam senga yo'l bo'lsin", – deb ikki og'iz so'z aytib turibdi.

Yaxshini yaxshilik bo'lar tilagi,
Ko'ksimda bahorim senga yo'l bo'lsin?!
Yomonning naf bermas bo'lsa bulog'i,
Beminnat anhorim senga yo'l bo'lsin?!

Bir suxanvorlining ko'ksi dilisan,
Suyansa tayog'i, yursa belisan.
Aytil o't qandayin mardning ulisan,
Hech qaytmas shunqorim senga yo'l bo'lsin?!

Har xilda bo'ladi tog'ning lolasi,
Yomondir gar bo'lsa ishning chalasi.
Makoning qayerda kimning bolasi,
Savlatli ajdarim senga yo'l bo'lsin?!

Qarg'ani qarg'a, deb aytar otini,
Hurishidan bilasan boyning itini.
Kim so'ramas mardning ismi zotini,
Davlatli zargarim senga yo'l bo'lsin?!

Bir hunar yigitning bo'lsa adabi,
Yomonga zeb bermas dono kitobi.
Turqingga qarasam falak oftobi,
Zulmatda yorug'im senga yo'l bo'lsin?!

Yaxshini kam qilma aslo davlatdan,
Qayrilganda ayrilmasin qanotdan.
Har iyning bir qirday ko'ksing po'latdan,
Yiqilmas polvonim senga yo'l bo'lsin?!

O'ngidan kelsinda qilganda ishing,
Ne sababdan qantardayin ovushing.
Goh – gohi, oh, deb chiqar dovushing,
Ingragan arslonim senga yo'l bo'lsin?!

Bul tarloning uzoq yo'l ni ko'zlaydi
Yurishni damba – damda tezlaydi.
Ko'ngling bolam qaysi elni izlaydi,
Qanotli lochinim senga yo'l bo'lsin?!

La'nat toshin dushmanlaring otdimi,
O'zga so'zi senga qattiq botdimi,
Yoki do'sting bedarak bo'b ketdimi,
Hayqirsa yo'lbarsim senga yo'l bo'lsin?!

Achchiq bilan qoboqlaring uyilgan,
Bilagingda qat-qat kuchlar jiyilgan,
Ko'ksing tog'day orqang cho'lday yoyilgan,
Quyilgan burtutim senga yo'l bo'lsin?!

Odamzot bo'lmasin aslo xor – u zor,
Xorlik bilan o'tgan umr ne darkor.
Gapning rostin aytil o'tgin zo'ravor,
Tanamda butog'im senga yo'l bo'lsin?!

Keng jahonni anglamassan yurmasang,
O'zi kelmas do'lanani termasang.
Ishim bo'lmas edi salom bermasang,
Odobli qo'rg'onim senga yo'l bo'lsin?!

Sendan savol so'rar menday bir gadoy,
Kuchim yetsa hojatingni bitkazay.
Dardingni tumanday surib ketkazay,
Uchganda qanotim senga yo'l bo'lsin?!

Alqissa, Go'ro'g'li bobosidan bu gaplarni eshitib, yosh bola emasmi yuragi toshib, bandi bo'g'ini bo'shshib, ko'zida yosh jo'shib, xo'rsinib, o'zini hilla bosib, boboga qarab bir so'z aytib turibdi:

Ne sababdan bo'lding menga parvona,
Kuygan yuragimni bobo kuydirma.
Bir sabab man bo'ldim yo'lga ravona,
Dardim so'rab, o't ichida yondirma.

Menga nima qilsin zar- u davlatlar,
Davlat bo'lmaganga bo'lmas savlatlar.
Menday sho'rni sen ham kenab kuydirma,
Xorlik menga yo'ldosh, boshimda dodlar.

O'n beshda yoritmas osmonda oyim,
Yesam qattiq nondir otxona joyim.
Sen ham kenab kuydirmagin bobojon,
Hech sag'irni yaratmasin xudoyim.

Osmonim bor bobo unda oyim yo'q,
Ming yilqi hovarda mening toyim yo'q.
Ota bo'lar har yigitning orqasi,
Hay attang- a, mening qiblagohim yo'q.

Osmonim bor unda yo'qdir quyoshim,
Silashlarni hech ko'rmagan bu boshim.
Umrinni tilagali onam yo'q,
Ka'bam desam sel bo'b oqar ko'z yoshim.

Bir xas yurmas aytganimda so'zimga,
Ketmas qora surtilgandir yuzimga.
Yangi orqam oftob ko'rgan vaqtida,
Yana qayg'u kelib tushgan o'zimga.

Bu sag'irlik shunday bo'lar ekanda,
Biri ursa, biri tepar ekanda.
Jonni berib qilib kelsang ishini,
Sochala deb toshni separ ekanda.

Bu gaplaring o'qday botar tanama,
Ursang hayvon kirmas yotgan xonama,
Kuyganlarim yetmasmidi o'zima,
Yondirib bobojon sen ham kenama.

O'z aybini hech odamzod ko'rmaydi,
Nomard kishi aytganida turmaydi.
Aytib bo'lmas savdo tushgan boshima,
Bobojon, aytgani tilim bormaydi.

Pichoq urmay badanlarim tildirma,
Gapni qo'shib dushmanlarim kuldirma.
Yoshing ulug' ekan mayli aytayin,
Bu gapni hech kimga bobo bildirma.

Uchar bo'lsam qanotimdan qayrildim,
Yuray desam oyog'imdan toyrildim.
O'tgan choshka-choshka edi bobojon,
Mehrimga tushgan bir moyamdan ayrildim.

Bir burgut osmondan uchdi-yu keldi,
Mendayin sag'irning galini oldi.
Moyani qo'limdan ildi-da ketdi,
Go'ro'g'li oh deydi, izida qoldi.

Otini Rayhon der, elati arab,
Yo'lini o'nglayman iziga qarab.
Shu biya ustida oh deb boraman,
Oxiri toparman ko'rgandan so'rab.

Men o'yilasam yoshga to'lar ikki ko'z,
Bul ishingga hech kim aytmas shirin so'z.
Ul moya tog'amning moyasi edi,
Tog'am bilan bo'lolmayman yuzma-yuz.

Tirnoq bilan ajralib bo'lmas et,
Qon chiqadi tortabersang ketma-ket.
Ul moyaning soyaboni men edim,
Tog'am bilan qanday bo'lay betma-bet.

Ustixonim oro cho'lda yoqarman,
Moya uchun tanda jonim tikarman.
Xudo yor bo'b topib olsam arabni,
Bosh berarman yoki qonin to'karman.

Bobo bunday gapni qilma malomat,
Shul sag'irning boshida ko'p alomat.
Shuning uchun ketayapman to'lg'anib,
Xush, Olloyor, bobo bo'lg'in salomat.

Bobosi Go'ro'g'lining bu gapini eshitib, eshagidan tushib: "Ha, hali Go'ro'g'li degan bola senmisan? Bibi Hilolning o'g'limisan, Ahmadbekning jiyanimisan? Xoljuvon uchun borayotibsanmi? Ey, to'xta, biyadan tush, berman kel", – dedi. Go'ro'g'li biyadan tushib, bobosining qoshiga kelib, qaytaboshdan ko'rishib: "Bu bobosi tushkir meni tanir ekanda, Ahmadbeknikiga bir-ikki kelgan ekanda, so'rab bilgan ekanda, menga ham tanish ko'rindi, bir-ikki kun yurgan ekanda", – deb indamay turabardi. Bobosi: "Go'ro'g'li, sen meni tanimading, bir eslab ko'rmading, menday Qambar bobongni bilmading, endi bilib ol", – deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Salom berib tanimading, Go'ro'g'li,
Elni kezgan Qambar degan bobongman.
Qalbingni xudoyim qilmasin dog'li,
Ko'p umring tilab yurgan bobongman.

Sabab bilan sen dunyoga kelganda,
Ahmad tog'ang qo'lga tayoq olganda,
Achchiq qilib Hiloloyini urganda,
Senga tayoq tiydirmagan bobongman.

Onang sho'rli go'rga bo'ldi hamxona,
Sen tushguncha bo'ldim unga parvona,
Ingga aytib kelding yorug' jahona,
Oqqa o'rab yo'rgaklagan bobongman.

Har xil odam har xil bilar dunyoni,
Hikmatli deb aytisharlar tuyani,
Sening uchun ushlab to'riq biyani,
Emchagini xo'p emdirgan bobongman.

Sening uchun yo'q narsani topdirib,
Bulutdan non qilib, kunga yoqtirib,
Ul to'riqni bir tulporga choptirib,
Shu tarlonni tilab olgan bobongman.

Nomard yurar niyatini puch qilib,
Bir qilgan ishini qayta uch qilib,
Sabab bilan cho'ponlarga duch qilib,
Egarga mindirib qo'ygan bobongman.

Agar olsang uy oldiga tozini,
Xizmatiga olar tulki izini,
Haqlagali Hiloloyning tuzini,
Ahmadga dastyor qilgan bobongman.

Yurganingda gullar ekdim har yona,
Bor budimni senga qilib to'yona,
Kecha yotsang men boshingda parvona,
Sag'irlarning holin so'rgan bobongman.

Sog'liq bo'lsa g'animat bil har onni,
Xudoyim omonat bergan bu jonni,
Sening uchun topdim tulpor tarlonni,
Ahmaddan ob senga bergan bobongman.

Xoljuvonning zeboligin bildirib,
Ul Rayhonning aqli-hushin oldirib,
Sabab bilan tulporini keltirib,
Tarloningni xo'p choptirgan bobongman.

Badanlari xoldor-xoldor temir ko'k,
Agar chopsa yetolmaydi otgan o'q,
Keng jahonda o'xshashi yo'q, tengi yo'q,
Agar bilsang, qanot bergan bobongman.

Go'ro'g'li bu gaplarni eshitib, avvaliga suyunib, oxirgi gapiga kuyinib, bobosiga qarab: "Hoy Qambar bobo, avvalgi gaplaringdan minnatdorman, bu yaxshiliklaringni o'lmasam qaytaraman, qo'limdan biror yaxshilik kelmasa biror xizmatini besh-olti oy qilib beraman, xohlasang quling bo'laman, lekin menga qilgan yaxshiliklaringga yomonlik qilganing nimasi? Nima uchun Xoljuvon chechamni Rayhonga bildirding, nima uchun meni zor yig'latib qo'limdan oldirding, qaytmasi qilib, balki orqasiga mindirding. Ahmadday tog'am kelsa, qani chechang desa, undan ko'ra yaxshi bo'lmaydimi menday sag'ir o'lsa?!" – deb, qahri kelabardi, ko'zlari olovday bo'lib yonabardi. Burni jiyirilib, gursillab nafas olabardi, besh barmog'i musht bo'lib qisilabardi, tirnog'i qo'lining oyasiga kirib ketabardi. Qambar bobosi bildi Go'ro'g'lining achchig'i keldi, xo-xolab kulib dedi: "Ha Go'ro'g'li achchig'ing keldimi? Birov bilan janjal qilishga odatlanma, meni Berdaliday deb bilma "O'zingni er bilsang, o'zгани sher bil", degan ekan. Qani mening xilacho'pimni olib ber qani ko'rayin". Go'ro'g'li harchand qildi, bobosining xilacho'pini ko'tara olmadi. Bobo: "Qo'y-qo'y, o'zim olayin", deb ikki barmog'iga tishlatib xilacho'pni oldi. Go'ro'g'li bildi, bu boboga hazillashib bo'lmaydi. "Meni kechiring bobo, lekin mening Chambilda yurishim qiyin bo'ladi. Chambildagi turkmanlar biladi, oldimda gapirmasayam orqamdan gapirib, meni masxara qiladi. Tog'am kelsa bu ishimga boshimni oladi, endi gap qanday bo'ladi? Rayhonga borganim bilan, bilmadim, qo'limdan qanday ish keladi, balki boshimni olib ketganim ma'qul bo'ladi!" – dedi. Shunda bobosi: "Ey Go'ro'g'li, quloq sol, hamma gaplarni tinglab ol, ketingga qaytib bir qo'g'irchoq qil, kiyim kiydir, o'tovga Xoljuvunday qilib o'tirg'izib qo'y. Kelgan-ketgan Xoljuvon uyda ekan desin, Xoljuvon kelguncha bu sirni birov bilmasin. Undan keyin tarloning ot tuvadi, oting uch yashar bo'lsayam borsang oringni oladi, Rayhon quvsayam yetolmay qoladi. Oting to'rt yashar bo'lganda borsang ham Ahmad

kelguncha Xoljuvon uyda bo'ladi. Hozir borsang Rayhon o'zingni bir yoqli qiladi, tarlonni ham o'ziniki qilib oladi. Endi gap shu. Xoljuvon bo'lmaganda Rayhon aslo sening qoshingga bormas edi, borgandayam Asqar tog'cha oltin berganingda ham otini choptirmas edi. Rayhon yutqazdi, sen yutding. Rayhon keyin qoldi sen o'tding, endi bu yog'i o'zingga bog'liq. Tarlon bo'g'oz bo'ldi, uning bo'g'oz bo'lgani yetti qat osmondagi, olti qat yerdagi devu parilarga, jamiki o'n mingdan ko'p ayyoru mastonlarga, uch yuzu oltmishta sohibqironlarga, qirq chiltonlarga, g'oyibdan bilguvchi azizu anbiyolarga ma'lum bo'ldi. Ularning hammasi qo'lingdan shu biyani olib qochishga harakat qiladi, avvali qo'lingdan aldab-suldab oladi, bo'lmasa ob qochib ketadi", – dedi bobosi. Shunda Go'ro'g'i: "Unday bo'lsa bobojon, ayting men qanday qilsam biyani saqlab qolaman? Qanday qilib qulunini ot qilib olaman", – deb ikki ko'zi yoshlana berdi. Qambar bobosi dedi: "Sen mana nuqtani olasan, biyani nuqtalab yurasan, bu nuqtani aslo biyaning boshidan olmaysan. Mabodo quluni qisilib qolmasin desang, ustiga biror fasl minmaysan. Nuqtaning bir uchini ushlab yurasan, aslo qo'ymaysan. Toki biya qulunlamaguncha uyqu nimaligini bilmaysan. Mabodo uxlasang, nuqtaning uchi qo'lingdan chiqib ketsa biyadan umidingni uzaber, ikkinchi biyani ko'rmaysan. Biya qulunlasa qulunning sag'risini bir silasang bo'lgani, u qachon bo'lsayam senga nasib qiladi", – deb bobosi Go'ro'g'liga ipi uzun bir nuqta berdi. Go'ro'g'li nuqtani biyaga solib: "Hoy bobo, o'zi biyam qachon qulunlaydi, necha oy uxlamay yurayin, qulunga nima deb nom qo'yayin, Ahmadbek menga berasan desa qaytayin", – deb iziga qarasa hech kim yo'q. Go'ro'g'li biyasini yetaklab u tuba, bu tubaga chiqib qaradi bobosining o'zi tugul izi ham yo'q. Go'ro'g'li hayron bo'lib, biyasini yetaklab, Ahmadbekning o'toviga qarab kelaberd, ko'ngli bir xursand bo'ldi, o'z boshiga o'zi gapirib, balki niyat qilib, gohi-gohi o'ynab, Asqardan berman taylab, ikki og'iz so'yab kelayotir:

Yur Go'ro'g'li baxting chopdi,
Tarlon qo'lingda, qo'lingda.
Niyatini bu kun topdi,
Noring qo'lingda, qo'lingda.

Oltinday bo'b Asqar tog'lar,
Qo'riq cho'llar misli bog'lar,
Qaytib kelmas bunday chog'lar,
Boring qo'lingda, qo'lingda.

Och yuragim bugun to'lib,
Ketgan davlat qolar kelib,
Go'ro'g'li yur o'ynab-kulib,
Oring qo'lingda, qo'lingda.

Qo'shiq aytib sag'ir so'yla,
O'z ko'nglingni xursand ayla,
Dardu balolarni tayla,
Toring qo'lingda, qo'lingda.

Uxlamay tarlonni boqsang,
Gardaniga tumor taqsang,
Baxting chirog'ini yoqsang,
Shaming qo'lingda, qo'lingda.

Tarlon tug'sa ajab qulun,
O'zi joldor dutor bo'yin,
Suluv qilib hamma joyin,
Qushing qo'lingda, qo'lingda.

Yaylovlarda kishnab yursa,
Qiliq qilib tikka tursa,
Uni menday sag'ir ko'rsa,
Kayfing qo'lingda, qo'lingda.

Chang ko'tarib gohi chopsa,
Yashirsam men yemni topsa,
Olay desam asta tepsa,
Do'sting qo'lingda, qo'lingda.

Rangi bo'lsa ham G'ir ham ko'k,
O'mgani keng sag'risi to'q,
Yetolmasa qochganda o'q,
Baxting qo'lingda, qo'lingda.

Yol quyrug'i qora bo'lsa,
Orqa soni ola bo'lsa,
Dushmanlarga balo bo'lsa,
Og'ang qo'lingda, qo'lingda.

Bir yasharda otcha bo'lsa,
Ikki yoshda filcha bo'lsa,
Uch yoshida tog'cha bo'lsa,
Taxting qo'lingda, qo'lingda.

To'rt yoshida minib olsam,
Ul Rayhonnini so'rab borsam,
Boshiga xo'p kunlar solsam,
Chechang qo'lingda, qo'lingda.

Keng Chambilga podsho bo'lsam,
Qizilboshning dodin bersam,
Armon yo'q g'o'ddayib tursam,
Shahring qo'lingda, qo'lingda.

To'g'ri bo'lsa gapning bari,
Hech ketmasin mardning ori,
Olgan yorim bo'lsa pari,
Guling qo'lingda, qo'lingda.

Bola chaqang qirqdan oshsa,
G'ayrati seldayin toshsa,
Haybatidan dushman qochsa,
Shering qo'lingda, qo'lingda.

Sag'irlarga orqa bo'lsam,
Topganim gadoga bersam,
Odam barin xursand qilsam,
Sozing qo'lingda, qo'lingda.

Yur Go'ro'g'li, tinmay so'yla,
Nuqta ipin mahkam boyla,
Hozircha tarlonni o'yla,
Shering qo'lingda, qo'lingda.

Go'ro'g'li o'zi bilan o'zi so'zlashib, ashulasini vakavang qo'yib, qo'llarini yoyib, o'ynab, ko'nglidagi niyatlarini aytib kelayotib edi, ot dupiri eshitilaberdi. Bu kim bo'ldi ekan deb, qo'lidagi ipini mahkamroq ushlab, u yoq-bu yoqqa qarayotib edi, yonboshdan biyasini terlatib Berdali chiqib qoldi. Shunda Berdali: "Go'ro'g'li, qiyomat bo'ldi, qizilboshlar keldi, biyalarni tortib oldi, hammasini oldiga soldi, manovi yomon, bunisi yaxshi demadi, bittasini tashlab ketmadi, men arang qutuldim, seni izlab Ahmadbekning o'toviga bordim, na seni, na Xoljuvonni ko'rmadim. Hayron bo'lib turbedim, shu yerda bir tulporning izini ko'rdim. Unday iz na qizilboshlarda, na turkman boylarida bor. Men ko'lda ko'rgan otning izini o'zginasi. Bir vaqt tarlonni ham ko'rib qoldim. Tulporning izidan ketgan, shu izni olib choptirib kelayotirman. Nima bo'ldi, Ahmadning uyiga ham bir balo doridimi? Endi nima qilamiz? Qizilboshlardan qaytib biyalarni qaytarib olamiz?". Shunda Go'ro'g'li Berdaliga qarab: "Hoy Berdali og'a, siz ham menga bir tog'a, alanglayverma har yoqqa, mol degani qo'lining kiri, goh kelaberadi, goh ketaberadi. Boshing eson bo'lsa aslo biyalar uchun g'am yema, tog'amning davlatini kam dema, biya uchun boshingni qizilboshga berma, tog'amning moli ketsa ketsin, ori ketmasin". — deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Er yigitdan davlat ketmas hech yoqqa,
Davlat ketsa-ketsin, oring ketmasin.
Sinamay kirmagin sayrli boqqa,
Moling ketsa-ketsin, fe'ling ketmasin.

Bir boshingga hech tushmasin malomat,
Malomat tushgansan bo'lar alomat,
Na bo'lganda yursang sog'u-salomat,
Boring ketsa-ketsin, noring ketmasin.

Yigitlikda qiyin dardning kelgani,
Qariganda yomon jufting olgani,
El ichida eson tursak bo'lgani,
Zaring ketsa-ketsin, boshing ketmasin.

Ado bo'lmas moldir belning quvvati,
Ergashadi mard yigitning davlati,
O'chib ketmay izda qolar avlodi,
Otang ketsa-ketsin, bolang ketmasin.

Qizilboshni Xoljuvonga bildirdim,
Olib qochib bir tulporga mindirdim,
Asqarning boshida g'orga qo'ndirdim,
Biyang ketsa-ketsin, chechang ketmasin.

Bor Berdali senga javob ketaber,
Biyalardan qolgan bo'lsa olaber,
Keng jahonda o'ynab, kulib yuraber,
Mavqeng ketsa-ketsin, zavqing ketmasin.

Neni bilsang hech kishiga bildirma,
Shavq bag'ishlab dushmaningni kuldirma,
Tildan topib boshga balo keltirma,
Sirting ketsa-ketsin, iching ketmasin.

Men yurarman Ahmad tog'am kelguncha,
Shul chechamga kelib ega bo'lguncha,
Bergan omonatin mendan olguncha,
Uyi ketsa-ketsin, oyi ketmasin.

Xush olloyor, Berdali bo'l salomat,
Senga sog'lik tilar menday vallomat,
Ollo bersin qilgan ishingga omad,
Taxting ketsa-ketsin, baxting ketmasin.

Alqissa, bu gaplarni Berdali eshitib: "Ey Go'ro'g'li, sen bilan men bu gapni aytganimiz bilan, mol ketsa-ketsin deganimiz bilan Ahmadbek kelmaydimi, qani molim demaydimi, seni bilan meni terimizni shilib qo'limizga bermaydimi, undan ko'ra qizilboshning qo'lida o'lsak bo'lmaydimi?", — dedi. Go'ro'g'li aytdi: "Berdali

og'a sen ham men aytgan gaplarni bilmabsan, bosh eson bo'lsa mol hech yoqqa ketmaydi. Sen bilan mening shu biyalar bilan qizilboshga kuchimiz ham yetmaydi, qancha yalinganing bilan mana biyalarining demaydi, o'ldirsa o'ldirib ketaberadi, yaxshi odam ekan demaydi. Ahmad tog'am kelguncha bir gap bo'lar, xudo tog'amning ham insofini berar, insofini bermasa bir-ikki urar, kecha-kunduz qo'ymay yotsa biyalarini mendan olar, senga biror narsa desa hayla Go'ro'g'li biladi, deb ketaber. Senga nima qolganini Go'ro'g'lining o'zi bilar, nima bo'lsa ham taqdiridan ko'rar", – dedi. "Unday bo'lsa Go'ro'g'li o'zing bilasan, men ham o'zingga ish topib olayin, gaping ham ma'qul, endi men jo'nayin", – deb Berdali biyasiga minib xushlashib jo'nab ketdi.

Alqissa, Go'ro'g'li tarlonni yetaklab kelayotib edi, tovning pastidan baqiriq-chaqiriq eshitila berdi. Go'ro'g'li tarlonni yetaklab, yo'ldan chiqib, qirning ustidan qaradi. Ko'rdi ko'p lashkar biyalarni bu yoqdan u yoqqa surib yuribdi, bunisi yaxshi, bunisi yomon demaydi, qoehganini qo'ymaydi, yurmaganini ikki bo'ladi, birovniki demaydi. Bir Ahmadniki emas, hamma biyalarni tortib olibdi, biyalar hovarga sig'maydi. Ularning ketidan saf tortib yana ko'p lashkar chiqdi. Ola bayrog'ini ko'tarib olgan, nayzasining uchiga bir-ikki odamning boshini ilgan, odamzodni pisand qilmaydi, turkmanu o'zbekni elat demaydi, olaman deganini olmay qo'ymaydi, dobilini har zamon dong-dong etkazib urib qo'yadi, birovni mensimay savlat to'kib gerdayib ketib borayotir. Go'ro'g'li bularni ko'rib, toza achchig'i kelib, badanlari tutashib: "Ha bachchag'ar qizilbosh, davring hamisha shunday bo'lib o'tarmikan yoki bu sitamlaring oxiri boshingga yetarmikan, biyalarniku olibsan, nayzaga boshlarni ilib mensimay yurishing nimasi? Xayr, mayli qilg'iligingni qilib tur qani, qulunlar ot bo'lar, bu xo'rliklar shunday ketmas, oxiri boshingga balo bo'lib qaytarda", – deb turib edi, shu vaqt: "Hoy bola, tur joyingdan", – degan gapni eshitib sharta burilib qaradi. Ko'rdi ikki qizilbosh ketidan kelib, qilichini qo'lga olib chopmoqqa tayyorlanib turibdi. Shunda bittasi:

– Hoy bola, joningdan umiding bormi yoki yo'qmi?", – dedi.

– Jonimdan umidim bor, – dedi Go'ro'g'li.

– Umiding bo'lsa biyani bizga ber, yosh ekansan mayli o'zing uyingga ketaber, – dedi. Shunda Go'ro'g'li ikki qizilboshga qarab bir so'z aytib turibdi:

Quloq solgin qizilboshlar so'zima,
Bugun quyosh botib erta chiqmasmi?
Bir lodonman jabr qilma o'zima,
Sag'ir haqi oxir teshib chiqmasmi?

Yosh bolaman yuray desam holim yo'q,
Na eshagim, na pishagim, tolim yo'q,
Shul tarlondan boshqa biror molim yo'q,
Ber desanglar menga qattiq botmasmi?

Boray desam menda xona bo'lmasa,
Arz qilgali ota-ona bo'lmasa,
Qodir ega menga pano(h) bo'lmasa,
Tortib olsang senga qarg'ish yetmasmi?

Birov moli senga vafo qilarmi,
O'zingni yeb, so'ng bolangga qolarmi,
Farzandingga bilmam nasib bo'larmi,
Ado bo'lmas mol mehnatdan kelmasmi?

Navbat yetsa tosh uchadi qoloqdan,
Mazax qilib kulib bo'lmas cho'loqdan,
Suv chiqmasmi bir qurigan buloqdan,
Eldan elga bir kun davlat o'tmasmi?

Oxir borib bukchaymasmi qora nor,
Shamolning shashtiga tosh ham yalinar,
Mol talasang, bilgil moling talanar,
Yaxshilik ham, yomonlik ham qaytmasmi?

Qarchig'aylar ko'rsa buzmas uyani,
Bo'tasidan bezdirmassan tuyani,
Besh yil ishlab topdim tarlon biyani,
Shuni olsang sag'ir ohi urmasmi?

Bu ikki ko'z odamzodga balodi(r),
Qo'ya bersang to'ydim demay oladi,
Oxir borib tuproqqa to'ladi,
Kel qo'y, debon nafsing tiysang bo'lmasmi?

Ayo, beklar bir sag'irman qo'yinglar,
Shu biyani mendan olmay ketinglar,
Ovmin ollo niyatingga yetinglar,
Sher oldida shercha o'ynab yurmasmi?

Alqissa, qizilboshlar Go'ro'g'lidan bu gapni eshitib, ot ustida xo-xolab kulib, bittasi-bittasiga gapirdi:

– Hoy Eramat, buning gapini eshitdingmi, bu nima deyayotir? Men eshitmadim, bir narsalar deb valdirayotir, – dedi.

– Bu bola bizga ko'p nasihat qilayotir, nasihat emas vasiyat qilayotir, xo'p dono ekan, meni to'qsabo qilib ketinglar deyayotir, – dedi Eramat.

– Kel seni o'zim to'qsabo qilayin, o'ziyam qirning usti ekan, jaloving o'tgan ketganga ko'rinish turadi, ko'rgan fotiha qiladi, joying jannatda bo'ladi! – deb otidan tushib Go'ro'g'lining qoshiga kelaberdi, qinidan pichog'ini olaberdi. Go'ro'g'li endi qanday bo'lar ekan, deb turib edi, Go'ro'g'lining qoshiga kelib, yoqasidan ushlab, pastga qarab bosaberdi. Go'ro'g'li:

– Urushda ham turtish bormi?, – deb biqiniga bir urgan edi, "hingq" etdi-yu, chalqaramon bo'lib yotdi. Shu yotganidan qimirlamay qoldi, labi uchaberdi, ko'zi pիրրayberdi.

– Hoy bola, nima qilib qo‘yding, to‘xta bachchag‘ar, – deb Eramat otdan tushib yugurib kelganini biladi, undan boshqasini o‘ziyam bilmay qoladi. Ko‘ziga keng dunyo tor bo‘lib boradi, jo‘rasining boshiga gurs etib quladi, Go‘ro‘g‘li qaradi, mushti tiyar-tiyamas bunisiyam suladi.

– Bachchag‘ar noinsolflar yana turasolib ot qo‘yib ketmasin, – deb Go‘ro‘g‘li tarlonni yetalab ura qochdi.

Oradan ancha kun o‘tdi. Qizilboshlar ham olganini olib ketdi, Go‘ro‘g‘li uyiga keldi. Ko‘rdi uy eson-omon turibdi. Uy ichidagi buyumlarning ko‘pini qizilboshlar olib ketibdi. Go‘ro‘g‘li qolganiga shukur qilib, yog‘ochdan qo‘g‘irchoq yo‘nib, unga buyum kiydirib, “Checham uyda”, – deb yuraberd. Kechalab uyiga keladi, tarlonni ushlab uxlamaydi, ertalab o‘tlatgani olib chiqadi. Bir kun kechqurun uyiga kelayotib edi, g‘iring-g‘iring, shiring-shiring degan tovushlar qulog‘iga kelaberd. Go‘ro‘g‘li bu nima bo‘ldi, deb boshini ko‘tarib qaragan edi, uyi oldida o‘zi qatori ko‘p qizlar “Boboltaka” o‘yinini o‘ynayotir. Qizlar davra qurib o‘tiribdi, bittasi “ma-a, ma-a” deb qochayotir, yana bittasi bir oyoq bilan “bo-bob-bo, bo-bob-bo” deb quvayotir, qizlar ikkovining qilig‘iga qotib-qotib kulayotir. Quvayotgan qizning oyog‘i yerga tegib ketsa taka yotdi, taka yotdi, deb shovqin qilayotir, yotgan davraga kelib o‘tirayotir, boshqasi irchib turib: “Meniyam yotqizib bo‘bsan, meng mong‘i takaman”, deb bobolab quvayotir. Go‘ro‘g‘li ham bola emasmi qiziqib ketdi, o‘yinni ko‘rib qotib-qotib kulaberd, tobora yaqin kelaberd. Haligi qochgan qiz hamma qizlarni yotqizdi. Shunda qizlardan biri joyidan turib, Go‘ro‘g‘liga qarab kulib, nozini qayta-qayta soz qilib bir so‘z aytib turibdi:

Zulfakni bunday eshaylik,
Zavq olishib kulishaylik,
Seni o‘yinga qo‘shaylik,
Taka bo‘lib quv, Go‘ro‘g‘li.

Xafa ko‘ngilni xushlaylik,
O‘yinni qayta boshlaylik,

Ber tarloningni ushlaylik,
Taka bo‘lib quv, Go‘ro‘g‘li.

Sensan hali bizday bachcha,
Senga talab qildi qizcha,
Anor yuzli, bodom ko‘zcha,
Taka bo‘lib quv, Go‘ro‘g‘li.

Taka bo‘lib sen ham yotsang,
Yaxshi bo‘lar yurmay ketsang,
Senikidir agar yetsang,
Taka bo‘lib quv, Go‘ro‘g‘li.

Bir oyog‘ing ko‘tarib ol,
Yetsang oyog‘iga chil sol,
Ushlasang shu qizni ob qol,
Taka bo‘lib quv, Go‘ro‘g‘li.

Nega o‘yinga kirmaysan,
Oldinga qarab yurmaysan,
O‘zingni sinab ko‘rmaysan,
Kelib qizni quv, Go‘ro‘g‘li.

Bizlarga shirin so‘zmisan,
Yo soyda yotgan tuzmisan,
Sen ham bizdayin qizmisan,
Bu davraga kel, Go‘ro‘g‘li.

Go‘ro‘g‘li deydi elingda,
Mana qizlar o‘ng-so‘lingda,
Belbog‘ing bormi belingda,
Yigit bo‘lsang kel, Go‘ro‘g‘li.

Biz senga gaplar otamiz,
Gapimizda yo‘q xatomiz,
Quvmasang qiz deb ketamiz,
Sanam bo‘lsang qol, Go‘ro‘g‘li.

Menga bergin tarloningdi,
Qiz olmas tandan joningni,
O‘ynab o‘tkaz har oningdi,
Bir selkillab quv, Go‘ro‘g‘li.

Kelinglar qizlar qaraylik,
Shu Go‘ro‘g‘lini sinaylik,
Nima desa biz ko‘naylik,
Qarab turmay quv, Go‘ro‘g‘li.

Agar yetsang o‘p yuzidan,
Bahra ol jodu ko‘zidan,
Aslo ayrilma o‘zidan,
Qo‘y tarlonni quv, Go‘ro‘g‘li.

Oppoq qorday siyna to‘shlar,
Ushlagan yigit yonboshlar,
To o‘lguncha ko‘ngil xushlar,
Ber tarlonni quv, Go‘ro‘g‘li.

O'zga dema, shuldir pari,
Ushlaganning bo'lar yori,
O'psang qolmas yurak cheri,
Na turibsan, quv, Go'ro'g'li.

Bormi belingda darmoning,
Quvsang chiqib ketmas joning,
Sadqayi yigitlik sha'ning,
Na darding bor, ayt, Go'ro'g'li.

Alqissa, Go'ro'g'li haligi qizning gapiga achchig'i kelib, badanlari tutashib: "Senlar yetmagan bo'lsalaring endi ko'ringlar, so'ng nima desam beringlar, bittalaring tog'amga xotin bo'linglar, men yigit bo'lganda yana qaytib shu joyga kelinglar, mana bittang tarlonni ushlab turinglar", – deb tarlonning ipini bir qizga berayotib edi, jonivor u yoqdan-bu yoqqa kishnab qochaberdi, Go'ro'g'lining o'zi ushlab tursa indamay turadi, bir qizga uzatsa jamanlagir yana qilig'ini boshlaydi, yaqinlashgan qizni chay-chaylatib tishlaydi. Go'ro'g'li hayron bo'lib qizlarga qaradi, ko'rdi hammasining ko'zi bejo, bir-biriga imo qilayotir, Go'ro'g'lidan bir narsani olsa qochib ketguday bo'layotir, atrofini o'rab olayotir, shunda Go'ro'g'li qizlarga qarab bir so'z deyotir:

Qo'zg'almagin sanam qizlar joyingdan,
Bir baloni boshlar xumor ko'zlaring.
Yaxshilik gap yaxshi bo'lar bo'yingdan,
Ko'rganga tosh otar xumor ko'zlaring.

Kiprikdaring ko'rdim nayza misoldir,
Ko'zing gavhar desam, lekin sopoldir,
Tiling ajdar so'zginasi asaldir,
Botirlarga xatar xumor ko'zlaring.

Ko'p hiylangdan nechov ko'ksi yaradir,
Yuzing oyday, iching toshday qoradir,
Ko'ksing chaqirtikan siynang soradir,
Ipsiz bog'lab ketar xumor ko'zlaring.

Ketgin qizlar aslo kelma qoshima,
Zahar solma mening ichgan oshima,
Yana qayg'u solmoqchisan boshima,
Berahmdir yutar xumor ko'zlaring.

Bu aqlni ko'zni suzib olasan,
Esin olsang keyin molin talarsan,
Taka bo'lmay turib echki qilarsan,
Qaroqchidan betar xumor ko'zlaring.

Bir-biringga zimdan imo qilasan,
Qarasam qirq qizsan baring balosan,
Qaysi eldan ne sababdan kelasan,
Qochganni ham tutar xumor ko'zlaring.

Tishing kulib, ichda zahar socharsan,
Bir munchoqqa ming yigitdan kecharsan,
Tarlonni ushlang olib qocharsan,
Bilsam boshga yetar xumor ko'zlaring.

Odam edim shu tarloncha bo'lmadim,
Tarlon bildi, men siringni bilmadim,
Aldab-suldab biring ushlab olmadim,
Bilmam qachon botar xumor ko'zlaring.

Endi kelsang men yularman boshingni,
Hech ko'rmay ketarsan qarindoshingni,
Qarg'a-quzg'un yeyar qolgan loshingni,
Yerni quchib yotar xumor ko'zlaring.

Shunda qizlar: "Oviy, bunga nima bo'ldi, balki kinna kirdi, nega achchig'i keldi, bul nimani bildi, bu bachchani xudo oldi", – deyaotir. "Quv Go'ro'g'li" deyaotgan qiz: "Ha qizlar, Go'ro'g'li bildi, u bekorga tug'ilmay enasini emmagan, bekorga bir o'zi yurmagan, shumligidan qizilboshdan omon qolgan, tarlonini bermagan. Kel, Go'ro'g'li shart qilamiz, endi hamma gapimizni aytamiz. Bizni so'rasang Quyi Qof degan joydan bo'lamiz, silarni odamzod, bizni parizod deydi. Quyi Qofning podshosi Qoradev sening tarloningni yaxshi ko'ribdi, o'zimga boyir mol qilay debdi, savdoga bizni qo'yibdi, shu sababdan qizlar bunda kelibdi. Avval Go'ro'g'lini bilaylik, deb o'yin quribdi. Tarloningni sotadigan bo'lsang nuqtasini olib sot, og'zing to'lganini ayt, yigitning sotilmaydigan moli bo'lmas, savdodan qaytgan molning baxti chopmas. "Oting bormi – ot" degan, qani sen nima deysan", – dedi. Shunda Go'ro'g'li qizlarga qarab ikki og'iz so'z aytib turibdi:

To'g'ri gapning hech bo'lmaydi dushmani,
Yolg'on so'zning ko'p bo'ladi pushmoni.
Mastonlikka o'rganmanglar, sanamlar,
Olgan yoring bo'lib qolar bema'ni.

To'g'ri gapning to'rt tomoni yo'l bo'lar,
Yolg'on so'zning aylanasi ko'l bo'lar.
Hiylagar bo'lmanglar aslo sanamlar,
Boshga balo oxir borib til bo'lar.

Mehnat bilan topgan noning moy bo'lar,
Ichi ochiq qizning sirti oy bo'lar,

O'g'irlikka o'rganmanglar, sanamlar,
O'g'irlikning bir kun holi voy bo'lar.

Ololmading endi savdo qilasan,
Savdo qilay desam hali bolasan.
Quriganmi Quyi Qofning erkagi,
Qiz bolasan qo'rqmay bunda kelasan.

Sirting silliq bo'lsa iching oladi(r),
Ichi ola qanday savdo qiladi?
Fuqarosi bo'lsa senday hiylagar,
Bilmadim podshohi qanday bo'ladi?

Hiylagarning men jasatin ko'rmasman,
Jasatin ko'rganda oshno bo'lmasman.
Savdoga sol deysan tarlon biyani,
Biya tugul yotgan toshni bermasman.

Mardga tarlonimni savdo qilaman,
Arzon-garov, nasiyaga ko'naman.
Arzon-garov nasiyamni eshitsang,
Bir shaharga bir tukini beraman.

Ketgin qizlar endi bunda turmagin,
Bema'ni gapingni aytib yurmagin.
Sotsam ham devlarga aslo bermasman,
Tarlonimga endi umid qilmagin.

Bu gapni eshitib qizlarning achchig'i kelib, bittasi Go'ro'g'liga qarab: "Ha juvonmarg, gapga ko'nmadim, o'yinga kirmading, savdoga qo'ymading, nuqtani biya boshidan olmading, nuqtaning tilsimiga kuchimiz yetmaydi, bo'lmasa tarlonni bu joylarda ko'rmas eding, qulunini ot qilaman demas eding, mayli ko'ramiz qulunini ot qilganingni. Ot qilganingda ham Quyi Qofga borasan, o'z qo'ling bilan otingni berasan, o'zing devlarning changalida o'lasan, sassiq taka, bizga "Ket!", deb do'q ham urasan", — dedi. Go'ro'g'lining achchig'i keldi, bir toshni olib sermadi, qizlar bir aylanib kaptar bo'lib uchib ketdi. Go'ro'g'li izidan so'kinib: "Sassiq taka emish, qulunim ot bo'lsa, o'zim yigit bo'lsam, biring tugul ikkovlaringni olarman, u yog'ingni odamzodga cho'ri qilib berarman. Hali shoshmay tur, qanday takaligimni shunda bildiraman", — deb izidan tosh otib qolabardi, tarlonni boqib yurabardi. Bu qizlardan boshqa kishilar keldi, tarlonni savdo qildi, Go'ro'g'li bermadi.

Tarlon bilan goh yotib, goh turib yurib edi, oradan to'qqiz oy o'tdi. Biyaning qulunlashiga oz vaqt qoldi, Go'ro'g'li uxlamadi. Oydin ko'lda o'tlatib, nuqtani ushlab, yonboshlab qarab yotib edi ko'zi yumildi, o'zi uyquga ketdi, tarlonni to'lg'oq tutdi, jonivor yotdi, boshini yerga suykayotib edi, nuqta boshidan chiqib ketdi. Shu vaqt bir bo'lak kishi yetdi, biyani ko'tarib ketdi. Go'ro'g'li joyidan sakrab turadi, ko'rdi nuqta

yerda yotibdi, biya yo'q, ketibdi. Izini oldi, izi yo'q. "Oh, uyim kuydi!", — deb chopqillab u tuba, bu tubaning ustiga chiqib qaradi, biya yo'q. Shu vaqt qamish ichidan biyasining uqranib kishnaganini eshitdi, chopib bordi. Ko'rdi biyasi sulab yotibdi, atrofni qirqa yaqin kishi o'rab turibdi. Bir qulun yerda yotib tipirlayotir. Haligi odamlarning bittasi: "Hah jonivor, tarlon o'ldi, qulunining oyog'i po'lat ekan bir tipirlaganda tuyog'i biyaning qornini yorib yubordi. Endi bo'lari bo'ldi. Mana bu narsa bilan qulunni oziqlantiringlar: to'qsonta hiylagar qushi-hayvondan, to'qsonta yugurikdan, to'qsonta o'tkir ko'zdan, to'qsonta yuraklidan, to'qsonta tolmas, suvsamas jonivorlardan olingan, hammasi birga qo'shib iylangan, toki charchamasin, suvsamasin, hiylakor bo'lsin", — deb gapirayotgan edi, Go'ro'g'lining esiga Qambar bobosining gapi tushdi, qulunni qoshiga yugurib keldi, sovrisini bismillo deb uch marta siladi. Shunda haligi odamlar ko'rdi, bittasi Go'ro'g'lini itarib yubordi, bittasi qulunni ko'tarib oldi. Go'ro'g'li irchib joyidan turib: "Qulunimni ber", — deb kelayotib edi, haligi odamlar birin-ketin yo'qolib ketdi. Go'ro'g'li harchand chopdi na qulunini na odamlarni ko'rdi, hayron bo'lib, yuragi vayron bo'lib, ko'ziga yosh kelib yig'lab turgani:

Kimga aytayin zorimni,
Bo'ldim hayrona hayrona.
Berdim manglayda borimni,
Bu ko'ngil bo'ldi vayrona.

G'amda qoldi aziz boshim,
Qaylarga ketdi yo'ldoshim.
Bu ko'ngil bo'ldi g'amxona,
Nasib qilarmi sirdoshim.

Ketmadi qora yuzimdan,
Quvdi falokat izimdan,
Kimga aytayin dardimni,
Na bo'lsa bo'ldi o'zimdan.

Bobomning gapin olmadim,
Ko'zimga cho'plar solmadim.
Dodimni kimga aytay,
Go'ring ichida o'lmadim.

Xabarim yo'qdir otamdan,
Boshim chiqmaydi sitamdan.
Katta baxtimni oldirdim,
Bir kichik qilgan xatomdan.

Tovlarning qori erisin,
Zolim ostida chirisin.
Na bino bo'ldim enadan,
Sag'irliklari qurisin.

Avval ayrildim norimdan,
Toshlar eriydi zorimdan.
Niyatlar bu kun vayrona,
Qo'l yuvdim harna borimdan.

Foyda yo'q kunduz-kechamdan,
Urdu xudoyim uchamdan.
Yig'lasam boshim silagan,
Avval ayrildim chechamdan.

Noshudligimni bildirdim,
Doim dushmani kuldirdim.
Tog'amning sonsiz biyasin
Qizilboshlarga oldirdim.

Umid qiluvdim tarlondan,
Qutultirar deb armondan.
Endi dunyongni naylayin,
Bu kun kecharman bu jondan.

Chechamni o'ylab yig'ladim,
Tarlon sovrinin siladim.
Na qilay kekxa dunyongni,
O'tgan kesakday quladim.

Kim kulmas nodon so'zidan,
Chang chiqar yursa izidan.
Ot qulun tuv, deb or uchun,
O'pdim tarlonning izidan.

Saharlar yurdim izma-iz,
Uyqu ko'rmadi ikki ko'z.
Attang, niyatlar ko'p edi,
Tiklanar deb Chambildo'z.

Qorin to'ydirdim giyohdan,
Ko'ylakni kiydim qiyoqdan.
To'qqiz oy yurdim izma-iz,
Farqim qolmayin tayoqdan.

O'ylab to'kildi boshda soch,
Usti bosh bo'lib yalang'och.
Topsam non yedim bir tuyur,
Topmasam yurdim doim och.

Sonsiz niyatlar ko'p bo'lib,
Kelar edi to'p-to'p bo'lib,
To'qqiz oy ko'rmadim uyqu,
O'lqordan tanam cho'p bo'lib.

Naylay yog'imga qovrildim,
Uchmay qanotdan ayrildim.
Oy o'tib soat qolganda,
Bori yo'g'imdan ayrildim.

Alqissa, Go'ro'g'li bu so'zlarni aytib, dunyodan kechib, ko'ksini ochib, qayerga borarini bilmay, o'ziga-o'zi gapirib, boshi oqqan tomonga qarab ketib borayotgani:

Yosh boshimga sen falak,
Buncha g'amni solmasang.
G'amni solar vaqtingda
Aqli hushim olmasang.

Azob ko'rgan odamga
Bir rohating bo'lmaymi?
Axir yig'lagan odam
Ertasiga kulmaymi?

Ey xudo-yo, boshima,
Buncha azob solasan.
Zolimlarga ishing yo'q,
Sag'irlarni urasan.

Boyning molin ko'rmaysan,
Jondorga yedirmaysan.
Sag'ir moli bittadir,
O'ldirmayin qo'y maysan.

Boyning suruv molini
Hech ajali to'lmaymi?
Qulunimni oldirding,
Tarlon qolsa bo'lmaymi?

Karomatingni xudo
Men sho'rliga bildirding.
Qolmasin, deb tarlonni
Ajal to'lmay o'ldirding.

Azob ko'rgan boshima
Ne kunlarni solasan?
Qiyab-qiyab oxiri
Omonating olasan.

Endi qayga borayin,
Cho'li sahro makonim.
Qambar bobo, qaydasan,
O'zing bo'lg'in xoqonim.

Bu dunyoning qimmatini
Bir tangacha yo'q endi.
Asqardayin to'shimdan
Teshib o'tdi o'q endi.

Chinordayin qomatim
Soya solmay chiridi.
Bo'ston edi niyatim
Suvi kelmay quridi.

Lochindayin qanotim
Qoyalarga urildi.
Yelkalarim qir edi
Yer quchganday surildi.

Hay attangga, ko'zlarim
Piligi yo'q chiroqday.
Qovriladi badanim
Cho'lda o'sgan terakday.

Ombir mixni kesganday,
Yuraklarim qisildi.
Niyatlarim ko'p edi,
O'rikdayin kesildi.

Jo'shar edim daryoday,
Urding yashin urganday.
Keng osmoning tor bo'lib,
Qalpoq bo'lib turganday.

Bu so'zlarni Go'ro'g'li
Aytib ketib boradi.
Oyoqlarda darmon yo'q,
Qaytib ketib boradi.

Hay attang, deb boshiga
Mushtlab ketib boradi.
Xo'rsinganda labini
Tishlab ketib boradi.

Yosh oqadi ko'zlardan
Sayhunu Jayhun bo'lib.
Bosolmaydi o'zini
Mushtday yuragi to'lib.

Sayilgarday irg'alib
Oh, deyayotir Go'ro'g'li.
O'tda yonib kuyganday
Voh, deyayotir Go'ro'g'li.

Go'ro'g'li oh deganda
Baland tog'lar xo'rsinar.
Go'ro'g'li voh deganda
Tog'da archa qarsillar.

Go'ro'g'li voh deganda
Toshlar erib boradi.
Yig'lama, deb bulutlar
Soya solib turadi.

To'rg'ay qanotin yozib
Yelpib ketib boradi.
Necha-necha ko'k o'tlar
Boshin irg'ab turadi.

Oydin ko'lning suvlari
Chayqaladi guvillab.
Shamollar yig'layberdi
Qabotida shuvillab.

Keta-keta Go'ro'g'li
Dustaman bo'b yiqildi.
Oq gardaniga balki
Shirin joni tiqildi.

Shu yotgandan Go'ro'g'li
Ikki kecha turmadi.
Ikki kunduz ham o'tdi
Bir qiymillab yurmadi.

Oq bulutlar parvona
Bo'laberdi boshida.
Bulbullar xonish qilib
Sayrab turdi qoshida.

Shu yotgandan Go'ro'g'li
Bir ajoyib tush ko'rdi.
Bu tushini Go'ro'g'li
Har narsadan xush ko'rdi.

Qambardayin bobosi
Kulib turar qoshida.
Tolpanglagan quluni
Turibdi yonboshida.

Xon Go'ro'g'li xo'rsinib
Silayotir boshini.
Shukur ollo deyyotir
To'xtatolmay yoshini.

Shunda Qambar bobosi
Asta-asta so'yladi.
So'zlarini Go'ro'g'li
Tanasiga joyladi:

– Yig'lamagin o'g'lonim
Sendan xato o'tgan yo'q.
Agar och bo'lsa qorning
Fe'ling bo'lsin doim to'q.

Fe'lingni to'q bo'lgani
Ketgan davlat kelgani.
Ziqna bo'lsang o'g'lonim
Joningni tez olgani.

Sen uxlagan vaqtingda
Jami devlar jo'nadi.
Qancha-qancha ismgar
Uxlaganing biladi.

Quluningni olsak deb,
Kelaberdi har yoqdan.
Minglab devlar quyulib
Tushaberdi falakdan.

Shu vaqtda qirq chilton
Kelib qoldi qoshiga.
Kelganlarni keltirmay
Yaroq qo'ydi boshiga.

Uyg'onib tez yugurib
Quluningga qarading.
Baxting chopdi Go'ro'g'li
Sag'risin sen silading.

Uch yil o'tib shu kunda
Asqar tovga borasan.
Sohibkor qirq chiltonni
Tavakalda ko'rasan.

Maqsadingni ayt, desa,
Faqat otni so'raysan.
Oltin berayin desa,
Olmayman deb yig'laysan.

Sen ularning oldida
Hech o'jarlik qilmagin.
Odobli bo'l, Go'ro'g'li
Janjal qilib turmagin.

Ovmin ollo baxtingdi
Xudo bersin o'g'lonim.
Agar olsang otingdi
Mening xursand bo'lganim.

Bu gapdan so'ng Go'ro'g'li,
Irchib o'rmidan turadi.
Uxlaganligin sezib,
Tush ko'rganini biladi.

Shunda Go'ro'g'li bu tushiga hayron bo'lib, ko'ngli gohida xursand bo'lib, oyog'i yengil bo'lib, o'ziga o'zi gapirib: "Shu ko'rgan tushimga ishonsam bo'larmikan, uch yildan keyin qulunimni berarmikan, qulunimni olgan odamlar topilarmikan, qirq chilton degani kim ekan, Tavakal g'origa kelarmikan? Ha mayli, bu tushimni ham bir ko'rayin, Qambar bobomning gapiga ko'nayin, ko'nmay ham nima qilayin, endi uch yilni kutib yurayin, shu tushim ham kelmasa bu dunyoda yashab ham nima qilayin?". – deb o'ziga o'zi tasalli berib yuraberdi. Ahmad tog'asining qolgan-qutgan biyalarini boqaberdi, goh och, goh to'q bo'lib yuraberdi. Yurgan joyi Asqartog' bo'ldi, har bir kunda chanachiga bir tosh solaberdi, shunday qilib kunning hisobini olaberdi.

Alqissa, oradan qancha vaqtlar o'tib, Go'ro'g'li Polopon tog'i atrofida yurib edi, qulog'iga bir kishining g'ingillagan tovushi kelabardi. Bu kim bo'ldi ekan, deb joyidan turib, bir-ikki archani burilib shunday qaradi. Ko'rdi bundan besh-olti yil ko'rgan Qambar bobosi, sallasini qiyshaytirib, oq eshagini yo'rg'alatib, oq jegdasini pirillatib, oq soqolini dirillatib, taqimini tebratib, ashulasini vakavang qo'yib, Poloponning karvon yo'lidan Chambilga qarab tashlab borayotir. Go'ro'g'li otasini ko'rganday bo'lib suyinib, soniga bir urib, bobosining oldini olib yugurib, archalarni oralab boraverdi. Go'ro'g'li yetdi, bobosining oldiga o'tdi. Ikki bukilib saiom berib, qo'lini qovushtirib turabardi. Shunda bobosi Go'ro'g'luga qarab ikki og'iz gap so'rab turibdi:

Zarba o'tsa po'lat qo'lda siqilar,
Zar barglar vaqti o'tsa to'kilar.
Ishing borday salom berding Go'ro'g'li,
Tog'day qadding na sababdan bukilar!

Oyg'irdan olqorni mergan otdima,
O'tgan o'qi yuragiga yetdima.
Tog'day qadding na sababdan bukilar,
Bu falakdan senga jabr o'tdima?

Zilziladan tog'ning chiqar nidosi,
Hech kishi bo'lmasin g'iybat fidosi.
Bu falakdan senga jabr o'tdima,
Yo bo'ldingmi ayriliqning gadosi?

Gar po'latga ato qilsa edi jon,
Jafolardan otilardi har tomon.
Sen bo'ldingmi ayriliqning gadosi,
Chechang uchun yuribsanmi sargardon?

Ko'rgan odam quvonadi bo'yingdan,
Gullar unsin bosib o'tgan joyingdan.
Chechang uchun yuribsanmi sargardon,
Yoki ayrildingmi, bolam, toyingdan?

Eli-yurti ardoqlaydi g'olibdi,
G'olib o'z xalqining dardin bilibdi.
Yoki ayrildingmi, bolam, toyingdan,
Gulday ranging xazondayin so'libdi?!

Alqissa, Go'ro'g'li bu gaplarni eshitib, yuragi to'lib, bobosining qoshiga kelib, bir-ikki so'z aytib turibdi:

Oq badanga abdal nayza suqildi,
Inraganda ko'zdan yoshlar to'kildi.

Yetim boshim yerga sig'mas bobojon,
Shu sababdan qaddim yoyday bukildi.

Oh bilan voh chiqar chertsam torimdan,
Orqam yo'qdir, qarg'a qo'rqmas qahrimdan.
Shu sababdan qaddim yoyday bukildi,
Ayrildim bobojon, harna borimdan.

Bu falak jabrini menga ko'p qildi,
Boz ustiga Rayhon arab xo'p qildi.
Checham desam ko'zda yoshim to'kilar,
Oriyati bobo meni cho'p qildi.

Tog'larning orasi qildim joyimni,
Kim tinglaydi mening ohu-voyimni.
Oriyati men sho'rlini cho'p qildi,
Boz ustiga men oldirdim toyimni.

Tog'u dashtga qochdim turkman elimdan,
Naylayin ayrilib oyoq-qo'limdan.
Boz ustiga olg'irimdan ayrildim,
O'ylay-o'ylay g'amda qoldim bobojon.

Xudo qisgan o'zim yetim bolaman,
Yetimlikda buncha g'amga to'laman.
O'ylay-o'ylay g'amda qoldim bobojon.
Tog'am kelsa nima javob qilaman?

Charxi falak meni chalib boradi,
Damba-dam aqlimni olib boradi.
Tog'am kelsa nima javob qilaman,
Zardobga yuragim to'lib boradi.

Baxt deb kirdim, g'am eshigi ochildi,
Odamga o'xshatib bo'lmaydi Childi,
Niyatlarim Asqar tovcha bor edi,
Tariqday tirqirab ko'lga sochildi.

Silaganim yobi bo'lmas tulpor ot,
Maqtaganman nomard bo'lmas aslo mard.
Niyatlarim tariqdayin sochildi,
Bobom bo'lsang bukun bergin maslahat.

Qambar bobosi bu so'zlarni eshitib, eshagidan tushib, Go'ro'g'lining qoshiga kelib: "Xafa bo'lma, Go'ro'g'li", — deb kulib, iyniga qoqib so'radi: "Go'ro'g'li, mening aytganimni qilmadingmi, nuqtani ushlab yotmadingmi, bir-ikki odam ko'rsang qoch, deb kesak otmadingmi? Xur-xurlab uyquni urguncha, gandraklab yurmadingmi, toyingni qaytib oldirding, kimga berding?", — dedi. Shunda Go'ro'g'li: "Ey Qambar bobo, siz aytgandan keyin nuqtani qo'ymadim, to'qqiz oy, yana to'qqiz kun uyqu nima bilmadim. To'qqizinchil kun saharga yetdi, mendan ham gunoh o'tdi, g'aflat uyqu ta'sir etdi. Qanday bo'ldi, bilmadim, ko'zimni ochdim, biyaning nuqtasi yerda yotibdi, o'zi ketibdi. Joyimdan turib biyani qarab bir tuba oshib edim, qamish ichidan kishnagan tovushi keldi. Yugurib bordim, borsam o'ttiz-qirq odam biyani aylanib turibdi, biyaning qorni yorilib ketibdi, quluni olpong-tolpong turayapti. Haligi odamlar qulunning og'ziga bir narsa tutayapti, tutganini qulun yutayapti. Shunda siz aytgan gap esimga kelib, qulunning qoshiga yugurib yetib, sag'risini uch marta siladim, shu vaqt odamlar joyidan turib, qulunimni birovi ko'tarib ketaberdi, harchand ber dedim bermadi, nima deyapsan demadi, tortib olgani kuchim yetmadi, bir pasda hammasi har yoqqa qarab ketaberdi, ketgani ketganday yitaberdi. Shundan buyon qulunimni qarayman, sizni tushimda ko'raman, o'ngimda ko'rmay yuraman, mana to'rt yilga yaqinlashayapti. Endi nima qilaman, qayerdan topib olaman. Siz ham biror maslahat bermasangiz, dunyoda yurib ham nima qilaman", — deb Go'ro'g'li ko'ziga yosh olaberdi. Shunda bobosi Go'ro'g'lga qarab, manglayini silab, yo'lday uzun umr tilab bir so'z aytib turibdi:

Topsang yegin, shukur qilgin kam dema,
Bir gapning mag'zini bilmay xom dema.
Salomatlik bilsang katta davlatdir,
Boshing eson, bu ishlarga g'am yema.

Mehnat bilan topgan noning qilar mas(t),
Kishi noni yuqmas bilsang bir nafas.

Boshing eson, davlatiningni kam dema,
Xizmat qilgan rohat ko'rmagan emas.

Bir yo'qlikning bir kun to'qligi bo'lar,
Bir g'amlikning bir kun shodligi bo'lar.
Xizmat qilgan rohat ko'rmagan emas,
Gadolikning bir kun bekligi bo'lar.

Bu dunyong bolam toshu-tarozi,
Nasib qilsin bo'lmas molning ko'p-ozu.
Gadolikning bir kun bekligi bordir,
Xizmat qilgan bo'lmagan hech berozi.

Botirlar maydonda qalqon yopilar,
Yaxshi bedov olis yo'lga chopilar.

Xizmat qilgan bo'lmagan hech berozi,
Xizmat qibsan tulpor oting topilar.

Nomardga bermagan bo'lsa noringni,
Boy bo'lay deb saqlamagan zoringni.
Xizmat qibsan tulpor oting topilar,
O'ksinma, olarsan, nomus-oringni.

Bo'lmagan yaxshidir nomard bo'lguncha,
Qor yoqqani yaxshi tuman chalguncha.
O'ksinma, olarsan, nomus-oringni,
Bari jam bo'ladi tog'ang kelguncha.

Iziga qaytmaydi bolam otgan o'q,
Yomon kunda men bo'layin ko'ngil to'q.
Bari jam bo'ladi tog'ang kelguncha,
Aytgan gapim hali yolg'on bo'lgan yo'q.

Birov qo'ychi bo'lsa, birovdir bog'li,
Sabab bilan yiqiladi sher o'g'li.
Aytgan gapim hali yolg'on bo'lgan yo'q,
Zinhor qilma manmanlikni, Go'ro'g'li.

Go'dak yiqilganda chiqadi ohim,
Yer zilzila bo'lsa bosadi vahim.
Zinhor qilma manmanlikni, Go'ro'g'li,
Yo'lday uzun umr bersin xudoyim.

Alqissa, Qambar bobo shu gaplarni aytib, kissasini ochib, ichidan ikkita oppoq qushning patiday patni qo'lga olib, Go'ro'g'lga tutdi: "Ma, Go'ro'g'li bu patlarni ol, avaylab yo'qolmaydigan qilib kissangga sol, razm solib patlarga qara, bittasining hamma tomoni oq. Shu patni qo'lingga olib, yuzingga surtsang qanday mo'ysafidni istasang shunday mo'ysafid bo'lasan. Mana bu patning uch tomoni qizilroq, bu patni yuzingga surtsang o'zing xohlagan yoshning tusiga kirasan. Hali bu patlar senga ko'p kerak bo'ladi, aql bilan ishlatish o'zingga bog'liq. Xudo nasib qilgan bo'lsa, toyingni ham shu atrofda toparsan, mening ishim ko'p, omon bo'li!", — deb eshagini minib yo'rg'alatib qo'yaberdi. Go'ro'g'li o'zini o'ngarib, toyni qayerdan topaman deguncha bir-ikki tubadan oshib ketaberdi. Go'ro'g'li noiloj joyida nima qilarini bilmay turib edi, haligi patlar esiga kelib, kel shularni bir sinab ko'rayin, aldagan-aldamaganini bilayin, deb buloqning qoshiga chopib bordi, suvda aksini ko'rdi, patlarni qo'lga oldi: "Men Ahmad tog'am bo'layin", — deb yuziga surtib suvga qaradi, bir seskanib ketdi. Ko'rdi Ahmadning o'zi bo'пти. Berdiyori bo'layin, deb bunisini surtib qaradi, Berdiyori bo'пти. Go'ro'g'li patlarni surtib, otini ham unutib, kula-kula kech tushganini bilmay qoldi, qarasa kech bo'lib ketibdi, to'vning bu betida gurillab olov yonayotir. Go'ro'g'li aytdi: "Bu olov cho'ponlarning olovi bo'lsa kerak, shu olovga borayin, o'zimni eshon tabiat

mo'ysafid qilayin, cho'ponlar mo'ysafid ekan, deb mehmon qilsa, go'shtdan to'yayin, izzat-hurmat qilabersa besh-olti kun yurayin deb patni yuziga surtib mo'ysafid bo'lib boraverdi. "Yaqinda ko'ringan olovdan kelisda hurgan it yaxshi", deganday ana yetdim, mana yetdim, deb yo'l yurib yarim kechada yetib bordi. Asta mo'ralab qaradi, ko'rdi ko'p mo'ysafid bari birday, soqol yuzlari oppoq qorday, har biri misoli norday, oldiga to'rtta shamni yoqib, dasturxonlarni yozib, bor taomlarni dasturxon ustiga qo'yib, bir-biriga oling-oling qilib, bir-biriga izzatu-ikrom bilan choy suzib turibdi. Shunda bittasi joyidan turib, ikki qo'lini qovushtirib: "Ijzat bo'lsa, menda bir arz bor", – dedi, "Ayting-ayting" – deyishdi o'tirganlar. Shunda turgan odam: "Ey azizlar, ey g'ulmonlar, yaxshiga madad, yomonga kasod bergan anbiyolar. Kelinglar, bu dunyoning g'amu-alamlarini bir daqiqa unutaylik, bir tahorat qilib, obi-kavsarning suvidan bir-bir kosa ichaylik, odamlar, begunoh o'lgan go'daklar, bolali otigan hayvonlar, jabr ko'rgan qurtu-qumursqalarning ohiga to'lgan yuraklarni bir damgina bo'shataylik, ofatu-kulfatdan omon qolgan, murodu maqsadiga yetganlarning shodligiga qo'shilaylik, ularning niyatlariga omad tilaylik", – dedi. Bu gap hammasiga ma'qul tushdi chog'i, hammasi joyidan turib bitta-bittadan jomni olib, tahorat qilabardi, tahorat qilgani to'shamchi ustiga kelib o'tirabardi.

Go'ro'g'li ham joyidan turib, nima bo'lsa bo'ldi, deb ularga qo'shilib, ular nima qilsa shuni qilib, g'ursayib to'shamchiga o'tirabardi. Chiroqning yorug'ida qaradi, ko'rdi shu toyni Go'ro'g'lidan olib qochgan odamlar. Go'ro'g'li bularni tanib, nima deyarini bilmay: "Kel, sabrning tagi sariq oltin deganday, sabr qilib turaychi, izi nima bo'lar ekan" – deb turabardi. Bittasi bir meshni olib keldi, og'zini ochdi, qirqa kosani oldiga qo'yib, "Bismilloh" deb qo'yabardi, kosalar to'ldi. Birin-ketin uzatayotib edi, biriga yetmay qoldi. Shunda: "Hoy taqsiqlar, men yanglishdim" – deb yana bir kosani olib quydi. Hammasi barobar kosani olib: "Bismilloh, elga omonlik bo'lsin!" – deb suvni shimirishdi.

Go'ro'g'li ichgan zahoti tani yayrab, kulgu ustiga kulgusi kelabardi, bersa yana olasolib ichgusi kelabardi. Yana birgina quysa ekan, deb termulabardi. Shunda quygan odam kosalarini olabardi. Hamma berib bo'ldi.

Shu vaqt quygan odam: "Ey azizlar, men hayron bo'ldim, oldin yanglishdim degan edim. Yo'q, yanglishmagan ekanman, kosalar qirq bitta, ichimizda qanday begona odam bor?", – dedi.

Hammasi durillashib, bir-biriga qarashib, begona odam kim? – deyishabardi. Go'ro'g'li indamay turabardi.

Shunda bittasi: "Hoy begona odam, o'zing chiqqin, biz sening murodingni beramiz!" – dedi. Go'ro'g'li chetga chiqib, ta'zim qilib turabardi. Shunda bittasi:

– Sen kimsan?, – dedi.

– Men odamman, mehmonman, – dedi Go'ro'g'li.

– Qachon kelgan eding? – dedi.

– Ancha bo'ldi, – dedi.

– Sen ham bizga mehmon bo'lding, so'zimizni eshitding, balki bizning birimiz bo'lding, endi tila-tilagingni, – deyishdi.

– Men sizlardan hech narsa so'ramayman, – dedi Go'ro'g'li, – faqat bir iltimosim bor. Mening toyimni qaytarib bersangizlar bo'lgani, – dedi.

– Sening oting nima, mo'ysafid bo'libsan otni nima qilasan?, – deyishdi.

–Mening otim Go'ro'g'li, hali yoshman, mana yoshligimni ham ko'ring, – deb parni surib edi, asliga keldi.

Shunda o'tirganlar: "Qambar bobong senga qarashibdi, bizning aqlimiz adashibdi. Bizdan nima so'rasang so'ra, lekin G'irotni so'rama", – deb ikki og'iz aytib turibdi:

Ey Go'ro'g'li, bu gaplarga quloq sol,
So'ramagin bizdan aslo G'irotni.
Olay desang Asqardayin oltin ol,
Boshqa so'ra, so'ramagin G'irotni.

Qarchig'ay qush bu jahonni kezadi,
Burgutning panjidan qonlar sizadi,
Shul G'iroting shaharlarni buzadi,
Davlat so'ra, so'ramagin G'irotni.

Qahri kelsa Qoratovdan o'tadi,
Sakrashdan yerga zarba yetadi,
Ne hayvonlar armon bilan o'tadi,
Farzand so'ra, so'ramagin G'irotni.

Ot o'tolmas bosib ketgan izidan,
Jodu bilan qutilolmas ko'zidan,
Izlaganin topar yerning yuzidan,
Dilband so'ra, so'ramagin G'irotni.
Asta yursa qoldiradi tozini,
Chopsa changi tutar ko'kning yuzini,
Devu pari qochar ko'rsa izini,
Avlod so'ra, so'ramagin G'irotni.

Urush kunda qilichdan qon sizilar,
Bo'ston joylar cho'lday bo'lib buzilar,
Necha gunohsizlar boshi kesilar,
Beklik so'ra, so'ramagin G'irotni.

Bir yomonga yaxshi o'lar qo'shilib,
Enalar bolam, deb ko'ksi teshilib,
Ayollar to'ramlar sochi eshilib,
Sherlik so'ra, so'ramagin G'irotni.

Odamzodga hech ayriliq bo'lmasin,
Gul kesilib tana yerda qolmasin,
Ne nodonlar yetim bo'lib qolmasin,
Shohlik so'ra, so'ramagin G'irotni.

Archa kesilganda tana chiriydi,

Tomiri qirqilsa bargi quriydi,
Yetim yig'laganda yerlar eriydi,
Borliq so'ra, so'ramagin G'irotni.

Ey Go'ro'g'li, so'ra bizdan boshqa ot,
Polvonlik qil, Asqartovni yulib yot,
Xalqqa yetmasmidi shuncha ohu-dod,
Boylik so'ra, so'ramagin G'irotni.

O'lim qursin, bevaqt o'lim yomona,
Inson-insonni yeb borar hamona,
Sen ham solma elga oxir zamona,
Sho'xlik so'ra, so'ramagin G'irotni.

Ne desang maqsading bizlar berayik,
Ketguningcha senman birga bo'layik,
Mingni so'ra, ming bir hozir qilayik,
To'qlik so'ra, so'ramagin G'irotni.

Hay attangga, bilmay qildik biz mehmon,
Mehmon ulug' bo'lar ekan otangdan,
Ming pushaymon bo'lar kichik xatongdan,
Umr so'ra, so'ramagin G'irotni.

Alqissa, Go'ro'g'li bu gaplarni eshitib, bola emasmi ko'ngli toshib, so'zlarning farqiga goh tushunmay, goh tushunib, qo'lini bir-biriga qo'shib, so'ra desang men so'rayin G'irotni, deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Bobojonlar eshit aytgan so'zimni,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.
To'rt yil yerga solib yurdim izimni,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.

Yig'lay-yig'lay qumlar to'ldi ko'zima,
Qumlar uya qurdi bosgan izima,
Yuvsu ketmas dog'lar tushgan yuzima,
Xudo nasib qilgan ekan o'zima,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.

Yetim o'sdim, elda yo'qdir izzatim,
Kuyarmidi to'qqiz oylik xizmatim,
Molim boshi G'irotni mening davlatim,
Davlatim ketgansan qolmas quvvatim,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.

Bemavrid otgali mening toshim yo'q,
O'ylamay qilgali tentak boshim yo'q,
Shu Rayhondan boshqa joyda tishim yo'q,
Tiyinmagan odam bilan ishim yo'q,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.

O'zim yetim, men bilaman xo'rlikni,
Ko'ylak ishton qilib kiydim terlikni,
Boshimdan o'tkazdim xoru-zorlikni,
Men qilmasman odamzodga zo'rlikni,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.

Rayhon bilan urush bo'lsa bir maydon,
Urishish kun kim yaxshi-yu, kim yomon,
Qolsa g'oziy, o'lsa oxiri zamon,
Qochib qutulolmas to'lganda paymon,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.

Odam bo'lib otni chopsam har yona,
Yordam so'ray yo'lda ko'rsam devona,
Yetim ko'rsam bo'lay unga parvona,
Otni bermay qilma ko'nglim vayrona,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.

Yolg'iz boshga hech tushmasin malomat,
Kim ham bo'lsa avval bo'lsin salomat,
Tushmasin birovga vahmu qiyomat,

Mehnatimga qilingizlar adolat,
So'ra desang, men so'rayman G'irotni.

Bu gapni o'tirganlar eshitib, Go'ro'g'liga qarab: "Hoy Go'ro'g'li, sen gapimizga ko'nmading, boshqa narsani so'rab olmading. Biz senga ma G'irotni demaymiz, ot seniki bo'lsa o'zing tanib olarsan, taniy olmasang qo'yarsan, u yog'ini o'zing bilarsan", – deyishdi. Shunda Go'ro'g'li aytdi: "Mayli, gaplaringizga ko'nayin, ololsam olayin, ololmasam taqdirimdan ko'rayin. Otlar ko'p bo'lsa ruxsat qilingizlar, uch marta qo'riq tashlab ko'rayin", – dedi. Hammasi joyidan gurillab turib, pastlab Dashnani qabog'iga kelishdi. Bittasi qo'lga surnayini olib chalaboshladi, Dashnani qabog'idan berman taylab sap bir do'nan otlar kishnab kelaberd, kelgani kelganday qaboqning ichiga kiraberd. Go'ro'g'li qaradi, endi hayron qoladi, hammasi birday, baland-pasti yo'q. Hammasi temir ko'k, hammasi xoldor, dutor bo'yin yoldor, birovining qayerida belgisi bo'lsa, hammasining shunday belgisi bor. Buni ko'rib Go'ro'g'li hayron bo'lib, yuragi to'lib, bosh barmog'ini ovziga solib, mustar bo'lib turib edi, shunda haligi odamlardan biri Go'ro'g'lining qoshiga kelib, qo'lga qo'riq

berib: "Ey Go'ro'g'li, nega tikilib qaraysan, moling o'zingniki bo'lsa kimdan so'raysan, ma, qo'riqni ol, tanib molingning bo'yniga sol, taniy olmasang quri(q) qol", – dedi. Go'ro'g'li qo'liga qo'riqni olib, qo'riqning tuzog'ini keng qilib, o'pkasi to'lib, ko'ziga yosh olib, otlarning ichidan G'irotni chaqirib qo'riqni aylantirib: "Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni, shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat", – deb chaqirib turibdi:

Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni,
Kokillaring men qilayin ziyorat,
Ustingga minmayin, qilmay tahorat,
Halol moling o'zing qilgin adolat,
Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Sen kelmasang men qilarman ohu-dod.

Qurey deyman, qurey deyman, jon G'irotni,
Manglayingdan tavob qilay bedov ot,
Archaday yonmasin to'qqiz oy xizmat,
Bergan tuzim o'zing aylagil hurmat,
Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Menday sag'ir bu kun bo'lsin salomat.

Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni,
Ko'zga surtay, yolingda bor xosiyat,
Enang bilan emchakdoshman qil izzat,
Og'am deb yopayin ustingga banot,
Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Sen kelmasang men sho'rliqiga qiyomat.

Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni,
Sag'ringni silagan topadi murod,
Ikki ko'zing yo'q narsadan o'qir xat,
Shunday kunda men deb o'zingni ko'rsat,
Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Sen kelmasang meni jahannamga sot.

Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni,
O'mganing silagan ko'radi farzand,
Sen bo'lasan menday sho'rga bosh davlat,
Men yolg'izga o'zing kelib bo'l qanot,
Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Gar kelmasang manglayimga toshni ot.

Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni,
Oyog'ing silasa ko'payar avlod,
Och xalqingga topib bergin sen ovqat,
G'arib elga bo'lgin kelib zo'r savlat,

Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Sen kelmasang o'lgani shu menday mard.

Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni,
Izingni iskagan bo'lar salomat,
Boshimga solmagin adadsiz g'uribat,
Emchakdoshim senda borku farosat,
Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Gar kelmasang Go'ro'g'lini o'zing ot.

Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni,
Ming yil yashar seni qilgan odam yod,
Men sho'rli(k)ni kuydirmagin xonazot,
Sendan boshqa menda yo'qdir tuxum zot,
Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Sen kelmasang o'ldiradi oriyat.

Qurey deyman, qurey deyman, dal G'irotni,
Shul qo'riqqa kelib bo'yningni uzat.
Shul Go'ro'g'li bu gaplarni aytadi,
Kuygan qulda yig'lamayin qaytadi,
Yurak davob otolmaydi qo'riqni,
Qo'rig'iga cho'bir tushsa qaytadi?!

Ikki ko'zi yoshga to'lib qaradi,
Taniy olmay nima iloj qiladi,
G'irotni, deb ingranadi Go'ro'g'li,
Xo'rsinganda tovlar tutab boradi.

Ko'zdan oqqan yoshi toshlarni tilib,
G'irotni deydi qo'riqiga ip ilib,
Emchakdosh deb ingraydi Go'ro'g'li,
Yurak bag'ri chiqquday bo'b otilib.

Yosh bolaning yomon ekan nolasi,
Erib borar baland tog'ning qal'asi.
Ot ichidan o'qranib jo'nadi,
Emchakdoshi tarlon biya bolasi.

Bir bo'ladi tog'ning oldi sirtima,
Bari channor unga javr ortima,
O'qranib jo'nayverdi jonivor,
Bu kun Go'ro'g'lining mehri torttima?

Sel kelganda siqar soyning toshini,
Yerni teshar tushsa ko'kning yashini,
Xolsirab keb Go'ro'g'lining qoshiga
Quy solib egib turdi boshini.

Yosh Go'ro'g'li buni fahm qilmadi,
Ko'rganida yo nazarga ilmadi.
Kel G'iro't, deb aylantirar qo'riqdi,
Kelib turgan jonivorni bilmadi.

Shul Go'ro'g'li yuragini dog'ladi,
Qo'riq otib qaysi otni chog'ladi.
Qo'riqqa o'zini otdi jonivor,
O'z boshini o'zi solib bog'ladi.

Hech jonzodning bo'lmasinda armoni,
Bir-biriga qo'sholmaysan yormani.
Suyinib to'kildi tulporning yoshi,
Qalch-qalchlab badani, qolmay darmoni.

Orqasi bor odam bo'lar yarog'li,
Orqa yo'qning qilgan ishi so'rog'li.
Egasini topib keldi jonivor,
Tanimadi o'z molini Go'ro'g'li.

Ko'rgan qoyil vafodorning ishiga,
Ipni solib turaberd boshiga.
Hayvon bildi, hoy betavfiq bilmadi,
Qaramadi ko'zdan oqqan yoshiga.

Mard yigitning mard bo'lsin keynidan,
Mardi yo'qning yara tushar iynidan.
G'iro't bildi, shul betovfiq bilmadi,
Tushgan ipni olaberd bo'ynidan.

Alqissa, Go'ro'g'li qaradi, qo'riqqa tushgan otga ko'ngli to'lmay boradi. Boshqa otlar semiz, bu ori, boshqalari katta, bu kichik, boshqa otlar o'ynoqlab yulduzga yetguday bo'layotir, buning oyoqlari bir-biriga chalishib ketayotir. Go'ro'g'li hayron bo'lib, ko'ngli vayron bo'lib, ichida: "Hay attangga, hayvon hayvonligini qilar ekanda, shuncha gapga erimadi, egasini bilmadi, og'am deb qoshima kelmadi, qo'riqqa bo'ynini solmadi, aytgan gaplarni olmadi", – deb o'ylanib turib edi, haligi odamlardan biri:

– Qani, Go'ro'g'li bo'ldingmi, shu xarishni oldingmi?, – dedi.

– Hali ikki marta qo'riq tashlashim bor, bu otni olmayman, bu meniki emas, – deb qo'riqning ipini otning bo'ynidan oldi, otlarni qayta boshdan uyurib, "Yo G'iro'tim, qo'riq senga tushsin", – deb otdi.

Otlar olag'o'yin bo'b ketdi, ip bir otning bo'yniga tushdi. Go'ro'g'li ipni tortib qaradi, qarab esi ketib boradi, oldingi ushlangan ot yerga mustar bo'lib turibdi. Go'ro'g'lining achchig'i keldi, ipni qaytarib oldi, uchinchi marta qo'riqni qo'lga olib, qo'yib yuborgan otni bu yoqda qoldirib, boshqa tomonga "Yo nasibam", deb qo'riq otdi. Ipni tortdi, birdan buvini bo'shab ketdi, oldingi ilingan otga yana ko'zi tushdi. "Bul orqamda qolib edi, qayerdan keldi", – deb hayron bo'lib turib edi, odamlardan biri kelib: "Go'ro'g'li bu ot senga yoqmadimi, kel o'zimiz senga yaxshisini ushlab beraylik", – degan edi, Go'ro'g'li ipni tortib, otning qoshiga borib, kokilidan tavob qilib: "Ey bobolar, men o'z nasibamga qoyil qoldim, yurmasa-da shuni oldim, nima bo'lsam bo'ldim, mardning gapi bir bo'lar, ikki bo'lmas, sizlar qo'riq tashlaganda ham shul yomondan boshqasi tushmas", – deb yetalab ketaberd. "Hoy Go'ro'g'li, – dedi turganlar, – senga chini bilan xudo bergan ekan, jonivor G'iro'ting ham gapingga tushungan ekan, jonivor mehrini senga qo'yan ekan, uch marta ham o'zi bo'ynini ipga soldi, men G'iro'tman deb turdi, sen bilmading, nazaringga ilmading, lekin armon bilan sen ham bir gapingda turding, to'rtinchi marta to'riq solganingda G'iro't nasib qilmas edi. Xudo sevmas quliga, topilmaydi puliga, xudo sevgan quliga, eltib berar yo'lga, deganday bo'ldi, nasib qilgan ekan endi nasib qilsin, jonivorning vafodorligi bizni ham ezib yubordi, ko'ngilni buzib yubordi. To'xta, otning egar-jabdug'ini ol, G'iro'tning ustiga sol", – deyishdi.

Bu gapni eshitib Go'ro'g'lining yuragi toshib G'iro'tning yuzi-ko'zidan o'paberd, sag'rilarni silayberdi, o'zini harchand bosaman deydi, bosolmay, suyiganidan xo'rsinib yig'layberdi. Jonivor G'iro't ham og'asini ko'rganday ko'kraklaridan iskayberdi. Shunda o'tirganlardan bittasi "Ma, Go'ro'g'li", – deb otning egar-jabdug'ini berdi. Go'ro'g'li: "Bismilloh", – deb otning ustiga soldi, ayil-po'shtanini tortdi. Shunda yana bittasi: "Ma, Go'ro'g'li", dedi. Go'ro'g'li qarasa, qimmatbaho kiyimlar bilan urush anjomlari. Go'ro'g'li G'iro'tni sozlab, yakka jilov qilib, boylab bobolar bergan buyumlarni kiydi. Shu vaqt yana biri: "Kel Go'ro'g'li, endi bu yerda o'ttirib gaplarga quloq sol, barini tinglab ol", – dedi. Bobolardan biri gap boshladi:

Tiriklikda bilgin davri-davronsan,
Oqibatda bir jonzodga makonsan,
Bu jahonda sanog'i yo'q insonsan,
Shuni bilgin, bir-biringga mehmonsan.

Yana biri: 2 Bug'doyga qaragin o'rtasi tilik,
Chiroqni yondirib bo'lmas bepilik.
Ming yil qilgan ibodatdan yaxshidir,
Qila olsang bu dunyoda yaxshilik.

Yana biri: 3 Yomonning kasodi tyegar har joyda,
Yaxshining yordami tegar tang joyda.

Yomonning makoni doim tor bo'lar,
Yaxshining makoni bordir har joyda.

Yana biri: 4 Xudoyim beribdi insonga kalom,
Bemavrid ish qilib tortmagin alam.
Yaxshi ham yomon shundan bilinar,
Kim bo'lsa oldidan o'tma besalom.

Yana biri: 5 Hech vaqt teng bo'lmas oltin bilan zar,
Bilaman demagin, bilimdonlar bor.
Odamzod odamdan o'rganar doim,
Mo'ysafid gapini bo'lmagin zinhor.

Yana biri: 6 G'iybat ko'p yomondir yurakni dog'lar,
To'g'rilik yaxshidir dillarni bog'lar.
Qilmasin odamzod aslo manmanlik,
Manmanlik qilganning makoni yig'lar.

Yana biri: 7 Bir gap bilan buzilar shoh qal'asi,
Ingranib chiqadi go'dak nolasi.
O't balosi, suv balosi yomondir,
Undan yomon bilgin tuhmat balosi.

Yana biri: 8 Birovning bir kunda qilgan ishini,
Birov qilolmaydi yashab yoshini.
Birov bir kuniga ming yil yashaydi,
Birov ming kunda ham olmas hushini.

Yana biri: 9 Yigit dili ochiladi vafodan,
Bo'ydoq yurgan yaxshi jabru-jafodan.
Yaxshi xotin tengsiz shahri azimdir,
Yomon xotin yomon teshik kapadan.

Yana biri: 10 Har kim g'ubor topar osmonda oydan,
Birov kalta, birov ortiqdir bo'ydan.
Mardni nomard qilar bilgin hamsoya,
Bilmay imoratni qurma har joydan.

Yana biri: 11 Erib-erib ado bo'lar buktar qor,
Bir yilda bir marta keladi bahor.
Yigitlikni bilgin toshqin daryodir,
Suvini toshloqqa burmagin zinhor.

Yana biri: 12 Moli dunyong berolmaydi savlatdi,
Odamzodning suyanchig'i farzandi,

Ham belning quvvati, ham ko'zning nuri,
Har bittasi ado bo'lmas davlatdi.

Yana biri: 13 Nor tuyaning nori bo'lsa toyama,
Oq narsani qizil qilib bo'yama.
Mard yigitga mingta do'st ham kam bo'lar,
Do'stdan aslo bor narsangni ayama.

Yana biri: 14 Mensimaslik keltiradi adovat,
Yig'olmagan qilolmaydi saxovat.
Gadoni ko'rganda kulmagin zinhor,
Bolani ko'rsangda aylagin hurmat.

Yana biri: 15 Bedovga mindingmi tushasan shunday,
El bilan bir bo'lsang kechang ham kunday.
Amalga minganda chiqma osmonga,
Osmondan tushguncha bo'lasan qumday.

Yana biri: 16 Birovning molini olma omonat,
Xizmating o'zingga bo'ladi tuhmat.
Kishining kiyimi turmas ustingda,
Odamsan, odamga qilma xiyonat.

Yana biri: 17 Bir daraxt ustida har xil olma bor,
Yeb ko'rsang barining ta'mi barobar.
Birov ro'zg'orini buzmayin, tuzsang,
Ikki dunyoda ham bo'lmagaysan xor.

Yana biri: 18 Nafsingdan keladi vahmi qiyomat,
Yeyolmay ketganlar kimga qilar dod.
Tuproqdan boshqaga to'yimas bu ko'zlar,
Insof ham odamga katta bir ziynat.

Yana biri: 19 Donishmand bo'lsa ham bo'lar xatosi,
Ishlagan bo'lmaydi yo'qlik gadosi.
Molni der qo'l kiri, goh kelib, ketar,
Odamzod bo'lmasin farzand gadosi.

Yana biri: 20 Osmonga tosh otsang boshingga tushar,
O'limtik qushni ko'r mosliqni tishlar.
Bir mardning keytidan kulib kamsitma,
Qo'lingdan kelarmi u qilgan ishlar.

Yana biri: 21 Odamdan odamga kelar xavf-xatar,
Sut bilan kirgan so'z jon bilan ketar.

- G'iybatchi insonni qo'shma odamga,
Ul murdor zaharli ilondan battar.
- Yana biri: 22 O'tgan kun qaytmaydi, bu shunday zamon,
Ko'z ochib yumguncha o'tadi davron.
Ahmoqlar bir-birin aslo ko'rolmas,
Odamzod odamni yiqitar hamon.
- Yana biri: 23 Hayvonni hayvon deb bilmoqlik darkor,
Odamzod ichida hayvon sifat bor.
Aqili bo'lmagan ahmoq do'stingdan
Qamchilab ursang-da, iting vafodor.
- Yana biri: 24 Mard odam shul gapni aytsa yuziga,
Yo'lbars yurib hech qaytmagan iziga.
Gapga uchish bilgin ko'rlik belgisi,
Ko'zi borlar uchmas biron so'ziga.
- Yana biri: 25 Ota bilan yashar ushbu bashorat,
Farzand uchun ota oltin imorat.
Yomon bo'lsa hamki ota ulug'dir,
Ketgan bo'lsa qil qabrini ziyorat.
- Yana biri: 26 Ona ko'rsatadi jahon yuzini,
Oltin bit har bir aytgan so'zini.
Birisi oy bo'lsa, biridir quyosh,
Tavob ayla bosib ketgan izini.
- Yana biri: 27 Odamzodga bergan xudo ko'zu qosh,
O'ylab gapir deb beribdi yana bosh.
Yolg'iz otning nomi chiqmas hech qachon,
Har joydan orttirgin oshno-qarindosh.
- Yana biri: 28 Ko'rmayin bir ishning bo'lma shaydosi,
Katta bilgin bo'lsa dushman maydasi.
Balodan qutul deb bergan yolg'onni,
Boshqaga yolg'onning yo'qdir foydasi.
- Yana biri: 29 Tavob qilgin o'ynab o'sgan yeringni,
O'z xalqingga to'kkil manglay teringni.
Har narsadan musofirlik yomondir,
O'zga elda do'stga aytma siringni.
- Yana biri: 30 Oldi-berdi bog'lamasin yo'lingni,
Bo'ydoq bilmas ro'zg'oringni, holingni.

- Ochdan o'lsang olma qarz yomondir,
Qarz bersang, ber deb aytma molingni.
- Yana biri: 31 Odamzodda ado bo'lmas xislat bor,
Bilsa zardir, bilmagansan xoru-zor.
Shirin ham til, achchiq ham til bilib ol,
Til bilan toshni ham eritsa bo'lar.
- Yana biri: 32 Shohlikda bo'ladi behisob davlat,
Davlati qaytgansan beshik saltanat.
O'z xalqi, o'z eli davlat misoli,
Agar qila olsa yurtida adolat.
- Yana biri: 33 Fe'li tor odamga dunyo ham tor,
Donolar oladi g'oyibdan xabar.
Podsholar shoshmaydi hukm aytishda,
Gunohsiz bechora bo'lmas gunohkor.
- Yana biri: 34 Abadiy turmaydi jonzodning joni,
G'arazgo'y bo'lmoqlik o'zi bema'ni.
Podsholar podshoga qadimdan dushman,
Dushmanni do'st qilar aql sultoni.
- Yana biri: 35 Bir elga urushni qilma ixtiyor,
O'lganlar qoniga bo'larsan xudor.
Yurtingga kelganni aslo ayama,
O'zi qilgan ishga o'zi javobgar.
- Yana biri: 36 Yaxshidan, yomondan birday nom qolar,
Har kim qilganicha haqini olar.
Yomonga la'natdir, yaxshiga rahmat,
Yaxshini bu olam ardoqlab kelar.
- Yana biri: 37 Bog'bonning ustasi guldin bilinar,
Shohlikning shavkati yo'ldan bilinar.
Odamzod bir daraxt ekib ketsa ham,
Qalbining pokligi shundan bilinar.
- Yana biri: 38 Bilimi bor joyning bo'lar olimi,
Olimi bor joyning bo'lar ta'limi.
Tartib ham, odob ham shundan bilinar,
Bulari yo'q joyning ko'pdir zolimi.
- Yana biri: 39 Ikki nafs odamda bo'lmaydi barbod,
Kimlardir bundan shod, kimlar qilur dod.

Bu nafs balosiga qo'yma o'zingni,
Azaldan to'ymagan, to'ymas odamzod.

Yana biri: 40 Urush ko'rmaganning elati to'qdir,
Insonlar shodligini berish zo'r baxtdir.
Osmonda yulduzga qara hisobsiz,
Hay attang, bir oycha yorug'i yo'qdir.

Alqissa, o'tirganlarning biri: "Hoy Go'ro'g'li, mana qirqimiz qirq gap aytdik, bu gaplarni yolg'on bilma, bolalik qilma, bizni o'zingga dushman bilma, yolg'on aytayapti dema, biz G'irotni senga bermay turganimizning boisi bor. G'irotni lochini quvsa yetadi, qochsa qutuladi, qo'ltig'ida qat-qat qanoti bor, yomon kunda uchadi, shamoli to'vni kesadi, olti oylik yo'ldan falokatni sezadi, olti oyda keladigan baloni biladi. Biz buni senga bersak manmanlik qiladi, ko'p shaharlarni vayron qiladi, bolalar otasiz qoladi, ohi bizni uradi, deb berolmay turdik. Senga nasib qilgan ekan, nailoj. Mana G'irotni olding, biz senga qirq gapni aytdik, buni yodingdan chiqarma, o'zga ellarni vayron qilma, bolalarni yetim qilma, g'ariblar ko'nglini ko'tar, yerga urma, yaxshilik bilan ish qilsang biz ham senga hamrohimiz, yomonlikni ixtiyor etsang qo'limiz yoqangdadir. Endi sening ham yurakda bo'ladigan tilaging bordir, bizlardan tila tilagingni", – dedi. Go'ro'g'li aytdi:

– Mening yurakda bir armonim shu G'irotni edi, buni oldim, boshqa nimayam so'ray sizlardan?

– Uni biz bermadik, o'zing topib olding. Bizlardan ot so'ra yoki zot so'ra, – dedi biri.

Go'ro'g'li ichida aytdi:

– Bular yana aynib qolmasin, otimni tortib olmasin, yana sarson qilib, meni yig'latib yurmasin, – deb aytdi.

– Ey otaxonlar, menga hech narsa kerak emas, so'ra desanglar ot so'rayman, – dedi.

– Ey Go'ro'g'li, – deyishdi boboylar, – o'ylab gapir, ot kerakmi, zot kerakmi?.

– Ot kerak, – dedi Go'ro'g'li.

– Eh attang, hay attang, bolalik qilayapsan, yoshlik qilayapsan, gapning ma'nosini bilmayapsan, avval gapning ma'nosini bil, o'ylab gapir, yoki ikkalasi ham kerakmi?, – deyishdi.

– Men gapni bir aytaman, ikki aytamayman. Ot kerak dedimmi, ot kerak, boshqa narsa kerak emas, – dedi Go'ro'g'li. Shunda boboylardan bittasi gapiraberdi, qolganlari "Ovmin, ilohi ovmin" deyishib qo'l ko'tarib turaberdi:

Hay attanga, gap ma'nosin bilmading,
Gap ma'nosin bilib-o'ylab ko'rmading,
Tizzangga ob quchib-quchib suymading,
Oting qolsin yorig'i yo'q Go'ro'g'li.

Bu jahonda odamzodning darmoni,
Yigitlikning shijoati xirmoni,

Topmaganning aytib bo'lmas armoni,
Oting qolsin chirog'i yo'q Go'ro'g'li.

Yurganda quvvati tursa tizzasi,
O'zi ketsa tirik qolgan a'zosi,
El ichida o'tib ketar izzasi,
Oting qolsin davlati yo'q Go'ro'g'li.

Urug'ingdan, avlodingdan bayonchi,
Toyrihganda yonboshingdan suyanchi,
Surilganda katta tovdai tayanchi,
Oting qolsin savlati yo'q Go'ro'g'li.

Ob qolar deb qo'rqding hayvon G'irotni,
Nasib qilsin senga Chambil elati,
Senday sherning endi bo'lmas farzandi,
Oting qolsin avlodi yo'q Go'ro'g'li.

Adolatga yursang olding qaytmasin,
Olishsa baloning kuchi yetmasin,
Bezguningcha Chambil sendan ketmasin,
Oting qolsin farzandi yo'q Go'ro'g'li.

Ochko'z dushman sendan ko'rsin dodu dod,
Shohlar ichra o'zing bo'lg'in vallomat,
Senga ta'sir qilmas hech bir tilsimot,
Oting qolsin tayanchi yo'q Go'ro'g'li.

Chambil yurtning doim bo'lsin bir bo'ston,
Nomingni eshitsin har bir tirik jon,
Qilgan ishing elga bo'lsin yuz doston,
Oting qolsin suyanchi yo'q Go'ro'g'li.

Dostonlaring tilda abadiy bo'lsin,
Tinglaganlar mard bo'lsin, saxiy bo'lsin,
Seni aytgan uyda doim to'y bo'lsin,
Oting qolsin ardog'i yo'q Go'ro'g'li.

Bu gaplarni eshitib boboylar: "Ovmin, ollohu akbar", deb duo qildi. Go'ro'g'li eshitib hayron bo'lib, balki tizzasidan darmon ketib, quloqlari chippa bitganday bo'lib: "Hoy boboylar, bularingiz nima bo'ldi, yigitning farzandi bo'lmasa nima bo'ladi? Bu gaplaringiz bo'lmaydi", – deb edi, bittasi: "Ey xumkalla Go'ro'g'li, aytilgan gap

otilgan o'q. Sendan bizlar uch marta jahonda noming qolsinmi yoki farzanding qolsinmi deb so'radik. Ot deganimiz noming, zot deganimiz farzanding bo'lmaymi? G'irotni oldingku, senga boshqa qanday ot berishimiz kerak edi. Kallang bo'lsa ikkalasini ham so'ramaysanmi, endi bo'lari bo'ldi. Endi Isfahondan Sadi o'g'li Soqini olib kel, ham sozandalik qiladi, ham G'irotning tilini biladi. Gurjistondan Buldiriq qassobning o'g'li Avazni, Vayangandan Ali Taqachining o'g'li Hasanxonni olib kel, senga farzandlik qiladi, yiqilsang tayanching, surinsang suyanching bo'ladi, boshqa yigitlarni Qambar bobong aytadi, olloh omadingni bersin", – dedi.

Go'ro'g'li fotihani betga tortib edi, yuzidan qo'lini olsa hech kim yo'q. G'irot bilan bir o'zi Polopon tog'ining Tavakal g'ori oldida turibdi. Go'ro'g'li ham bo'lari bo'ldi deb, G'irotning yolidan tavob qilib "bismilloh" deb ot beliga mindi. G'irotga taqim qildi, jonivor o'ynoqlab, selga-selgadan oyog'i tiymay oshaberdi. Go'ro'g'lining yuragi toshaberdi, borsa yangasini olasolib kelguday bo'laberdi. Poloponning ustiga chiqib, "Kel-e tavakkal", – deb arab mamlakatiga ot boshini burdi. G'irotga qarab, ot yolini silab, arabga yetkir o'zimni deb bir so'z aytib borayotgani:

Jonim G'irot, molim G'irot,
Topsam yopay senga banot,
O'zing bo'lg'in menga qanot,
Bir yigitga sensan davlat.
Arabga yetkir o'zimni,
Yomonga yetkir o'zimni.
Sensiz qiyin bo'ldi holim,
Necha yillar ketdi galim,
Sensan mening halol molim,
Bog'lab ketdi arab zolim,
Arabga yetkir o'zimni,
Zolimga yetkir o'zimni.
Gangib qoldi yolg'iz boshim,
Qabatimda yo'q sirdoshim,
Asli o'zing emakdoshim,
Yo'lni topgin olg'ir qushim,
Arabga yetkir o'zimni,
Qonxo'rga yetkir o'zimni.
Qiyalmasin egang joni,
To'qqiz oylab boqdim sani,
Bir kun xursand qilgin mani,
Rayhonning manzili qani?
Arabga yetkir o'zimni,
Tulkiga yetkir o'zimni.
Shul arabga borim ketgan,
Suyanchig'im norim ketgan,
Ko'nglim guli torim ketgan,
Ham nomusi orim ketgan,
Arabga yetkir o'zimni,

Ayyorga yetkir o'zimni.
Rangim qoldi so'lgan gulda,
Gap bo'b qoldim turkman elda,
Qarab qoldim Asqar belda,
Ikki ko'zim to'rt bo'b yo'lda,
Arabga yetkir o'zimni,
Qochqirga yetkir o'zimni.
Shunda seni minay dedim,
Bu taqdirga ko'nay dedim,
To'rt yilgacha yuray dedim,
So'ng arabga dunay dedim,
Arabga yetkir o'zimni,
Qashqirga yetkir o'zimni.
Rayhonday bo'b men ham borsam,
Bachchag'arning galin olsam,
Yuragiga armon solsam,
Checham bilan birga kelsam,
Arabga yetkir o'zimni,
Mastonga yetkir o'zimni.
Ul ham menday quvib solsa,
Ostidagi oti tolsa,
Tog' ustida mulzam bo'lsa,
Yoki otdan uchib o'lsa,
Arabga yetkir o'zimni,
Chechamga yetkir o'zimni.
Aqling bor anglab olgin,
Iskab-iskab yo'lni bilgin,
Dushmanlarning bag'rin tilgin,
Qabohat kunlarni solgin,
Arabga yetkir o'zimni,
Yangamga yetkir o'zimni.
Yig'lamoqdan ho'l bo'b jog'am,
Saqlasinda qodir egam,
Ham do'stimsan hamda og'am,
Xursand bo'lsin Ahmad tog'am,
Arabga yetkir o'zimni,
Shul yurtga yetkir o'zimni.
Bu gaplarni aytgan so'ng
Ot boshini buradi.
Qarchig'ayday bedov ot
O'zin otib boradi.
Ustidagi Go'ro'g'li
Kulib ketib boradi.
Iynidagi sovuti
Oy tavganday yarqillab,

To'shidagi chor oyna
Qatiqday bo'b irkillab.
Belidagi Isfahon
Qin ichida shirqillab,
Taqimida nayzasi
Majnuntolday so'lqillab,
Egarida dubulg'a
Ot shashtiga do'ngqillab,
Qalqoni bir tomonda
Shamoliga shongillab,
Ot tuyog'i tiygan joy
Qolayotir sharqillab.
Ustidagi Go'ro'g'li
Olg'ir qushday chirqillab.
Chin achchig'i kelganda
Chilladayin qahri bor.
Polapondan nariga
Tayladi G'ir jonivor.
Ot jilovin Go'ro'g'li
Tortib ketib boradi.
G'iro't esa iliksib
Otib ketib boradi.
Ot tuyog'i tiygan tosh
Kesakdayin ezildi.
G'iro't o'zin otganda
Ipakdayin cho'zildi.
Chilik bo'lib sag'ana,
O'ynab ketib boradi,
Jilg'a nima, soy nima
Taylab ketib boradi.
Oldidagi zovlardan
Har yon boqib boradi.
Qatov-qatov qatlardan
Dirka chiqib boradi.
Sovrisiga qarasang
Sakson uyni tikkiday,
Iyig'iga qarasang
Qirqta kampir yotguday.
Qulog'ining orasida
Oshiq suhbat qurguday,
Bir yoliga qirq kaniz
Ohuva sob uchguday.
Burnining tanobidan
Yukli tuya o'tguday.
Og'zin ochib sag'ana

Asqar tovni yutguday.
O'mganiga qarasang
El ko'rmagan qozonday,
Shovullaydi dumg'uza
Mulla aytgan azonday.
To'rt oyoqning turishi
Mochaydagi sutumday,
Gavdasiga qarasang
Suvga to'lmagan xumday.
Bo'ltak-bo'ltak go'shtlari
Kitob turgich tokchaday.
Orqa songa qarasang
Uyga sig'mas bo'qchaday.
Badanning tozaligi
Mirzoning qog'oziday.
Havolanib jo'nashi
Tulki quvgan toziday.
Irg'alab keb yurishi
Boyning erka qiziday.
So'ltanglab keb yurishi
Yaylovdagi qo'ziday.
Jilov qo'ysa ketishi
Osmonning yulduziday.
Olchanglab keb yurishi
Misol sovdi inakday.
Dumg'uzani joyganda
Chang'oraqli pufakday.
Badanning qattiqligi
Ham chillaning muziday.
O'ynab-o'ynab qarashi
Sanam qizning noziday.
Tikka zovga tortishi
Qo'y ob qochgan ayiqday.
Cho'zib o'zin otishi
Ovchi ko'rgan kiyikday.
Hakalagi sabilning
Qag'illagan qarg'aday.
Turgan joydan cho'pchishi
Ushlatmagan burgutday.
Shobir berib jo'nashi
Archaga tushgan o'tday.
Ham quyilib chopishi
Quyvon ko'rgan burgutday.
Xoldor-xoldor badani
Ko'k, qoravut olchinday.

Irg'iganda soy-soydan
Olovsigan lochinday.
Tishlariga qarasang
Xazinaning qulfiday.
Manglaydagi kokili
Malikalar zulfiday.
Ko'zining suzikligi
Ohularning ko'ziday.
Qo'rqmasligi sabilning
Ko'k qoplonning o'ziday.
Gohi-gohi kishnashi
Na'ra tortgan sherday bo'b.
Jilov bermay ketishi
Uyga qochgan norday bo'b.
To'rt tuyog'i tiygan joy
Zilziladay buzilib.
Bulutday bo'b changlari
Qolaberdi cho'zilib.
O'qday bo'lib sag'ana
O'zin otib boradi.
Keytidagi changiga
Kunlar botib boradi.
Otsa o'qi yetmaydi
Qora miltiq paranglar.
Ot shashtiga yiqilar
Yo'l chetida zaranglar.
Bir-biriga qo'shilar
Tov betida darchalar.
Ot shashtiga charsillab
Sinayotir archalar.
Ot chopishin ko'rganda
Qush topolmas choralar.
Ot shashtiga dangillab
Qolayotir daralar.
G'irotning shamoliga
Qorlar uchib boradi.
Jiviganday tog' bag'ri
Pastga ko'chib boradi.
Qamchi tiymay sag'ana
Damba-damda xezladi.
Shamoliga G'irotning
Oqar daryo muzladi.
G'irotning G'irotligi
Shunday kunda bilindi.
O'tib ketgan sahrolar

Ikki yoqqa bo'lindi.
Duchor bo'lgan chinorning
Qudrati cho'pcha bor.
Tuyog'idan otgan tosh
Olti mingta to'pcha bor.
Burnidan chiqqan dami
Ikki tovni otguday
Tuyog'ining iziga
Bir suruv qo'y yotguday.
Ustidagi Go'ro'g'li
Har bir iyni qirday bo'b.
Toshib borar yuragi
O'lja olgan sherday bo'b.
Goh hayqirib boradi
Ko'ksi tovga tengday bo'b.
Bir o'zim deb qo'rqmaydi
Ketayotir mingday bo'b.
Gohi-gohi joylardan
Kamon otib boradi.
Gohi kelib g'ayrati
Isfahondi oladi.
Qaysi toshga sermasa
Qars ikkiga bo'ladi.
Har tomonga Go'ro'g'li
Qarab ketib boradi.
Kim ko'rinsa oldidan
So'rab ketib boradi.
Qush uchmagan sahrodan
Sayrab ketib boradi.
Zog' yurmagan joylardan
Yayrab ketib boradi.
Qo'sh qanotli uylardan
Qimiz so'rab boradi.
Gohi kelib sho'xligi
Bir qiz so'rab boradi.
Odam yurmas tovlardan
Tikka taylab boradi.
Suvliq tashlab G'iroti
O'ynab ketib boradi.
Mard yigitga bedov ot
Shunday kunda yaraydi.
Karvonlarni ko'rganda
Shul Rayhonni so'raydi.
Asta-asta qamchini
Chatayotir Go'ro'g'li

Karvon ko'rsatgan yo'ldan
Ketayotir Go'ro'g'li.
G'irotni jilovlab
Yo'lga soldi Go'ro'g'li,
Azim daryo ustidan
Chiqib qoldi Go'ro'g'li.

Alqissa, Go'ro'g'li qancha yo'l yurib, yurishiga tovlar larzon tutib, oradan bir qancha kunlar o'tib, oxiri karvonlardan so'rab, yo'lni o'nqlab borayotib edi beadam katta bir daryoning ustidan chiqib qoldi. Daryoning narigi qirg'og'iga qaradi, tuyalar tovuqcha ko'rinayotir.

Go'ro'g'li bu daryodan qanday o'tsam ekan, deb o'ylanib turib edi, bir yoqdan shobur kelabardi, boshini ko'tarib, G'irotni burib qaradi. Ko'rdi daryoning shu qirg'og'ida o'ntacha odam bog'lacha-bog'la, tortcha-tort, deb bir-biriga qarab baqirib yotir. Go'ro'g'li G'irotni odamlarning qoshiga haydab borib, turganlarga salom berib ikki og'iz so'z aytib turgani:

Sahrolarda ish beradi bo'lsa xum,
Soyasidan bahra beradi gujum.
Salom berish bo'lar gapning kaliti,
Ey yaxshilar, assalomu-alaykum!

Keng ekan bu xudoyimning jahoni,
Bormi-yo'qmi shu joylarning xoqoni.
Bu joylarga musofirman, so'rayman,
Mana manzil joylar kimning makoni?

Yurishga yo'l bermay Mansurning tog'i,
Yeridan ko'p ko'rinadi toshlog'i.
Muna manzil joylar kimning makoni,
Odami bor ko'rinmaydi qishlog'i.

Bir tomoni tog' bo'ladi qiyoning,
Ham ichida nori bo'lar tuyanig.
Odami bor ko'rinmaydi qishlog'i,
Adoq boshi bormi mana daryoning?

Mard izidan doim nomard kuladi,
Kulganida nima ishni qiladi.
Adoq, boshi bormi mana daryoning
Bu daryodan qanday o'tsam bo'ladi?

Bu terini nega bog'lab qo'yasan,
Bog'lab turib ichiga yel berasan.
Adoq boshi bormi mana daryoning,
Ko'p terini aytgin nima qilasan?

Daryoga kirgan o'z jondan kechama,
O'lmay turib kafanini bichama.
Ko'p terini aytgin nima qilasan,
Bog'lamasang shu terilar qochama?

Bu gaplarni eshitib, o'tirganlar kulib, durustrog'i Go'ro'g'lining oldiga kelib, bir so'z aytib turibdi:

Qahrlansang qora yerni tilasan,
Harba qilsang uchar qushni olasan.
Salom berding "Vaalaykum assalom!",
Yaxshi yigit, o'zing qaydan bo'lasan!?

Er yigitning doim bo'lar savlati,
G'arazgo'yning g'arazgo'ydir avlodi.
Bu daryoni Tajan daryo deb aytar,
Nariyog'i bek Rayhonning davlati.

Suv ichida bo'lar bizning xilamiz,
Xilamiz ortidan tanga olamiz.
Qo'limizda yorlig'i bor podshoning,
Shu daryoga bir parronchi bo'lamiz.

Mana yo'ldan ko'p qatnaydi karvonlar,
Karvonlarga biz bo'lamiz xizmatkor.
Daryodan o'tkazamiz barini,
Bu terilar keltirmaydi xavf-xatar.

Yelni solib teri ovzin tuyamiz,
Boz ustiga xarilarni qo'yamiz.
Bu kurakman biz o'nglaymiz yo'lini,
Sog'-salomat o'tkazamiz, qo'yamiz.

Bir karvonning boshlig'isiz bilamiz,
Sizni ko'rib tez-tez xizmat qilamiz.
Moli dunyo bo'lsa aslo hayiqmang,
O'tkazib bo'b so'ngra pulin olamiz.

Bu gapni eshitib Go'ro'g'li miyig'ida kulib: "Yo'q og'alar, men karvonchi emasman, o'zimdan boshqa molu dunyom ham yo'q, turkmanlardan bo'laman, bir biyamni kimdir o'g'irlab ketgan shuni axtarib kelaman, bu daryoyi azimni ko'rib hayron bo'lib turibman. Shu daryodan nariyog'ini ham ko'rsam bir darak-parak toparmanni, deb turibman. Shu daryodan biror ot tuxumi o'tganmi, yoki hamma

otlarni sizlar o'tkazasizlarmi?", – dedi. Shunda parronchilardan biri: "Ey og'a, bu daryoni Tajan deydi, bundan uchib o'tmasa kechib biror jonzod o'tgan emas. Qancha hayvon, odam, molu dunyo barini biz o'tkazganmiz, biyangizning belgisini aysangiz balki bilarmiz, o'tgan bo'lsa o'tgan deb xabar berarmiz. Bu daryodan hayvon zotidan faqat Rayhonning tulpori o'tadi, ul ham kechib o'tmaydi, uchib o'tadi, sag'ana yugurishda kelib o'zini otadi, daryoning narigi qirg'og'iga cho'zilib yetadi, o'zini otgan joy bilan yetgan joy uch kecha kunduz changib yotadi, ana shundan boshqasi bizga pul berib o'tadi. Albatta, biyangiz bilan o'g'ri uchib o'tmagan, jonidan to'yib kechib o'tmagan, biror belgisi bormi?", - dedi.

Go'ro'g'li: "Bildim, Rayhonning tulpori uchib o'tgan bo'lsa, mening biyam ham uchib o'tgan, uning tulporidan kam emas edi. "Chuv" desa, bir tog', ikki tog'ni tog' demas edi. Rayhonning tulpori qayerdan irg'ib o'tadi?", – dedi. Parronchilar: "Huv hayla, ko'ringan tepalikning ustidan irg'iydi. Narigi tomonda ham shunday tepalik bor. Bu tomonga jo'nasa shu tepalikdan irg'iydi. Seni bizlar tuzuk odam desak, buzuq odamga o'xshaysan. Bir biyani Rayhonning tulporiga teng qilasan, hali turabersak shu otingni balkim tulpordan ziyod qilasan", – deb ipini eshib, suvga tushib gapga quloq solmay, kuragini suvga urib ketabardi. Go'ro'g'li parronchilar ko'rsatgan tepalikka chiqib: "Kel-e, men ham shu joydan G'irotni irg'itib ko'rayin, eson-omon o'tsa o'zimni Rayhonga teng bilayin, borib chechamni olayin, o'tolmasam, mayli o'lsam suv ichida o'lib ketayin", – deb G'irotni keyin haydab borib, jilovini qo'yib soniga bir qamchi tayladi:

Birinchi bor Go'ro'g'li
Otga qamchi uradi.
Nima bo'lsa mayliga,
Taqdiriga ko'nadi.

Qo'lidagi jilovni
Ot yoliga qo'yadi.
Qosh-qabog'in Go'ro'g'li
Burgutdayin uyadi.
Ostidagi G'irotni
Bir siltanib jo'nadi.
Ot zarbiga tovdan tosh
Pastga siljib boradi.

Qaramaydi Go'ro'g'li
Balandiga pastiga.
Sabil bedov to'liqsib
Keldi tepa ustiga.

Bek Go'ro'g'li seskanib
Egaridan ushladi.
Ikkilanmay bedov ot
Ko'kka o'zin tashladi.

Siltab o'zin otganda
Botmon tuproq otildi.
Ko'm-ko'k Tajanning yuzi
Chang-to'zonga tutildi.

Bedov otning shamoli
Solni cho'pday buradi.
Parronchilar o'ldik deb
Kuraklab suv uradi.

"Nima bo'ldi, qaranglar,
Rayhon kelib qoldima?
Yoki anov yigitning
Oti tulpor bo'ldima?"

Azroil axtarib
Bizni so'rab keldima?
Jon so'ramay biya deb
Aqli hushni oldima?"

Ot shashtiga suv beti
Ko'tarilar tobora,
Parronchining vaqti yo'q
O'zi bilan ovora.

G'irotni esa cho'zilib
Ko'kda ketib boradi.
Hushi kelib o'ziga
Xon Go'ro'g'li qaradi.
Qulog'ining ostidan
Shorillaydi shamollar.
Bukib oldi oyog'in
Pastlayberdi jonivor.

Xon Go'ro'g'li suyunib
Ot yolini silaydi.
Umrini tulporning
Bir xudodan tilaydi.

Ot ustida quvonib
Jo'shabardi yuragi.
Kalla chayqab enkaydi
Ostidagi pirog'i.

Zarba bilan jonivor
Bu qirg'oqqa tushadi.
Tuba bilan tubani
Bir-biriga qo'shadi.

Oldidagi oyog'in
Bosib yerga tiradi.
Tekis yo'lni tuyog'i
Jilg'a qilib boradi.

Bir xo'rsinib Go'ro'g'li
Endi nafas oladi.
Bedov otni to'xtatib
So'ng iziga qaradi.

Go'ro'g'li G'irotni to'xtatib, otdan tushib: "Qani bir ko'rayin, Rayhonning oti ham irg'iganda iz-pizi qolgan, G'irotni uning izidan yurganmi yoki keyin qolganmi", – deb bordi. Ko'rdi Rayhonning tulporining ham izi rayish bilinib turibdi, G'irotni uning izidan keyinroq, qadimlab ko'rdi, olti qadam farq qildi, G'irotni o'tibdi. Go'ro'g'li aytdi: "Mening otim o'tibdi, qochsam qutular ekanman, quvsam yetar ekanman. Endi menda xatar yo'q", – deb G'irotni minib, g'ang'aylab qo'shig'ini aytib, tanasi tepaday, kallasi kapaday bo'lib ketaverdi. Bir vaqt qarasa katta qal'aning ustidan chiqib qoldi. Qarasa katta devor bilan shaharni o'rab ketgan, har joy-har joyidan darvoza qo'ygan, har darvozada navkarlar turibdi, devorning ustida ham birqanchasi yuribdi. Buni ko'rib, Go'ro'g'li hayron bo'lib, G'irotni to'xtatib, tepalik ustidan shaharni ham tamosha qilib, ko'ngliga har xil gap kelib, o'ziga-o'zi so'ylanib turgani:

Ana shahar, mana shahar,
Oralasang shomu sahar.
Ichida bor bog'u bo'ston,
Qishin yozin doim bahor.

Darvozada qancha shercha,
Boz ustiga shuncha norcha.
Tartib bilan solingan uy,
Bo'lib ketgan ko'cha-ko'cha.

Majnun teraklar irg'alib,
Tom ustiga tomlar solib,
Har xil bezaklar solibdi,
Bir-biridan ulgu olib.

Men ham bir kun podsho bo'lsam,
Shunday qilib qo'rg'on solsam.
To'zib ketgan xalqning barin,
Barin bir qib jamlab olsam.

Kiyim kiyib, qornim to'yib,
Yorni olsam suyib-suyib,
O'z xalqimni qo'rib yursam,
Darvozaga navkar qo'yib.

Shahrim bo'lsa ko'cha-ko'cha,
Har ko'chadan chiqsa shercha,
O'yin qurib yurabersa,
Bo'stonida sap bir bachcha.

Har ko'chadan qo'ysam attor,
Har kim molin shunda sotar.
Kunda bo'lib yotsa bozor,
Bo'lmasa hech xavfi xatar.

Bir bog' qursam kelinlarga,
Bir bog' qursam kuyovlarga.
Katta bir bog' qurib bersam,
Bo'ydoq yigit ham qizlarga.

Suvlar oqsa zir-zir bilan,
Bari yursa tir-tir bilan,
Shoh supali bog'lar qursam,
Chollar yotsa kampir bilan.

To'lib chiqsa osmonda oy,
Xalqning bo'lsa hammasi boy.
Bir tomonda qurib bersam,
Musofirga karvonsaroy.

Mingan oti kuzak bo'lsa,
Ko'chalari uzoq bo'lsa,
Tom ustiga tomlar solsam,
Bari tilla bezak bo'lsa.

Bog'ida gul jaynab tursa,
O'g'il-qizi o'ynab tursa,
Kelgan qushlar ketolmayin,
Har butoqda sayrab tursa.

Dashtda g'o'non toylar bo'lsa,
Suruv-suruv qo'ylar bo'lsa,
Har ko'chada karnay-surnay,
Ust-ustiga to'ylar bo'lsa.

G'irot bo'lsa menga darmon,
Kelolmasa hech bir dushman.
Aytganlarim qila olsam,
Qolmas edi menda armon.

Alqissa, Go'ro'g'li G'irotidan tushib, o'ziga o'zi: "Shul qo'rg'on arabning qo'rg'oni bo'lsa kerak. Men arabning joyini ham Chambilday selgada ikki-uch qishloq, tikka arabning uyini so'rab boraman, arab bilan bo'lganimcha bo'laman, chechamni olib kelaman", – deb edim. Bu bunday joy ekan, hamma odamlar qo'rg'onga kirgan ekan, shuning uchun ham kuchli ekan. Men bu aslaha bilan borsam, navkarlar meni ushlar, ko'p bir talat bo'lar, Rayhonga xabar etar, ul qo'shni bilan kelar, shuning bilan checham ham qolib ketar, so'ng qayta kelganda ham, navkarlar meni tanib qolar, deb ustidagi sovit-qalqonlarini, kiyimlarini yechib G'irotning ustidagi abzallarning ham ko'pini olib, bir joyga ko'mib, ustidan belgi qo'yib, o'zining oldingi kiyimlarini kiyib, G'irotning ustiga minib qo'rg'onga qarab jo'nadi. Qo'rg'onning darvozasi borib, navkarlarga salom berib o'tayotgan edi. Navkarlar oldiga nayza tutdi. Go'ro'g'li hayron bo'lib turuvdi, bittasi oldiga kelib: "Hoy bola qayerdan kelayotibsan, bu shaharda kimnikiga borasan, ostingdagi otni qayerdan o'g'irlab olding? Tush otdan, otning egasi seni qarab yuribdi, hozir keladi, kallangni oladi, undan ko'ra bizga otni berib qochganing ma'qul bo'ladi", – dedi.

Shunda Go'ro'g'li: "Ichida kel-e, yotib qolguncha otib qol degan ekan, tavakkal deb aytdi. Hoy navkar og'a ko'zingizga qarab gapiring. Men Saranboyning yilqiboqari bo'laman. Shu otni uyurga qo'yib edi, endi olib kelsin, deb xabar beribdi. Shuni olib borayotirman. Olib qolaman desangiz beraman, boyga gapingizni aytaman. So'ngra boy bilan hisob-kitob qilaverasiz, bir otiga yana ikki otni qo'shib berasiz" – dedi. Shunda navkar: "Hoy navkarlar Saranboyni kim taniydi? – dedi.

Arkning ustida turgan bittasi: "Uni men taniyman. Asli oti Nodirboy. Rang sariq bo'lgani uchun Saranboy deb aytishadi. Uni Saran tuhmatchi, Saran g'iybatchi, deb ham ataydi, pul-mol ustida jonini beradi, kim bir tanga olsa, uch tanga qilib qaytarib beradi", – dedi.

Shunda navkar: "Bor boraver. Saranboying ham qurisin, o'zing ham quri, qorangni ikkinchi ko'rmay, tuhmatchi deb kesak otaberdi". Go'ro'g'li ham gapidan xursand bo'lib, shaharning ichiga kirib ketaberdi. Ko'chada ko'ringan kishidan so'rab, musofirxonani topib oldi. Salom berib kirib bordi. Oldiga bir nuroniy chol chiqib salomini olib, Go'ro'g'lining qoshiga kelib bir so'z aytib turibdi.

Kiyaningda ustingda to'n mo'l bo'lsin,
Xudo bergan farzand senday ul bo'lsin.
Bu joylarga nega tushdi guzaring
Rostini ayt, bolam, senga yo'l bo'lsin.

Ustingda kiyibsan adadsiz janda
Seni g'arib degan qolar armonda.
Rostini ayt bolam senga yo'l bo'lsin
Shuncha davlat bo'lgan emas bir xonda.

Olisdan ko'rganda seni ong bildim
Ong deganga armoni ko'p jang bildim.
Shuncha davlat bo'lgan emas bir xonda
Shul otingni bir shaharga teng bildim.

Suyanganda olatovday belisan
Iskaganda bog'ning toza gulisan.
Shul otingni bir shaharga teng bildim
Qaysi joyda, qanday bekning o'g'lisin.

Qoshing kerib, qabog'ingni uyubsan,
Bildirmay deb ot yolini tuyibsan.
Qaysi joyda, qanday bekning ulisan
Dushmaning zo'rmidi janda kiyibsan.

Qichov tortsang uchar qushni olasan
Zarba qilsang toshni ikki bo'lasan.
Dushmaning zo'rmidi janda kiyibsan
Davlatli shunqorim qaydan bo'lasan.

Teginmasa yo'qqa o'xshar ozoring,
Teginngan bildim qizir bozoring.
Davlatli shunqorim qaydan bo'lasan
Bu yerlarga nega tushdi guzaring.

Yolg'on bilan qaytarmagin so'zimni
Yomon joyga hech solmayman izimni.
Bu joylarga nega tushdi guzaring
Ali bobo deb atashar o'zimni.

Go'ro'g'li ham bobosiga qarab bir so'z aytib turibdi:

Har ishimni yaratganga solaman
Bir tuyur non topsam xursand bo'laman.
Ayt desang bobojon aytay rostini,
Yurtim so'rsang Chambilbeldan bo'laman.

Bu yolg'onchi xo'p o'rtadi tanamni
Tutun chiqmas birov bilmas xonamni.
Yurtim so'rsang Chambilbeldan bo'laman,
Tanimayman ota bilan enamni.

Davlat qushi qo'nmay ketgan qo'lma
Chaqir tikan tushar yursam yo'lma.
Tanimayman ota bilan enamni
Qanot chiqmas shunqor tepgan belima.

Soydan-soyga qochib yurdim elimdan
Bo'z turnaman ayrilganman xilimdan.
Qanot chiqmay shunqor tepgan belima
Oq moyamni olib ketgan qo'limdan.

Achchiq bo'lar bodamchani tikani,
Bog'lamasang tiyib bo'lmas takani.
Oq moyamni olib ketgan qo'limdan
Oti Rayhon bilmam qayda makoni.

Bilsa bo'lar ekan odam so'zidan
O'tolmadim bachchag'arning yuzidan.
Oti Rayhon bilmam qayda makoni
Oq moyamni izlab keldim izidan.

Choqlab-choqlab bugun bildim holimni
Kurashganda ayamayman zolimni.
Oq moyamni izlab keldim izidan.
Na bo'lsa-da, ob ketarman molimni.
Ali bobo shu Rayhondan ber xabar.

Ali bobo Go'ro'g'lidan bu gaplarni eshitib, oldiga choy-poy qo'yib qoshida o'tirib:

– Ey bolam, ishing qattiq ishga o'xshaydi. Shu mamlakat Rayhonning mamlakati, uning Bektosh polvon og'asi, qancha askari, to'p-to'p xonasi, sen tur men sanchaman degan polvonlari, o'n minglab qarag'ay merganlari bor, bir o'zing u bilan qanday teng bo'lasan, qaytib moyangni olasan. Men bilaman turkmanlaringdan bir moyani olib kelgan. Kelganiga ham to'rt yildan oshgan, ul moya bolalab ketgan, endi nima qilasan? - dedi.

– Ey bobo, dashtni bosgan qo'shini bo'lsayam olaman, yetti qat yerning ostiga yashirsayam olaman, moyam qirq novcha tuvsayam olaman, - dedi Go'ro'g'li.

– Go'ro'g'li sen bolalik qilma, to'g'ri Rayhonning oldiga kelib borib, moyangni talab qilma, yosh boshingga ko'p jabrni solma, mana ertaga Rayhonning sayri bog'iga borsang shu yerda moyangni ko'rsan. Ketaman desa olib ketarsan, keytingda quvsa

ham yakkama-yakka bo'lasan, avvali shu oting bo'lsa yetkirmay ketasan. Bormayman desa nima qilasan. Hech kimga bildirmay, ko'p kishining qoniga zomin bo'lmay eson-omon yurtingga ketasan, deb ko'p pandi-nasihatlarni berdi, – bobosi.

Bu kun yotdi, ertalab tong otdi. Go'ro'g'li G'irotni yetaklab bobosi ko'rsatgan yo'ldan sayri bog'ga qarab yuraverdi. Borayotib edi, qizlarning kulgusi Go'ro'g'lining qulog'iga keliberdi. Qarasa osmon bilan so'ylashgan devor, devorning narigi yog'ida qizlarning kulib tovushi kelayotir. "Sayri bog' shul bo'lsa kerak, bunga qayerdan kirsam ekan?", – deb devorning u yoniga qarab, bu yog'iga qaradi, darvozadan nominishon ko'rmadi. Shunda otini devor qoshiga yaqin keltirib, egarning ustiga chiqib qaradi. Ko'rdi ko'p qizlar bir-biri bilan olishib, bir-biriga gul otishib, hammasi o'zidan ketishib, bir xillari issiqlab ketdik, deb ko'ylagigacha yechishib, bir-birin masxara qilib kulishib yotibdi. Go'ro'g'li ham bularning qiligi qo'ylab qarab kulib turib edi. Bo'lcha-bo'l, masxara bo'lmay o'l, lash-lushingni jiy, kiyimingni kiy, o'lmasang erga tiyasan, kiyimingni kuniga yechib kiyasan, shunda joningga to'yasan. Bu qiliqlaringni qo'yasan, hammang ko'shkiga borasan, shu yoqqa gumdon bo'lasan, bir o'zim shu joyga uxlab olayin, damimni olib so'ngra izlaringdan borayin. Bo'lsa-bo'ldi, deb barini qomati kelishgan, do'ppisiga gavhardan belgi qo'yilgan, tovus patlari boshida pirrillab turgan bir juvon ko'shkiga haydab yubordi. Go'ro'g'li: "Bekor qildida o'yin yangigina qizigan edi-da", deb devordan ko'ksini ko'tarib ketmoqchi bo'lib yotib edi, "To'xtang qaynim", – degan tovushni eshitdi. Burilib qaradi ko'rdi haligi juvon yangasi Xoljuvon ekan. Yuzidan pardasini olib, ko'zidan munchoq-munchoq yosh ketib, xo'rsinib, Go'ro'g'li tomonga qarab, narvon ko'tarib kelayotir. Go'ro'g'lining ham yuragi to'lib, ko'ziga yosh kelib, hilla o'zini to'xtatib turaberdi. Xoljuvon narvonni devorga qo'yib, narvonning ustidan chiqib, Go'ro'g'lining qoshiga kelib, ko'ksini-ko'ksiga qo'yib, Go'ro'g'lining yuzlaridan iskab-iskab o'pib, ota-onasi, bo'yinsalarining sog'ligini so'rab, bir so'z aytib turibdi.

Tavob qilay bosib turgan izingdan,
Chechang aylansinda xumor ko'zingdan.
Burgutdayin qarashingdan qaynimjon,
To'yib-to'yib men o'payin yuzingdan.

O'n to'rtida bilinar qizning kamoli,
Tushgan joyga bog'liq bo'lar amali.
To'yib-to'yib men o'payin yuzingdan,
Yuzimga kelganday yurtim jamoli.

Qulog'imdan tushdi tilla ziragim,
Turkmanlarga yo'q, deb edim keragim.
Yuzimga kelganday turkman shamoli,
Seni ko'rib quvonadi yuragim.

Musofirlik har kishiga yomonmi,
Ayriliqdan rangi-ro'yim somonmi?

Seni ko'rib quvonadi yuragim,
O'tajonim, orqa tovim omonmi?

Odamzodga bo'lmaydimi malomat,
Malomat bo'lgansan bo'lar alomat.
O'tajonim, orqa tovim omonmi
Onajonim yuribdimi salomat.

O'ylaybersam ko'zdan oqar yoshlarim,
Etagimda erib ketar toshlarim.
Onajonim yuribdimi salomat,
Og'a-singil joni qarindoshlarim.

Ollo mening aqli hushim oldima,
Shayton qurg'ur yomon yo'lga soldima.
Salomatmi jami qarindoshlarim
O'lis ketgan shunqor tog'ang keldima?

Gazar odam yo'lni boshlar soyma-soyga,
Mard yigitga qo'l cho'zar osmonda oyga.
O'lis ketgan shunqor tog'ang keldima
Ne niyatman kelding qaynim bu joyga?

Go'ro'g'li juvondan bu so'zni eshitib, yangasiga qarab bir so'z aytib turibdi:

Tov boshida qolib ketgan qormisan,
Chambildayin elatingga zormisan.
Odam bo'lib kelayapman axtarib,
Mushtiparim chechajonim bormisan.

Yuraklarim to'lib borar so'zingdan,
Yoshlaringni endi to'kma ko'zingdan.
Mushtiparim, chechajonim bormisan
Izlab-izlab kelayapman izingdan.

Mana Rayhon menga ishni ko'p qildi,
Har so'zini olti mingta to'n qildi.
Izlab-izlab kelayapman izingdan.
Oriyating menday sho'rni cho'p qildi.

Ora cho'lda chang'ib qoldi bu boshim,
Nasihatim bergali yo'qdir sirdoshim.
Oriyating menday sho'rni cho'p qildi,
Yig'lay-yig'lay qotib qoldi ko'z yoshim.

Qabotimga hech odamni keltirmay,
Kelganiga ichda sirim qoldirmay.
Yig'lay-yig'lay qotib qoldi ko'z yoshim,
Ketganingni bir turkmanga bildirmay.

Ostimdagi bu tulporim ko'nglim to'q,
Qichov qilsam yetolmaydi otgan o'q.
Bir turkmanga bildirmadim o'zingni,
Ahmad tog'am shundan beri kelgan yo'q.

Musofirlik so'ldiribdi yuzingni,
Bu joylarga tushirmayin izingni.
Ahmad tog'am shundan beri kelgan yo'q.
Bo'l chechajon opketayin o'zingni.

Yov kelganda endi yetar quvvatim,
Odamlardan kam emasdir davlatim.
Bo'l chechajon opketayin o'zingni,
Rayhon quvsa yetkirmaydi G'irotim.

Bu gapni Xoljuvon eshitib, qaynisining yuzlaridan silab, qayta-qayta yig'lab,
Go'ro'g'liga qarab bir so'z aytib turibdi.

Ozor olmay qarovli gul so'lama,
So'lgan gulga birov parvo qilama.
Bildirmayin degan bilan bo'lmaydi,
Yomon gap qaynimjon yerda qolama?

O'ylab-o'ylab kelolmayman o'zima,
Chaqir tikan o'sdi bosgan izima.
Yomon gap qaynimjon yerda qolama,
Bir nechalar aytmaydima yuzima?

Ketdi izga qaramadi olganim,
Endi mening bo'larimga bo'lganim.
Bir nechalar aytmaydima yuzima,
Undan ko'ra yaxshi mening o'lganim.

Qaytmas edim avval aytgan so'zimdan,
Qaray-qaray yoshlar oqdi ko'zimdan.
Shu Rayhonni olti oyga ko'ndirdim,
Biror kimsa izlamadi izimdan.

Ilgariday bo'lmas endi suhbatim,
O'zga elga qolib ketar savlatim.
Biror kimsa izlamadi izimdan
Shu Rayhondan bordir ikki farzandim.

Men aytayin qaynim xafa bo'lmayсан,
To'g'ri gapni hech bir yolg'on demaysan.
Shu Rayhondan bordir ikki farzandim,
Meni olgan bilan oring olmayсан.

Aldab-so'ldab men bog'layin ko'zini,
Tuman qildi, tuman qilgin yuzini.
Meni olgan bilan oring olmayсан,
Mindarayin, olib ketgin qizini.

Meni olsang bo'lganiga bo'ldi der,
Butun qopni yirtib-yirtib keldi der.
Mindarayin, olib ketgin qizini,
Beva berib, xon qizini oldi der.

Qizin olsang bilgin Rayhon sob bo'lar,
Qilgan ishga yarashig'in top bo'lar.
Turkman beva berib qizni oldi der,
Shul arabga chidab bo'lmas gap bo'lar.

Mard yigit beliga boylar olmosin,
Olmosin olganda oti tolmasin.
Shul arabga chidab bo'lmas gap bo'lar,
Qaynimjon kelganing birov bilmasin.

Hoy qaynimjon, bo'lari bo'ldi, men gapning to'g'risini aytdim, shu kechakunduz Rayhonning o'zi ham hadiksirab yuribdi. Hadiksiragani bir tush ko'ribdi, bir lochin qo'lidan anorini olib qochibdi, tayoq bilan uray desa tayog'i sinibdi, shu tushidan beri halovati yo'q. Bir kuni chaqirib:

– Hoy Oqbilak sening kelganingga qancha bo'ldi, – dedi.

– To'rt yilga yaqinlashdi, – dedim.

– Shu tushim qayning Go'ro'g'li bo'lib chiqmasa, shu biyasi ot qulin tuvgan bo'lsa, sag'ana do'nan bo'lsa, mayli edi seni olib ketsa, boshimga boshqa bir baloni solmasa, – deb qo'rqaman dedi.

– Men ichimdan: “Xudoyo, aytganing bo'lsin, qaynim kelsin, meni nima qiladi, bo'y yetgan qizingni olsin”, – deb qo'ydim. Shundan beri yetolmay, qizini ham, meni ham tashqariga chiqarmay qo'ydi. Endi qaynimjon, sen nima deysan?, – dedi.

– Hoy yangajon, dedi Go'ro'g'li, o'ylab tursam gaping to'g'riga o'xshaydi. Seni olib ketganimda Rayhonning xayoliga ham kelmaydi, tog'am bu gaplarni eshitsa seni

ham, meni ham bu joylarga qo'ymaydi, turkmanlar yaxshi qilibsən demaydi. Rayhonning qizini qanday qilib olib ketaman?” – dedi.

– Endi shunday qilasan, shu shahardan birovga bildirmay chiqib ketasan, huv ko'rinib turgan tovni Arapat yoki Olatov deb ataydi. Shu tovning ustida Rayhonning yana bitta arki bor, arkining ichida “Bearmon” degan bog'i bor. Rayhon saraton oyini shu bog'da o'tkazadi, shu tog'ning kun botish tomonida bir yolg'iz oyoq yo'l bor, shu yo'ldan boshqa yo'li yo'q. Undan faqat Rayhonning oti yuraoladi. Boshqa hayvon tugul odamzod ham yuraolmaydi. Shu arkning orqasida zira buloq, degan katta bir buloq bor. Buni yodingdan chiqarma, hali Saraton oyiga o'n besh kun bor. Lekin Rayhon tushidan qo'rqib u joyni mustahkamroq bilib meni bilan qizini olib, bugundan boshqa uch kunda shu yerdan tovga jo'naydi. Sen yanagi haftaning shu kuni Zirabuloqqa chiqib bor. Men Rayhonning qizini shu buloqqa kir yuvгани olib boraman, kir yuvayotganimizda kelib bir kosa suv so'ragin, suv berdiraman. Shu vaqt bilgidan ushlab, otga o'ngarib ketasan, u yog'ini o'zimga qo'yib berasan. Go'ro'g'li rostini ayt otingga ishonasanmi, ishonmasang boshqa ish qilay, Rayhonning oshiga zahar solib beray, – dedi.

– Yo'q yanga zahar qo'shib berma, ko'rmay o'lganida kim kuyadi, otimga ishonaman, bir o'tirib olsam Rayhonni oro cho'lda suvsatib ketaman. Agar nomardlik qilib izimdan quvib yetishimga ko'zim yetsa yo otini, yo o'zini otaman, lekin qizini olib ketganimni zinhor o'ziga ayt, mendan aslo qo'rqma, – dedi Go'ro'g'li.

Ko'chaning boshi olag'ovur bo'la berdi. Endi birov bilmasin, gap shu deb ikkovi ikki yoqqa tushib ketdi. Go'ro'g'li chiqib borayotib edi oldidan Ali bobosi chiqib:

– Ha Go'ro'g'li nima bo'ldi?, – dedi.

– Ey otaxon aytganingiz rost ekan, bo'lmadi, endi qaytib ketayotirman, xush qoling, – deb ketaberdi.

Darvozaga borib edi navkarlar: “Hayla Saran tuhmatchini cho'poni keldi. Endi bizga tuxmat qiladi, bir otini ikki ot qilib oladi, endi qanday bo'ladi, darrov Saranga qo'shilib qozi ham keladi, tezroq jo'ra tuxmatchining cho'poni deyberdi. Go'ro'g'li ham “Aytganingday bo'ladi, Saran qozining oldida qoldi, kechagi navkarni qo'ymay tur” deb meni yubordi. Men yilqilardan xabar olayin undan keyin qaytib kelayin, kecha olgan to'rt yilqingdi sakkiz edi, deb bo'ynimga qo'yayin” dedi.

Navkarlar Go'ro'g'lining gapini chin bilib, tovbalachib, yoqasini ushlab, sandan bo'ldi-sandan bo'ldi deb bir-birini mushtlashib qolaberdi. Go'ro'g'li qal'adan chiqib, ko'mgan joydan aslahalarini olib, ustiga kiyib, ola tovga qarab yo'lga tushib ketaberdi. Ola tovga yetib, arabning kelar yo'lini, chiqar yo'lini bilib: “Shu joydan kelarsan, ajaling yetmay o'larsan, og'zi o'yilgan go'rday bo'larsan”, deb angib yotaberdi.

Endigi gapni arabdan eshiting.

Rayhon arabning Bektosh arab degan og'asi bor edi. Uni chaqirib: “Hoy og'am, Bektosh, men qaytib kelgunimcha shaharda shohlik qilasan, turkmandan kelganini o'ldirasan, agar bir yoqdan lashkar kelsa menga xabar berasan, – deb xo'p tayinlab, bedoviga uzun qo'm solib, ikki oylik yem solib, tulporning beliga minib, ketidan Xoljuvonoyini mindirib, uning ketidan Zaydinoy qizini mindirib, erta sahar ot haydab ketayotganini birovga bildirmay, Bektoshga bildirib, bolalarni enagalarga qoldirib, tulporini yeldirib, Ola tovga qarab yo'l tortib ketaberdi.

Ko'rgan tushdan shul arab
Ko'p xavotir oladi.
Ovloq bilib shu tog'ni
Ola tog'ga jo'nadi.

Suvsiz arab cho'lida
Yo'rg'alaydi bedav ot.
Tog' boshida shul arab
Ko'rsam deydi halovot.

Keta-keta beradi
Xo'p masala bo'ladi.
Kelsa kelsin Go'ro'g'li
Kelsa nima qiladi.

Agar kelsa arabga
Bektosh bandi qiladi.
Ostidagi bedovi
O'lja bo'lib qoladi.

Tog' ustida makonim
Uni birov bilmaydi.
Bilsa chiqib borolmas
Nurab o'lmay qolmaydi.

Ko'p tasalli berganda
Tinchimaydi yuragi
Yo'ldan irg'ib boradi
Ostidagi pirog'i.

Tulpor otning shashtiga
Changidi sang darasi.
Ola tovga tirmashdi
Yaqin qoldi orasi.

Keta-keta jonivor
Bir dilgirsib qaradi.
Oyog'ining ostidan
Pastga toshlar nuradi.

Jilov bermay sag'ana
Jo'nayberdi porillab,
Alanglab har tomonga
Kishnayberdi charillab.

Hech toymagan oyog'i
Yurgan sayin toyadi.
Yo'l yuzini sag'ana
Iskab-iskab qo'yadi.

Ot ustidan shul arab
Endi hayron qoladi.
Bedov otning ustidan
Tushib yo'lga qaradi.

Berman qara Zaydinoy
Sanam yorim Oq bilak.
Kelmasak bo'lar ekan
Bekor bo'libmiz halak.

Qo'l ushlaymay kesadi
Anov tog'ning qiyog'i.
Tosh ustiga iz sobdi
Bir bedovning tuyog'i.

Pisand qilmay shu yo'ldi
Tikka chiqib ketibdi.
Xarsang toshga tuyog'i
Ikki ellik botibdi.

Hech toymagan nazari
Qarchig'ayday ko'zi bor.
Muna joyga qaranglar
Qaytib tushgan izi bor.

Belimdagi belbog'im
Ilon bo'lib chaqmasin.
Hadiksirab yurganim
Manglayimdan chiqmasin.

Avraganday garang bo'b
Chiqib kelgan bo'lmayin.

Birovingdan ayrilib
Tog' boshida qolmayin.

Shul tulporning oldida
Men holimni tang bildim.
Balki otimdan ziyod
Bo'lmasayam ming bildim.

Bilmadim na bo'ldikan
Tog' boshida manzil joy.
Maslahat ber tuyg'unim.
Aylanayin Zaydinoy.

Shunda Xoljuvon: "Zaydinjon otangizga maslahat bering, otangiz o'zidan-o'zi hadiksirab turibdi, o'zining otini izini o'zi tanimay yotibdi, shuncha joyga kelib, qaytib ketamizmi?", - dedi.

Zaydinoy onasining gapini eshitib, otasiga qarab bir so'z deb turibdi:

Aylanayin otajon
So'ratingiz maslahat.
Siz bo'lsangiz biz bilan
Bo'larmidi qiyomat.

Siz turganda otajon
Kelolmaydi bir dushman.
Kelgani ham yurtiga
Qaytib ketolmas omon.

Siz turganda otajon
Dushman ham tang bo'lar.
Siz bilan bu jahonda
Qanday odam teng bo'lar.

Yolg'on demang otajon
Qizingizni so'zini.
Kimniki deb so'raysiz
Otingizning izini.

Chigirtkadan kim qo'rqsa
Aslo ekin ekmaydi.

Odam qarigan sayin
Gapi yoshga yoqmaydi.

Siz qo'rqsangiz otajon
Men qilayin ishini.
Mingta dushman bo'lsa ham
Sanab kesay boshini.

Ajal yetmay otajon
Qashqa chibin o'lama.
Boshga tushar ish bo'lsa
Qochgan bilan bo'lama.

Otajonim orqangdan
Zar buloqqa kechayin.
Tog' boshida archaga
Halganchak sob uchayin.

Otajonim yuraver
Aslo olding qaytmasin.
Ko'rolmagan dushmaning
Niyatiga yetmasin.

Otajonim gapimni
Aslo og'ir olmayin.
Menda qizing baxtiga
Mingda bo'lmay o'lmayin.

Rayhon arab bu gapni eshitib, qizining gapi ta'sir etib, bedovning beliga minib ikki qamchi tayladi. Sag'ana bedov oldi keynini jiyirib zovning ustiga tikka tortib ketdi. Ola tog'ning ustiga chiqib arkni bir aylantib ko'rib, darvozasiga kalit solib ochib, qizi bilan Xoljuvonni tushirib: "Ey Oqbilak, Zaydinjon sizlar bog'ning ichini tartibga solib turinglar, men shu Olatog'ni bir aylanib kelayin, bir aylanmasam ko'nglim tinchimaydi", - deb otini chappa turib tovdan tashlab ketdi. Xoljuvon ichida: "Xudoyo o'zing duch qilmagin", - deb qolabardi.

Rayhon kechqurun qaytib keldi. Shunda Zaydinoy otajon nima ko'rdingiz dedi. Rayhon qizim sen bilgan ekansan, o'zimning tulporimning izi ekan, o'lchab ko'rib edim teng keldi. Lekin yangi izga o'xshaydi. Shuning uchun Olatog'ni uch marta aylandim, biror zog'ni ko'rmadim. Ko'nglim joyiga tushib qaytib keldim, deb otdan

tushib bog'ni oralab ketdi. Oradan bir qancha kun o'tdi. Bir kun Xoljuvon: "Ey to'ram, shu otingizga bir balo bo'lgan, to'rvani oyog'i bilan urib, yirta yotir arpa to'killib borayotir. Shuning uchun otingizni egarlab qo'ydim, – dedi. Bu kun yotdi. Erta tong otdi. Xoljuvon joyidan turib choy-poyini qo'yib oldiga dasturxon qo'yib, bari ovqatni yeb qorni to'yib turib edi. Ana to'ram men tursam, qizingiz tursa ustingiz kir bo'libdi, bizning kiyimlarimiz ham kir bo'lgan yechib bering Zarbuloqqa borib yuvib kelaylik, deb edi. Rayhon: "Mening shu kiyimimdan boshqa kiyimim yo'q, nima qilsam ekan? Hammasi shaharda qolib ketibdi", – dedi. Shunda Xoljuvon bu joyda o'zimizdan boshqa kim bor. Biz tashqarida turaylik, siz kiyimingizni yechib ko'rpaning ichida yotib turing, yuvasolib quritib olib kelamiz, dedi. Bu gap Rayhonga ma'qul kelib, kiyimlarini yechib berdi. Xoljuvon kiyimlarni olib Zaydinoyga yuring, deb edi. Shunda Zaydinoy Xoljuvonga qarab bir so'z aytib turibdi:

Aylanayin onajon
Yur demagin o'zimni
Uyqu bosib boradi
Mening ikki ko'zimni.

Kecha uyqum kelmayin
Sahargacha yurdim men.
Tong otganda sal uxlab
Bir yomon tush ko'rdim men.

Shul tushimda opajon
Shunqor keldi quyulib
Shamoliga opajon
Sochib qoldi joyilib.

Bu joylardan opajon
O'chirmasin izimni.
Zarbuloqning ustidan
Olib qochdi o'zimni.

"Otajon", deb yig'ladim
Otam quvdi izimdan.
Shu vaqtda uyg'onsam
Yosh oqadi yuzimdan.

Otam aytgan Go'ro'g'li
Onajon shul bo'ladi.

Olatovning bag'rida
Anglab yurgan bo'lmasin.

Qo'y, opajon, bormaylik
Zar bulog'i qurisin.
Otam obkep yuvdirar
Shahardagi cho'risin.

Xoljuvon bu gapni eshitib: "Hoy otangizning dardi sizga o'tibdi-da, ishtonsizning cho'pdan xavfi bor degandey otangiz xavfsirab Olatog'ni olti aylandi. Nimani ko'rdi? Go'ro'g'li deysiz, u nimada bo'ldi, yangi kirsas o'n to'rtga kirdi. Uning qo'lidan nima keladi. Uning dardi bir tuyum non. Dardi men yoki sen emas, mening ketimda ichkuyarim yo'q. Shunga ishlaringni qilib manovini yomon deganim yo'q. Endi borging kelmay, meni bilan yurging kelmay allaqayerdagi gaplarni topib, menga aytayapsan, bormayman desang seni kim zo'rlaydi, silardan kim jol topgan edi", – deb achchig'lanib, kirni ko'tarib jo'nagan edi, Zaydinoy: "Keling achchig'lanmang opajon, men ham boray. Xudoyo tushim shaytoni bo'lsin-da", deb keynidan iyarib jo'nadi. Endigi gapni Go'ro'g'li o'zidan eshitib.

Go'ro'g'li Rayhon shu joydan o'tsa kerak, bachchag'arning bir rangi-ro'yini ko'ray, deb G'irotni panaga boylab, bir archaning betiga tutib qarab yotgan edi Rayhon yo'l ustida kelabardi. Yaqinlashgan sayin Go'ro'g'lining zahri kelabardi. Kamonini qo'lga olib: "Bachchag'arni shu yerda otaman, otini, qizi bilan chechamniyam qo'shib olib ketaman", – deb o'qni solib, qahri kelib arabning to'shidan ko'zlagan edi, arabning oti tengsalib kishnayberdi. Go'ro'g'li bildi, ot o'qni sezdi, endi tiydirmaydi. Kamon tushirib edi arab ham otdan tushib yo'lni ko'raberdi. Go'ro'g'li: "Bu arab otning izini ko'rdi, agar iziga qaytsa otaman, qaytmasa otmayman", – deb turib edi, arab otiga minib tovga chiqib ketdi. Go'ro'g'li ham: "Endi Xoljuvonning aytganini qilaman, tag'in arab ko'rib qolmasin, aytgan kuniga qaytib kelaman", deb cho'lga qarab, ot haydab ketgan edi. Mana bugun aytgan kuni deb erta choshka-choshkada Olatovning qiyasidan kelib, Zarbuloqqa qaradi, ko'rdi: Xoljuvon Zaydinoy bilan kir yuvib yotibdi. Yaqinroq kelib Zaydinoyga nazar soldi. Go'ro'g'li ot ustida angrayib, burni tangrayib, o'zangiga oyog'ini tirab, ko'zini uzolmay qarab o'zidan-o'zi gapirabardi.

Qabotida o'sib Rayhon
Rohatlanar iskasa jon.
Kim olsa qilmaydi armon.
Xusnin ko'rsa ketar darmon.
Ana shu qizning tozasi
Mana shu qizning tozasi.

Gavhar toshlari boshida
Sadaf munchoqlar bo'ynida.

Qushlar sayraydi qoshida
Yangi bo'y yetgan yoshida.
Ana shu qizning tozasi
Mana shu qizning tozasi.

Osovliklari toycha bor,
Yuvoshliklari qo'ycha bor,
Bir nozi besh ming qo'ycha bor,
Yuzi ko'milgan oycha bor.
Ana shu qizning tozasi
Mana shu qizning tozasi.

Ko'rgan kuyadi ishqida
Gullar ochilar zavqida.
Bitta zar kokil ko'ksida
Qo'shsha anori ko'ksida
Ana shu qizning tozasi
Mana shu qizning tozasi.

Zulfiga gavhar tuyulib
Kel desa gullar uyulib,
Uchadi sochlar yoyilib
Borsam oldiga quyilib.
Ana shu qizning tozasi
Mana shu qizning tozasi.

Yurishlari ximo bilan
Qarashlari imo bilan
Tirnoqlari xino bilan
Suvga qarar gina bilan
Ana shu qizning tozasi
Mana shu qizning tozasi.

Rayhonga do'st bo'lsammikan
Shu qizini olsammikan
To'shiga qo'l solsammikan
Bir yil turmay yotsammikan
Ana shu qizning tozasi
O'pganda qolar mazasi.

Shunda Go'ro'g'li o'ziga-o'zi: "Hoy Go'ro'g'li, sen nima deb holsirayapsan. Yoshing yetmay uyalmasanmi, o'lmasang olarsan, xotin tuximini ko'rasan, buncha yaxshi ko'rasan, siringni berasan, oldida qo'lini olib, yana irjayib turasan, Ahmad tog'ang uchun kelding, unga yomonlik qilsang ko'r bo'lib o'larsan", – deb o'zini koyib, archaning ichidan chiqib Zarbuloqqa qarab enkayib boraverdi. Xoljuvon kir yuvayotib edi.

Zaydinoy: "Opa qarang bir otli kelayotir" – dedi. Eh chatoq bo'ldi, men lozimamni yechib yuvayotgan edim, joyimdan ham turolmayman, o'zi bachchagina ekan deb turib edi. Shu vaqt Go'ro'g'li kelib, otini to'xtatib, ot ustidan turib Zaydinoyga qarab, bir so'z aytib turibdi, Zaydinoy ham javob berayotir.

Go'ro'g'li:
Kunim o'tar tov-tovlab,
Yurganim yo'q aslo yovlab
Kelayapman kiyik ovlab
Otimni illa jilovlab
Gulsanam, suv ber ichayin
Oysanam, suv ber ichayin.

Zaydinoy:
Yurgan bo'lsang tovlar bilan,
Kunda ishing zovlar bilan
Ishimiz yo'q sizlar bilan
Na ishing bor qizlar bilan
Ol o'zing suvdan ichaber.

Go'ro'g'li:
Yuzing oyday shu'la sochib,
Singil bo'lsang bahring ochib,
Og'ang bo'lay ketma kechib
Tushsam otim ketar qochib
Gulsanam suv ber ichayin
Oysanam suv ber ichayin.

Zaydinoy:
Og'a dema, bordir og'am
Tog'a dema, bordir tog'am,
Yana qancha-qancha egam
Otingni boyla kalla ham
Tush o'zing suvdan ichaber,
Ol o'zing suvdan ichaber.

Go'ro'g'li:

Tushsam qaytib minolmayman,
Enkayib suv ololmayman
Suv ichmayin ketolmayman
Sen bermasang icholmayman
Gul sanam suv ber ichayin,
Oysanam suv ber ichayin.

Zaydinoy:

Minolmasang qolgin yotib,
Kayf qilasan nosing otib.
Suvni ich gavgang sulatib
O'lsang otangni jilatib.
Tush o'zing suvdan ichaber,
Ol o'zing suvdan ichaber.

Go'ro'g'li:

Husning ko'rib tonglar otar,
Ko'zing yumsang kunlar botar,
Bir xizmatim qilsang netar,
Mendayin sher ichib ketar,
Gul sanam suv ber ichayin,
Oysanam suv ber ichayin.

Zaydinoy:

Bo'lmagin qizlar bo'risi
O'zingku Chambil o'g'risi
Hayla yo'lingning to'g'risi
Menman otamning cho'risi
Tush o'zing suvdan ichaber
Ol o'zing suvdan ichaber.

Go'ro'g'li:

Menku Chambilni bilmayman
O'lsam-da xotin olmayman
Boshimga balo qilmayman
Suvsab qoldim tusholmayman
Gul sanam suv ber ichayin,
Oysanam suv ber ichayin.

Zaydinoy:

Tusholmasang turmaysanmi
Suvsab otda o'lmaysanmi
So'zimga tushunmaysanmi
Suv deb bir yil yurmaysanmi

Tush o'zing suvdan ichaber
Ol o'zing suvdan ichaber.

Go'ro'g'li:

Bir niyatman kelib edim,
Shu qiz suv bersa dedim
Ko'rsam kiyik olar edim
Rohatlanib olar edim.
Gul sanam suv ber ichayin,
Oysanam suv ber ichayin.

Zaydinoy:

Bekor qibsan niyatingni
Tushib bog'lagin otingni
Yelimladingmi sirtingni
Xudoga aytgin dodingni
Tush o'zing suvdan ichaber
Ol o'zing suvdan ichaber.

Go'ro'g'li:

Kokiling tushda irg'alib
Qiya borsang aqlim olib
Qolmaydiku qo'ling tolib
Men ichayin mehrim qonib
Gul sanam suv ber ichayin,
Oysanam suv ber ichayin.

Zaydinoy:

Sendaylarga qosh kermayman,
Ilon ko'rsang tosh bermayman
Bir qadam oldin yurmayman
O'g'rilar ishin qilmayman
Tush o'zing suvdan ichaber
Ol o'zing suvdan ichaber.

Xoljuvon bildi Zaydinoy suv bermaydi, asta aytmay baqirdi, balki otasini chaqirdi. Asta Zaydinoyini imlab: “Kel, qo’y qizjonim, suv bergan savob, bachchaning ichini qilma kabob. Bir kosa suvni berag’ayda qo’yag’ay, yosh bola ekan, ko’ngli cho’kib ketmasin, ichida armoni qolmasin”, – dedi. Shunda Zaydinoy: “Ichingiz achiyotgan bo’lsa o’zingiz tura solib suv bera qoling” – dedi. Menku turasolib suv berar edim, o’zingiz bilmay o’tiribsizmi, podshoning ayoli ishtonsiz ekan desa yaxshi bo’ladimi, uyati otangizga qolmaydimi, o’zingiz ming yigitga teng bo’lsangiz, bir boladan qo’rqib tursangiz. Shunday polvonning qizi bo’lsangiz, shu bola otdan yiqiladi bir turtsangiz, turing mana bu kosani olib bir kosa suv berib yuboring, yigit bo’lar bola ekan”, – deb ichida so’kib ketmasin, mang deb Zaydinoyning qo’liga kosani berdi. Zaydinoyga bu gap malol kelib, illa joyidan suvni to’ldirib ichida: “Suv ichmay qumurtqani ichkin” deb bir oyog’ini yerga tirab suv uzatdi. Go’ro’g’li chinni kosani bir chertib jaranglatib sindirib Zaydinoyning bilagidan ushlab: “Yo Ali”, deb ot ustiga tortdi. Zaydinoy bir ko’tarilib yana yerga tushdi. Go’ro’g’li u yoqqa Zaydinoy bu yoqqa tortib qoldi. Xoljuvon bildi. Go’ro’g’li bolalik qildi, Xoljuvonning achchig’i keldi, irchib joydan turdi: “Qorabosgir nega chiranasan, Go’ro’g’lini bola bilasan, indamasam tushirib qolasan, endi kelma navbatni berasan, mening o’rninga Ahmadga xotinlik qilasan” deb Zaydinoyning keynidan itarib sonidan ushlab ko’tarib yubordi, Go’ro’g’li oldiga o’ngarib ikki qo’llab to’shiga bosib, ot jilovin o’ziga qo’ydi. Jonivor G’irot miltiqning o’qiday bo’lib tashladi, ketdi. Xoljuvon oradan sal vaqt o’tkazib so’ngra dodlab, arkning ichidan kirib boraverdi. Rayhon eshikdan yalong’och chiqolmay turib edi, Xoljuvon eshikni ochib bo’sag’adan turib:

– A-bu to’ram chatoq bo’ldi! - dedi.

– Nima bo’ldi? – dedi Rayhon.

– Bir qoshiq qonimdan keching, – dedi Xoljuvon.

– Kechdim. Kechdim ayt nima bo’ldi? - dedi.

– Bir otli keldi. Bir kosa suv ber dedi, men suv berayotgan edim mendan oldinroq Zaydinoy suv uzatdi, bilagidan tutdi, torta-torta qoldim oldidan ketdim, dedi Xoljuvon.

Rayhonning jahli chiqib, qahri kelib, qani mening ko’ylak ishtonim?– deb baqiraverdi. “Ey, esim qursin buloq boshida qolib ketdi, olib kelayin”, deb iziga qarab chopaverdi. Rayhon aqling qursin, esing qursin, – deb achchig’i kelib ko’rpasini ikki yog’idan ushlab kallasiining ustidan bir tortdi, ko’rpa yirtildi. Kalla o’tib, ko’rpaning ikki yog’i ikki tomonga yoyilib qoldi, yugurib boradi, otga intildi, otning jobuvi turib ketdi, jobuvdi ushlab otdi arkdan nari uch kunlik yo’lga ketdi. Yalang’och otni mindi, qamchi urdi ucharlangan jonivor o’zni otdi, Rayhon ot bilan ikki terakning o’rtasidan keb qoldi. Ikki terakka qo’l soldi, ikkoviniyam sug’irib otdi, taqimining ostidan ikkovini ikki yoqqa to’qib qilib qo’ydi. Arkdan chiqib Go’ro’g’lini ko’rib chiqayotgan joyi:

Qahri kelgan shul arab

Otni mushtlab uradi.

Ucharlangan jonivor

O’zin buklab otadi.

Nara tortdi kuchayib
Arkdan chiqqan zamoni.
Nurayotir Aropat
Cho’lni bosib tumani.

Bedor otning shashtiga
Tov qarsillab bo’lindi.
O’sib yotgan zaranglar
Tumoridan yulindi.

To’da - to’da archalar
Yoydek bo’lib bukildi.
Abrik bilan shiboqlar
Arna soyga to’kildi.

Uch hakkallab jonivor
Tog’dan pastga tushadi.
Tushovlangan oyog’i
Goh-gohida shoshadi.

Qo’ltig’ida qanotim
Bulutdayin yog’di.
Ko’targandi osmonga
Qumni tog’dak o’yadi.

Gohi joyga tuyog’i
Tegmay o’tib boradi.
Ko’rdi G’irot izini
Quvmay quvib boradi.

Izin ko’rib, bosh chayqab
Tiklab cho’lga qaraydi.
Qaraganda qora yo’q
Biror changni ko’rmaydi.

Ustidagi shul Rayhon
Qaramaydi uradi.
Ucharlangan jonivor
Imillab yo’l oladi.

Tulporning tulporligi
Shunday kunda bilinib,

Taqimdagi teraklar
Uchi qoldi julinib.

Qo'lni qo'ying tanglayga
Qarayotir bek Rayhon.
Hay attang, deb boradi
Yurakka tushib armon.

Goh uradi otini
Goh o'zini uradi.
Nega keldim tovga, deb
Pushaymon qib boradi.

Ostidagi bedov ot
Gohi munkib boradi.
Qizil qumning dashtida
Endi changni ko'radi.

Rayhon ana yetdim, deb
Bir teragin oladi.
Ko'rib qolsa armon yo'q
Ayamaydi uradi.

Aslo oyoq ostiga
Qaramaydi bachag'or.
Changni ko'rsa yetdim deb
O'zin otar jonivor.

Alqissa, Go'ro'g'li Zaydinoyni olib, bir maydon oro cho'lga ot solib, izida nomu-nishon ko'rmay, endi Rayhon kelmadida, deb otni jilovini sal tortib, Zaydinoyga gap otib, Zaydinoy ham og'ziga kelganini ayamay aytib borayotir:

Ora cho'lda irg'alib
Ketayotir pirog'i.
Oldim deydi Go'ro'g'li
Ko'tarilib yuragi.

Endi Chambilga borib
O'ynab-o'ynab yurayin.
Kelgan bo'lsa bek tog'am
Zaydinoyni berayin.

Shu qiz borib Chambilga
Osmondagi oy bo'lsin.
Kelgan bo'lsa bek tog'am
Oltoygacha to'y bo'lsin.

Qancha qayg'u-g'am bilan
Ketgan edi darmonim.
Kelib oldim orimni
Endi yo'qdir armonim.

Qayg'urmagin Zaydinoy,
Bek tog'amni ko'rasan.
O'zi yigit sultoni
Darrov ko'ngil berasan.

Turkman adirin bosgan
Biya bilan toyi bor.
Odam yursa adashgan
Qo'zi bilan qo'yi bor.

Bo'g'cha-bo'g'cha ko'ylagi
Kiysa ado bo'lmaydi.
Munchog'ining sonini,
Sanog'ini bilmaydi.

Shu vaqtda G'iroti
Bir dilg'irlab qaradi.
Tortgan bilan to'xtamay
O'zin otib boradi.

Na bo'ldi, deb Go'ro'g'li
Orqasiga burildi.
Cho'ldan chiqqan oq bo'ron
Oq yuziga urildi.

Oxiri yo'q adirdan
Tiklay-tiklay qaradi.
Cho'l yuzidan qum otgan
Bir qorani ko'radi.
Otgan quli osmonga
Chiqayotir porillab
Damba-damba kuchayib
Tovush kelar sharillab.

Shunda bildi Go'ro'g'li
Rayhon quvib keladi.
Minib olgan bedovi
Halloslab yo'l oladi.

Shul G'irotni jilovin
Endi qo'ydi o'ziga.
Hadiksirab jonivor
Cho'zildi cho'l yuziga.

Orqasidan shovillab
Tovush kelar tobora.
Shu Go'ro'g'li qiz bilan
Bo'lib qoldi ovvora.
Jonivor G'ir keng solib
O'zin chetga otadi.
Shang'illab keldi terak
Yerga kirib ketadi.

Qattiq yerni shul terak
Ikki bo'lib tashladi.
Hayron qolib Go'ro'g'li
Yoqasini ushladi.

Obqolding bir o'limdan, deb
G'irotni yolin siladi.
Zaydin esa oldida
Qah-qah urib kuladi.

Foydalanding jodugar
Mening qilgan xatomdan.
Qamchi urib qochsangda
Qutilmassan otamdan.

Yosh ekansan hay attang.
Yashin tegmay o'lasan.
Shunda to'xtab egilgan
Qochib nima qilasan.

O'zim tushib oraga
Bir o'limdan qoldiray.
Shul otamning xizmatin
O'lguningcha qildiray.

Bu gapdan so'ng Go'ro'g'li
Otga qamchi beradi.
G'irotni esa qanotin
Endi yoyib jo'nadi.

– Bu gaplarni Zaydinoy
Vaqti kelsa aytarsan.
Borib tog'am uyida
Xizmat qilib yotarsan.

Mayli kelsin bek otang
Kimga xudo beradi.
Hozir aytib bo'lmaydi,
Kim o'lib, kim qoladi.

Hozir kulma Zaydinoy
Bek otangga qaragin.
O'lmay omon qolsin, deb
Bir xudodan tilagin.

Shu vaqt Tajanga
Jonivor G'ir yetadi.
Shashti sinmay cho'zilib
O'zin buklab otadi.

Qaytadi, deb Go'ro'g'li
Dirillaydi yuragi.
Eson-omon o'tkazdi
Nazarkarda firog'i.

Tajan daryosidan eson-omon G'irotni jonivor irg'ib o'tdi, ikki kishi og'irlik qildimi, ketingi ikki tuyog'i suvga salgina botdi. Go'ro'g'lining ko'ngliga gap keldi: "Bu Rayhon ko'rib qoldi, endi qo'ymaydi, Chambilga borsamda izimdan boradi, qayerda bo'lsayam bir tala-to'p bo'ladi. Mening otim hali yosh, uning oti katta, to'rt oyog'i kuchga to'lgan davri, kuchini olgan davri, balki izimdan yetadi, bildirmay yana biror narsa otadi. Men ham hali yoshman, u bo'lsa ko'rarini ko'rib qolgan, ming bir hiylani bilgan, necha dushmanlarni galini olgan. Biror joyga shikast yetkazib turmasin, endi shu joyda bir yoqli qilayin, xudo yo unga bersin, yo menga deb qo'lga kamonini olib, G'irotni ko'ndalang qilib, Rayhonning yo'lga qarab turaverdi.

Rayhon ham Go'ro'g'lining qorasini ko'rib, bir terakning taqimidan olib yo lot, deb ko'zlab otgan edi G'irotni qiyib ketganini ko'rgan edi. Shunda G'irotni tan berib, o'zining otining bolasi ekanini Go'ro'g'li qizini olib borayotganini bilgan edi. Endi bu terakni hayvonga bildirmay otayin, deb o'nglab borayotgan edi. Lekin sag'ana

G'irotd damba-dam olislab borayotganini ko'rib, kel qo'y, shu Tajanga borib, xudo borimizga berar, deb otini haydab kelayotgan edi. Rayhon ham Tajan daryosiga yetdi. Ucharlangan jonivor o'zini otdi, otning beli bir buralib ketdi, uchardan hayvonga ko'p jabr yetdi, irg'ib o'tarman, deb otgan edi bo'lmadi. Daryoning o'rtasidan berman oshib suvga kelib tushdi. Suvga bir botib, yana suvdan boshini chiqarib, daryoni qoq yorguday bo'lib suzib kelaverdi. Rayhon ham ot yolidan ushlab, teragini qo'ymay, shu daryodan chiqsam, gap meniki deb ko'nglini xushlab kelaverdi. Shunda Go'ro'g'li Rayhonning suvga kelib tushganini ko'rib, shu dushman suvdan omon chiqsa qutilmog'ini gumon bilib, kamoniga birdaniga yetti o'qni solib, Rayhonni to'shidan ko'zlayotir edi, shunda Zaydinoy kamonni ushlab:

– Ey Go'ro'g'li, nima qilayotibsan, nomardlik qilma, suvdan chiqmay otma – dedi.

– Men otangni otayapman. Men ham chechamni izidan quvganimda otang omon qo'ymas edi. Qo'y kamoning ipini deb bir siltab Zaydinoyning qo'liga olib, kamonini tortaverdi Go'ro'g'li.

Shunda Zaydinoy yig'lab, Go'ro'g'lining oyog'i ostiga o'zini taylab:

– Ey Go'ro'g'li, otam bilan oting teng. Shu ot bo'lmaganda, chechangni olib kelolmas edi. Men bir mushtiparman, o'lguncha xizmatkoring bo'lay, mendan so'rab birini otginda men ham sendan minnatdor bo'lay dedi. Shunda Go'ro'g'li:

– Ey Rayhon qizi ayt, otangni otayinmi, otini deb bir so'z aytib turibdi:

Ey Rayhonning barno qizi
Otang otilsinmi oti?
Osmonning hulkar yulduzi
Otang otilsinmi oti?

Men gapingga quloq solay,
Ko'ngil qanday bu kun bilay,
Aytsang iching bilib olay,
Otang otilsinmi oti?

Agar bo'lsang ayyor o'zing,
Qora bo'lar ikki yuzing,
Teskarisi bo'lar so'zing,
Otang otilsinmi oti?

Aytganga ko'nsang ko'nayin,
Ot deganingni otayin,
Chambilga so'ngra ketayin,
Otang otilsinmi oti?

Zulfing moylab to'yaysanmi?
Sho'xlikalarig qo'yaysanmi?
Bek Ahmadga tegmaysanmi?
Otang otilsinmi oti?

Otin otsam yurtin vayron,
Otang otsam akangdir xon,
Qaysi biri qolsin omon.
Otang otilsinmi oti?

Menga qolsa otang o'lar,
Oti menga o'lja bo'lar.
Qochib ketsa Bektosh minar,
Otang otilsinmi oti?

Birin tayin o'ldirayin,
Ayt qaysisin qoldirayin,
Chambilga qo'rqmay yurayin,
Otang otilsinmi oti?

Shundan Zaydinoyning ko'zidan yosh oqib biridan ayirilishini aniq bilib, nasibasi Chambildan tortilganini endi ko'ngli sezib, Go'ro'g'liga qarab bir so'z aytib turibdi:

Chambilbeling bo'lsin bog'li,
Yigiting oltin sadog'li,
Pichoqlaring bo'lsin yog'li,
Arzimni tingla, Go'ro'g'li!
Otsang ot otam otini,
Otmagin otam o'zini!

Bilmagan umrini g'ofillar,
Nomard topganin yopilar,
Tulpor bo'lolmas yobilar,
Otam qolsa ot topilar,
Otsang ot otam otini,
Otmagin otam o'zini!

Mol deganing qo'lning kiri,
Bir ketsa kelar biri,
Yigitning bir manglay teri,

Topilmas hech odam umri,
Otsang ot otam otini,
Otmagin otam o'zini!

Otsang otamni netarman,
Yig'lab Chambilga ketarman,
Har joyda seni sotarman,
O'lguncha qarg'ab o'tarman.
Otsang ot otam otini,
Otmagin otam o'zini!

Mardliging bu kun bilayin,
Aytgan gapimga ko'nayin,
Seni og'am, deb yurayin,
Jonim so'rasang berayin.
Otsang ot otam otini,
Otmagin otam o'zini!

Qayg'u solsang so'lar yuzim,
Avvalasi o'chsin izim,
Senga aytar rosti so'zim,
Yig'lab teshilmasin ko'zim,
Otsang ot otam otini,
Otmagin otam o'zini!

Tanga ko'nsang xizmatkorman,
Dehqon bo'lsang shunqor derman.
Yuragimga solma armon,
Kimga desang shunga yorman.
Otsang ot otam otini,
Otmagin otam o'zini!

Ana endi Go'ro'g'li
Yoyin buklab tortadi.
Yashindayin yetti o'q
Olovsirab ketadi.
Shuvillaydi osmonda
Uchib borar cho'g'lanib,

Tajan daryoning yuzi
Ko'tarilib bug'lanib.
O'q zarbiga gazalar

Qiyog'idan ayrildi.
Qirg'oqda o't qavrab
Bo'g'izidan qayrildi.

Parronchilar o'ldik, deb
Suvga otar o'zini.
Qo'rqib qanday balo, deb
Yumayotir ko'zini.
Tog' boshida harsang tosh
Nurayotir toyrilib,
Osmondagi bulutlar
Qolaverdi uyurilib.

Saksovulning boshidan
Tutab ketib boradi.
Shang'illaydi yetti o'q
O'tib ketib boradi.

Rayhon shunday qaradi
Yettita o'q keladi.
Suv ichida bo'lgansan
Qanday iloj qiladi.

Ostidagi pirog'i
Buklab o'zin otadi.
Ot yolidan Rayhonning
Qo'li chiqib ketadi.

Qator bo'lib yetti o'q
Suvga botdi parqillab.
Tushgan joyi Tajanni
Qaynayberdi sharqillab.

Otim nima bo'ldi, deb
Qo'rqib qaradi Rayhon.
Bedov cho'kib boradi
Suv yuzini qilib qon.

Qilmishidan ayrildi
Suyanchig'i otidan.
Endi borib bo'lmaydi
Go'ro'g'lining ortidan.

Ko'rgan tushim bo'ldi, deb
Keyin qarab boradi.
Qoni qiyin bo'lganda
Parronchini ko'radi.

Suv yuzida izi yo'q
Cho'kib ketdi pirog'i.
Hay attanga deganda
To'lib borar yuragi.

Alqissa, Rayhon jonini olib qolishi qiyin bo'lib, ichi g'amga to'lib, necha marta suv yutib, qo'lidan teragi suvga ketib, ko'zi parronchilarga tushib, qo'lini bulg'ab baqiraberd, kelcha-kel, deb chaqiraverdi. Parronchilar Rayhonni suvdan qutqarib oldi.

Shunda Rayhon: "Hayda-hayda tezroq meni Go'ro'g'liga yetkir, deb baqiraberd. Parronchilar qurakni olib, yuragi joyiga tushib, birinchi ko'rgani suvga qo'yayotib edi, kurakning dastasidan qarsillab pichoq bilan kesganday bo'lib suv tushib ketdi. Parronchilar bildi, buni Go'ro'g'li qildi, kamon bilan urdi. Shunda Rayhonga qarab:

– Ey taqsir, bu Go'ro'g'ling bizni beajal o'ldiradi, kuragimizni o'q bilan urib suvga yetmay sindiradi, keyinga qaytmasak borguncha ishimizni tindiradi, – dedi. Shunda Rayhon taqdiriga tan berib, parronni to'xtatib, ustida tik turib Go'ro'g'liga qarab kelaberd. Shunda Go'ro'g'li Zaydinoyini ot ustiga yotqizib, ustidagi kuylaklarini yirtib:

– Hoy Rayhon, menga bergan mukofotlaringni olaber, deb ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Agar o'lsam yo'qdir og'am,
Yig'laganda ho'ldir jig'am.
Uch yoshimdan beri egam,
Chambilbelda Ahmad tog'am.
Buytib quchadi qizingdi,
Shuytib quchadi qizingdi.

Qo'lingdagi sozing qoldi,
Quvaman deb beling toldi,
Chonachingga donin soldi,
Beva berib qizing oldi,
Buytib iskaydi qizingdi,
Shuytib iskaydi qizingdi.

Gul o'stirib yo'llaridan,
So'z eshitib tillaridan,
Kunda totib bollaridan,

Siqib tortib bellaridan,
Buytib quchadi qizingdi,
Shuytib quchadi qizingdi.

Baland tovlar qoya-qoya,
Qoyalardan tushsa soya,
Enga bo'b qancha aya,
Tog'am nordir, qizing moya,
Buytib quvadi qizingdi,
Shuytib quvadi qizingdi.

Zavqlanadi so'zlaridan,
Mehri to'yib ko'zlaridan,
Ko'ngli o'sib nozlaridan,
Iskab o'pib yuzlaridan,
Buytib o'padi qizingdi,
Shuytib o'padi qizingdi.

Saharlar kelib qoshiga,
Qara tog'amning ishiga,
Kun solib qizing boshiga,
To'shini taylab to'shiga,
Buytib iskaydi qizingdi,
Shuytib iskaydi qizingdi.

Shul qizingni aqlin olib,
Silab-siypab yo'lga solib,
Mast takadayin irg'alib,
Oq to'shini yaylov qilib,
Buytib o'ynatar qizingdi,
Shuytib o'ynatar qizingdi.

Adir dashtdan o'tov tikib,
Eshig'iga marjon taqib,
Yayloviga qo'chqor boqib,
Bellarin kamonday bukib,
Shuytib sozlaydi qizingdi,
Buytib sozlaydi qizingdi.

Kubisiga qatiq solib,
Qatiq solib yog'in olib,
Kelsang yersan to'yib-to'yib,

Nevarangni suyib-suyib,
Bunda ko'rarsan qizingni,
Shunda ko'rarsan qizingni.

Ayo, Rayhon bilgin endi,
Qiz o'yinin ko'rgin endi,
Iloj topsang kelgin endi,
Ko'rib kuyib o'lgin endi,
Men olib ketdim qizingni,
Men olib ketdim sozingni.

Shunda Rayhon arab oh tortib, ko'zi o'ngib, biror vaqtdan keyin o'ziga kelib:

– Eh attang-a, o'zimning qilganim o'zimga tushdi. Men nima qilgan bo'lsa balandroq bo'lib keldi. O'zingdan ko'r, o'zingdan ko'r!, – deb manglayiga ura berdi. Shunda Go'ro'g'li jo'nayotib edi orqasidan yana baqirib:

– Ey Go'ro'g'li, o'chingni ortig'i bilan olding. Endi bir gapim bor, shu gapimga amal qilmasang, men sening bilan o'lgunimcha qarama-qarshiman, deb Go'ro'g'liga qarab bir so'z aytib turibdi:

Ey Go'ro'g'li, to'xta aytay so'zimni,
O'zim qaro qildim ikki yuzimni,
Men roziman senga berdim qizimni,
Endi o'ldi, deb aytmagin o'zimni,
Qizimni Ahmadga zinhor bermagin,
Otingni uyurga aslo qo'ymagin!

Bilsang mening gapim senga nasihat,
Ikki marta berilmaydi bu hayot.
Hiylagar Ahmading o'zi nokas zot
Qizimning boshiga solma qiyomat.
Qizimni Ahmadga zinhor bermagin
Otingni uyurga aslo qo'ymagin!

Tanga ko'nsang senga qolar davlatim,
Toza kelgan bo'lg'anmasin avlodim,
Ul nokasda qiynalmasin farzandim,
O'chganimda o'zing bo'lg'in qanotim,
Qizimni Ahmadga zinhor bermagin
Otingni uyurga aslo qo'ymagin!

Eshak bilan otni teng deb bo'lmaydi,
Sherga sher qo'shilsa hech kim kulmaydi,

Qancha o'rgatsangda ovsar bilmaydi,
Nokas bo'lsa qancha aytsang qilmaydi.
Qizimni Ahmadga zinhor bermagin
Otingni uyurga aslo qo'ymagin!

Senga davlat bo'lsa dushman do'st bo'lar,
Yolg'on bo'lsa gaping to'g'ri deb bilar,
Davlat ketsa do'sting dushmanlik qilar,
Behisob davlatdan ziyod shul tulpor.
Qizimni Ahmadga zinhor bermagin
Otingni uyurga aslo qo'ymagin!

Odamzod aqlidan bir kun adashar,
Yo'lin o'nglamasa tulpor ham shoshar,
O'zingdan zo'r chiqsa oldingni kesar,
Mening bu kunlarim boshingga tushar.
Qizimni Ahmadga zinhor bermagin
Otingni uyurga aslo qo'ymagin!
Qiyg'irni quvganda yetar deb yurdim
Ot bilan jahonni aylanib ko'rdim,
Attang-a, ularga qo'yib bosh urdim,
Hulkar qizim bugun senga topshirdim.
Qizimni Ahmadga zinhor bermagin
Otingni uyurga aslo qo'ymagin!

Alqissa, Go'ro'g'li bu gaplarni eshitib otini bel qilib burib, xudoga ming qatla shukurlar qilib, Rayhonning gaplariga qahri kelib bir so'z aytib turibdi:

Ayo Rayhon kim bilmaydi bilganing,
O'z boshingga kelib tushdi qilganing,
Berish bilan tamom bo'ldi olganing,
Bundan ko'ra yaxshi edi o'lganing.
Qizingni Ahmadga berganim bo'lsin!
Otimni uyurga qo'yganim bo'lsin!

Menga nasihatni elatim bersin,
Bek tog'am qizingni qo'yninga olsin,
Xohlasa suyadi, xohlasa ursin,
Xohlasa cho'ri qib davrini sursin,
Qizingni Ahmadga berganim bo'lsin!
Otimni uyurga qo'yganim bo'lsin!

Menga kerakdir molu davlatim,
Avvaldan nokasdir zoting, avloding,
Agar bo'lsa yana sinsin qanoting,
Sening uchun azob chekar farzanding.
Qizingni Ahmadga berganim bo'lsin!
Otimni uyurga qo'yganim bo'lsin!

Aqli bor odam senday bo'lmaydi,
Bir sag'irni o'ziga teng bilmaydi.
Endi sag'ir ovsar qizin olmaydi,
Lochin uchsa qarg'ani tir qilmaydi.
Qizingni Ahmadga berganim bo'lsin!
Otimni uyurga qo'yganim bo'lsin!

Dushmanga yaxshilik qilsang do'st bo'lar,
Xalqiga xizmatdan bilsang baxt kular,
Yomonlik qilsang gar yomonlik kelar,
Odamzod ne eksa o'shasin olar.
Qizingni Ahmadga berganim bo'lsin!
Otimni uyurga qo'yganim bo'lsin!

Otimni uyurga qo'ysam soz bo'lar,
Bitta otim ana shunda yuz bo'lar,
Har bittasi Qizilqumdan iz bo'lar.
Bevasini bergan joydan qiz olar.
Qizingni Ahmadga berganim bo'lsin!
Otimni uyurga qo'yganim bo'lsin!

Ana endi mushtlab urgin o'zingni,
Chambilga tushirmasman izingni,
Bir bevaga almashtirding qizingni.
Ahmad iskar ardoqlagan nozingni.
Qizingni Ahmadga berganim bo'lsin!
Otimni uyurga qo'yganim bo'lsin!

Alqissa, Go'ro'g'li bu gaplarni aytib, yuragini bir bo'shatib turaverdi. Rayhon ham bu gaplarni eshitib, o'zini mushtlab, ko'zini yoshlab:

– Hoy Go'ro'g'li, bo'lmasa meni ham ot. Agar aytganlarim bo'lmasa, qo'lim o'lgunimcha yoqangda bo'ladi. Turkmaning qancha to'ladi, qizining o'chini Rayhon oladi, – dedi.

– Ey Rayhon, men qizingning hurmati kallangni o'zingga hadya qildim, sening aytganing bo'lmaydi, qizingni Ahmad tog'amdan boshqa olmaydi, qo'lingdan nima

kelsa ayama, endi Go'ro'g'li ham mana buni so'y deb turmaydi, – deb otini burib haydab ketaverdi Go'ro'g'li.

– Ey Go'ro'g'li, qizimni Ahmadga berma, otingni uyurga qo'yma, – deb yana izidan qichqirib qolaverdi.

– Aytganing bo'lmaydi, qizingni Ahmaddan boshqa olmaydi, – deb Go'ro'g'li otiga taqim qildi, muhtal bo'lib turgan bezovta ot changini qoldirib, jo'nab ketayotgani:

Ostidagi pirog'i
Bir dilgirsib jo'nadi.
Tuba tuba ustiga
Qirg'iydayin qo'nadi.

Xo'rsinadi Go'ro'g'li
To'yib nafas oladi.
Keng jahonga bir o'zi
Xon bo'lganday bo'ladi.

Qoplodayin qayrilsa
Toshni bo'lar diragi.
Kelib orim oldim, deb
Ko'tarilar yuragi.

Ot ustida g'angillab
Qo'shiq aytib boradi.
Jonivor ot cho'llarda
O'zin otib boradi.

Mehri turib G'iro'tga
Goh yolini silaydi.
Kalla chayqab jonivor
Olg'irdan ongtalaydi.

Jilov bermay boradi
Xo'p shariqqan qo'yday bo'b.
Ustidagi Zaydinoy
Ketayotir oyday bo'b.

Suv topilmas cho'llardan
Surib ketib boradi.
Qiya-qiya qumlardan
Yorib ketib boradi.

Kelgan joyin Go'ro'g'li
Ko'rib ketib boradi.
Katta-katta tovlardan
Burib ketib boradi.

Qimiz so'rab boradi
Qo'sh qanotli uylardan.
O'lja so'rab boradi
Qorni katta boylardan.

Ko'rib ketib boradi
Uloq chopgan to'ylarni.
Asta oralab o'tar
Hurkitmayin qo'ylarni.

Ot ustida Go'ro'g'li
Tushmay ketib boradi.
Zaydin esa keytida
Shoshmay ketib boradi.

Otni haydar Go'ro'g'li
Tog'am kelmay borsam, deb.
Tog'am kelgan vaqtida
Mana checham desam, deb.

Tanga ko'nsa bek tog'am
Olti kun to'y bersam, deb.
Tana joylab adirga
Ulog'ini chopsam, deb.

Uloq chopgan vaqtida
Yigit saylab olsam, deb.
Agar kelsa qizilbosh
Manglayiga ursam, deb.

Xo'p talangan elimga
Kir suyanchi bo'lsam, deb.
O'zimga teng bo'lguday
Bir yor sevib olsam deb.

Keytidagi Zaydinoy
O'ylar baxtim kulsa, deb.

Olis ketgan tog'asi
Chambil kelmay o'lsa, deb.

Ko'nglimdagi gaplarim
Yaxshi edi bo'lsa deb.
Go'ro'g'liday mard yigit
Mayli edi olsa deb.

Kecha-kunduz demayin
Ot haydaydi Go'ro'g'li.
Lolagulga to'lg'ayday
Bo'layotir har yog'i.

Sag'irlikda siyirilgan
Endi bitdi yarasi.
Sog'imlanib ko'rindi
Asqar tovning qorasi.

– Alqissa, Asqar tog'ning beliga chiqib, ot jilovini tortib, jonivor G'irotni ham yetib kelganini bilib, ikki burnidan pishqirib damini olib, kishnab, chillik bo'lib o'ynayverdi. Shunda Zaydinoy:

– Hoy Go'ro'g'li, kecha-kunduz yo'l yurib kelayotirsan, o'zi Chambiling bor Chambilmi yoki yo'q Chambilmi? – dedi.

– Mana shu tog'ning oldini taka yovmit, taka turkman yoki qisqasi Chambil deb aytadi, – dedi Go'ro'g'li.

– Chambil shul bo'lsa, bo'lmagani yaxshi emasmi? Bu joylarga talonchilar kelmaydimi, bari birikib qo'rg'on solmaydimi? – dedi Zaydinoy.

– Hovliqma Zaydinoy, hali ko'rsan hammasi bo'ladi, – dedi Go'ro'g'li.

– Kel, Go'ro'g'li otdan tushaylik, bir mayda o't ustida dam olaylik, so'ngira uyingga jo'naylik, – dedi Zaydinoy.

Go'ro'g'li otdan tushib, Zaydinoyni ham tushirib, G'irotni bog'ladi. Zaydinoy yuzidan chimmatlarini olib, sochlarini silab, Go'ro'g'li qarab nozu karashma qilib, o't ustiga chalqaraman bo'lib yotdi. Go'ro'g'li: "Zaydinoy dam olsin", – deb nariroq borib, bir pasil damini olib, endi jo'naylik deb joyidan turib Zaydinoyni chaqirdi, Zaydinoy uyg'onmadi, qoshiga borib razm solib qaradi. Aqli ketib boradi. Zaydinoyning qop-qora sochlari to'shiga tushib, ko'kraklari anor solganday ko'tarilib, qoshlari ko'ziga munosib, qora zulfaklari oppoq bo'ynida cho'lg'ashib, Go'ro'g'lining aqli shoshib, Zaydinoyga qarab bir so'z aytib turibdi:

Senga qarab uzolmayman ko'zimni
Bahorga o'xshaydi yozlaring sening.
Mehringmida tortar mening o'zimni
Moyday bo'lib yoqar so'zlaring sening.

Pari makonimi arabning joyi
Yoki tushganmikan osmonning oyi.
Yurakka o't tashlar oxu chiroyi
Oq qizil aralash yuzlaring seni.

Ming yillar kamoling chizganmi palak
Arziydi bir umr bo'lsamda halak.
Husningga yarashar qo'shsha kamalak
Ko'rgandi o'rtaydi qoshlaring sening.

Qiyali qarashing dardimni bilar
Maftunkor yuzlaring aqlimni olar.
Na sabab yuragim o'tdayin yonar
Bag'rimni kuydirar ko'zlaring sening.

Jamoling olamni yorug' qilguday
Bir imonga shohlar shahrin berguday.
Iskasa ming gulni isi kelguday
Ko'rsatmay bog'laydi sochlaring sening.

Ko'ksingda dirkillar ikkita qo'rg'on
Bir ko'rgan ishqiga adabsiz armon.
Kokiling yoyilib o'ynar har tomon
Qaddimni egadi to'shlaring sening.

Chevardir qo'llaring uchar to'tilar
Nigohing ko'rganda tillar tutilar.
Ximcha bellaringga ming jon sotilar
Chertmasdan chorsillar sonlaring sening.

Qarama, Go'ro'g'li aqling ketar
Bu qizni Chambilda bek tog'ang quchar.
Senga ham bir sanam bag'rini ochar
Boshqacha bo'ladi sozlaring sening.

Alqissa, Go'ro'g'li bu so'zlarni aytib keyiniga burilib Zaydinoy tur ketdik, deb baqiraverdi. Turcha tur deb chaqiraverdi. Zaydinoy Go'ro'g'lining kelganini, o'ziga qarab so'zlanib turganini bilgan edi. Go'ro'g'li endi tog'asiga bermaydi, o'zi oladi – deb baxti xush bo'lib turgan edi, oxirgi gaplarni eshitib, Go'ro'g'lining tantiligini bilib, ko'ngliga har xil gap kelib, kel bir gapirib ko'ray, deb bir so'z aytib turibdi:

Muna tog'ning mayin tegar shamoli
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.

Qiz bolaning o'n to'rtida kamoli
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.

Rayhon-rayhon gullar bu kun ochilib
Munchoqlari tog' boshida sochilib,
Quchoqlashib olishaylik goh kulib,
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.
Senga ochay yuragimda torimni
Oldingga tashlayin hamma borimni.
Yigit bo'lsang kelib ochgil baxrimni
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.

Sevganiga sanam qizlar boqadi
Shildir-shildir suv buloqdan oqadi.
Menday qizga senday yigit yoqadi
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.

Tog' gulga o'ralishsin sochlarim
Bahordek kamalak otsin qoshlarim.
Senga bo'lsin qo'l tegmagan to'shlarim
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.

Issiq damlar bugun damga urilib,
Olishganda oq ko'ylagin turilib,
Zar yopqichlar darchasida yorilib,
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.

Qo'shiq kuylab tog' gullarin uyg'otay
Sochim otib yulduzlarni bog'latay.
Bir nozima qirqta behisht ko'rsatay,
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.

Intikkanda endirayin oyni ham
Quyosh kelib, ketib tursin damba-dam.
Sig'ishganda qisirdasin bu olam
Kel Go'ro'g'li kayfu safo suraylik.

Alqissa, Go'ro'g'li bu gaplarni eshitib o'zi aytgan gaplarga pushaymon qilib, o'zini bosib, ko'rganlarni o'ylab Zaydinoyga qarab, xudodan insofini tilab, bir so'z aytib turibdi:

Menga aytma aslo bunday so'zingni
Insofingni Oллоh bersin Zaydinoy!
Sanam qizsan yerga urma o'zingni
Insofingni Oллоh bersin Zaydinoy!

Qiz bolaning avval bo'lsin ibosi,
Ibosi bo'lmasning yo'qdir zebosi.
Bir yigitga bo'lmas uning vafosi
Insofingni Oллоh bersin Zaydinoy!
Bir sho'xlikdan boshga tushar mingta g'am,
Chambilimning katta-kichigi tog'am.
Senga intizordir Ahmaddek tog'am
Insofingni Oллоh bersin Zaydinoy!

Aqllisan aytgan gapim olasan
Shuncha vaqt siring bilmay kelasan.
Unday dema menga checha bo'lasan
Insofingni Oллоh bersin Zaydinoy!

Hali borib bek tog'amni ko'rasan
Ko'rganingda birdan ko'ngil berasan.
O'ynab, kulib davru-davron surasan
Insofingni Oллоh bersin Zaydinoy!

Yuzing yorug' osmondagi oy bo'lsin,
Izing tushgan joyda suruv qo'y bo'lsin.
Ertaroq yur keng Chambilda to'y bo'lsin
Insofingni Oллоh bersin Zaydinoy!

Alqissa, Go'ro'g'li bu gaplarni Zaydinoyga aytib, otga minib, otni tog'dan pastga indirib, tog'asining uyiga bordi. Ko'rdi hamma narsa joyida. Zaydinoy bilan ikkovi uylarni qayta tikib, sozlab, oradan uch kun o'tib, kechqurun g'ing'ir-g'ing'ir, shildir-shildir karvonning tovushi kelabardi. Go'ro'g'li tog'am keldi, deb oldiga yugurib ketdi. Tog'asi bilan ko'rishib, karvonlariga yordam berib, uyni oldiga kelib, tuyalarni cho'ktirib, yuklarni tushirib bo'lib edi. Tog'asi:

– Hoy Go'ro'g'li, chechang uydami, nega chiqmaydi, mol-hollar nima bo'ldi? – dedi.

– Checham uyda, sog'u salomat, sizni kechikib ketdi, deb araz urib turibdi, mollaringizni omonatga odamlarga mindirib yuborganman, ularni ham endi olib kelamiz, – dedi Go'ro'g'li.

– Chechangni araz urganicha bor, kechikib ketdim, ani-mani deguncha yetti yil bo'libdi. Endi o'zim chechangni arazini yozay, – deb qo'lga gavhar munchoqlarni olib, yaltillatib uyni ichiga kirib ketdi Ahmadbek.

Go'ro'g'li bir vaqt qarasa tog'asi uyni chanqarog'i ustida guldirab kelayotir, buni ko'rib joyidan turib, tog'asini yerga tushirmay ushlab oldi. Shunda tog'asi qalch-qalchlab, ranglari bo'zrayib, burni tangrayib, ko'zlari olayib, yuraklari dirillab, nafas ololmay shirillab, qalampir, piyoz, suv – deyabardi. Go'ro'g'li yuziga suv sepib:

– Ha tog'a, sizga nima bo'ldi, bu tomonda nima qilib yuribsiz? – dedi.

– Hoy Go'ro'g'li! Chechang odam yovvoyi bo'lib ketibdi, suv ko'rmay zo'r bo'lib ketibdi. Yigit ko'rmay osov bo'lib ketibdi, badanlari tosh bo'lib ketibdi. Endi o'lsam uyma kirmayman, chang'aroqdan tushib o'lmayman, – deb keyinsirab ketabardi.

– Chechamni o'zim yuvosh qilib kelayin, begonasirayotganda, bolasini olmagan qo'yday qilib ko'rayin, unda ham bo'lmasa itni olqishlagan molday qilib tazirini berayin, – deb uyga kirib ketdi Go'ro'g'li.

Go'ro'g'li Zaydinoyga qarab:

– Hoy Zaydinoy, nima ish qilding, bizning va'damiz bul emas ediku! Nega tog'amni xafa qilding, – dedi.

– Ey Go'ro'g'li, tog'ang qaribdi. Darmoni quribdi, olayib ikki ko'zi qolibdi. Mayli sen itga bersangda men yo'q demayman degan edim. Sen tog'am mana shul deganing yo'q. Shul tog'ang bo'lgandayam hali ijab qilib nikoh o'qitib to'y bergani yo'q, – dedi Zaydinoy.

– Bu gaplaring tog'ari. Har joyning o'z odati bo'ladi. Bizning turkmanda yanga ko'ndirdisi bo'ladi, yangasi qizni ko'ndirsa, kuyov qizning qo'yniga kiradi, qizning har bir gapiga gavhar munchoqni iladi, bir xil qizlar ko'p gapirib qo'yib, nikoh to'yigacha homilador bo'lib qoladi. Seni to'ying ertaga bo'ladi. Bir kechaga nima bo'ladi, deb Zaydinoyni ko'ndirib, Ahmad tog'asiga kiring, – dedi Go'ro'g'li.

– Ko'ndirganing bilan chechang gapidan qaytadi, yana keldingmi deb chang'aroqdan chiqarib hovarga otadi, – deb tog'asi keyinsiralayotir, bo'g'inlari dirillayotir.

Alqissa, Go'ro'g'li tog'asini ko'ndirib uyga kiritib yubordi. Ahmadbek shu kecha hamma voqealarni Zaydinoydan bilib, Go'ro'g'li ishiga qoyil qolib ertalab joyidan turib, to'yning taraddusini qilib, ust-ustiga chaqiruvchilar qo'yaverdi, chaqiruvchilar gazama-gaza oshib, ko'ringan ovullarni to'yga chorlab turgani.

To'yga chorlar Ahmad sardor
Hamma to'yga, hamma to'yga!
Ado bo'lmas so'qimi bor
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Eshiting qoshi qoralar,
Bormasga yo'qdir choralar,
Tezroq yuring jo'ralar.
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Yuzga zebo berar hollar,
Dasturxonda asal, bollar,

To'yga yuring kampir, chollar,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Chaqiruvchi bo'lgan bizlar,
Bormay qolmang humor ko'zlar,
Barno kelin sanam qizlar,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

O'yin-kulgu bo'lsin har on,
El-u yurtga omon-omon,
G'uch yigitlar sap bir polvon,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Sayrab tursin qo'lda sozlar,
Bahor bo'lsin bu kun yozlar,
Uloq chopgan chavandozlar,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Hech kishi bormay qolmasin,
Eshitganim yo'q demasin,
So'ng araz urib yurmasin,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Borgan qo'shxonada yotar,
Kechga baxshi qo'shiq aytar,
Har aytganda tonglar otar,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Bakovulga ko'p ish bo'lar,
Kunduziga olish bo'lar,
Ko'rganning ko'ngli xush bo'lar,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Bilinar otning tulpori,
Yig'iladi zo'rning bari,
Olti kun bo'lar ko'pkari,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Beriladi tuya, otlar,
Ado bo'lmas har xil zotlar.
Bir ko'rganlar ming yil yodlar
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Ahmad sardor bir yor olgan,
Ko'zlari humorni olgan,
Taqqanda tumorni olgan,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Hoy-hoy bormay qolmangizlar,
Bizni gapni qo'ymangizlar,
Osh olganda to'ymangizlar,
Hamma to'yga, hamma to'yga!

Alqissa, odamlar kelaberdi, ust-ustiga dasturxon tashlayberdi. Hamma gaplarni bilaberdi, Go'ro'g'lining ishiga qoyil bo'laberdi. Bir tomonda olish, bir tomonda ko'pkari bo'laberdi. Hunari bor odamlar foyda ustiga foyda qilaberdi. Hunari yo'qlar quruq qolaberdi.

Go'ro'g'li ham goh olishayotgan polvonlarni, goh uloq chopayotgan chavandozlarni ko'zdan kechirib, bir oqshom o'ziga yoqqan yigitlarni yig'ib: "Hoy yigitlar bola edik, dushmanlar yurtimizni ko'p talar edi, endi yigit bo'ldik, yurtimizni endi talatmaylik, har kuni Hovdak ko'liga kelinglar, mashq qilib, nayza otish, kamon otish, qilich sarmalashlarni o'rganamiz", deb yigitlarni ko'ndirdi.

Go'ro'g'li yigitlar bilan mashq qilib yotaberdi, oradan bir oylar o'taberdi. Qizilboshlar kelayotgan emish, deb gap tarqadi. Go'ro'g'li yigitlar bilan Asqar tog'ning ustiga chiqib qaragan edi, har selgadan bo'linib-bo'linib kelayotgan askarlarni ko'rdi.

Askarlar hoy-hoylab, olgan olganniki, ko'rgan ko'rganniki, deb baqiraberdi. Shunda Go'ro'g'li tog' ustida dobil chalaberdi. Dobil tovushiga daralar sado beraberdi. Askarlar taqqa to'xtab, alanglashib yigitlarni ko'raberdi, ko'rgani hayron qolaberdi.

Go'ro'g'li qizilboshlarni oldiga ko'ndalang bo'lib, ikki og'iz so'z aytib turibdi:

Qizilboshlar quloq soling so'zima,
Ne sababdan kelding Chambil do'zima.
Mehmon bo'lsang, bu kun yozay dasturxon
Arzing bo'lsa aytgin mening o'zima.

Do'st bo'lsanglar xizmatkoring bo'laman,
Dushman bo'lsang bilganimni qilaman.
Ne sababdan kelding so'zla rostini
Urush qilsang berganimni olaman.

Bu dunyoning charxi falak bo'ladi,
Yillar o'tib elga navbat keladi.
Talayman, deb o'ylamagin Chambilni
Och ko'zlaring, ko'zing o'yib oladi.

Nafs degani odamzotga bo'ladi,
Birov moshin yegan erta o'ladi.
Kelganingni men sababin so'rayman
Yaxshi so'zga yaxshi javob bo'ladi.

Asqar tog'da bo'lar bir kun adolat,
Salomatlik odamzotga zo'r davlat.
Agar yomon bo'lgan bo'lsa niyating,
Izingga qayt bolang ko'rsin salomat!

Alqissa, Go'ro'g'lining bu gapini dushmanlar eshitib, hammasi xoholab kulib, tiliga kelgan gapini qaytarmay aytib, uyoq-buyoqdagilar ham birikib, oldiga bir o'tli chiqib, Go'ro'g'lga qarab, Go'ro'g'lini tirrancha atab bir so'z aytib turibdi:

Bizni bilsang qizilboshlar bo'lamiz,
Qayda molu davlat bo'lsa olamiz.
Tirrancha ajaling to'lganga o'xshaydi
Shul boshingga bul nayzani ilamiz.

So'ragani keldik turkman holini,
Holin so'rab boz haydaymiz molini.
Sendek tirranchalar so'zni qaytarsa
Ayamaymiz kampir bilan cholini.

Sen tirrancha do'bil urib turasan,
Yuragingda nima iloj qilasan.
Joning agar shirin bo'lsa molingdan
Ostingdagi o'tni tushib berasan.

Olloh sening aql-hushing oldimi,
Qoshingdagilarni ko'ngli to'ldimi?
Yolg'on dema rostin aytib tirrancha
Olis ketgan savdogarlar keldimi?

Buyon kelib bizga ta'zim qilinglar,
Minib turgan otlaringni beringlar,
Bu aytganni agar qilmay tursanglar,
Birin-bir go'rlaringni qozinglar.

Go'ro'g'li bu gaplarni eshitib, qoshidagi yigitlarga aytib bir so'z aytib turgani:

G'uj yigitlar keling endi,
Isfaxonni oling endi.
Yegan kishi yesam deydi,
Qaytmay qilich soling endi.

Hayiqmang aytgan so'zidan
Qon oqsin bosgan izidan.
Ayamay qilich uringlar
O'lgani ko'rsin o'zidan.

Ko'p ekan, deb qo'rqib turmang
To'dasiga qilich urmang.
Bir-biringga qilgin yordam
Pana joyda yolg'iz yurmang.

Sher yigitlar sherdek turing,
Mardni maydonini ko'ring.
To'dasiga yolg'iz bormang
Qochib-qochib uring.

Qo'rqqanni ko'rmay o'ting,
Botirmi to'yraab keting,
Qochganingda qalqon yoping,
Quvganingda nayza oting.

Yuzta-yuzta bo'lib oling.
Ellik qochsa ellik oling.
Dushman quvganda cho'zilib,
Orqasidan olg'a soling.

Aql bo'lsang doim omon,
Ahmoqlar qolish gumon.
Aslo qiziqib ketmanglar
Kekkayganga bo'lar yomon.

Har narsani bilgan yaxshi,
Aytgan gapni olgan yaxshi.
Dushmanlarga boring berib,
Yurganingdan o'lgan yaxshi.

Gaping bor bo'lsa so'ylanglar,
Dushman zo'rini bog'langlar.

Bet burib qochish aslo yo'q
Or uchun bu kun taylanglar.

Bu gapni yigitlar aytdi,
Botir yigitlar saf tortdi.
Bahodirlar nara tortib,
Asqar tog'dan taylab ketdi.

Qizilboshlar qurayotir,
Yigitlarni ko'rayotir.
Qo'lga olib kamonini
Ust-ustiga otayotir.

Parang miltiq taqqa-taqqa,
Shovqin to'ldi hamma yoqqa.
Yigitlar bilan Go'ro'g'li
Dushmanlarga kelar tikka.

"Urta!" aytishar izma-iz,
O'tday urilar ko'zga-ko'z.
Dushman bilan sher yigitlar
Choshgohga bo'ldi yuzma-yuz.

Hech kim bilmas qari yoshni,
Mardlarni g'ayrati toshdi.
Choshka-choshka ikki tomon
Hay-haylashib aralashdi.

Nayza qamishday bilqillab,
O'qlar uchadi g'ingillab,
Tutday to'kildi kallalar,
Gavda yumalar shilqillab.

Qilich urilar sharqillab,
Zarbidan tovlar yorqillab.
Egarda nechov buklandi
Nayza zarbidan inqillab.

Nechovning oqdi yoshlari,
Qolmadi aql-xushlari.
Qip-qizil qonga bo'yaldi
Asqarning oppoq toshlari.

Merganlar panada poylar,
Hayron bo'lib obod joylar.
Ust-ustiga o'lik tushib,
To'laverdi chuqur soylar.

Shirin jonlar bu kun sotildi,
Tarang miltiqlar otildi.
Bulutday bo'lib chiqqan changga
Quyoshning yuzi tutildi.

Ola bayroqlar pirillab,
Qo'rqoqlar qoldi dirillab.
Selga-selga bo'lgan soydan
Oqadi qonlar shirillab.

Turkman-o'zbek bahrin ochib,
Gohi quvib, gohi qochib,
Dushmanni tariqday sochib
Sermashar maydon ichinda.

Sher Go'ro'g'li G'irni surib,
Birin ko'zlab o'zin urib,
Yigitlarga ulgu berib
Qon kechar maydon ichinda.

Qizilbosh o'ldim, deb dodlar
Qo'rqanidan jarga hatlar.
Bo'yni uzun arab otlar
Qo'shildi maydon ichida.

Nechov umid uzib jondan,
Aslo qolmadi imondan.
Goh u yondan, goh bu yondan
Zarb berar maydon ichinda.

Tinmadi kunduz-kechalar,
Qo'rqib qolgan chachalar.
Tili qaytmagan nechalar
Yolvarar maydon ichinda.

Tutab boradi har yonlar,
Pana bermaydi yobonlar.

Enkaymagan ne polvonlar
Bukchayar maydon ichinda.

Sher Go'ro'g'li asli martdi(r),
To'lg'ab to'lg'ab haydar otdi.
Ust ustiga nayza tortdi
Boshqarib maydon ichinda.

Qizilboshlar qoldi shoshib,
O'pkasi kindikka tushib,
O'lganlari qoldi shishib,
O'ylanar maydon ichinda.

Qizilboshlar baqiradi,
Bir-birini chaqiradi.
Quvla, deyshib chinqiradi
To'da bo'b maydon ichinda.

Girdin olib o'zbek-turkman,
Qilich solar har tomondan,
Qizilboshlar qo'rqib jondan
Taqilar maydon ichinda.

Go'ro'g'li der: sherday dori
Qo'rqdi qizilboshning bari.
Biring qilich sermaganda
Uchoving orqasin qo'ri.

Xo'b sherlikni bildiringlar,
Kattasini o'ldiringlar.
Olisiga qilich urmay
Nayza bilan ildiringlar.

Merganlar o't u tomonga
Ko'zlab o'qni ot yomonga.
Taslim bo'lsa indamanglar
O'qdan sirg'a taqing jonga.

Sherlar gapni olayotir
O'yrib kish -kishlayotir.
Qizilboshlar o'ldik, deyshib
Kallasiga mushtlayotir.

Kimga aytar arzu-xolni
Qizilboshning qo'li toldi.
Hay-haylashar o'zbek- turkman
Archa yonib tana qoldi.

Qizilboshlar yig'layotir
Qaysarlari o'layotir.
Nechovlari baqirishib
Omonlik, deb so'rayotir.

Qo'rqoqlari o'lganday bo'b,
Qizil guli so'lganday bo'b.
Ust-ustiga yotayotir
Shiboqni sug'urganday bo'b.

Qilichini bari taylab
Otini havoga haydab.
Omonlik, deb kelayotir
O'z qo'lini o'zi boylab.

Alqissa, Go'ro'g'li omonlik tilaganlariga omonlik berib, ot-otiga chappa mindirib, Asqarga qaytarib, haydab kelabardi. Asqad tovining ustida Chortoqli-yu Chambilning, taka-Yovmitning yoshu qarilari, oqsoqolu akobirlari, beklariyu xonlari, boyu gadoylari nima bo'lar ekan, qizilboshlar yengsa sho'rimiz qurigani xudoyo yigitlarga madad ber" – deyshib, duo qilishib turgan edi. Qizilboshlarning yengilganini ko'rib karnay-surnayni torttirib, semiz qo'ylarni so'ydirib, to'y qilib yubordi.

Bir xillari yigitlarning oldiga peshvoz chiqayotir, ot-otdan tushirib olayotir. Shunda Go'ro'g'li: "Ey, oqsoqolu akobirlar, qizilboshlar sizlardan olib ketgan mollarini minib keldi, hammasi Asqarda o'tlab yotibdi, uni bo'lib beringizlar. Bu asirlarni nima qilamiz, farmon beringizlar. Sizlar nima deb amr qilsalaringiz shuni qilamiz, deb aytdi. Shunda Oqan joyidan turib Go'ro'g'liga qarab, bir so'z aytib turibdi:

Bu kun gapni aytmq bizdan lozimdi,
Suyungandan bosolmayman o'zimni.
Bunda turgan akobiru oqsoqol
Eshitinglar mening aytgan so'zimni.

Bedor otni qamchilasang qir oshar,
Ovib-ovib oltin taylar bu bashar.
Eshitinglar mening aytgan so'zimni
Shu elatga shunday yigit yarashar.

Sherning soyasida davron suraylik,
Yaratganga endi shukur qilaylik.
Shu elatga shunday yigit yarashar
Keng Chambilni shu yigitga beraylik.

Aql qaramaydi odam yoshiga,
Qarab-qarab tan berasan ishiga.
Keng Chambilni shu yigitga beraylik
Shohlik tojin kiydiraylik boshiga.

Turkman-o'zbek chiqmas aytgan so'zidan,
Dushman qo'rqib qochsin bosgan izidan.
Shohlik tojin kiydiraylik boshiga
Farmon borish endi bo'lsin o'zimdand.

Alqissa, Go'ro'g'li podsho bo'lib, otlarni bo'lib-bo'lib xalqqa berib,
qizilboshlarni otlariga ikkov-ikkovdan chappa-teskari qilib mindirib endi kelsanglar
mehmon bo'lib kelinglar, ko'rgan bilganlaringni podsholaringga, xalqlaringga aytib
beringlar, deb qo'yib yubordi.

Shunday qilib Go'ro'g'li
Oldi nomus-orini.
Erkin qilib yashaydi
Qolgan xalqning barini.

Ust-ustiga to'y berib
Yetdi murod-maqсадga.
Soqi bekni olib keb
Sayis qildi G'iro'tga.

Niyatiga Go'ro'g'li
Yetganini biladi.
O'zbek-turkman elining
Barin jam qib oladi.

Kanal qazib tovlardan
Cho'lga suvni endirdi.
Chortoqlining ustidan
Katta qo'rg'on soldirdi.

Shundan beri Go'ro'g'li
Davru davron suradi.
Manzilin so'rasangiz
Qodir shoir biladi.

Indeksi yodda yo'q,
Bilmam qanday bo'ladi.
Agar topib olsangiz
Malik Murod bo'ladi.

To'ra Mirzo yo'lini
Yuboradi ko'rsatib.
Yolg'iz yurmay desangiz
Qo'shiladi Ergashev.

Qahhorovga borsangiz
Ko'p tilsimni bilasiz.
Go'ro'g'lining uyidan
Palov oshab kelasiz.

JORXUN MASTON

Doston

Aytuvchi:

Qodir Rahimov

Yozib oluvchi va nashrga
tayyorlovchilar:

Malik Murodov,
Abduolim Ergashev

Bulbul ayrilmasin guldun, adashmasin to'g'ri yo'ldan, ustozlardan o'rgangan bir doston, doston oti Nuralixon, chortoqli Chambilbelidan, otasi – Avazxon, bobosi – Go'ro'g'li sulton, momosi – Yunus, Misqol, onasi – Uzumko'z xiromon, o'n to'rt yoshli bek Nuralixon, ilm olib mulla bo'lgan, yag'rinisi keng polvon, kokili yelkaga tushgan, necha qizlar oshiq bo'lib aqli shoshgan, otasidan ziyod bo'lsa-bo'lar, kam bo'lmas deb nechalar ketidan gap sotgan, o'sar edi Chambilda eson-omon, ilm berar edi domlasi Xo'ja Yusufxon.

Go'ro'g'li Chambilni obod qilgan, ikki yuz madrasa qurdirgan, Asqar bilan Polapon tog'idan kanal qazib Chambilga suv keltirgan, sakson qubba qurdirgan, har qubbani oltindan qo'ndirgan, qirqta bog' qurdirgan, har bog'da to'qson turli gilyohdan, o'ttiz turli daraxtdan ektirgan, qirq bog'da qirq yigitning otini qo'ygan, o'ziga ham bir bog' qurdirib, bu bog'ni Og'a Yunus, Misqol parilar bog'i der edi. Bu bog' to'rtga bo'linar edi: biri Misqol pariniki, biri Yunus yorniki, biri Go'ro'g'lining o'ziniki, biri G'irotniki edi. Har birining bog'i yana to'rtga bo'linar edi: biri bahori, biri saratoni, biri tiramoi, biri qishki bog' edi.

Shunday qilib bek Go'ro'g'li dovrug'i olamga ketib, necha podsholarga yetib, ular Chambilni olamiz deb lashkar tortib, kelgani qilichdan qochib, Go'ro'g'li desa tosh-toshga pisib, kunlar ham o'tib keta berdi. Go'ro'g'li o'zbek-turkman elini boqib, ochiga non berib, to'qidan zakot olib yota berdi. Nuralibek ham madrasada o'qiy berdi. Nurali hamma mullabachchalardan ham ko'proq bilar, ustozni uni hammadan yaxshi ko'rar, har ish bo'lsa unga buyurar edi. Nuralixon yarim kungacha madrasada o'qib, qolgan vaqtlarini bek Soqining maktabida o'tkazar, bu yerda ot chopish, qilich urish, nayzabozlik, merganlikni mashq qilari edi. Bek Soqi ham Nuralinipg hamma bolalaridan ustunligini, abjirligini ko'rib hayron qolar, bir o'zi mingga keladigan bahodir bo'ladi, der edi.

Nuralixon bir kuni Xo'ja Yusufdan saboq olayotgan edi, darvozadan yana bir begona mullavachcha kelib, ta'zim qilib, salom berdi. Xo'ja Yusuf salomni olib, kimning o'g'li ekani, qayerlik bo'lishi va nima uchun kelganini so'radi. Shunda kelgan mullavachcha javob berib, bir so'z aytibdi:

O'qimagan odam nodonga tengdir,
Saboq olmoq uchun keldim, ustozim.
Bilganga bu dunyo bebaho, kengdir,
Saboq olmoq uchun keldim, ustozim.

Joyimni aytadi g'azal Pahlavon,
Otamning otidir Yoqub pahlavon,
Ruxsat bergan ekan Go'ro'g'li sulton,
Saboq olmoq uchun keldim, ustozim.

Taqsir, (suvlar) toma-toma ko'l bo'lar,
Zahar ham, asal ham bilsam til bo'lar,
Bilim degan zar tuvakli gul bo'lar,
Ilm guli uchun keldim, ustozim.

Ilm oldim, ko'p ilmni bilmadim,
Ilmimga birorta ustoz ko'rmadim,
Sizdan o'zgalarni ustoz demadim,
Shogirdlikka sizga keldim, ustozim.

Mol-dunyoni oldingizga taylayin,
Savol bering, mayli, javob aylayin,
Ilm uchun muhtojdirman, naylayin,
Ilm uchun bunda keldim, ustozim.

Otim G'ani, o'zim g'ani, G'animan,
Otam ham onamning joni-diliman.
Sizni dedim, olis yo'ldan keldim man,
Shogird bo'lay, umid qildim, ustozim.

Bu so'zlarni Xo'ja Yusuf eshitib, Go'ro'g'lidan yorlig'ing bormi, dedi. G'ani yorlig'ini ko'rsatdi. Xo'ja Yusuf bir qancha savol berdi, G'ani esa javob ayladi:

– Avvalo, aylayin men senga himmat,
Qanday fursat odam uchun g'animat?
Dunyoda oltindan nimadir qimmat?
Muna savolimga javob aylagin.

– Ustozim, aylangiz siz menga himmat,
Do'stlar uchun bir dam suhbat g'animat.
Dunyoda oltindan kitobdir qimmat,
Bilar-bilmas, ustoz, javob ayladim.

– Nima bo'lar qushdan ham tez uchadi,
Nima bo'lar yer bag'rini quchadi.
U nimadir qo'rqmay sirin ochadi?
Muna savollarga javob aylagin.

– Fikr bo'lar qushdan ham tez uchadi,
Bulut bo'lar yer bag'rini quchadi,
U oynadir odam sirin ochadi,
Bilar-bilmas, ustoz, javob ayladim.

– U nimadir tiriklikda o'likdir,
U nimadir dunyoda eng ulug'dir.
U nimadir har narsadan juyrukdir?
Muna savolimga javob aylagin.

– Bemaqsad odamlar asli o'likdir,
O'zi topib yegan noni ulug'dir,
Odam qimmat, har narsadan juyrukdir,
Bilar-bilmas, ustoz, javob ayladim.

Alqissa, Xo'ja Yusuf G'ani mullabachchani har narsadan sinab ko'rib, aqliga hayron bo'lib, uni bilimdonlikda Nuralibekcha ko'rib, qoshiga o'tirg'izib qo'ydi. G'ani hamma mullabachchalar bilan tanishib ketdi, bek Nurali bilan do'st bo'ldi.

Bir kuni Nuralibek do'sti G'anini uyiga aytib bordi, katta ziyofat berib, to'n yopib yubordi. Fani ketgandan keyin Nuralibekning opasi Gulinor ukasiga ikki jumla so'z aytib turibdi:

Qarindoshdan shirin bo'ladi tog'a,
Rang-ro'yingdan menday opang sadag'a,
Arzimagan gapga xafa bo'lmasang,
Bir so'zni aytayin, eshit, bek og'a.

Sipohida og'a, do'stlik ko'p bo'lar,
Poylab-poylab ikki ko'zga cho'p sug'ar,
Sipohi bo'lolmas, bo'lmasa zargar,
Chertib-chertib do'st bo'lsangchi, bek og'a.

Yoshligingda ko'rding qancha zulmni,
Senga qo'shib bog'laganda qo'limni,
Achchiq bilma, og'a, mening tilimni,
Meni desang, do'stingdan kech, bek og'a.

Nuralibek bu so'zni eshitib: "Ey opa, har kim ekanini o'radi, sen qizsan-da, shuning uchun shumsan-da, Yoqubbekning o'g'li bo'lsa, qayeri kam?", – dedi. Gulinor: "Bek – bekni ko'rolmaydi, kambag'allikka kelmaydi. Men ham aytdim-da, ishqilib ehtiyot bo'l", – deb, qirq xonali ko'shkgiga qizlari bilan ketdi.

Kundan kun o'tdi, oydan oy o'tdi. Bir kuni G'ani turib aytdi:

– Ey, Nuralibek, shaharda yurib ham zerikib ketdik, bedovlarning beliga minsak, ko'lga yo'l olsak, Oydin ko'lga qush solsak, o'ljaga ustozlarimizni, mullalarni bir ziyofat qilsak, elga mergan bo'lib tanilsak.

Bu so'z Nuraliga ma'qul tushdi. Ikkovi Xo'ja Yusufdan uch kungacha javob oldi. G'ani aytdi: "Ey Nurali, Avazday sherning o'g'li bo'lsang. Go'ro'g'liday sultonning yulduzi bo'lsang, minganingga yarasha G'irotni minsang, olsak ham olar edik, olmasak ham olar edik". Nurali aytdi: "G'irotni Chambilning tayanchi, uni bobom bermaydi, bergani bilan bek Soqi ko'nmaydi, otam olib bersa bo'ladi, lekin otam bormaydi, ber demaydi". G'ani aytdi: "Farzand toshni eritar", – degan gap bor. Sen chini bilan otangga yalinsang, albatta G'irotni olib beradi".

Shunda Nuralibek Avazning o'rdasiga kirib ketdi. Xon Avazga salom berib, boshini quyi solib, xafa bo'lganday bo'lib turdi. Buni ko'rib bek Avaz: "Hoy

yolg'izim, seni kim xafa qildi, kimdan qanday taaddi o'tdi", – deb, bir so'z aytib turibdi:

Osmonimda sensan yorug' yulduzim,
Daryo bo'lsam, suzadigan qunduzim,
Kimdan senga qanday taaddi o'tdi,
Ne sababdan xafa bo'lding, yolg'izim?

Ol bedovlar oyog'idan boylansin,
To'y bo'lganda og'ir toyloq taylansin,
Men tiriman, kimdan o'tdi taaddi,
Sen yolg'izdan menday otang aylansin.

Sen so'rasang men berayin borimni,
Oyog'ing ostiga sochay zarimni,
Rostingni ayt, kimdan o'tdi taaddi,
Maydon bo'lsa tikay tanda jonimni.

Minganda o'ynaydi arab pirog'im,
Yonimda jarqillar keskir jorog'im,
Do'st, dushmanidan qanday taaddi o'tdi,
Tortinmay aytaver, yolg'iz chirog'im.

Bo'lar-bo'lmas so'zga xafa bo'ldingma,
Yoki o'z elingda dushman bo'ldingma?
Qanday eldan senga o'tdi taaddi,
Mung'ayib jonimni so'rab keldingma?

Nuralixon bu so'zni eshitib, miyig'ida kulib, otasining G'irotni berarini bilib, Avazbekka qarab:

Ota, sendan bir bedovni so'rayman,
Shu sababdan men mung'ayib qarayman,
Uch kungacha domullam berdi javob,
Oydin ko'ldan so'na-suqsur ovlayman.

Botir bo'lsa bolalikdan bilinar,
Dushman ko'rsa birdan bag'ri tilinar,
Bir bedovni ota, sendan so'rayman.
Menga mehring, ota, shunda ko'rinar.

Dol bedovning men beliga minayin,
O'ng qo'limga olg'ir qushim olayin,
Men so'radim, ota, sendan bir otni,
Bek ota, mardliging bugun ko'rayin.

Yaxshi so'z ham odam uchun muroddi,
O'g'il farzand ota uchun davlatdi,
Bir martaga olib bergin o'zimga,
Men so'rayman tabladagi G'irotdi.

Bu so'zni eshitib, bek Avazning aqli jitib, ikki qulog'i bitib, balki o'zidan ketib: "Kuydirmagin mening xonu-monimni, G'irotdi dema, mayli so'ra jonimni", – deb bir so'z aytib turibdi:

Farzandim, kuydirma xonu-monimni,
Sadag'a aylayin bugun tanimni,
Mendan kelib toju taxtim so'ragin,
Ber, desang, berayin tanda jonimni.

Sen bilasan, bolam, Chambil davlatdi,
G'irotdi Chambilning sini-simbati,
Ber, desang, berayin tanda jonimni,
Yolg'iz o'glim, so'ramagin G'irotdi.

Bulbullar shaydodir bog'dagi gulga,
Jon bersang arziydi Chambilday elga,
Yolg'iz o'glim, so'ramagin G'irotdi,
G'irotdi ketsa vahim kelar Chambilga.

Odamzodning olim bo'lsin tog'asi,
Singli bo'lsin, bo'lsin botir og'asi,
G'irotdi ketsa vahim kelar Chambilga,
Shu G'irotdir osoyishlik egasi.

O'zga eldan qarg'a, quzg'un kelmasma,
Kelgan quzg'un bu xabarni bilmasma,
Shu G'irotdir osoyishlik egasi,
So'ng Chambilga bir falokat bo'lmasma?!

Ega kelsa tosh imorat qulaydi,
Bog'bon bo'lsa suvsiz giyo gullaydi,
G'irotdi ketsa bir falokat bo'lmaydi,
Shuning uchun so'ngra Chambil jilaydi.

Kengashli to'n keng keladi, chirog'im,
G'irim bilan elim mening yuragim,
Qilday gunoh uchun Chambil yig'laydi,
Mayli, Majnunko'kni mingin, keragim.

Avazbek bu soʻzni Nuraliga aytdi, Nurali erka uldi, koʻngliga botdi. Bildirmayin dedi, boʻlmadi, xoʻrsinib ketdi. Bilmay qoldi, ikki koʻzdan ikki tomchi yosh ketdi, yuzini burib, Avazbekka qarab: "Bogʻingda nozlanib turgan gulingdan, bir bedovni yaxshi koʻrding ulingdan", – deb bir soʻz aytdi:

Nozlanib bogʻingda oʻsgan gulingdan,
Bir bedovni yaxshi koʻrding ulingdan,
Ota degan oʻgʻil baxti boʻlmayma,
Bir ulingni kam tashlading elingdan.

Umid qilgan edim, qaddim bukildi,
Koʻnglimning gavhari tutday toʻkildi,
Bir hayvonni yaxshi koʻrding ulingdan,
Nor gul edim, barglarim qoqildi.

Suvsday toshsam, kelgan toshni bilmasam,
Tirik boʻlib sonda borman oʻlmasam,
Nor gul edim, barglarim qoqildi,
Farzand boʻlib bir hayvoncha boʻlmasam.

Uch kun uchun Chambil vayron boʻlama,
Chambil degan shamol turtar qalʼama?
Farzand boʻlib bir hayvoncha boʻlmasam,
Gavharim deb ota menga qarama.

Orqa tovim karraligin bilmadim,
Yorugʻimning zarraligin bilmadim,
Gavharim deb ota menga qarama,
Bek otamning baqqolligin bilmadim,

deb Nuralibek koʻzidan yoshini toʻkib, oʻzini oʻzi soʻkib, joyidan turib keta berdi. Avazning ham yuragi tushganday, aqlidan shoshganday, yulduz botib ketganday boʻla berdi.

Gʻirotning sayisi bek Soqi, sakson tilla bir oylik haqi, kulib yuborsa gulli qoqi, sozi suhbatda podsholik haqi, qadam bosib, bir Avaz bilan suhbatlashib kelay deb kelayotib edi, Avazning koʻshkisidan Nuralibekning koʻzida yosh bilan chiqqanini koʻrib, Nuralibekni ushlab, koʻnglini xushlab, Gʻirotni bermaganini bilib, Avazga qarab ikki ovuz soʻz aytib turibdi:

Qariganda kamaringda belingdi,
Sherligingda zargaringdi nuringdi,
Qatti(q) Avaz, qarogʻingga bir qara,
Nega xafa qilding yolgʻiz ulingdi.

Yaxshi farzand el baxtiga tugʻilar,
Yomon tugʻilganda xalqi boʻgʻilar,
Nega xafa qilding yolgʻiz ulingdi,
Yomon soʻz yurakka oʻqday suqilar.

Ot boʻladi bir yigitning yoʻldoshi,
Farzand boʻlar orqa tovi, beldoshi,
Yomon soʻz yurakka oʻqday suqilar,
Yaxshi soʻz boʻladi gavharning boshi.

Botir qoʻrqmay oʻzin urar toʻdaga,
Taqdirini topshiradi xudoga,
Bir farzandga mingta bedov shart emas,
Shul Gʻirotning Nuralidan sadagʻa.

Kulfat tushmay, bedov otlar chopolmas,
Oltin sotiladi, mehr sotilmas,
Shul Gʻirotning Nuralidan sadagʻa,
Ot topilar, Avaz, farzand topilmas.

Tomirsiz terak ham qiladi doddi,
Uli yoʻq podsho ham qilar faryoddi,
Ot topilar, Avaz, farzand topilmas,
Sen ruxsat ber, men berayin Gʻirotti.

Bu soʻzni bek Soqi Avazga aytdi. Avazning sillasi ketdi, joyidan turib Soqiga aytdi: "Hoy Soqi, men Gʻirotni bersam, Goʻroʻgʻli bexabar qolsa, Gʻirotning ketganini dushman bilsa, Chambilga bostirib kelsa, otam Gʻirni min desa, Gʻirning yoʻqligini bilsa, mening gunohim uchun Chambil talatoʻp boʻlsa, undan koʻra yaxshi boʻlmaymi Avaz oʻlsa?!"

Soqi aytdi:

– Sen, Avaz, koʻp vahima qilaverma, dushmandan qoʻrqib hadik olib yotaberma. Nurali uch kunga boradi, bugun ketsa bir kun turib ertasiga keladi. Nurali uling tong saharda Gʻirning beliga minadi, nomoz vaqtigacha Chambildan chiqib ketadi, hech kim Gʻirni ham, Nuralini ham koʻrmay qoladi, dushman u yoqda tursin, Goʻroʻgʻli ham bilmay qoladi.

Bu soʻz Avazga ham maʼqul keldi. Ertaga saharda Nuralibekni kiyintirib, xitoy toʻndi kiydirib, oyogʻiga tilla etik kiydirib, tilla kamarni boylatib, ustidan sovut taylatib, Isfihon qilichni mahkam boylatib, abdal nayzani chap qoʻliga ushlatib, qalqonni orqasiga taylatib, lochin qushni oʻng qoʻliga qoʻndirib, laʼl-javohir sallani boshiga oʻratib, bek Avaz ulini iyatib tablaga bordi. Tablada Soqi Gʻirotni afzallab, sozlab, zarlab taylagan, ayilni Gʻirning beliga taylab tortayotgan edi. Gʻir jonivor Avazni koʻrib, qulogʻini chimirib, Coqiga belini torttirmay uyirilib, uzib-uzib kishnab, jolini egarning ustiga tashlab, quyrugʻini silkillatib har muqomda oʻynab turdi. Gʻirotning qiligʻini Avaz koʻrib hayron boʻlib, egar ustiga jolini qoʻyganini koʻrib,

Nuraliga borma degani ko'ngli bo'lmay, Firotning qoshiga kelib kokilini silab, siynalab egar ustidan jolini olib, yuragi ezilsa ham bildirmay, Nuralibekka min deb buyurdi, o'zi uzangini bosib turdi. Soqi jilovini ushlab turdi. Nurali otning yoniga keldi. Sig'indi Bobo Zangiga, oyoq qo'ydi uzangiga, osildi otning yetim joliga, mindi bek Nurali shoh supaday bo'lgan G'irning beliga, ushlab jugandi qo'lga, qarab o'ngi-so'lga, qush qo'ndirib qo'lga, otasidan duo so'radi. Avaz o'g'li Nuralini duo qilayotir, bek Soqi ovmin deb yordam berayotir:

Pirni ko'rsam ikki qo'lim qovshirdim,
Azizlarni ko'rganimda bosh urdim.
Ovmin degan qabotimda bek Soqi,
Yolg'izimdi men xudoga topshirdim.

Chambildi qilarman o'lguncha bo'ston,
Qirq bir bog'i qishin-yozin guliston,
Avvalida men xudoga topshirdim,
So'ngra saqla hamrohim qirq chilton.

Chambilim chortoqdir, atrofi adir,
Ikki yuz saksonta avliyong bordir,
Farzandimni qirq chiltonga topshirdim,
Har baloni rad ayla Xo'jai Xidir.

Befarzand o'tmasin oltin davronim,
Ayirilsam, dard chekib qolar armonim,
Kulfatni rad ayla Xo'jai Xidir
Uch yuzu oltimishta sohibqironim.

Tandagi jonimdir menga omonat,
Do'st tugul, dushmanga qilma xiyonat,
Ming bir aziz, men sig'inib topshirdim,
Ovmin, ollo o'g'lim kelsin salomat.

Alqissa, Nuralibek bilan Soqi ovmin deb fohihani betga tortdi. Lekin Avazning yuragi bir xiyol bo'lib, G'irning jilovidan ushlab, ko'nglini xushlab, to'xta bolam, bir nasihat aylayin, dushmanlaring bordir o'ngi-so'lingda, – deb bir so'z aytib turibdi:

To'xta bolam, bir nasihat aylayin,
Dushmanlaring bordir o'ngi-so'lingda.
Bilganlarim alvon-alvon so'ylayin,
Falokatni bilmay qolma yo'lingda.

Avvalo, hurmat qil o'sgan elingdi,
Ham supurib, toza qib yur yo'lingdi,
Yomon so'zdan doim saqla tilingdi,
Tilning do'sti-dushmanligin bil, bolam.

Oldingdan kim kelsa salom berib o't,
Yiqilganga doim yordam berib o't,
Shirin-shakar tildan kalom berib o't,
Kalomning qimmatini, qadrin bil, bolam.

O'zing yur, o'zgani yo'ldosh demagin,
Siynalab kelgandi hech do'st demagin,
Ayyorning qo'lida sarson bo'lmagin,
Ayyorning aylana so'zin bil, bolam.

Bemavrid G'irotni aslo urmagin,
G'irotni uchun sen go'daklik qilmagin,
Yo'ldosh topsang aslo oldin o'tmagin,
Yo'ldoshning yuragi, dardin bil, bolam.

Dushman ko'rsang aslo uni quvmagin,
Chambilni so'rasa hech ham bilmagin,
Tanimasang bir o'tovga bormagin,
Dushmanning zaharli nonin bil, bolam.

Sipohi bo'lolmas, aql bo'lmasa,
Aql hamkor qilmas naql bo'lmasa,
Ayer ham bo'lmaydi baxil bo'lmasa,
Baxil bog'i ko'karmasdir bil, bolam.

Aqling bordir, anglab olgin so'zimdi,
Manmanlik yo'lga solma o'zingdi,
Yomonni bilishga o'rgat ko'zingdi,
Ko'zning yurak uqishini bil, bolam.

Bu so'zlarni Avazbek Nuralibekka aytdi, Nurali ham bu so'zlarni bilib, duoni, nasihatni olib, olqorday bo'lib ikki ko'zi yonib, ko'ngli ko'tarilib Gulzor ko'chadan o'tib, Charimgarga yetib qarasa, G'anibek ham tayyor bo'lib yo'lda turibdi. Ikkisi birini ko'rib, salom berib ko'rishib, shunda G'anibek turib aytdi:

– Nuralibek, menga xabar bermading, ketdik demading, men seni ikki kecha kutdim.

Shunda Nuralixon aytdi:

– Unda do'stlik bo'lmaydi-da, yur ketdik, – deb ikkisi odamlar uyqudan turguncha Chambildan chiqib ketdi.

Ana endi G'anibekning kimligini bilmoq kerak. Fanibekning asli oti Jorxon mastondir. Jorxon mastonning joyi Qoldustondir. Qoldus shahrinipg podshosi Gapsarshohdir. Gapsarshohning qizi Gulisanobaroydir. Gulisanobarning o'n uchga kirgan, olti yuz kanizi bor edi, uch yuztasi odamzodning qizi, uch yuztasi parizodlardan edi. Odamzodning qizlari podsho tomonidan qo'yilgan bo'lib, parilar husniga mahliyo

bo'lib o'zlari kelib kaniz bo'lishga ruxsat olib, ham xizmatni qilib, ham husnini tomosha qilib yurar edi. Gulisanobarning ikki yuz kokili bor edi. Har kokili har turli rang bilan bo'yalgan edi: bir kokili tilla suviga, bir kokili nuqra suviga, gavharga, javharga – shunday turli narsalarga bo'yalgan bo'lib, kecha-kunduz bir-biriga yorug'i urib, urgan yorug'i yetti qasr ichidan ko'rinib turar edi. Yuziga uch yuz pardani tutgan edi, pardalar qizning husniga oltin bo'lib ketgan edi. Bir pardani ochsa bir kunlik yo'l, ikki pardani ochsa ikki kunlik yo'l... uch yuz pardani ochsa uch yuz kunlik yo'l yorug' bo'lar edi. Ko'shki yetti qavat bo'lib, sirtidan ikki ming sardor qorovullik qilar edi. Yetti qavat ko'shkidan bittasini teshib qaragani o'lar edi. Minglab podsholardan sovchi kelar edi, kelgan sovchiga bir qabat ko'shkini ochib kiritar edi, ko'zi ko'rmay chiqar edi, bir kun o'tmay o'lar edi, shunday qilib mamlakatini ko'rmay qolar edi. Bir kuni podsho ko'nglida shu qizim kimga nasib qilar ekan, buni bilsam, qizim erga tegdi deb xabar qilsam deb vazirga buyurdi. Dono vazir dong'i chiqqan mastonlardan yuztasini hozir qildi. Podsho mastonlarni bitta-bitta kiritib qizim kimga nasib qiladi, qaysi mamlakatdan qanday shahzoda oladi, deb so'rayotir. Yuzta mastonning har biri ham: "Qizing Chambil ketadi, o'n to'rt yashar bek Nurali, Avazning uli oladi, bermasang yurtning vayron bo'ladi", – deb ayta berdi. Gapsarshoh mastonlarga javob berib, olimu ulamolarni, vaziru donolarni, sardori askarlarni chaqirib, bu gapdan xabar berib, maslahat so'rab turibdi:

Toji davlatimda davron surayin,
To o'lguncha biror g'amlik ko'rmayin.
Ikki ming olti yuz turgan donolar,
Javob bergin, bir maslahat so'rayin.

Mastonlar aytadi shahrim vayrondir,
Menday sulton bu gaplarga hayrondir,
Nuralixon kelar emish qaydandir,
Donolarim, bir maslahat so'rayin.

Qizim olib ketar emish Chambilga,
Chambil lozim emas aytishga tilga.
Qaytib zag'cha kelib qo'nar nozgulga,
Sardorlarim, bir maslahat so'rayin.

Maslahat beringlar, nima qilayin,
Ko'n desanglar taqdirimga ko'nayin,
Ket, desanglar qizim olib ketayin,
Akobirlar, javob bergin, ko'rayin.

Bu so'zni barcha donolar, jamiki fozilu fuzalolar eshitib, boshini xam qilib, nima dorni bilmadi. Podsho darg'azab bo'ldi, buni Donish vazir bildi, "Bir qoshiq qonimdan kechsang men ayturman, o'ldirsang fikrimdan qayturman", – deb podshodan ruxsat olib, bir so'z deb turibdi:

Erisin, tog'larning qori erisin,
Har kim yarashig'i bilan qarisin,
Ey podshohim, kuyganimdan aytaman,
Shohim, podshohim, qizing qurisin.

Shahring vayron bo'lganini men bildim,
Baxting qaro bo'lganini men bildim.
Ilohim podshohim, qizing qurisin,
Bu qizingning ketarini men bildim.

Chambil degan chor tarafi qoyadir,
Borgan dushman qoyasidan toyadir,
Bu qizingning ketarini men bildim,
Qancha mehnat qilsang endi zoyadir.

Go'ro'g'li sultondir, pari keltirgan,
Kahri kelsa ko'kdan kunda endirgan,
Qancha mehnat qilsang, sulton, zoyadir,
Dev, pariga urush tilini bildirgan.

Avaz degan Go'ro'g'lining bolasi,
Odamzodning boshga tushgan balosi.
Nuralibek bek Avazning farzandi,
Na'ra tortsa qular timning qal'asi.

G'irotdayar, uchma qushma, bilmadim,
Sunduz tovdan o'tdi, changin ko'rmadim,
Kishnasa tutdayin to'kilar yulduz,
Shamoliga yiqilmas tog' ko'rmadim.

Gapim olsang bir maslahat berayin,
Hiyla bilan biror korni qilayin,
Chambil shahri ajdaholar shahari,
Mastonlarni olib o'zim borayin,

deb podshoga aytdi. "Ey podshohim, Nuralini hiyla bilan Chambildan olib chiqsam, iloji bo'lsa G'irotni Nuraliga yo'ldosh qilsam, ming xil yo'l bilan haydab kelsam, G'irotni boylab olsam, Nuraliga qizingni ko'rsatsam, olaman desa, to'y qilib shahringda olib qolsang, yosh emasmi, ko'nikib ketar, seni ota tutar, Avazday bo'lib do'bing olamga ketar, kelgan dushmaning qon yutar, G'ip birga kelsa Nurali bu shartga ko'nmasa o'ldirsang bo'ladi. Agar G'irotdayar kelmasa, sen Nuralini o'ldirsang, boshing kesilib, shahring vayron bo'lar, Nurali shartga rozi bo'lmasa zindonga solasan, agar Go'ro'g'li, Avaz zo'rlik qilsa Nuralini berasan, qizingni to'y qilib turasan, shunday qilsang o'limdan qutulib qolasan, u yog'ini o'zing bilasan", – dedi. Bu

so'zga hamma turgan odamlar to'g'ri deb javob berdi. Podsho ham shu shartga ko'ndi, bu ishning barini vaziri Donishga topshirdi.

Donish vazir: Nima bo'lsa bo'ldi deb, balki kunim to'ldi deb, mastonlarni chaqirib, mastonu ayyorlarning kattasi Jorxunga voqeani aytdi. Jorxun mastonlarning zo'ri, balki ularning piri, uch yuz oltmishdan oshgan, salgina qari, ko'ziga surma qo'yar, qoshiga o'sma qo'yar, bir tilsim bilan o'n to'qqiz yashar o'g'il bo'lar, tilsimning har turini bilar edi, goh ajdahor, goh burgut bo'lar edi. Donish vazir bu mastondi olib, qabatiga qirq mastondi hamroh qilib, yana qirq qiz, qirq oq o'tov olib, qirq ming sardor bilan "hay-yu hayt" deb Chambilga yarim kechada shobir chiqarmay chiqib jo'nadi. Junxay tog'iga yetib qirq ming sardorni Kengay daraga joylab, vazir turib: "Ey sardorlar, siz shu yerda turasiz, har biringiz bildirmay pistirma qo'yasiz, ikkitalab tog' boshida soqchilik qilasiz, durbinni olasiz, bizdan boshqa kim kelsa, shu yo'ldan o'tsa, oldini to'sasiz, men qaytib kelguncha ushlab turasiz", - dedi-da, jo'nab ketdi.

Asqar tog'iga yetdi, oradan yana bir oy o'tdi. Asqar tog'ida, Zarchashmaning bo'yida qirq uyni tikib, Jorxun mastonga maslahat soldi. Jorxun maston qur'ani qo'liga olib Chambildagi voqealarni, qanday qilib darvozadan kirish yo'lini axtardi. Qur'a tashlaganiga uch kun bo'ldi, to'rtinchi kuni Maston aytdi: "Men Chambilga kirish yo'lini topdim. Bolxuvon shahri Chambilga qaram. Bolxuvonda bir sardor bor, oti Yoqubbek, uning o'n to'rt yashar o'g'li bor. Shu o'g'li bugun Chambilda o'qish uchun yo'lga tushdi, (yonida) Go'ro'g'lining yorlig'i bor. Shuning uchun ertaga yo'lga tushsam, yo'lini to'ssam, oti G'anibek, uni tosh qilsam, G'anining o'zi bo'lsam, otini minsam, Chambilga G'ani bo'lib kirib borsam, Nurali mulladan ta'lim olmoqda, men ham o'qib Nurali bilan do'st bo'lsam, G'iri bilan uch oyda olib kelsam, agar yo'lini topsam, yo'lda korini qilsam, korini qilolmay shu qirq uyga iyartib kelsam, qirq qiz sharob tutsa, esi ketib otdan tushsa qirq maston tilsim bilan G'irni ushlab qolsa bo'ladi. Bundan boshqa yo'li yo'q. Chambil xalqi bir-birini suyadi. Yaxshi ko'rganidan birovining oyog'iga tikan kirsam, bari yig'ilib keladi, ittifoqligi qattiq, biri bilib qolsa bariga xabar beradi". Bu gap vazirga ma'qul keldi. Jorxun maston choshka-choshkada Asqardan taylab, chimmatni betga tortib, G'aniga yo'lda yetib, tosh qilib jilg'aga qo'yib, o'zi G'ani bo'lib Chambildan soqchilarga yorlig'ini ko'rsatib, darvozadan o'tib madrasada o'qib, Nurali bilan do'st bo'lib aldab olib ketayotgan edi.

Ana endi Nurali bilan G'ani Chambildan chiqib ketayotgan joyi:

Qo'lida qushi chorqillab,
Bedov oti dirkillab,
Qamchi bersa jo'naydi,
Oqqan suvday sharqillab.

Asta-asta yo'l bosib,
Bekning g'ayrati toshib,
Ustda kiygan kiyimi
Dol bo'yiga munosib.

Abdal nayza shirqillab,
Boshida dubal chorqillab,
Tilla payanak urilgan
Uzangida selpillab.

Ispihoni belida,
Olg'ir qushi qo'lida,
Tezlab ketib boradi,
Arpalining cho'lida.

G'ani bilan teng bo'lib,
Nurali ko'ksi keng bo'lib,
Cho'lda ketib boradi,
Maston ko'ngli tang bo'lib.

O'tdi Arpa do'zidan,
Olov chiqib ko'zidan,
G'irot oldin o'tmaydi,
Ketar G'ani izidan.

Haydab soylardan o'tdi,
Balki Hovdakka yetdi.
Ketayotir teng bo'lib,
Kun ham choshkaga yetdi.

Ikkalasi cho'lda seltanglab kelayotir. Jorxun mastondi Nuralibek do'stim G'ani deb kelayotir. Jorxun qaradi, qabot bo'lib boradi, G'irot oldinga o'tsa Nuralibekni uradi, ammo G'irot oldinga o'tmay boradi. Jorxun ko'nglida: "Nurali bilan bir poyga qo'yaman, G'irot mendan o'tsa Nuralini otaman, G'irotni bandi qilib ketaman", - deb o'ylab Nuralibekka bir so'z dedi:

G'irot deydi ostingdagi otingdi,
Mening bedovimdan oting o'tarmi?
Asli turkman deydi sening zotingdi,
Turkman o'g'li aytganidan qaytarmi?

Kel ikkimiz bugun poyga qilaylik,
Kimning oti chavandozdir, ko'raylik,
O'tgan otning xizmatini qilaylik,
Botir bo'lsang poygaga qo'sh G'irotni.

Oting o'tsa xizmatni men qilayin,
Mening otim agar o'tsa ko'rayin,
Bu shartimda mardlik bilan turayin,
Chopqir bo'lsang poygaga qo'sh G'irotni.

Poyga joy qib Asqar tovdı tanladi,
Barobar qib ikki otdı haydadi,
Ikkisi qimsinib tuyoq tayladi,
Tomosha qing nazarkarda G'irotni.

Ikkisi ham teng bo'b ketib boradi,
Bilmadim xudoyim kimga beradi,
Bek Nurali o'zsa xudo uradi,
Endi ko'ring nazarkarda G'irotni.

Hayda, deydi, maston hamiz beradi,
Ko'nglida o'tsa deb ketib beradi,
Bu mastonning ko'nglin G'irotni biladi,
Aqlin biling nazarkarda G'irotni.

Nurali ustida hayron bo'ladi,
O'tkin, deydi, ot choviga uradi.
G'irotni o'tmay teng bo'b ketib boradi,
Ko'nglin biling nazarkarda G'irotni.

Teng bo'b chiqdi Asqar tovdıng beliga,
Hech kim tushmay qoldi shartning yo'luga.
Falokat kelmadi bekning uliga
Sog' ob chiqqan nazarkarda G'irotdir.

Jorxun mastonning ko'nglidagi bo'lmadi, Nuralini yo'lda bir yoqli qilmadi, qo'lini bog'lab haydab kelmadi, uch marta qatti-qatti dobildi urdi, doobil tovushi mastonlarga yetdi, ular keldi deb ish tutdi. Nuralibekning achchig'i keldi, qo'li qinga yugurdi. "Nega bemahal urding dobildi?" – deb bir so'z aytdi:

Ov ovlagan senday ahmoq bo'lama,
Ov joyiga kelib doobil urama.
Ne sababdan tog'da doobil chalasan,
YO adashib hamrohlaring qoldima?

Do'stligingdi, dushmanliging bilmadim,
Oq to'shingga abdal nayza solmadim.
Ne sababdan sen urasan dobildi,
Dobilingni sababini bilmadim?

To'xta G'ani, sababini aytasan,
Sen aytmasang, boshing kessam qaytasan,
Dobilingdi sababini bilmadim,
Mulla bo'lsang dol so'zingda turasan.

Men qaragam qiyinglaysan, turasan,
Darding borgan o'xshab doobil urasan.
Doobil ursang qulon-kiyik qochmasmi,
Quri borsang qaytib Chambil kirasan?

Bu so'zni eshitib Jorxun maston Nuralibekka qarab bir so'z dedi:

Tovlarning boshida chaladi tuman,
Tumanli joylarda yurish ham gumon.
Bilmayin qolibman muncha gunohni,
Bir martaga kechir meni, Nurali.

Ega o'lsa uning moli sabildi,
Dorilikka odam chaynar kovildi.
Bir martaga kechir meni, Nurali,
Qo'rqqanimdan men urbedim dobildi.

Yomon tili chilladagi qor dedim,
Yaxshi tili xazinada zar dedim.
Qo'rqqanimdan men urbedim dobildi,
Odamxo'rlar: sher, ayuvlar bor dedim.

Bugun senga men mung'ayib qarayman,
O'lgunimcha xizmatingga yarayman.
Ajdahlarlar, odamxo'rlar bor dedim,
Bir martaga gunohimdi so'rayman.

Bu so'zni Jorxun maston aytdi, qo'rqqanday bo'b ko'zini pastga qilib turdi. Nuralibek turib aytdi: "Ey G'anibek, mening qo'rqoq bilan hamrohligim bo'lmaydi. Qo'rqoq shatal beradi, lekin yordam bermaydi. Besh qo'rqoqqa bir qarg'a, degan ekan, men qarg'alarni ko'rib yursam ham beshta hamrohim bor deb ketaversam bo'ladi. Endi o'zing tanlab ol, Asqarning qaysi tomonini ovlaysan, ikkimiz ajralamiz. Agar boshingga biror falokat tushsa Chambilga qochasan, doobil urib menga xabar berasan". Jorxun maston ko'nglida: "Endi bu meni bilan yurmaydi, yurganim bilan qo'ymaydi", – deb Nuraliga: "Do'stim Nurali, endi sen kunchiqar tomonga yurasan, menga kunbotar tomondi berasan, u yog'ini o'zing bilasan", – deb Nuralini qirq o'tov tomonga jo'natib yubordi-da, o'zi kunbotar tomonga ketdi. Pana joyga tushib, otni duo o'qib to'rg'ay qildi, o'zi kalxat bo'ldi, to'rg'ayni ko'tarib to'g'ri G'ani tosh bo'lib yotgan soyga bordi. G'anini asli holiga keltirib, otni, kiyimlarini berdi, G'aniga: "Endi sen Chambilga bormaysan, men Chambilning domlasiman, sen bo'lmaysan, yana bir yil o'qib so'ng qaytib kelasan, qo'limda ta'lim olasan, hozir savoding kam", – deb Bolxuvonga qaytarib yubordi. O'zi yana kalxat bo'lib qirq o'tovga keldi. Bo'lgan voqeani aytib, qirq mastondi olib, hammasi g'oz bo'lib, asta-asta Nuralibekni qidirib uchib borabardi.

Nuralibek endi Hovdak ko'lini ovlayman deb kelayotgan edi, boshida g'aq-g'aq degan tovushni eshitib qoldi. Burilib qaradi, ko'p g'oz asta-asta paslab uchib bormoqda edi. Qo'lidagi olg'ir qushini baland ko'tarib qushlarni ko'rsatdi, olg'ir qush ko'rmaganday bo'lib turaverdi, G'iro't yurgisi kelmay bo'ynini egib turaberd, g'ozlar archa boshiga qo'nib, ko'rib hayron bo'lib, buni ham maqtamasam bo'lmas deb, "Otam qushi, olg'ir qushi, olib bersang ne bo'lar", – deb qushga qichqirib turibdi:

Nor qushi, olg'ir qushi,
Olib bersang ne bo'lar.
Otam qushi, ol qushi,
Obkeb bersang ne bo'lar.

Panjangdagi tirnog'ing,
Go'ro'g'li nayzasiday,
Qanotingning chiroyi
Fasllar javzasiday.

O'ng qo'limda turishing
Besh qarg'aning bojiday,
Ko'kdan pastga taylashing
Bek Shodmonning o'ziday.

Ko'zingning o'tkirligi
Osmonning yulduziday,
Tumshug'ing uzunligi
Bek otamning tig'iday.

Yozilganda qanoting
Bahorning bulutiday,
Ikki norcha oyog'ing
Ustaning po'latiday.

Qushni ko'rib quvishing
Tulki quvgan toziday.
Abjilliging jonivor
Daryoning qunduziday.

Kelib qushni topishing
Yerga tushgan yashinday,
O'ljani obkelishing
Shahar olgan qulinday.

Olayib ovsirashing
Ko'zi yongan arslonday,
Ko'zing suzib qarashing
Taxtda turgan sultonday.

Kel, jonivor, uch endi,
Bulutday bo'b ko'ch endi.
Sen bormasang, men boray
Mana, sharob ich endi.

Sen bormasang turaman,
Seni taylab boraman.
Quruq qaytish uyatdir,
Sen borsang, men turaman.

Bu so'zlarni Nurali aytdi, olg'ir qush bir narsani sezganday bo'ynini taylab tura berdi. Nuralining achchig'i keldi, qo'lidan yerga tayladi, qo'lga kamon yoyin olib G'iro'tiga qamchi urib, asta jo'nab berdi. Buni sohib qush bildi, endi bo'lmaydi, tili yo'q, ko'nglidagini aytib bo'lmaydi, nasibasi tortsa qaytarib bo'lmaydi, qush o'z-o'ziga gapirib, yerdan havolanib uchmoqqa chog'lanib aytayotgan so'zi:

Odamzod-da, qarab anglab bilmadi,
Men uchmayman, dedim, aslo ko'nmadi.
Tilim bo'lsa tushuntirib so'ylasam,
Bu qushlarning mastonligin bilmadi.

Bu mastonlar bir falokat boshlaydi,
Uzumko'zning endi ko'zin yoshlaydi.
Bu qushlarning mastonligin bilmadi,
Bir jafoni endi boshga tashlaydi.

Havolanib endi men ham uchayin,
Tuzi haqi ko'kda qonlar ichayin.
Mastonlar bir falokatni boshlaydi,
G'iro't uchun endi jondan kechayin.

Bulutlar uchadi tog' bilan tog'a,
Ko'z bilan qarayin bugun har yog'a,
G'iro't uchun endi jondan kechayin,
Nuraliga mushtday boshim sadag'a.

Armonim yo'q bittasini o'ldirsam,
Olib kelib Nuraliga bildirsam.
Nuraliga mushtday boshim sadag'a,
O'lsam mayli, omon-eson ketkirsam, –

Dedi-da, charqillab, osmonga uchdi,
Qanoti sharillab havoni kesdi.
Uch marta aylandi bekning boshidan,
So'ng bulut ustiga chiqdi-da, ketdi.

Uchdi gala maston turgan joyidan,
Olg'ir qush quyilib keldi ustidan.
Kelganini bilmay qoldi mastonlar,
Kelib tepdi so'ng yurakning pastidan.

Olg'ir qush oldi-yu, qochib jo'nadi,
Mastonlar quyilib qushni quvadi.
Bilmadim, xudoyim kimga beradi,
Mastonlar jam bo'lib qushni tepadi.

Chirqillaydi, qushga jabr o'tadi,
O'lgan maston yerga tushib ketadi,
Ikkovini changal solib o'ldirdi,
Jonivorga endi o'lim yetadi.

Maston ko'plik qildi, endi yulib
Jonivor qush pasga qarab quladi.
Bu ishlarga hayron qolib Nurali,
Olg'ir qushning o'lganiga yig'ladi.

Mastonlarni qush deb qo'lga oladi,
Qonjig'aga uchovini boyladi,
Olg'ir qushin yig'lab oldi Nurali,
Otgan o'qi kun nurini to'sadi.

Zarbasiga gala maston yig'ladi,
O'n yettisi o'qqa uchib quladi,
Quvib, o'qdi uza-uza Nurali,
Qirq o'tov ustidan borib qoladi.

Shu yerga kelganda qolgan mastonlar birdan yo'q bo'b ketdi, pasga tushdimi, osmoni falakka chiqib ketdimi, Nurali bilmay qoldi, o'z ko'nglida o'zi: "Shu uylardan bir suv so'rayin, bersa ichayin, tush desa tushayin, yiqilgan g'ozlarni topib olayin, qushim chatoq bo'ldi, endi Chambilga qaytayin, G'anini topib olayin", – deb otini uylarning qoshiga haydadi. G'irotni oqsaganday bo'lib, o'qrayib iziga qaray berdi, Nuralining sonidan asta-asta tishlay berdi, hali yosh Nurali hech narsaning farqiga bormay o'tovlar oldiga hayday berdi. Qarasa hammasi oqbo'zarday, oqligi tovuqning tuxumiday o'tovlarni ko'rib, qaysi boyni uyi ekan, deb yaqinlashdi. Har bir uydan sozning tovushi, qizlar qo'shig'i eshitalaberdi, bo'sag'adan bir qarab yana ichkariga kiraberdi. Bir gala qizlar qaysi bog'ning qizlari, deb G'irotni ko'ndalang qilib, sanamlarga: "Suv ber, ichayin", – deb bir so'z aytib turibdi:

Keldim o'zim uzoq eldan,
Sanamlar suv ber, ichayin,
Suvsab keldim cho'llaringdan,
Oy sanam, suv ber ichayin.

Otda keldim bugun tolib,
Egarima qushlar solib,
Uyingdan chiqqan irg'alib,
Oy qizlar, suv ber ichayin.

Ikki zulfak nurday bo'lib,
O'zing uchar hurday bo'lib,
Badanlaring qorday bo'lib,
Oy nurlar, suv ber ichayin.

Bergan suving sharob bo'lib,
Jodu ko'zing mehrim olib,
Sen avrasang borim qolib,
Kel qizlar, suv ber ichayin.

Irg'alsang beling buralib,
Har bo'g'inga uzuk solib,
Oq siynaga gavhar qo'yib,
Suv uzat qizlar, ichayin.

Oq o'toving oyday bo'lib,
Asovliging toyday bo'lib,
Yuvoshliging qo'yday bo'lib,
Sanamlar, suv ber, ichayin.

Bu qizlar so'zni eshitib, oldidan xabar bergan Nuraliligini bilib, har biri o'z kosasiga behush qiladigan dori solib, nozik tolday irg'alib, bari bir-bir bosib, mushki anvar hid sasib, kelayotir. Jorxun maston ham qolgan mastonlar bilan qiz bo'lib, qo'lga tuproq olib, tuproqqa tilsim solib, qizlar bilan bir bo'lib, turibdi. Mastonlar yuragi olingan, asta-keyin kela berdi. Gavhar kosada suv tutib, qizlar qo'shiq aytib Nuraliga parvona bo'la berdi:

Nor bilakli bekning uli,
Kelib suv ichkin, suv ichkin.
Gulimning oshiq bulbuli
Kelib suv ichgin, suv ichkin.

Ichgan suving mening mehrim,
Ham qizligim, ham bahorim,
Yoshlikda oqqan nahorim,
Bekning uli, keb suv ichkin.

Mening suvim obi kavsar,
Ichgan yigitlar ming yashar,
Hamda sevganiga qo'shar
Zar kokilim, keb suv ichkin.

Suv beraman gulday bo'lib,
Nozik belim qilday bo'lib,
Keb suv ichsang ulday bo'lib,
Bahodirim, keb suv ichkin.

Dehqonsiz, deb ekdim olma,
Kelib ushla, lekin tolma,
Meni de, boshqani olma,
Sevarim, mana suv ichkin.

Seni desam ko'nglim bo'shab,
Badanlarim qorday yashnab,
Gulga qo'ngan hurga o'xshab,
Vafodor, mana, suv ichkin.

So'zni aytib qizlar toldi,
Nurali norday irg'aldi.
Bedov otni yo'lga soldi,
G'irotni birdan o'yin qildi.

Bu o'yinni bek Nurali,
Tushmi, o'ngmi bilmay qoldi,
Aqldan shoshib Nurali
Sevgan qizga yaqin keldi.

O'ynay-o'ynay G'ir kuzatdi,
Nurali qo'lin uzatdi,
O'ynab turib G'ir jonivor
Oyog'ini sermab o'tdi.

Oyog'i kosani tepdi,
Kosa qo'lda sinib ketdi,
Buni ko'rib boshqasiga
Bek Nurali qo'l uzatdi.

Jonivor G'irotni biladi,
Qo'l uzatsa, bu yig'ladi,
Qo'lga kosa oldirmaydi,
Tuyog'i bilan bo'ladi.

Yigirmadir kosa sindi,
Keldi Nurali qahri endi.
Jaladay qib qamchi berib,
Bir qizdan kosani oldi.
Kosa olib Nurali ichdi,

Mastonlar hey tuproq sochdi.
Behush bo'ldi bekning o'g'li,
Es ketib Nurali tushdi.

G'irotni birdan tosh bo'b qoldi,
Nurali ko'zda yosh bo'b qoldi.
Shilqillab otdan yiqildi,
Maston ko'ngli xush bo'b qoldi.

Alqissa, mastonlar Nuralining qo'lini bog'lab, uy ichiga kiritib, gala mastonlar jam bo'lib, ko'ngli xush bo'lib, bir-biriga bosh bo'lib, olib ketishning rejasini tuzib, Jorxon maston turib aytdi: "Nurxonning ikki qo'lga bir botmon, oyog'iga ikki botmon zanjir bog'laymiz, aravaning ustiga tashlaymiz, G'irotni boshiga o'n ikki botmon zanjirdan nuqta qilib, qirq aravaning orqasidan bog'lab, o'zini asliga keltirib jo'nab ketamiz". Donish vazir turib aytdi: "Bu gaping ham to'g'ri, lekin G'irotni ham toshligida aravaga ortish kerak. Bu ot Chambilni Chambil qilgan, qirq yigitni keltirgan, Qo'yi Qofdan pari oldirgan, poyga bo'lsa baridan o'zgan, qahri kelsa tog'larni buzgan, mingan murodiga yetgan, irg'isa Amudan o'tgan, jabr tushganda uchgan, egasi asir bo'lsa xabarin Chambilga bergan. Shuning uchun buni shu turishda aravaga ortish kerak". Bu so'z hammaga ma'qul tushdi. Nurali bilan G'irotni aravaga solib, "hayt" deb Asqar tovgiga qarab tortib jo'nadi. Oradan hafta o'tdi. Otlar tortolmay, mastonlar otdan tushadi. Nurali aravada goh hushiga kelib, goh hushidan ketib boradi. Oradan qancha kunlar o'tdi, otlar aravani tortolmay qoldi, mastonlar, qizlar tortadi, bo'lmadi. Shunda Jorxon maston: "Endi shunday qilsak, G'irotni asl holiga keltirsak. Hammamiz har yog'idan haydasak, aravaga boylasak. G'irotni endi qocholmas, qochgan bilan men qo'ymayman, izidan shunqor yoki Semurg' bo'lib uchaman, G'irotni ikki qadam bosmay ship olaman, mayib bo'lsa ham olib boraman", - dedi. Shunda Donish vazir: "Gaping to'g'ri, mana sardorlar turgan joyga ham keldik. Avvali G'irni qochirmaymiz, shu yerga olib boramiz", - dedi. Mastonlar aravadan G'irni tushirib o'z holiga keltirdi, Nuralining ham burnidan behush (qiladigan) dorini oldi. G'irotni boshidan zanjir bilan bog'langan, jonivor bandi bo'lganini bilib, ko'zidan jimma-jimma yosh ketib turibdi. Nurali ham o'ziga keldi, qaradi qo'li bog'langan, oyog'iga zanjir taylangan, G'irotni ham bog'lanib mustar bo'lib turibdi. Qabatida mastonlar qah-qah urib kulayotir, qizlar boshini sal quyi solib borayotir, bek Nurali qayerga kelganini bilmadi, bandi bo'lganini bildi. Chambil yurtidan, g'amxo'r otasidan, mehribon onasidan, Gulnora singlisidan, besh mullabachcha do'stidan, bobosi Go'ro'g'li Sultondan, momosi Yunus, Misqoldan, Chambildagi butun xalqidan ayrilganiga, o'zi bo'lmay, o'zi qatori G'irning ham jilab turganiga ko'zi tushib, bachcha emasmi, ko'zidan yoshi tizilib, ko'ngli buzilib, yurak-bag'ri ezilib, "Tanda armon qolib ketdi xudoyim", deb o'z holiga o'zi yig'lab turgan joyi:

Bu qanday falokatdir, bilmadim,
Yoshligimda jabr ko'rdim, naylayin.
Bu qandayin menga ofat bilmadim,
Yolg'iz boshga kulfat ko'rdim, naylayin,

Tanda armon qolarmikan, xudoyim.
Hay attang-a, otam qoldi uyatga,
Yolg'iz boshi qolar bo'ldi faryodga,
Yoshligimda jabr ko'rdim naylayin.

Zor ayladi qiblagohim zuryodga.
Tanda armon qolarmikan, xudoyim.
Mening uchun attang G'iroto boylandi,
Ichar suvim bemahalda loylandi.

Davr ko'rmay men ketarman, naylayin,
Aziz boshim aravaga joylandi,
Tanda armon qolib ketdi, xudoyim.
Chambilbelim chor tarafi qal'am deb,

Endi kimga yetar ekan nolam deb,
Mehribonim endi yig'lar, naylayin,
Ko'zda yoshin to'kar endi, bolam, deb.
Boshda armon qolib ketdi, xudoyim.

Yolg'iz edim otam bilan enamdan,
Bemahalda chiqdimmikan qal'amdan,
Tanho boshim kun ko'rmedi naylayin
Endi yerlar loylanadi jolamdan.

Menda armon qolar bo'ldi, xudoyim.
Men ayrildim Chambilimdan, elimdan,
Nojo'ya gap chiqdimikan tilimdan,
Aziz boshim aravada, naylayin,

Burgut tepib, mayib qildi belimdan.
Esiz, armon qolar bo'ldi, xudoyim.
Birga yurgan yo'ldoshlardan ayrildim,
Bek Go'ro'g'li sultonimdan ayrildim.

Oyoqlarim bog'langanda, naylayin.
G'amxo'r enam, mehribondan ayrildim.
Yuragimda armon qoldi, naylayin.
Yurakdoshim mullalardan ayrildim,

Madrasadan-maktabimdan ayrildim,
Ilm olgan boshim holda, naylayin,
Ta'lim bergan ustozimdan ayrildim.
Boshim qotib, armon qoldi, xudoyim.

Yosh bola-da, yig'layotir Nurali,
Ko'zdan yoshin to'kayotir Nurali.
Mastonlarga tiklab-tiklab qaraydi,
Jodugar deb so'kayotir Nurali.

Nurali yig'ladi, bulut yig'ladi,
Nurali yig'ladi, tog'lar quladi,
G'irotiga yig'layotir, Nurali,
Nurali yig'ladi, bog'lar yig'ladi.

- G'irotim, quloq sol aytgan tilima,
Men minmay o'layin sening belinga,
Aqlim yo'qdir, seni bandi qilibman,
Endi kulfat keltiribman elima.

Jonivor, iskama kelib o'zimdi,
Iskaguncha kelib o'yg'in ko'zimdi,
Kulfatni keltirdim o'sgan elima,
Yoshing to'kib na kishnaysan izimda.

Jonivor, silkinib tursang bo'lmayma,
Yig'laguncha o'ynab tursang bo'lmayma,
Mening uchun xafa bo'lma, jonivor,
Mingta zanjir bo'lsa uzsang bo'lmayma.

Bu so'zni Nurali G'irotga aytdi,
Dumg'o'za uyirilib iziga qaytdi,
Mastonlar shoshilib duo o'qidi,
Iskadi Nurxondi iziga otdi.

Zanjirlar bo'ynidan uzilib ketdi,
Tovlarning gazasi buzilib ketdi,
Iskadi jonivor iziga qaytdi,
Arava buzildi, tuzulib ketdi.

Tuyog'i yerlami ham buzib ketdi,
Osmondagi bulutlar ham to'zib ketdi.
Jonivor burilib o'zini otdi,
Shamoli qizlardi uchirib ketdi.

Bulbullar kuyadi so'lgan guliga,
Bog'bonlar qaraydi singan beliga.
Shamoli qumlarni uchirib ketdi,
Cho'zilib jo'nadi Chambilbeliga.

Nurali yig'idan to'xtab qaradi,
Jonivor cho'zilib ketib boradi.
Yosh bolaning yuziga qon keladi,
Boshin irg'ab bek Nurali kuladi.

– Borsang salom degin sulton bobomga,
Bandiligim bildir g'amxo'r otamga,
Jonivor, o'ynoqlab kirgin Chambilga,
Salom de enamga, g'amxo'r elimga.

Endi dushman o'ldirolmas o'zimni,
G'amxo'r otam olib kelar izimni,
Agar dushman azob bersang o'zima,
Yer yuzida yo'q qiladi o'zingni.

Nurali hali bola emasmi, bu so'zlarni aytib, yoshini artib, qah-qahlab kula berdi. Donish vazirning esi ketib, ikki ko'zi olayib, nima qilarin bilmay qoldi. Qirq qiz G'irning shamoliga otilib ketdi, joyidan turolmay qoldi, mastonlar shoshib qoldi, duosini o'qib, tilsimdi tuproqqa solib G'irga otguncha G'irotni uch qabog' oshib ketdi.

Shunda Jorxon maston Donish vazirga: "Endi bir baloga yo'liqdik, G'ir borsa Chambilning sherlari kelsa, olti oylab urush bo'lsa ham Nuralini oladi, shaharni vayron qiladi. Men hozir Semurg' bo'laman, G'irning izidan quvaman, yoki o'zim o'laman, yo G'irotni bir balo qilaman, Chambilga kiritmay korini qilaman, go'shtini g'ajirga beraman", – deb Semurg' qush bo'lib, har panjaga sakson botmon tosh olib osmonga ko'tarildi.

Endi maston bu falakka uchadi,
Qanotlari kun nurini to'sadi.
Har panjaga sakson botmon tosh olib
G'ir ketidan yashinday bo'b boradi.

Qoraqumda ko'rdi G'irning changini,
G'ir jonivor cho'zib taylar tongini.
Ustiga keb maston davra ayladi,
Yuborayin o'ldiratgan toshingni.

Dedi-da mo'ljallab toshini otdi,
Sakson botmon toshi zangillab ketdi.
Jonivor uyrilib ko'kka qaradi,
Quyruq bulg'ab toshga chap berib ketdi.

Achchiq bilan yana toshdi tayladi,
Bu toshi ham tovday qulab keladi.
Jonivor chap berib o'zini otdi,
Sakson jilg'a tosh ostida qob ketdi.

Sakson toshni otdi foyda bermadi,
Parchasi ham G'ir bedovga tiymadi,
Jorxon endi qattiq achchiq qiladi.
Quvayotir, bu G'irotni qo'ymadi.

Yashinday bo'b endi o'zin tayladi,
Har muqomda nazari G'ir o'yladi,
Tepmoqchi bo'b kelgan edi ustidan,
Gavdasini bir qoyaga joyladi.

Tepolmadi yana qaytdi iziga,
Yeru osmon ko'rinmaydi ko'ziga.
Jorxon maston toshdi olib jorqillab,
Yana keldi G'ir bedovning ustiga.

G'ir jonivor qamishni tuzatdi,
Qo'ltig'idan qanotini uzatdi,
Jorxon maston toshni ko'zlab tashladi,
Qoyadan o'zini falakka otdi.

Jonivor falakka chiqib boradi,
Bu bedovga maston hayron qiladi,
YO o'lay deb, yo qolay deb bu maston,
Izidan quyilib ichib jo'nadi.

Izidan kelganda G'irotni tepadi,
Oldidan kelganda oviz soladi.
Ustidan kelganda endi bu maston,
Jonivor abjillik qilib qiyadi.

Necha marta maston changal soladi,
G'ir sonidan qon tirqirab chiqadi.
Mastonni ham G'ir tishladi bovriddan,
Yerga qarab, qon quyilib oqadi.

Charxi falak bo'lib ko'kda olishar,
Ushlaganda gurrillashib ketishar.
Bo'yniga ob ikkovi ham o'limdi,
Goh tishlashib, goh tepishib qolishar.

Jonivorga jabr o'tib boradi,
Falakda girillab ikki kishnadi.
Qizil qonlar bu falakdan tomchilar,
Vafodor G'ir ikki ko'zin yoshladi.

“Qurriy” degan tovush yetdi falakka,
Ko‘zin solib qaradi Asqar toqqa.
Bir qoyada chorillab chaqiradi,
Dobali yarqillab bir odam yakka.

Jonivor olishib pastga jo‘nadi,
Asqar toqqa endi yaqin keladi.
Yarqillab olov-o‘q o‘tdi yonidan,
Bu mastonning ko‘zi o‘ngib boradi.

Uchaman deb ucholmadi qanoti,
Boshidan uchdimi maston davlati.
G‘irot burilib orqasiga qarasa,
Maston yiqildi, qolmay quvvati.

G‘irot qarasa mastonning yuragidan o‘q o‘tgan, esi ketib falakdan toshday bo‘lib qulab borayotir. G‘irot hamilini tuzatib, osmonda uchayotir. Yana qurriylagan tovush kela berdi, jonivor cho‘zilib Asqar tog‘ ustiga pastlayberdi.

G‘irot paslab kela bersin, endi gapni Chambildan eshiting. Oradan o‘n kun o‘tdi, Nuralidan darak bo‘lmadi. Bek Soqi Avazga aytdi: “Ey Avaz, ulingdan darak bo‘lmadi, ko‘p kun o‘tdi, kelmadi, yo otning shamoliga mas(t) bo‘lib qush quvib yuribdimikan, yoki biror falokat bo‘ldimikan? Xudoning o‘zi asrasin, Go‘ro‘g‘li G‘irni olib kel desa, G‘ir tablada bo‘lmasa, “Qani?” desa, Nurali mingan desam, tanamdan boshimni judo qiladi, bola-chaqam kimga qoladi, endi maslahat qanday bo‘ladi?”. Avaz aytdi: “Hoy Soqibek, men bermayin dedim, ko‘nmading, o‘g‘limdan G‘irni past tutding, balki mastonlik qilding, meni ham G‘irimdan, ham o‘g‘limdan ayirding”, – deb jahli chiqayotir, joyida irg‘alayotir, har tebranganda oyog‘i yerga bir qarich botayotir. Soqi aytdi: “Avaz, achchig‘ing chiqmasin, men nima ham bilaman, uch kunda kelar degan edim, bolangning ko‘ngli qolmasin degan edim. Hali Go‘ro‘g‘li bexabar, biror maslahat ber”. Avaz aytdi: “Endi bizni ham birov bilmasin. Bu kecha ikkimiz yarim kecha bedovlar beliga minib, hech kimga bildirmay Chambildan chiqib ketamiz. Nuralini izlaymiz. Asqar tovdan so‘raymiz, kecha tush ko‘rdim, tushimda ikki qanotim sindi, o‘zim yiqilmay turibman, buvinim qaltirab turibdi. Nima bo‘lsa ham, G‘ir bilan Nuraliga bir balo bo‘ldi, ko‘nglim xijil bo‘lib turibdi”. Bu gap Soqiga ham ma‘qul keldi. Ikkovi yarim kechada bedovlarning beliga minib, hech kimga bildirmay Chambildan chiqib ketdi. G‘irning izini olib, ko‘ngliga har xil gap kelib, Asqarning sunqay tomonidan tirishadi. Qarasa G‘irotning oyog‘i toshlarga botib, o‘zini otib, yerni buzib turgan izlarini ko‘rib, har tomonga olayib qaray boshladi. Bir vaqt Soqi Avazni chaqirdi: “Berman kel Avazbek, men o‘lgan bir qush ko‘rdim, na g‘ozga o‘xshaydi, na bir qushga o‘xshaydi”, – dedi. Avaz qushni qo‘liga olib, qushning har yog‘ini ko‘rib hayron bo‘lib, yuragi vayron bo‘lib, aqli ketib, ikki ko‘zi yaltirab, buvini qaltirab bek Soqiga qarab, o‘ziga o‘zi tasalli berib, ey xudoga shukur, deb bir so‘z aytib turibdi:

Ayo Soqi quloq solgin tilima,
Motam to‘nin yopsang bo‘lar ustima.
Endi bukiraygan mening belima,
Hassa bersang bo‘lar mening qo‘lima.

Ey Soqijon, qisiladi yuragim,
Endi yo‘qdi bu dunyoda keragim.
Motam to‘nin opkeb yopkin ustima,
Soqijon, Soqiyo, o‘chdi chirog‘im.

Qolar bo‘ldim endi, Soqi mung‘ayib,
Endi turolmayman oyog‘im toyib.
Hassa bergin, Soqi mening qo‘lima
Moli mulkim qolar bo‘ldi besoyib.

Ham elimdan, ham otimdan ayrildim,
Ham sherimdan, shunqorimdan ayrildim.
Motam to‘nin obkeb yopkin ustimga,
Zarlarimdan, zargarimdan ayrildim.

Qush emasdir, qara, Soqi, mastondir,
Mastonlikda ko‘p ellarga dostondir.
Ey Soqijon, endi qaddim bukildi,
Dushmanlarim endi ko‘ngli bo‘stondir.

Shukur ollo, o‘g‘lim botir bo‘libdi,
Mergan otolmagan qushni otibdi,
Asad mergan otolmagan mastondi,
Mastonning yuragini tuyrab o‘tibdi.

O‘g‘lim mergan bo‘lganiga shukur-yey,
Dushmanlarni qirganiga shukur-yey,
O‘g‘limni saqlagin, xudo, salomat,
Yov ta‘zirin berganiga shukur-yey.

Shunday o‘g‘lim borligini bilmadim,
Temir hamdir oltinligin, bilmadim,
Ming jonimni bersam, mayli sadag‘a,
Elatimga g‘amxo‘rligin bilmadim.

Yozabergin Soqi gapni xatma-xat,
Mard-nomardni anglab oladi elat.
O‘lgan bo‘lsa mozorida qolayin,
O‘g‘lim bordir elim qilsa ziyat.

Chambil uchun og'ir bo'ldi gunohim,
Qayga borsam birga yurgan hamrohim.
Esiz Soqi, G'irotdan ham ayrildim,
G'irot edi Chambildagi chirog'im.

Alqissa, bek Avaz goh yig'lab, goh o'z-o'ziga tasalli berib, G'irning izini olib borayotir, o'lgan mastonlarni bir-bir ko'rayotir, bek Soqi ham Avazga nasihat qilayotir. Avaz yig'lasa Soqi ham yig'layotir, ikkovi bir-birini suyab Zarchashmaning bo'yiga keldi. Qaradi, uylar tikilgan, aravaning izi bor, hammasi quvg'in yetganday ko'chgan, bir xil idish-tovoqlari qob ketgan, bularning orasida yana bir qushning o'ligini ko'rdi. Bu Avazning olg'ir qushi edi. Avaz qushni qo'lga olib, Nuralining shu yerda bandi bo'lganini, G'irotning ushlanganligini bildi, qushning patini silab, qabr qazib ko'mdi. Avazning ko'ngliga har xil gap kelib, Asqar tovning ustiga chiqib borayotgan edi, bir otning kishnagani qulog'iga keldi. Yerdami, osmondami bilmadi, bir vaqt osmondan shorillagan tovushlar kela berdi. Avaz bilan Soqibek katta cho'qqining ustiga chiqib qaradi, ikki narsa bir-birini quvib, ikkovi ham qizil bo'lib ko'rinadi. Durbin bilan qaradi, biri G'irotni, biladi, biri katta qush yo maston deb ko'ngliga keladi. Avaz esi ketib, entikib, qiyada gandiraklab, osmonga uchganday bo'lib cho'zilib, ikki qo'lini ko'tarib, qurriytha, qurriytilab qichqira berdi:

Sen nazari tulporim,
Qurriy hayta, qurriy hayt.
Chambilga vafodorum,
Qurriy hayta, qurriy hayt.

Men belingda bo'lmadim,
Olmos qilich olmadim,
Yovni nimta qilmadim,
Qurriy hayta, qurriy hayt.

Jonivorim kelibsan,
Ko'plab jabr ko'ribsan.
Menga kishnab turibsan,
Qurriy hayta, qurriy hayt.

Chambilimning chirog'i,
O'zbeginning yuragi.
Turkmanimning jarag'i,
Qurriy hayta, qurriy hayt.

Chambilbelning qal'asi,
Ot duldulning bolasi,
Go'ro'g'lining jo'rasi,
Qurriy hayta, qurriy hayt.

Chambilimning yulduzi,
Yorug' bergan kunduzi,
Elatim olqondozi,
Qurriy hayta, qurriy hayt.

Sakson Chambilning qori,
Tiniq oqqan nahori,
O'zbek, turkman bahori,
Qurriy hayta, qurriy hayt.

Bolalarning baxtisan,
Go'ro'g'lining taxtisan,
Bulutlarning saxtisan,
Qurriy hayta, qurriy hayt.

Bek Avaz qichqira berdi, bek Soqi ham Avazga qo'shilib yuragi dupillab, jo'li bo'lib, ko'ziga yosh kelib, bul ham "qurriy hayt"lab baqira berdi. Ot bilan maston olishib yerga yaqinlashaberdi. Shunda Avaz kamoni qo'lga olib, yonar o'qdan to'qqizini ko'zlab, oyog'ini tirab, bor kuchi bilan kamoni tortdi, yoyni o'qi yonib, yashinday oqib ketdi. Maston bilmay qoldi, to'qqiz o'q yuragini tuyrab o'tdi, maston o'zidan ketdi, ko'zi o'ngib pastga taylab ketdi. G'irotni aylanib asta-asta Avazning ustiga kela berdi. Soqi bilan Avaz qurriy-haytlay berdi.

Falakdan uyrilib G'irotni keladi,
Charchaganda, ko'kda kishnab keladi.
Qurriy-haytlay qichqiradi bek Avaz,
Ko'ngli o'sib, ko'zin yoshlab keladi.

Korsonday tuyog'i yerga-ku yetdi,
Avazxon turolmay o'zini otdi.
Falakda azobin ko'rgan G'irotni,
Jonivor keyindan chuyishib ketdi.

Zarbidan yerlar ham qazilib ketdi,
Daralar, tovlar ham buzilib ketdi.
Avazga uzaldi bo'ynini cho'zib,
Soqining ko'ngli ham ezilib ketdi.

Avazning to'shiga boshini qo'ydi,
Bulutlar turolmay jalosin quydi,
G'irotni kokilin Avaz iskadi,
Soqi ham xo'rsinib G'irotni suydi.

G'irotni yolini Avaz siladi,
Turolmay tog'larning boshi quladi,
Avazman Soqini iskar jonivor,
Qorlar ham yoshlarin terib jiladi.

Avazning to'shidan boshin oladi,
Bosh ko'tarib Chambiliga qaradi.
Soqi dori qo'yaberdi soniga,
To'rt tuyoqdan chaqillab ter og'adi.

Avaz, Soqi bilan G'irotni silab-siypab qarayotir, sonlari tilingan, dori qo'yayotir, jabrlangan jonivorning, o'mgani-sovrısından ter chiqib, to'rt tuyog'idan og'ayotir. Otning ko'p jabr ko'rganini ko'rib, Avazning ko'zidan yosh kelayotir, bolasi nima bo'lganini bilmayotir, otning egaridan qarayotir, egarda qon ko'rmadi, dushmanlar ot ustida ilib ketdimikan, deb ko'ngliga kelayotir, dam G'irotg'a, dam Soqiga qarab qichqirayotir:

Soqijonim, quloq solgin tilima,
Bilsang aytgin, bek Nuralim qayerda?
Vafodor G'ir, quloq solgin so'zima,
Bilsang aytgin, bek Nuralim qayerda?

Bog'imdagi yashartirgan gulimdan,
Endi adashdimma yurar yo'limdan,
Men bukilib, ayrildima ilimdan,
Soqi, aytgin, bek Nuralim qayerda?

O'lganimda o'ligimga keragim,
Dushmanlarga ham quvvatim yarog'im,
Ham chirog'im, ham yuragim, qarog'im,
G'irim, aytgin bek Nuralim qayerda?

Belimda bo'lmasa oltin qiyog'im,
Odamlardan past bo'lama siyog'im,
O'charmikan bu olamdan tuyog'im,
G'irim, aytgin bek Nuralim qayerda?

Qazom to'lsa qadam bosmay o'layin,
Qayerda qolganin qanday bilayin,
Maslahat beringlar, nima qilayin,
Yo'ldoshlarim, bek Nurali qayerda?

Avaz bu gaplarni Soqi bilan G'irga qarab aytdi, ikkovi ham mustar bo'lib turdi. Oxiri bek Soqi aytdi: "E, Avazbek, shunday qilsak, aravaning izini olsak, shu iz bilan ketaversak, Nuralini topamiz, eson-omon Chambilga olib ketarmiz". Shunda Avaz: "Hali bu gaplardan Go'ro'g'li sulton bexabar. Bu ishlarni qilgan dushman dim turmas, sekin G'irotni olib ketganimizni bilar, bir xillari bizlarni kuzatib turar. G'irning ham ketganini bilar, Chambilga bostirib kelar, otamga qiyomat bo'lar, Chambil eli talanar, bu kundan ham u kunimiz qiyin bo'lar, orting quvvatli bo'lsa, arkoni davlat seniki, degan gap bor. Chambilda G'irot tursa, daraxtning tomiri quvvatli bo'ladi. Shuning

uchun sen bildirmay G'irotni Chambilga olib borasan, bilmaganday bo'lib yurasan, bir oyda kelsam, kelarman, kelmasam Go'ro'g'liga bor gapni aytasan. Endi men yolg'iz Majnunni minib ketaman, ularning izini olaman, avvali eson-omon kelaman. Nuralini qayerda bo'lsa ham topaman", - dedi.

Soqi aytdi: "G'irotni minib olsang mingday bo'lar eding, yolg'iz bo'lsang-da, sherday bo'lar eding. Men Chambilga borib bor gapni Go'ro'g'liga aytсам". Avaz: "Bir odam bilan Chambil buzilmaydi, dushman pisib qarab turgan bo'lsa nima bo'ladi. G'ir jonivorning ham holi qolmaganday, aytganimga ko'ngin, Chambilga borgin, G'irotg'a qarab turgin", - deb xushlashib, bir oyda qaytishga va'dalashib turgani:

Birga yurgan, ey bek Soqi,
Soqi, sardorim xush endi.
Chambilimdan olg'ir tozi,
Tozim, shunqorim xush endi.

Yurar edik o'ynab, kulib,
Xafa qilmay ko'ngling olib,
Davramizda devni urib,
Soqi, ajdarim, xush endi.

Qayga borsak birga bo'lib,
Dushman ko'rsang nimta qilib,
Quvsak uchar qushdi olib,
Jo'shqin nahorim, xush endi.

Sen yig'lasang, men yig'ladim,
Sen qulasang, men quladim,
Nor tilasang, men tiladim,
Soqi, tilakdosh xush endi.

Chambilbelning ori bo'lgan,
Dushmanlarning sho'ri bo'lgan,
Bedovlarning piri bo'lgan,
Shunqor bedovim, xush endi.

O'zbek, turkman xizmatkori,
Davralarning sohibkori,
Sozandasi, gul bahori,
Davra obodi, xush endi.

Adolatda sensan qozi,
Elatimning qishi, yozi.
Men o'lsam, G'ir, bo'lg'in rozi,
Tengsiz olg'irim, xush endi.

Tovlar boshin chalar tuman,
Urushli kun qolish yomon,
Kelolmasam agar omon,
Rozi bo'l, Soqi, xush endi.

Ayo Soqi, men bosh urdim,
Bosh ursam tog'larni surdim,
Yolg'iz qizimni topshirdim,
Ko'rish gumondir xush endi.

Yolg'izimni sen, qal'am de,
Ko'nglini olgin, bolam de,
Bolangday ko'r, shirinim, de
Shirin sardorim, xush endi, —

Dedi-da Avaz jo'nadi,
Xo'rsinib Soqi yig'ladi.
G'irot ergashib boradi,
Ayriliq bo'ldi, ayriliq.

Qol, deb G'irotni siladi,
Jonivor qolmay boradi.
Avaz ham bo'zlab yig'ladi,
Ayriliq bo'ldi, ayriliq.

Duoni Soqi beradi,
G'irot xo'rsinib turadi.
Shunqor ayrilib jo'nadi,
Ayriliq bo'ldi, ayriliq.

Alqissa, bek Avaz Soqidan duoni olib, G'irni silab-siypab qoldirib, yakka o'zi bo'tasidan ayrilgan nor tuyaday bo'zlab, Majnunni hezlab, aravaning izini olib, tov terakday irg'alib, so'ragali odam yo'q, ko'ringan giyo(h)dan Nuralini so'rab ketayotgani:

Baland tovlar, baland tovlar,
Bag'ringdan bolam o'tdima?
Tik qiyali, baland zovlar,
Oldingdan bolam o'tdima?

O'tadi necha-nechalar,
Umirga xardor kechalar,
Ming yilni ko'rgan archalar,
Ostingdan bolam o'tdima?

Mening holima qaranglar,
Yuragim ochib so'ranglar,
Silkinib turgan zaranglar,
Zor yig'lab, bolam o'tdima?

Yig'laydi ko'ngli xastalar,
Po'latni cho'zar ustalar,
Zov boshidagi pistalar,
Pastingdan bolam o'tdima?

Osmonda qaragan oylar,
Yaylovda o'ynagan joylar,
Saharda turgan to'rg'aylar,
Turtinib bolam o'tdima?

Tovlarda joynagan gullar,
Xanda aylagan bulbullar,
Boshi ham keti yo'q yo'llar,
Ustingdan bolam o'tdima?

Avazbek so'rab boradi,
Alanglab ketib boradi,
Ostidagi Majnun ot,
Yashinday ketib boradi.

Avazbek otni qistadi,
Ot haydashlarga ustadi,
Ketayotir-da jonivor,
Asqar tovlardan pastladi.

Jilg'a bilan soylardan,
Taylab ketib boradi.
Qamchi bersa bedov ot,
O'ynab ketib boradi.

Katta-katta toshlardan
Irg'ib oshib boradi.
Baland-baland qoyadan
Tashlab ketib boradi.

Chumchuq qo'nmas joylardan
Shartta bosib boradi.
To'rg'ay uchmas joylardan
Tunda ketib boradi.

Bo'ri tushgan joylardan
Bo'ron bo'lib boradi.
Arslon qolgan joylardan
Oyday bo'lib boradi.

Orqa boshi jiyirilib,
Quyoday bo'b boradi.
Quloqlari chimrilib,
Lochinday bo'b boradi.

To'rt oyoqning tushishi
Yashin kelib tushganday.
Tuyoqning tosh otishi
Arabning ming to'piday.

Qirdan qirga oshishi
O'qdan qochgan qulunday,
Burnidan pishqirishi
Shahar yutgan ilonday.

Ketayotir dirkillab,
Oqar suvday sharqillab,
Qimtinadi jonivor,
Olqorday bo'b dirkillab.

Ustidagi bek Avaz,
Ketayotir, bolam, deb.
Boshi gangib bek Avaz,
Yig'layotir, bo'tam, deb.

Boshidagi dubili
Qozoqning oq uyiday.
Iynidagi sovuti
Tovning ko'lankasiday.

Muritining qaytishi
Isfahonning tig'iday,
Bo'riday bo'b tiklashi
Ajdarhoning ko'ziday.

Har bir iyni qirday bo'b,
Ovsiragan sherday bo'b,
Yolg'iz ketib boradi,
Bir bo'sayam mingday bo'b.

Yonidagi isfahon
Tutab ketib boradi,
Abdal nayza oldida
Jutab ketib boradi.

Kun o'tgandan kun o'tdi,
Necha tovlar qob ketdi.
Hayday-hayday bek Avaz
Junxay tovigga yetdi.

Ana endi Avaz bora bersin, qolgan gaplarni Donish vazirdan so'rang. Maston G'irotni quvib ketdi, qirq aravaning o'ttiztasi buzilib ketdi, aravaning ustidagi yuklar ham har tarafga otilib ketdi, necha qizning yuragi yorilib qob ketdi. Qolgan aravalarga bor yuklarni ortib jami yig'ilib bir aravaga Nuralini joylab, Junxay tog'iga yetdi. Sardorlarga bor gapni aytdi, oradan besh kun o'tdi, mastondan darak bo'lmadi, boshqa mastonlar qur'a tashlab ko'rsa maston o'lgan. G'irotni omon qolgan, buni Donish vazirga bildirdi.

Donish turib aytdi: "Yana qur'aga qaranglar, izimizdan biron kishi tushganmi yoki bizni bilmay boshqa shaharga yo'l olib ketganmi?" Mastonlar shunga ko'ra tashladi, bo'lmadi, biror aniqroq xabar bermadi.

Donish vazir: "Endi shu yerda olti oy turamiz, biror kishi kelsa bir yoqli qilamiz. Agar Go'ro'g'li lashkar tortib kelsa ham urushni shu yerda qilamiz, chunki bu toshlarda har qanday ot ham tez chopolmaydi, bu yerlar otishga qulay bo'ladi. Biz podshoga xabar beramiz, butun lashkarlarni olib keladi, shu yerda urush bo'ladi, xudo yo unga beradi, yo bizga beradi. Mamlakatga qayta bersak ham bo'ladi, lekin ular bilsa ismgarligini qiladi, hech kim bilmay qoladi, bildirmay mamlakatni vayron qiladi, shu urushdan keyin yo Nurali o'ladi yoki podshoning qizini oladi", deb podsholikka xabar yubordi.

Oradan qancha vaqt o'tdi. Bir kuni soqchilar bir otlining otini tez haydab kelayotganini xabar berdi. Durbinni tutib qaradi. Nuralining otasi Avaz deb gumon qiladi va lashkarlar pistirmaga kiradi. Xudo endi kimga beradi. Avaz tikka lashkarlar ustiga kelayotgan joyi:

Baland tovning bag'ri qor,
Ayrilganlar zoru-zor.
Majnun o'ynar ostida,
Ot haydar Avaz shunqor.

Lashkarlarni ko'rgan yo'q,
Pistirmani bilgan yo'q,
Bolam, deb, kelayotir,
Ot haydadi, turgan yo'q.

Dushman do'sting qasdigga,
Kirsin yorning ostiga.
Dushmanlardan bexabar,
Hayday berdi ustiga.

Bedov ot olchi chikka,
Dushman ko'p, Avaz yakka.
Bexabar bo'b boradi,
Ustiga haydar tikka.

Sarg'aymasin nurli yuz,
Aytbersam so'zma-so'z;
Yaqinlashdi bek Avaz,
Bo'lib qoldi yuzma-yuz.

Gala dushman xezlandi,
Miltiq olib tezlandi,
Yolg'iz shunqor Avazga
O'n ming miltiq ko'zlandi.

Sabil G'irotda bo'lmadi,
Bu dushmanni bilmadi.
O'n ming miltiq ko'zlandi,
Avaz shunqor ko'rmadi.

Tovlar boshi buzildi,
O'qlar yerga qazildi.
O'n ming miltiqning o'qi
Bek Avazga cho'zildi.

Gumburlagan tovushga
Yerlar ham titrab ketdi.
Tovlardagi qor erib,
Soyni suv bosib ketdi.

Kim o'ldi-yu kim qoldi,
Bek Avazga ne bo'ldi?
Tutunlar bosib ketgan,
Avazxon qayda qoldi?

Bolam, deb kelgan Avaz,
Bolasiday bo'lmasin.
Bir elatning shunqori
Esiz yolg'iz o'lmasin.

Bek Go'ro'g'li bolam deb,
Keng Chambilda qolmasin.
Yangi chiqqan niholdi
Bugun yashin urmasin.

Gulinor qiz Chambilda
Sag'ir bo'lib qolmasin.
Oy Uzumko'z to'ram deb,
Qora sochin yulmasin.

Hay attang-a, ol mardi,
Xudo bersin baxtini.
Yomonga kim yig'laydi,
Bersin dushman dodini.

Yomonga kim yig'laydi,
Elga xizmat qilmasa.
Botir yigit – el baxti,
Hech yomonlik qilmasa.

Qahramonim Avazni
Tutun ochib qarayin.
Otgan o'q toshga tiysin,
Bek Avazni so'rayin.

Yaltillaydi yashinday,
Qilich ko'rinib ketdi.
Avaz shunqor ko'rindi,
Ko'nglim buzilib ketdi.

Shod bo'lgandan ko'zimdan
Yoshim to'kilib ketdi,
Avaz qilich sermadi,
Tovlar buzilib ketdi.

Tengsaladi bek Avaz,
Besh joyidan jorali.
Tov boshida boylangan,
Yig'layotir Nurali.

Tiklab Nurali qaradi,
Attang, yosh-da, yig'ladi.
To'xtatolmay o'zini,
Otalab qichqiradi.

Hali Avaz ko'rgan yo'q
Bek Nurali ulini,
Qilich solib kesadi,
Ming dushmanning belini.

O'q tiyganin bilgan yo'q,
Bilsa ko'zga ilgan yo'q.
Solayotir "urra"lab,
O'zim yakka degan yo'q.

Dushman turdi joyidan,
Avaz ketdi oralab.
Yaltillashar isfahon,
Sermaganda sharillab.

Shunday qatti jang bo'ldi,
Tovlar qulashib ketdi.
Qilichlar sermaganda,
Yulduzlar uchib ketdi.

Qirg'in shunday bo'ldiki,
O'lik tog'day uyuldi.
Oqar suvday sharqillab,
Qizil qonlar to'kildi.

Urush shunday bo'ldiki,
Bulutlar qochib ketdi.
Turolmadi jondorlar,
Qushlar ham uchib ketdi.

Solish shunday bo'ldiki,
Soylar kallaga to'ldi.
Odamzod qamish bo'lib,
Bu qamishga o't tushdi.

Urush shunday bo'ldiki,
Oy ham yuzni berkitdi.
Qon sochilib osmonda,
Bulutni bo'yab ketdi.

Urush nimasi yaxshi,
Ota uldan ayrilar.
Onalari bolam deb,
Uyda sochini yular.

Bir-birini bilmaydi,
Aslo pisand qilmaydi.
Ishqibozi kalladi(r),
O'lsa o'ldim demaydi.

Bovri kuygan bek Avaz,
Bola uchun bosh kesar.
Esi yo'qmi dushmanlar,
Avaz bilan talashar.

Avaz qilich sermasa
O'nlab boshlar uzilar.
Achchiq bilan uzatsa
Qilich qirq gaz cho'zilar.

Har qilich sermaganda
Havolar tutab ketdi.
Dushman safi buzilib,
Har tomon to'zib ketdi.

Xon Avaz hayqiradi
Oqar suvday sharqirab.
Dushman qochib jo'nadi
O'ldimlashib, tirqirab.

Qochayotir dushmanlar,
Aziroil tushganday.
Qaray olmas keyniga,
Ajdar xezlab yetganday.

O'lmagani o'ldim deb,
O'zin yerga tashladi.
Jon Avazbek qarasa,
O'ldimlab ko'z yoshladi.

Dushmanlarning qochishi
Shamol bulut surganday.
Qo'yday qochib boradi
Tushda bo'ri ko'rganday.

Tov ustida Nurali,
Kulib qildi tomosha.
Endi dushman tortsin-da,
Azobiga yarasha.

Hali bachcha Nurali,
Qah-qah otib kuladi.
Kulma, deydi dushmanlar
Nuralini uradi.

Tayoq o'tmas joniga,
Ota, deb qichqiradi.
Dushmanlar qoldi qo'rqib,
O'ldimlab baqiradi.

Hay attang-a, bo'lmadi,
Otasini ko'rmadi.
Qo'rqib qoldi Nurali
Ul nimadir ko'rmadi.

Bulut bosib keldima,
Yoki tog'lar yurdima.
Hayron bo'ldi Nurali
Chumolilar turdima?

Ana endi Gapsarshohdan eshiting. Gapsarshoh Donish vazirning elchisini ko'rib, butun voqealarni bilib, vazirning gapini ma'qul ko'rib, butun lashkarlarning hammasini jiyib, yuzta tug' ko'tarib, har bir tug'ga bir lashkarboshidan qo'yib, har bir tug'ga mingdan oshiq lashkar yig'ib, hamma lashkarni jam qilib chashka-chashkada yetib kelgan edi, urushning ustidan chiqib qolgan edi, qochganlarini qayirib, tog' ustidan bulutday bo'lib to'kilgan edi. Buni bek Nurali ko'rgan edi, esi jitgan edi, Majnunko'k tolib qolgan edi. Avazning yorali joylaridan qon ketgan, holi qolmay, ko'zi tinib, ot ustida zaril turgan edi. Dushmanlar oldidan chiqqanda nima qilarini bilmay turgan edi. Otalagan tovush qulog'iga keldi. Bek Avaz qaradi, tog' ustida aravalarni ko'radi, Nurali bo'lsa bir ko'rib o'layin deb shu tomonga haydadi:

Haydar Avaz bedovni
Orqa tovim qal'am deb.
Tezlab, xezlab boradi,
Bormi, yo'qmi bolam, deb.

G'irim bo'lsa bir sursam,
O'lsam taqdirdan ko'rsam.
Yolg'iz o'g'lim bormikan,
O'g'lim ko'rib jon bersam.
Mehr to'la ko'zidan,
Men aylansam o'zidan,
O'pib o'lsam armon yo'q,
Oyday bo'lgan yuzidan.

Otni haydab qaradi,
Nuralini ko'radi.
Ikki qo'li boylangan,
Ota deb qichqiradi.

Yoshi buloq suviday
Ikki ko'zdan oqadi,
Kokili oy nuriday
Yig'ida irg'aladi.

Ota deb yig'laganda,
Otlar yig'lab boradi.
Tortinib yig'laganda,
Tovlar larzon beradi.

Bolasin ko'rib Avaz,
Ko'zi tinib boradi.
Gapirolmay, bolam, deb,
Yurak to'lib boradi.

Ko'rib turgan dushmanlar,
Avval qochib jo'nadi.
Bir xilisi xo'rsinib,
Endi yig'lab boradi.

Avaz Majnundan otdi
Nuraliga o'zini.
Bolam, deb o'kiradi,
Tutulmaydi o'zini.

Oyog'iga bosh qo'yib,
Esiz Avaz yig'ladi.
Boshin taylab Nurali
Ota deb yalinadi.

Ikki qo'li boylangan,
Egilib kelolmadi.
Otasining boshiga
Boshini qo'yolmadi.

Otajon, deb yuzidan
Quchoqlab o'polmadi,
Otasidan aylanib,
So'ng o'zi o'lolmadi.

Avazning oyog'iga
Boshini qo'yolmadi,
Otajon, deb quchoqlab,
Isiga to'yolmadi.

Yig'layotir kuniga
Biror gap deyolmadi,
Gapirolmay xo'rsinar
Otajon, deyolmadi.

Dushmanlar keldi bosib,
Bek Avazni boyladi.
Avazbekning hushi yo'q,
Ne boylading demadi.

Tirimi, o'likligin
Dushmanlar ham bilmadi.
Yig'layotir Nurali,
Dushmanlar bor demadi.

So'ylandiyo, so'ylandi,
Ikkoviyam boylandi,
Otasi ham bolasi
Aravaga taylandi.

Dushmanlar ikkovini ham boylab, maslahat qildilar. Podsho turib aytdi: "Ey vazir, endi bedovlarning beliga minsak, Chambil qarab bostirib borsak, Go'ro'g'lini bandi qilsak, undan so'ng hammasini qilichdan o'tkazsak qanday bo'ladi?" Vazir aytdi: "Podshohim, Chambilga bostirib bo'lmaydi, borgan omon kelmaydi. Sherning urg'ochisi ham sher, Chambilning har xotini ham sening o'n lashkaringga teng. Albatta, Go'ro'g'li tinch turmaydi, bu xabarni biladi, qo'shin tortib keladi, so'ng bu yerda urush bo'lsa bo'ladi. Bu yer biz uchun foyda beradi, toshlar ot chopishiga to'sqinlik qiladi. Agar uch oyda ham Go'ro'g'lidan xabar bo'lmasa, so'ng boshqa ish qolsak bo'ladi. Hali G'iro't ham Chambilda, kelganda qanday bo'ladi, xudo biladi. Bir Avazi shunchaga teng keladi, endi hamma taqdiridan ko'radi". Bu gap hammaga ma'qul keldi.

Endigi gapni Chambildan eshiting. Bir kun xon Go'ro'g'lining ko'ngli qush go'shtini tusab qoldi. Ertalab vazirga buyurdi. Vazirlar Asad mergan bilan Shodmon merganni hozir qildi. Merganlarga ovga boramiz, taraddu ko'ringlar, deb xon Avazga odam yuborib, o'zi Soqining qoshiga ketdi. Tosh tablaga yetdi. Qarasa, bek Soqi G'iro'tning yarali yerlariga dori qo'yib yotibdi. Buni ko'rib sultonning jahli kelib: "Hov Soqi, G'iro'tni nima qilding?" – deb qahri kelib, ikki ko'zi shokosaday bo'lib, muriti keytiga chappa qaytib, muritiga qor tushib, badani shishib, badandagi tuklari ko'ylagini teshib, ikki oyog'i chippa-chippa yerga botib, Soqibekka qarab bir so'z dedi:

Olislarga yurganimda qanotim,
Soqi, nima bo'ldi mening G'irima?
Ham Chambilim, ham elatim, davlatim,
Soqi, nima bo'ldi mening G'irima?

Mayin edi necha yoli eshilgan,
Qon quyilib sonlaridan teshilgan,
Quloqlari bir-biriga qo'shilgan,
Soqi, nima bo'ldi mening G'irima?

Chu, demayin oshar edi Asqardan,
Nomus bilan orni olgan har yerdan,
Badanlari toza edi har qordan,
Soqi, nima bo'ldi mening G'irima?

O'ylab tursam dushmanliging bildirding,
Do'st yig'latib, dushmanlarni kuldirding,
Bilmay qoldim, meni dog'da qoldirding,
Xumsa, nima qilding mening G'irimni?

Sag'ir qoldirasan endi bolangni,
O'ylamayin men kesaman kallangni,
Besoyib qoldirding endi qal'angni,
Sayoq, nima qilding mening G'irimni?

Dedi-da, sultonning qahri keladi,
G'ilofdan sug'urib qilich oladi,
Sharillatib tortib oldi qilichni,
Qilichning g'ilofi tutab boradi.

Shunda "bobo" degan so'z ham keladi,
Avval sulton bir burilib qaradi.
Bir qarasa, Gulinordayin farzandi
Bo'sag'a suyanib yig'lab turadi.

Go'ro'g'li buni ko'rib shashti qaytib, qilichini tushirib, Soqi qochib ketmas deb, Gulinorni ko'rib ko'ngli bo'shshib, "Senga nima bo'ldi?" – deb Gulinordan gap so'rab turgani:

Jonim bolam, quloq solgin tilima,
Ne sababdan bo'sag'ada yig'laysan?
Har xil gaplar kelayotir ko'nglima,
Rostini ayt, ne sababdan yig'laysan?

Chambilimda biror gaplar o'tdima,
Yoki onang biror so'zni aytdima,
Otang gapi yuragingga botdima,
Men borimda ne sababdan yig'laysan?

Bog'da o'sgan soya berar teragim,
Yomon kunda orqamdagi keragim.
Qorong'ida baxtim bo'lgan chirog'im,
Men tirimda ne sababdan yig'laysan?

Yo bo'lmasa bir falokat bo'ldima,
Hayron bo'lib ota-onang qoldima.
Nuralini biror kasal chaldima,
Men shohlikda ne sababdan yig'laysan?

Sen yig'lasang mening bag'rim ezilar,
Ko'zlarimdan qator yoshlar tizilar,
Tosh yuragim kesakday bo'b buzilar,
Men turganda ne sababdan yig'laysan?

Bu so'zlarni xon Go'ro'g'li aytayotir, Gulinor – erka qiz bo'sag'ada yig'layotir, ikkalasining dardini Soqi bilayotir, xudo, o'zing saqla-da, deb bir so'z demay kalima qaytarayotir, rostini ayt, deb Go'ro'g'li qistayotir. Shunda Gulinor ikki ovuz so'zlayotir, har so'zlaganda ko'zidan yosh tizilib kelayotir, yoshini qizlar artayotir. Gulinorning so'zi:

Jonim bobo, quloq solgin tilima,
Kuyganimdan bo'sag'angda yig'layman.
Shunqor mayib qilgan norday belingni,
Belim ushlab bo'sag'angda yig'layman.

Betma-bet bo'b aytolmadik o'zimiz,
Kecha-kunduz yoshga to'lgan ko'zimiz,
Bugun aytar bo'ldik harna so'zimiz,
Shu sababdan bo'sag'angda yig'layman.

Kecha yig'lab-yig'lab enam tush ko'rdi,
Tushida bir qarchig'ayli qush ko'rdi,
Qarchig'ayning ham ko'zida yosh ko'rdi,
Tushga qarab bo'sag'angda yig'layman.

Qarchig'ay bolasi o'tga tushibdi,
Bo'z qarchig'ay o'tga o'zin otibdi,
Oy bilan kun birga-birga botibdi,
Buni ko'rib bo'sag'angda yig'layman.

Bir oy bo'ldi yo'q Nurali daragi,
O'chdimikan bek otamning chirog'i,
To'xtadima menday opa yuragi,
Xayol surib bo'sag'angda yig'layman.

Yigirma kun o'tdi otam kelmadi,
Uyga kelib biror so'zni demadi,
G'amxo'r enam biror gapni bilmadi,
G'amgin bo'lib bo'sag'angda yig'layman.

Bugun keldim, bobo, sizni bilar deb,
Bek og'amdan biror xabar berar deb,
Menday mushtiparni xursand qilar deb,
Umid qilib bo'sag'angda yig'layman.

Boshimda soyabonim egamdan,
Ushlaganda uzilmagan jag'amdan,
Ayrildimma yurakdoshim og'amdan,
Rost aytar deb bo'sag'angda yig'layman.

Ikki davlat qushim, bobo, o'ldima,
Menday sho'rli soyabonsiz qoldima,
Do'stim yig'lab, dushmanlarim kuldima,
Mustar bo'lib bo'sag'angda yig'layman.

Oltin ko'shkim bugun abgor bo'ldima,
Navro'z gulim nogahonda so'ldima,
Aqli hushim bugun xudo oldima,
Rangim so'lib bo'sag'angda yig'layman.

Bobojonim, rostini ayt, bilayin,
Eson bo'lsa men yig'lamay o'layin,
G'amli bo'lsa yurib nima qilayin,
Rost aytgin deb bo'sag'angda yig'layman.

Bu so'zni Nuralining opasi, Avazbekning yolg'iz qizi Gulinor oyim aytdi, sulton Go'ro'g'lining esi ketdi, nima deyarini bilmay qoldi, hayron bo'lib, ko'zi shokosaday yonib, goh Gulinorga qarab, goh G'iro't bilan Soqiga qarab entikib, qo'lidan qilichi tushib, esi ketib turgan edi, Soqi bu gapga aralashib, ko'nglida aytmasam bo'lmas, unday-bunday gapga Go'ro'g'li ko'nmas, bari bir mendan so'raydi, deb sultonga qarab, bir qoshiq qonimdan kechsangiz men aytib beraman, deb ta'zim qilib, ko'zidan yoshi oqib turdi. Falokat bo'lganin Go'ro'g'li bildi, Soqibekka ayt, deb buyurdi.

Ana endi Soqibekning aytib turgan so'zi:

Quloq sol, sultonim aytar tilima,
Yolg'on demay men rostini so'ylayin.
Aytay desam g'am quyilar ko'nglima,
Nima bo'lsa endi rostini so'ylayin.

Bek Nurali ovga bormoq bo'ladi,
Avazxondan keb G'irotni so'radi,
Shul G'irotni bermadi deb yig'ladi,
Rahmim kelib olib berdim tulporim.

Uch kun edi borib-kelar muhlati,
Yarim kecha minib ketdi G'irotdi.
Uch kunda kelmadi Chambil davlati,
Avaz bilan qarab chiqdim Nurxondi.

G'iming izin olib ketib boramiz,
Sizning qahringizdan qo'rqib boramiz,
Ot bilan Nuralini so'rab boramiz,
Avaz bilan qarab chiqdim G'irotdi.

Bir qushning o'ligin Avaz oladi,
Qushga qarab, attang, dedi, yig'ladi,
Haq egamdan sog'ligini tiladi,
Ajdar bilan qarab chiqdim Nurxondi.

Zarchashmada ko'p arava izi bor,
O'lib qolgan bek Avazning qushi bor,
Bolam deb yig'ladi Avaz zo'ravor,
Botir bilan men qaradim G'irotdi.

Osmonu falakdan tovush keladi,
Avaz bilan menday Soqi qaradi.
Ikki qora bir-birini taladi,
Sulton bilan men qaradim Nurxondi.

Osmonda kishnaydi G'irotni jonivor,
Orqasida bir bahaybat mahluq bor,
O'q uzib nuratdi Avazday qaysar,
Yo'lbars bilan men qaradim G'irotdi.

Kishnab G'irotni yerga kelib qo'nadi,
Avaz bilan Soqi yolin siladi,
Ko'ngli qattiq Avaz shunday yig'ladi,
Qaytmas bilan men qaradim Nurxondi.

Qayt, deb menga shul G'irotni beradi,
Majnun bilan shunqoriga jo'nadi,
Bir oy deb o'rtaga qo'ydi muhladi,
Meni tashlab qarab ketdi Nurxondi.

Qarab yotdim bir oy o'tsa kelar deb,
Sizday sultonimni bilmay qolar deb,
Agar aytsam menday Soqi o'lar, deb,
So'rab yotdim Avaz bilan Nurxondi.

Bugun bir oy o'tdi, aslo kelmadi,
Biror sayyoh daragini bilmadi.
Bu gapni aytguncha Soqi o'lmadi,
Bilmay qoldim Avaz bilan Nurxondi.

Bu gapni bek Soqi sultonga aytdi,
Tovdayin tanasi irg'alib ketdi,
Bo'sag'a suyanib turgan Gulinator,
Oh og'am, dedi-da, o'zidan ketdi.

Sultonning yuragi kuyib boradi,
Oh, deganda tutun chiqib boradi,
Og'am, deb yig'ladi sho'rli Gulinator,
Otam, deb jonidan to'yib boradi.

Alqissa, bu gaplarni Go'ro'g'li eshitib hayron bo'lib, esi ketib, kimga nima deyarini bilmay, yuragi kuyib gapirolmay qoldi. Gulinator chinqirib yig'layotir, qirqin qiz suyayotir. Go'ro'g'li sultonga qarab: "Ham otamdan, ham og'amdan ayrildim", – deb yig'lab turib so'z aytayotir:

Bobojonim – bo'ri kengim, quloq sol,
Ham otamdan, ham og'amdan ayrildim.
Kuyganimda aytar so'zim anglab ol,
Ikki birday g'amxo'rimdan ayrildim.

Qayg'u tushsa qora to'vlar buzilar,
Jabr bo'lsa jona yerlar qazilar,
Loyday bo'lib yuraklarim ezilar,
Ham norimdan, ham norchamdan ayrildim.

Yuray desam tanimda yo'q madorim,
Quridima ikki toshgan anhorim,
So'ldimikan gul chechakli bahorim,
Ham qishimdan, ham yozimdan ayrildim.

Yashin tushib, tov bo'vidan o'yildi,
Po'latlar ham issiq o'tib suyuldi,
Manglayim o'yilib, yoshim quyildi,
Ham sherimdan, ham sherchamdan ayrildim.

Dunyoda hech suyanchig'im qoldima,
Dushmanlar boshima savdo soldima,
Mendayin mushtipar endi o'ldima,
Ham tovimdan, ham to'g'imdan ayrildim.

Osmonda burgutimdan ayrildim,
Qarchig'ayim, qanotimdan ayrildim,
Hamma mulkim, davlatimdan ayrildim,
Ham tanamdan, ham jonimdan ayrildim.

Gulinor ayrildim deb yig'layotir, yig'isi Go'ro'g'lining yuragini ezib borayotir, ko'zidan yoshi soqoliga oqib borayotir, Gulinorga qarab yig'lama, deb nasihat berayotir, ichi o'tday kuyib borayotir. Bek Soqiga otni egarla, deb farmon berib, belni ikki joyidan mahkam qilib bog'layotir, ham Soqiga, ham Gulinorga qarab, qilichining dastasini mahkam ushlab, ikki ovuz so'z qichqirib turibdi:

Ayo Soqi, sen tuzimni bilmading,
Tuzim haqlab menga xabar qilmading,
O'ylab-o'ylab mayli kechdim qoningdan,
Xafa bo'lib qabatimga kelmading.

Dushman desam dushmanliging bilmadim,
Do'stligingni bu ishingda ko'rmadim,
Aytmasang ham qabatimga kelmading,
Ranging ko'rib G'irotimni so'rmadim.

Yig'lamagin, jonim qizim, Gulinor,
Ota-og'ang qayda bo'lsa topilar,
Ajal yetib tandan jonim olmasa,
Dushman bizni qilolmaydi xoru zor.

Avaz desam ichim kuyib boradi,
Nurxon desam jonim chiqib boradi,
Yig'lamagin, Gulinorim, chirog'im,
Falokat bag'rimni siqib boradi.

Men qarayin norcham bilan norimdi,
Sadaqa aylayin harna borimdi,
Urush anjomini bergin, kiyayin,
So'ngra egarlagin chopqir G'irimdi.

Avaz uchun shunday maydon qurayin,
Yer yuzi titrab tart-tar yorilsin.
Nurxon uchun tanadan bosh terayin,
Tov boshida ming minora qurilsin.

Avaz uchun isfahonni sermayin,
Bulutlar qip-qizil qonga bo'yalsin.
Nurxon uchun jon bozori qurayin,
Tanalar tovdayin bo'lib uyulsin.

Norim uchun qobog'imni uyayin,
Toshqin daryolar ham chappa qurisin.
Norcham uchun qulochimni yoyayin,
Tovning boshi qorday bo'lib erisin.

Qo'zim uchun quyilayin uralab,
Zarbimdan tovlarning boshi tutasin.
O'g'lim uchun sermashaman oralab,
Quru(q) cho'pday tanasini o't olsin.

Dushman tanasini qalab uyayin,
Ustiga chiqqanlar kunni ushlasin.
Qirmizi qonlarni selday quyayin,
Karvonlar o'tolmay bir yil qishlasin.

Bu so'zlarni xon Go'ro'g'li aytdi, sovutni kiyib, qalqonni olib, chor oynani to'shiga tortib, isfahonni beliga boylab, abdal nayzani olib, Gulinorga qarab: "Hov Gulinor qizim, sen endi-xafa bo'lma, bu gaplarni hech kimga aytma, ko'p bo'lsa uch oyda kelarman yoki biror xabar berarman, ko'rmaganday bo'lib, davri davron surib, qanday bo'lsang hozir ham shunday bo'lib yuraver", – deb Gulinorga javob berdi. G'irotni Soqi yetaklab ko'shkiga sulton bilan borib edi, Asad bilan Shodmon mergan ham ketgan ekan. Go'ro'g'li merganlarga: "Ov bir kishi, ikki kishi bilan bo'lmaydi. Avazdan boshqa hamma beklarga xabar beringlar, hammasi jam bo'lib kelsin, urush anjomi xurjinida bo'lsin, bir falokat bo'lsa, mening urush anjomim yo'q demasin, mendan yaxshilik kutmasin", – deb tayinladi. Asad bilan Shodmon ko'cha-ko'chaga ot chopib, hamma beklarni xabardor qildi. Beklar ham sozlanib, birin-birin salom berib kela berdi. Shunda Ashurbek sardorni ko'shkiga kirgizib, bo'lgan voqeani aytib: "Ey Ashurbek, men kelguncha Chambilga qarab turasan, kim arz bilan kelsa ishini hal qilasan, kambag'alga yordam berasan, behaq biror ish qilmaysan, Chambilning har tarafidan ko'z-quloq bo'lib turasan. Biror falokat bo'lsa sarbozlar bilan xaltalarni qumga to'ldirib darbozalarga qo'yasan, ark ustidan ta'zirini berasan, mening bor-yo'qligimni hech kimga bildirmaysan", – deb oq fotiha olib, Og'a Yunus bilan Misqol parining qoshiga borib, bo'lgan voqeani aytib parilardan duo so'radi. Parilar Go'ro'g'lining ketishini bilib, qo'l ko'tarib, qancha aziz avliyolarga to'rasini topshirib: "Oy borib omon qayt, bolangni eson-omon olib qayt, do'sting zo'r, dushmaning xor bo'lsin, bolang sog'-salomat bor bo'lsin, jang qilsang dushmanlaring ko'r bo'lsin", – deb qo'l ko'tarib duo berdi.

Go'ro'g'li sulton ko'shkidan chiqib dobilni urdi, dobilning tovushi beklarga yetdi, o'ynatib to'bichoqni ot-otining ustiga mindi. Ko'ring Go'ro'g'li marddi, G'irning qoshiga yetdi, qo'l uzatdi otning yetim yoliga, terakday irg'ilib mindi beliga,

Soqi jugandi berdi qo'liga, G'iro't olchi-chikka bo'lib tushdi Chorimgarning yo'liga,
bek Soqi ham Qora tulporni minib, yigitlar bilan teng bo'lib keta berdi.

Chambildan chiqib, Arpa dashtidan o'tib, Asqar toviga yetib, xon Go'ro'g'li
G'irotni to'xtatib, yigitlarga qarab, muritini burab, nima uchun Chambildan chiqqanini
bayon aylab bir so'z aytib turibdi:

Quloq soling sardor beklar,
Bir to'qnashuv bo'lar bo'ldi.
Hilpirasa oltin tug'lar
Ham olishuv bo'lar bo'ldi.

Dushman olgan Nurxonbekdi,
Bek Avazim jonni tikdi,
Men bilmadim bori yo'qdi,
Ko'p qiyomat bo'lar bo'ldi.

Na bo'ladi Chambil qal'am,
Ko'zlarimdan oqdi jolam,
Nima bo'ldi Avaz bolam,
Bosh berib bosh olar bo'ldi.

O'chmasin-da bosgan izim,
Yo'liga to'rt bo'lar ko'zim,
Orqa tovim Nurxon qo'zim,
Shunga Sulton yurar bo'ldi.

Ot ayilin mahkam torting,
Bedov otga qamchi choting,
Dushman bo'lsa, qo'ymang, oting,
Tanadan bosh yular bo'ldi.

Biz tiyinmay dushman kelar,
Balki bizni past deb bilar,
Kimlar qolib kimlar o'lar,
Loshlar cho'lda qolar bo'ldi.

Qo'rqoq bo'lib kun ko'rguncha,
Botir bo'lib o'lmoq kerak,
Dushman xizmatin qilguncha,
Erta boshdan so'lmoq kerak.

Bir kun kelib, bir kun o'lmoq,
Dushman bilan do'stni bilmoq,
Botirlikning bir ziynati
O'z elatin ham qo'rimoq.

Chambilimda sardorlarim,
Ustalikda zargarlarim,
Ayamanglar, ot haydanglar
Dushmanga, sehrgarlarim.

Boshga tushsa bir falokat,
Nomoz o'qib bir rakaat,
Haydang otni botirlarim,
Avazga bo'lgan qiyomat.

Qayda ekan Nurxon qo'zim,
Sulton bo'lmay ketay o'zim,
Ajdaharlar, ot haydanglar,
Qayda ekan Avaz qo'zim.

Soqi, o'tib yo'lni boshla,
Ot bovriga taqim uring,
Shunqorlarim, otni hayda,
Na bo'lsa taqdirdan ko'ring.

Yarqillasin oltin tug'a,
Zarbga bulut tushsin tog'a,
Ayamanglar bedov otni,
Avazdan otlar sadag'a.

Tomosha qing sardorlarni,
Sharta-sharta jilov tortdi,
Pisand qilmayin ularni,
Chippa-chippa qamchi tortdi.

Jo'nadi bedov hirkillab,
Afzali oyday yarqillab,
Ot haydaydi qirq yigit,
Uzangilari sharqillab.

Bedovlar ketdi cho'zilib,
Bosgan joylari buzilib,
Soy-soylardan sakraydi,
Otning qo'ltig'i yozilib.

Qirlardan oshib boradi,
Soylardan shoshib boradi,
Suvliqni chaynab bedovlar
G'ayrati toshib boradi.

Toshlarga tiysa tiyog'i,
Ikkiga bo'lib boradi,
Keytiga sermab otgaysan,
Yulduzga yetib boradi.

Keng muldiragan cho'llardan
O'qday bo'b uchib boradi.
Duch kelsa katta zovlardan
Tip-tikka taylab boradi.

Ustiga mingan beklarning
Bahrini ochib boradi.
Avaz uchun sardorlar
Jonidan kechib boradi.

Botirlar borar sherday bo'b,
Har iynilari qirday bo'b.
Ko'zi lovillab yonadi,
Cho'lda qutirgan norday bo'b.

Tovma-tov oshib boradi,
Soylarga tushib boradi.
Qichab, haydaydi sultonlar,
Tinmaydi, shoshib boradi.

Tovlardan tikka taylashi
Osmonda yulduz uchganday.
Haybat bilan borishi
Savirda bulut quchganday.

Bedovlar borar izma-iz,
Hayda, deyishar so'zma-so'z.
Tuyoqdan terlar tomadi,
Tinmaydi kecha-yu kunduz.

Sardorlar otni kecha-kunduz qistab, tog'lardan oshib, yetsak deb shoshib, borayotgan edi, birdan Go'ro'g'li otni to'xtatdi, botirlarning qayti yetdi, Go'ro'g'li aytdi: "Ho' beklar, tog' ustiga qaranglar, o't olib ketganday zaranglar". Beklar qarasa, tog'ning ustida sonsiz o'tlar yonayotir, otlarning kishnagan tovushi kelayotir, xon Go'ro'g'li bu yotgan dushman ekanligini bilib, beklarga qarab maslahat so'rab turgani:

Ayo beklar, bu ko'rganing dushmandir,
O'ylab-o'ylab beklar qiling maslahat.
O'ylanmagan ishning keyti pushmondir,
Bemaslahat boshga bo'lar qabohat.

Qanday qilib bek Nurxonni olamiz,
Avazbekka qanday yordam beramiz,
Qanday qilsak dushmanlarni qiramiz,
Sardorlarim, kelib bergin maslahat.

Tentakning oldindan kesilar boshi,
Qo'rqqning ko'zidan oqadi yoshi,
Firib ham bo'ladi mardning yo'ldoshi,
Donolarim, kelib bergin maslahat.

Bemavrid nuragan tovning toshidir,
Aql bilgan odamzodning boshidir,
Ish ko'rsatmay o'lim nomard ishidir,
Burgutlarim, kelib bergin maslahat.

Mard maydonda yengaman, deb bo'lmaydi,
Kim yengilar, uni hech kim bilmaydi,
Yengilsak Avazni tirik qo'ymaydi,
Lochinlarim, o'ylab bergin maslahat.

Bu so'zlarni eshitib, yigitlar nima deyarini bilmay, bilganlari ham gapini ayta olmay, bo'riday bo'lib jalanglab, to'shini yalang'ochlab, birdan urush qilmoqchi bo'lganday bo'lib turibdi. Bir xil yigitlar ot ustida yalpayib, qulog'i shalpayib, buvini qaltirab, iyagi titrab, ko'zi yaltirab, "Dushman ko'p ekan, qo'ymaydi omon, javob bersa Go'ro'g'lixon uyga yetsak omon-eson, sakkiz kishida qarzim qolgan, himillagan nozim qolgan, bo'yi yetgan qizim qolgan, ayniqsa, tulki olar tozim qolgan, hammasi ham mayli edi, ikki qoboq nosim qolgan", - deb turibdi.

Go'ro'g'li aytdi: "Sizlar bilmasanglar men bir narsa deyin, ma'qul bo'lsa ma'qul, bo'lmasa noma'qul denglar. Biz tikka podshoning qoshiga boramiz, o'zimizni Oqtosh mamlakatidan deb tanitamiz. Oqtosh podshosi Shohnosxonning o'g'li Shohnodir bek Soqi bo'ladi. Biz uning navkarlari bo'lamiz. Biz bu voqealarni eshitib, Go'ro'g'li bilan ta'rif bo'lgani keldik deb aytamiz". Go'ro'g'lining gapi hammaga ma'qul bo'ldi. Soqibekni kiyintirdi, G'irni loyga ovnatib cho'bir qildi. Go'ro'g'li qirq chilton bergan oq va qizil parlarni olib qizilini betiga surtib o'n sakkiz yashar yigit bo'ldi. Kunchiqar mahalda oq bayroq ko'tarib podsho lashkarlarining qoshidan chiqdi. Soqchilar to'xtatib gap so'ragan edi, Soqibek dag'dag'a qilib podshoning chodirini so'radi. Lashkarlar bular ham bizdan ekan deb, podshoning chodirini ko'rsatib yubordi. Podsho katta oq chodirda ekan, chodir ustiga oltindan burgut rasmini ildirib, olti yuz navkarga qo'ritib turgan ekan. Soqibek ham, qirq yigit ham otdan tushdi. Bek Soqi navkarlarga otini ushlatib, ko'kragiga qo'lini qo'yib, borguncha sakkiz marta ta'zim qilib, salom berib turdi. Shunda Gapsarshoh Soqibekka qarab, nima uchun kelganini so'rab turibdi:

Salom berding, alik oldim tilimdan,
Qahrim kelsa har ish kelar qo'limdan,
Sen qayerdan kelding qo'rqmay o'limdan,
O'ynab-o'sgan elatingni so'rayman.

Tov boshida o'sgan lola gulisan,
Qayerdagi odamzodning xilisan,
Qaysi podsho, qaysi xonning o'g'lisan,
Urug'ingni, aymog'ingni so'rayman.

Qirq yigiting bari alpdoy qovmatli,
Shu yigitlar bir podshoning davlati,
Boshing ketar agar qo'shsang g'iybatdi,
Qaysi elda bekligingdi so'rayman.

Bedovlaring suyriq-suyriq bo'yi bor,
Maydon bo'lsa chaparasta to'yi bor,
Yigitlaring har birining o'yi bor,
Qaysi joyda botirligingdi so'rayman.

Gaping yolg'on bo'lsa chini topilar,
Gavdalaring kundalarda chopilar,
Bu joylarda topilmaydi g'ofillar,
Rostni aysang ahvolingni so'rayman.

Go'ro'g'li bo'b hiyla bilan keldingma,
Bu hiylaga ko'narimdi bildingma,
Bilmaydi deb menga salom berdingma,
Bu gapingning yolg'on-chinin so'rayman.

Bu gaplarni Soqibek eshitib, buvini titrab, esi ketib, nima deyarini bilmay, kallasi gangib, Go'ro'g'liga ko'z osti bilan qaradi. Qarasa, Go'ro'g'lining qahri kelib, ko'zi lovillab yonib turganini, qirq yigitning seskanmay turganini ko'rib, o'ziga dalda berib, podshoga qarab: "Ayo, podshom, gapirmayman yolg'onni, jinni bo'lay aytsam chindi, quloq soling endi, yolg'on bo'lsa so'zim, o'chsin bosgan izim, sizni ko'rmasin ko'zim, burdalab yesin tozim, Oqtosh elidan keldim, Shohnodirman o'zim", – deb bir so'z aytib turibdi:

Kecha-kunduz shabkar tortib kelaman,
Mard kishiga tanda jonim beraman,
Shahrimning otidir qal'ai Oqtosh,
Nomi ketgan bu Oqtoshdan bo'laman.

Ikki tovning suyanchig'i, beliman,
Ikkovining ardoqlagan uliman,
Otamning otidir qaytmas Shohnosxon
Bu sultonning Shohnodirbek o'g'liman.

Bir gulning ishqida bag'ri poraman,
Nima bo'lsa taqdirimdan ko'raman,
Yolg'oni yo'q, rostin aytay, sultonim,
Ot charchatib Qoldustonga boraman.

Qoldustondan savdogarlar kelibdi,
Bir kecha shahrimda suhbat bo'libdi.
Shu shahardan bir rasmni ko'rsatib,
Esim ketib, aqli-hushim olibdi.

Har kimning keytida bo'lsin og'asi,
U shaharning Gapsarshohdir egasi,
Sanamning otidir Gulisanobar,
Oy qiz bo'lsa uning oltin chechasi.

Qol, desa mayli, shahrida qolaman,
Otasi oldida xizmat qilaman,
Qizni bermay menga jabr aylasa,
Boshim tutib tanda jonim beraman.

Yo'ldan o'tib bunda ko'rdim lashkarlar,
Lashkarlardan olay dedim bir xabar,
Ayb demang kelganimni, sultonim,
Armon qil ar har kim yursa bexabar, –

deb qovmatini alif-lom qilib, boshini xam qilib, Go'ro'g'liga ko'z osti bilan qaradi. Go'ro'g'lining bahri ochilib turganini ko'rib, "Zap yaxshi gapirdim-da", deb turdi. Soqibek Qolduston shohi va Gapsarshohni qirq yigit bilan gurunglashib turgan davrida Avazdan eshitgan edi. Podsho bo'lsa, qizi bordir-da, deb tavakkal qilib, Gulisanobar deb aytib yubordi. Avvali podsho u shahardi bilmaydi dedi. Podsho bu gaplarni eshitib, Soqibekka qarab: "Bo'y-bastli, botir yigit ekan, menga kuyov bo'lguday ekan, aqli-hushi joyida ekan", – deb, Soqibekka gap-so'zsiz ishonib, Soqini chodirga o'tirg'izib, oldiga qandu asal qo'yib, sha'niga qirq qo'y so'yib aytdi: "Ey Shohnodir, Gapsarshoh menman". Bu so'zni eshitib Soqi yiqilayozdi o'zidan ketib. Podsho aytdi: "Men hozir Go'ro'g'li bilan shu qiz tufayli qarshiman. Agar Go'ro'g'li kelsa, urush bo'lsa, shunda ish ko'rsatsang, seni kuyov qilganim bo'lsin".

Soqibek aytdi: "Go'ro'g'li deganingiz Chambildagi o'g'rimi?"

– Ha, – dedi podsho.

Soqi aytdi:

– Agar shu Go'ro'g'li bo'lsa, uning jallodi bizmiz-da. Necha marta urush qilganman, doim asir olganman, ko'zini joyiga keltirib, uch oy oldimda dastiyorlik qildirib, javob berganman. U mening oldimda tari(q)cha yo'q, unga buncha lashkar ne kerak?

– Hozir mening qo‘limda o‘g‘li Avaz, nevarasi Nurali asir yotibdi. Ulardan hazar qilib o‘ldirolmay turibman, – dedi podsho.

Soqibek: “Uni erta o‘ldirmoq kerak, ular menga koni yov”, – deb muritini burab qo‘ydi. Shunday qilib bu kecha suhbat bo‘lib yotdi, erta-mertan tong otdi. Bu gaplardan podsho gerdayib ketdi. Ikki dorni qurdirdi, lashkarlarni tomoshaga jiydirdi.

Donish vazir ovloq vaqt topib podshoga qarab: “Ey podshoim, bu kelgan yigitlarni Oqtoshdan deb bo‘lmaydi, devni zorillatgan Go‘ro‘g‘li bunga xizmat qilmaydi, bunga xizmat qilsa Go‘ro‘g‘li bo‘lmaydi. YO bular asli Chambildan, yo bo‘lmasa bir maqtanchoq shahardan”, – dedi.

– Bo‘lmasa bular kim, bularni qanday bilamiz, – dedi podsho.

Vazir turib aytdi:

– Avazning ko‘zini ochib dorga olib kelamiz, bularni ko‘rinadigan joyga qo‘yamiz. Agar Avazning rangi o‘zgarsa yoki bular Avazga imo qilsa, shundan bilamiz. Har birining keytiga o‘n polvondan qo‘yamiz. Agar bilib qolsak, ushla, deb imo qilamiz.

Bu gap ma‘qul bo‘ldi. Avazga peshonama-peshona qilib qirq yigitni qo‘ydi, keytidan o‘ntadan polvonnini qo‘yib, Avazning ko‘zini ochib, Nuralining ko‘zini boylab olib kelishga buyurdi. Jallodlar bordi, ikkovini ham chodirdan chiqarib, Avazning ko‘zini ochib, urib, ayamay mush(t)lab, Nuralibekni ham tepib haydab kelayotir, buni Go‘ro‘g‘li bilan qirq yigit ko‘rayotir, ichi tutab borayotir, lekin rangi hech narsa ko‘rmaganday bo‘layotir. Avazxon ham o‘limni bo‘yniga olib, Nurali uchun rahmi kelib, ko‘zini olaytirib lashkarlarga qaradi, peshonasida turgan qirq yigit bilan Go‘ro‘g‘lini ko‘radi, ko‘rmaganday bo‘lib yuzini buradi. O‘zini izlab qirq yigit bilan xon Go‘ro‘g‘lining kelganiga yuragi to‘lib, ko‘zidan yoshi tizilib, yig‘layotgan Nuralibekka qarab bir so‘z aytib turibdi:

Quloq sol so‘zima, yolg‘iz farandim,
Bu g‘amlkning bir shodligi bo‘lmayma?
Ko‘ngil bo‘shdir, yig‘latmagin qanotim,
Biz yig‘lasak bunda dushman kulmayma?

Ming shukurki, belda quvvat bor ekan,
Harb qilganda oqar suvlar qor ekan.
Biz yig‘lasak dushman ko‘pdir, kulmayma,
Keng dunyoing yomonlarga tor ekan.

Qahriga uchadi tovlarning qushi,
Qadrima to‘kilar ko‘zimning yoshi,
Keng dunyo shu bugunda tor ekan
O‘lim uchun yig‘larmikan mard kishi?!

Hali bilagimda bordir darmonim,
Sensan qo‘zim, mening davri-davronim.
Bir o‘lim bor, pisand qilmas mard kishi,
Endi o‘lsam olamda yo‘q armonim.

Sen yig‘lasang mening ko‘nglim buzilar,
Maydon bo‘lsa tanadan bosh uzilar,
G‘amli kunda kim silardi boshimni,
Endi isfahonim ko‘kka cho‘zilar.

Bu so‘zlarni Nurali eshitib, Avazning gapiga tushunmasa ham o‘ziga dalda berib turdi. Qirq yigit bilan Go‘ro‘g‘li ham ichida kuyinib, bir-biriga ko‘z osti bilan qarab, bildirmaslikka olib turdi. Avaz bilan Nuralini ikki dorga olib bordi, Nuralining ham ko‘zini ochishni buyurdi. Shunda Donish vazir chiqib Nuralibekka qarab: “Nima der ekan”, – deb bir so‘z aytib turdi:

Nurali, quloq sol aytgan tilima,
Rozi bo‘lsang ozod aylay o‘zingdi.
Farzand bo‘lib madadkor bo‘l o‘zima,
Gapga ko‘nsang ozod aylay o‘zingdi.

Gapga ko‘nsang men berayin borimdi,
Xazinamda qator-qator zarimdi,
Elatimdi, baxtimdagi borimdi,
Mayli desang ozod aylay o‘zingdi.

Gapga ko‘nsang elatimga borasan,
Shahzodasan, borib podsho bo‘lasan,
Agar sevsang bir parini olasan,
Boshing egsang ozod aylay o‘zingdi.

Sen ko‘nmasang bu jallodlar shoshilar,
Sen ko‘rasan, otang boshi kesilar,
Undan ko‘ra sening bovring ezilar,
Rozi bo‘lsang ozod aylay o‘zingdi.

Nurxon dedi:

Kimga aytay so‘zimdi,
Har go‘llikka solaberma o‘zingdi,
Bu so‘zlarni kelib menga aytguncha,
Boshim kesib soyga otgin loshimdi.

Sinamagan suvga aslo kechmayman,
Pari kelib, sharob bersa ichmayman,
Boshing irg‘ab so‘zlay berma, ey jallod,
Boshim kesgin, Chambilimdan kechmayman.

Endi nima qilsang, jallod, qil endi,
Qilichingdi yalang^o ochlab kel endi.
Xon Go^oro^og^oli keng Chambildan kelganda
Bir boshingdan o^olaringdi bil endi.

Bir kun kelar qirq yigiti ajdahor,
Hasan chopsan, Hasan ko^olbar zo^ori bor.
Dunyoning lashkarini bir qilsang,
Bo^ololmaysan ular bilan barobar.

Mening uchun oqar suving qon bo^olar,
Keng dunyoing ana shunda tang bo^olar,
Nima edi, ey jallodlar, gunohim,
Senga balo bo^oladigan jang bo^olar.

Men qaytmayman aytadigan so^ozimdan,
Ne bir sherlar kelar mening izimdan.
Bu falokat, ota, mendan boshlandi,
Nima bo^olsa rozi bo^olgin o^ozimdan.

Bek bobomni o^olarimda ko^ormadim,
G^oamxo^or enam roziligin olmadim,
Chambilimda o^oynab o^osgan do^ostlarman
Bir dam turib, kulib davra qurmadim.

Bu so^ozlardan ko^oziga yosh keladi,
Atrofida dushmanlarga qaradi.
Qirq yigitning o^ortasida Go^oro^og^oli,
Qo^oli isfahonga pastlab boradi.

Bog^o ichida meva solar qorali,
Yomon kunda yurak bo^olar yarali,
Xon Go^oro^og^oli isfahondi ushladi,
Bobojon, deb o^ozin otdi Nurali.

Chuh, deb taqim qoqdi tulpor G^oirotdi,
O^on jallodni ko^oz ochguncha nuratdi.
Yerdan ilib oldi Nurxon farzandi,
Dorini sug^oirib dushmanga otdi.

Avazni Soqibek ilib oladi,
Qirq yigit to^odani yorib boradi.
Dushmanlar esini o^onglab olguncha,
Junxayning bovriga tortib jo^onadi.

Ana Gapsarning esi ketib, Donishning qulog^oi bitib, o^olmay qolganini endi bilib,
lashkarlarga quv, deb qichqira beradi. Lashkarlar ham sap-sap, lo^onda-lo^onda, jum-
jamaloq bo^olib, sardorlari bosh bo^olib, qo^oyima, ha qo^oyima, deyishib quvib boraverdi.
Qirq yigit bilan Go^oro^og^oli urushga qulay joy topib, otlarni to^oxtatib, otdan tushib, bir-
biri bilan ko^orishib, otlarning belini tortib, urush anjomini qo^oyib turganda, Avaz
G^oirotni Go^oro^og^olidan so^oradi. Go^oro^og^oli: "Ey Avaz, men otdan tushmayin deb qasam
ichganman. Sen To^olakning otini min", – deb Nurxon bilan To^olakni qoldirib, otlarning
boshini yovga qaratib, tov ustidan asta-asta tusha boshladi. Dushmanlar ham buni
ko^orib, saf-saf bo^olib bir-biriga o^orgatib tura berdi. Chambilning bedovlari ham tovnig
takasiday bo^olib, toshdan toshga irg^oib, yoli yalpilab, kokili selpillab, o^oynab dirkillab,
ustidagi mardlarning oldi-keyti joltillab, qovog^oi uyilib, ko^oziga qon quyilib kelaberdi.
Ana shunda Go^oro^og^oli yigitlariga qarab bir so^oz deb turibdi:

Yigitlar, quloq sol aytgan so^ozima,
Bir keladi, ikki kelmas odamzod,
Tinglanglar, yo^olbarlar, aytar tilima,
Er yigitdan ham ot qolsin hamma zot.

Odam degan bir tug^oilar onadan,
Mard tug^oilar doim elning baxtiga.
Yomon shoh chiqadi yorib tanadan,
Yomonlikni tilab biron taxtiga.

Ayo beklar, bunda maydon bo^olibdi,
Dushman ko^opdir, bizga taraf turibdi,
Yuz qaytarmang beklar, kelgan dushmandan,
Bu maydonda kimga xudo beribdi.

Qo^orqqoq odam ko^ozin ochmay o^oladi,
Botir odam o^onin birdan chaladi.
Qo^orqqoq bo^olmay botir bo^oling, beklarim,
Botir odam har ofatdan qoladi.

Tayla Avaz, Asad bilan Shodmonim,
Xoliyorim, uralagan chaqqonim,
Dushman ko^op deb xayolingga keltirma,
Tikka tayla qirqta sardor, chaqqonim.

Urraladi sardorlar,
Endi dikka tayladi.
Ostidagi bedovlar
Qamchi tiymay o^oynadi.

Urraladi so^ozma-so^oz,
Dushman bilan ko^ozma-ko^oz,
Yaqinlashib boradi,
Endi bo^oldi yuzma-yuz.

Miltiqlar taqqa-taqqa,
Qirq sardor yakka-yakka,
Chaparasta tayladi,
Oralab ketdi tikka.

Beklarning ko'ngli to'qdi,
Pisand qilmaydi o'qdi.
Urralashib sermashar,
Shar-sharlatib qon to'kdi.

Yerning usti buzildi,
Isfahonlar cho'zildi,
Necha-necha polvonning
Tandan joni uzildi.

Qirq sardor yakka-yakka,
Qon sachradi falakka,
Dara bilan daralar
To'lib borar o'likka.

Ol bayroqlar pirillab,
Ashrafi to'plar arillab,
Ot ustidan ne sherlar
Pastga tushar chirillab.

Ne bir sherlar hayqirib,
Bir-birini chaqirib,
Savrdagi selday bo'b,
Qonlar oqdi sharqirab.

Mardlar jondan kechganday,
Qondan sharob ichganday,
Yaltillaydi isfahon
Ko'kdan yulduz uchganday.

Qonlar selday bo'b oqdi,
Nechovlardi ob ketdi,
O'ldimlashgan tovushga
Quloqlar bitib ketdi.

Po'lat abdal nayzalar,
Sinib borar belidan,
Yaltillagan isfahon
Tushib borar qo'lidan.

Egasi o'lgan otlar
Kishnab chiqib boradi.
Menman degan ne sherlar
Gapirolmay nuradi.

Bir-birini bilmaydi,
Sen qayoqdan demaydi,
Ayamay qilich solar,
O'lsa o'lding demaydi.

Kim o'ldi-yu, kim qoldi,
Suvsiz cho'l changib qoldi,
Sher hayqirib tayladi,
Qo'rzoqlar gangib qoldi.

Keng ko'krakli polvonlar
Taylar maydon ichinda.
Maqtanchoqlar, qo'rzoqlar
Yig'lar maydon ichinda.

Hay-hayladi Go'ro'g'li
Oqar suvday sharqillab.
Ostidagi G'iroti
Qulanday bo'b dirkillab.

Har qilichni sermasa
O'n bosh ko'kka cho'zilar.
Qilichning shamoliga
Tovlar boshi buzilar.

Sharillatib sermasa
Havo tutab boradi.
Dushmanlarning tanasin
Tinmay putab boradi.

Qizil qonga bo'yaldi
Osmondagi bulutlar.
Loshga taylab jo'nadi
Tov boshida burgutlar.

Sulton qilich sermasa,
Gavdirab bosh uzilar.
O'lmagani o'ldimlab,
Yerga taylab cho'zilar.

Qarang-da Avaz marddi,
Shirpa-ship qilich tortdi.
Qarang, Hasan polvondi,
Ushlasa ko'kka otdi.

Asad bilan ham Shodmon
Tani qo'ymaydi omon.
Nayzaga ilib otar
Soqi hamda bek Chaqqon.

Qirq yigitning zarbiga
Tovlar tutab boradi.
Tovda ne bir archalar
Parra yonib boradi.

Tovush tinganday bo'ldi,
Dushman qo'nganday bo'ldi.
O'ldimlashib jo'nadi,
Beklar yenganday bo'ldi.

Kuymalashib sardorlar
Endi quvib boradi.
Podsho bilan vazirni
O'zin tepib boradi.

Alqissa, dushmanlar qochib jo'nadi, o'ldimlashib boradi, nechovlari bo'yin egib taslim bo'ladi, qirq yigit kuymanib dushmanning oldini oladi, qo'rqqanidan ko'zi jiltaygan, barini taslim qilib, qurol, yarog'ini olib, podsho bilan vaziri ham qo'rqib taslim bo'lib, besh yuz vaziri, sardorlari bilan sultonga ta'zim qilib otdan tushdi. Go'ro'g'li chodir qurib Gapsarni olib kelishni buyurdi. Gapsarshohni olib keldi. Go'ro'g'li siyosat bilan turdi. Gapsarning esi ketib, qirq marta ta'zim qildi. Go'ro'g'li o'tirishga ruxsat berib, nima uchun Avaz bilan Nuralini bandi qilganini so'radi. Shunda Gapsarshoh: "Bir qoshiq qonimdan kechsangiz aytayin", - dedi. Go'ro'g'li: "Ayt", - dedi. Gapsarshoh bo'lgan voqealarning hammasini aytib berdi.

Go'ro'g'li aytdi:

- Endi qizingni Nuralibekka berasanmi?

Gapsarshoh rozi bo'ldi va gunohini kechirishini so'radi. Go'ro'g'li gunohini kechirib, ikkovi shu yerda quda bo'ldi. Gapsarshoh turib:

- E quda, to'yni qayerda qilamiz? YO qizni shu yerga olib keltirayinmi? - deb joltanglab, taxtimdan ayirsa qaytaman, deb esi ketib qulluq qilib turdi. Shunda Go'ro'g'li:

- Ovv, podsho, avval shahringni ko'ramiz, tomosha qilamiz, - deb joyidan turib, ot-otiga mininglar, deb farmon berayotir, hamma ot-otiga minayotir. Go'ro'g'li qarasa, Avaz otga minolmay turibdi.

- Avaz, otga min, - degan edi, Avaz aytdi: "Ey sulton, minishga darmonim yo'q. Oldin ham jang bo'lgan edi, noxosdan bir-ikki o'q tekkan edi, shul og'rib turibdi". Go'ro'g'li Soqibekka "ko'r", deb buyurdi. Soqi Avazning yaralarini ko'rib, esi ketib, mardligiga qoyil qolib, dori qo'yib, ustidan bog'lab otga mindirdi.

Sardorlar bilan askarlar, podsholar bilan vazirlar bir bo'lib Qolduston shahriga bordi. Go'ro'g'li aytdi: - Endi qizingni to'y qilamiz.

Gapsarshoh joyidan turib ta'zim qildi va:

- Ey sultonim, buni qizning o'zidan so'rash kerak, bizning qadamiz shunday. Oldiga har kim bora olsa tiyishga rozi bo'ladi, - dedi.

Go'ro'g'li:

- Bo'lmasa olib bor, - dedi. Ko'shkiga olib bordi. Sultonning ham esi keta berdi. Shunda chiltonlarga sig'inib, o'ziga dalda berib, oxirgi ko'shkiga yetib qizdan: "Kelin bo'lasanmi?" - deb so'radi. Shunda Gulisanobar, sonsiz kanizi bor, dutor bo'yin, beli tor, badanlari qorday oppoq burilib, ro'molini qiya qo'yib, sultonga qarab bir so'z aytib turibdi:

Assalomu alaykum Chambilning xoni,
Bu so'zlarga rozi bo'lmay bo'larmi?
Bevaqt chiqmasin odamning joni,
Ajdahardan odam qo'rqmay bo'larmi?

Otlarni charchatar tovlarning o'ri,
Bizlarga ayondir bu gaplar siri,
Men yo'q desam otam taxtdan ayrilar,
Somonga to'ladi bu nozik teri.

Tovlarning boshlari quyuk tumana,
Ertangi ishlar ham bugun gumona.
Har narsaga men roziman, sultonim,
Elatima endi bo'lsin omona.

Men naylayin taqdirimda ko'raman,
Chambil bo'lsa, mayli Chambil boraman.
Men roziman, to'yni bersin elim,
Nurxon bilan mayli birga yuraman.

Qizlarim ham qilar bugun xizmatdi,
Birdam turish hammaga g'animatdi.
Nurxon rozi bo'lsa men ham roziman,
Yaxshi yigit bir sanamga davlatdi, -

deb javob berdi.

Qirq kecha-qirq kunduz to'y bo'ldi. Karnay-surnay, nog'ora-nag'ma, o'yin-kulgi, shodu-xurramlik bo'layotir. Nuralibek ham kuyovto'ra bo'lib, kelinning qo'yniga kirayotir, Go'ro'g'li ertalab Gapsarshohdan dur olayotir, qirq yigit ot-otiga

minayotir. Kelinni bir nortuyaga mindirib, jami qizlar biyaga minib, kelinning sepi bir yuz sakson tuyaga yuk bo'lib jo'nay berdi.

Gulisanobar ham ota-onasi bilan xo'shlab, ko'ziga yosh kelib, kelinning qadasini qilib, sho'rq-sho'rq yig'layotir. Elatlari – yoshi, mo'ysafidi, qizi, momosi, hammasi qo'l ochib: "Borgan joying davlatli bo'lsin, rizqi ro'zing ko'p bo'lsin", – deb duo qildi.

Ana endi xo'shlab, hayyu-hayt deb Chambilga jo'nab ketdi, kecha-kunduz yo'l tortib Asqarga yetdi. Asad bilan Shodmon suyunchiga ketdi. Ikkovi Chambilga oralab, "suyunchi ber" deb baqirayotir:

Chiq uyingdan, Misqol momo,
To'lib-toshib bobom keldi.
Yugurib chiq, Yunus momo,
Ko'p sog'inib bobom keldi.

Oy Uzumko'z, ertaroq chiq,
Kelin olib uling keldi.
Uling bo'lsa mayli edi,
Sovg'a olib choling keldi.

Suyunchingni men ko'rayin,
Yaxshi bo'lsa men olayin,
Yomon bo'lsa ne qilayin,
O'zingga qaytib berayin.

Ey, Gulisora, ber suyunchi
Eson-omon yoring keldi.
Guliruxsor sen ham qara,
Mana menday Shodmon keldi, –

deyishib qichqirib borayotir, o'z uyidan ham suyunchi olayotir, Chambilning xalqi jam bo'lib, botirlarning oldiga jam bo'lib chiqayotir. Botirlar ham kelib, bir-biri bilan quchoqlashib ko'rishayotir. Uzumko'z ham Nuralini quchoqlab, iskayotir, kelining ham ko'nglini olayotir. Kelinini olib borib o'tovga kiritdi. Qirq kecha-kunduz to'y bo'ldi. Ko'pkarilar chopilib, chavandozlar boyib qoldi, kambag'allar to'yib qoldi, dostonimiz oxir bo'ldi. Ayt desangiz ham qirq doston qoldi, hamma murod-maqsadiga yetdi. Sizu biz ham murod-maqsadga yetaylik, bir og'iz xulosa etaylik:

Qodir baxshi aytdim tolib,
Yaxshilardir doim g'olib,
Malik Murod, Abdiolim,
Yozdi uzoq yo'ldan kelib.

Shunday shodlik zamon bo'lsin,
Elu yurtim omon bo'lsin.
Zamin tinchu, barcha millat
Bir-biriga mehmon bo'lsin.

MUNDARIJA

Oychinor dostoni.....	3
Zaydinoy.....	101
Jorxun maston.....	248

RESPUBLIKA BAXSHICHILIK SAN'ATI
MARKAZI QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

Qodir baxshi Rahimov

SAYLANMA

(Xalq dostonlari) 2 kitob

Muharrir: I. Ayniddinnov
Musahhih: S. Ayniddinov
Saxifalovchi: M. Nusratov

“KITOB NASHR” nashriyotri
Termiz shahri Islom Karimov
ko'chasi 62-uy

Tasdiqnoma: № 5300 (10.05.2021)
Terishga 20.04.2023 yil berildi.
Bosishga 22.05.2023 yil ruxsat etildi
bichim 84/60 80/rp ofesni bosma usuli
19,6 shart b.t. adadi 250

“ILM” мчж bosmaxonasida chop etildi.
Termiz shahri, Nodir ko'chasi, 6-uy.



ISBN 978-9943-7735-5-4

